



# **"CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH"**

- Applied sciences
- Chemical sciences
- Biological sciences
- Geography sciences
- Physical sciences
- Medical sciences
- Ecological sciences
- Pedagogical sciences
- Psychological sciences
- Mathematical sciences



**Research Science and  
Innovation House**

**«CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH» ilmiy konferensiyasi**

**30.04.2025-yil.**

Ushbu to‘plamda **«CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED  
SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH»** ilmiy konferensiyasi  
2025-yil 2-soni 4-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Zenodo,**  
**Open Aire, Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya  
etilgan jurnallar ro‘yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman  
tan olinadi.

**Asos:** O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining  
dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar  
ro‘yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar,  
doktarantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o‘qituvchilari, ilmiy  
xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin. Eslatma!  
Konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar,  
hisobotlar, ma’lumotlar haqqoniylikiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar  
shaxsan javobgardirlar.

**“RESEARCH SCIENCE AND  
INNOVATION HOUSE” MCHJ**



### **TAHRIRIYAT**

**Bosh muharrir,** Matsaidova Sayyora Xudayberganovna, Urganch davlat universiteti, Geografiya kafedrası, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Mas’ul kotib:** Sobirov Javoxir Xayrulla o‘g‘li O‘zbekiston Milliy universiteti 1-bosqich magistranti

**Nashrga tayyorlovchi:** Eshqorayev Samariddin Sadridin o‘g‘li Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi.

### **TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI**

1. **Rahimov Rahimboy Atajanovich,** Urganch davlat universiteti professori, Texnika fanlari doktori, Rossiya tabiiy fanlar akademiyasining Akademigi.
2. **Isayev Sabirjan Xusanbayevich,** “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, Irrigatsiya va melioratsiya kafedrası, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.
3. **Matyakubov Baxtiyar Shamratovich,** “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, “Irrigatsiya va melioratsiya” kafedrası professori, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.
4. **Norboyeva Umida Toshtemirovna,** Buxoro davlat universiteti, Ekologiya va geografiya kafedrası professori, DSc (Biologiya fanlari), professor.
5. **Matsaidova Sayyora Xudayberganovna,** Urganch davlat universiteti, Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti, Geografiya kafedrası, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.
6. **Xamroyev Muxtor Ozodovich,** Urganch davlat universiteti, Geografiya kafedrası, Geografiya fanlari nomzodi, dotsent.
7. **Matchanov Otabek Jumanazarovich** Urganch Davlat Universiteti, Texnika fakulteti Geodeziya, Kartografiya, kafedrası Dotsenti. Yo‘nalish - Tabiiy Geografiya.
8. **Djumaniyazava Muhayyo Xusinovna,** Urganch davlat Universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 02. Issue 04. April 2025**

9. **Djumayev Mamanazar Irgashevich** Pedagogika fanlari nomzodi, professor Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’limda matematika va uni o‘qitish metodikasi kafedrası , professori p.f.n.
10. **Qandov Bahodir Mirzaevich** Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrası PhD, dotsenti.
11. **Samandarov Ergash Iskandarovich**, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti Ekologiya va xayot faoliyati xavfsizligi kafedrası, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dosent.
12. **Egamov Baxtiyor Nurmetovich**, Urganch davlat universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.
13. **Rajabov Alibek Xushnudbekovich**, Urganch davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedrası, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
14. **Babajanova Sanabar Yuldashbayevna**, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrası, qishloq xo‘jalik fanlari bo‘yicha falsafa doktori-PhD., dotsent.
15. **Masharipov Adamboy Atanazarovich**, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrası dotsenti.
16. **Ismoilova Himoyat Matnazarovna**, Urganch davlat universiteti, Kimyo kafedrası, kimyo fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent.
17. **Ismayilova Intizar**, Urganch davlat Universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti Biologiya kafedrası, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dotsent.
18. **Razakova Rayxan Saylaubekovna** Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD.
19. **Ataullayev Zokir Maxsudovich**, Urganch davlat universiteti, kimyo kafedrası, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), kimyo kafedrası dotsenti.
20. **Raximova Xolisxon Maksudovna**, Urganch davlat universiteti, Biologiya kafedrası, biologiya fanlari falsafa doktori (PhD) , dotsent.

## BIOSFERA VA UNING CHEGARALARI HAQIDA TUSHUNCHALAR

**To'raqulova Visola**, Jizzax davlat pedagogika universiteti “Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta’lim” kafedrası o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada biosferaning mohiyati, uning tarkibi va geografik chegaralari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, biosfera elementlari, atmosfera, gidrosfera va litosfera bilan bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi. V.I.Vernadskiyning biosfera haqidagi qarashlari, hayotning kelib chiqishi haqidagi nazariyalar hamda ekologik barqarorlik muammolari keng yoritilgan. Maqola biosferaning inson faoliyati natijasida qanday o‘zgarishlarga uchrayotgani va ushbu jarayonlarning atrof-muhitga ta’siri masalasiga alohida e’tibor qaratadi.

**Kalit so‘zlar:** Biosfera, ekologiya, atmosfera, gidrosfera, litosfera, ekologik barqarorlik, V.I.Vernadskiy, ozon qatlami, biomassa, tirik moddalar.

Biosfera – Yer sharining tirik organizmlar yashaydigan qismi bo‘lib, unda tirik va notirik komponentlar o‘zaro chambarchas bog‘liq holda faoliyat yuritadi. Akademik V.I.Vernadskiy tomonidan ilmiy asoslangan biosfera tushunchasi bugungi kunda ekologiya fanining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Biosferaning tuzilishi, chegaralari va funksional xususiyatlarini o‘rganish insoniyatning atrof-muhitga bo‘lgan ta’sirini tahlil qilish, ekologik muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun muhimdir. Ushbu maqolada biosferaning tarkibi, uning energetik xususiyatlari hamda inson faoliyatining biosferaga ta’siri yoritiladi.

Biosfera – tirik mavjudotlar tarqalgan yer qobig‘idir. Uning tarkibi, tuzilishi va energetikasi tirik organizmlar faoliyati majmuasi bilan belgilanadi. Biosfera o‘zida tirik va notirik komponentlarni birlashtiradi hamda bir butunlikni tashkil etadi. Biosfera to‘g‘risidagi ta’limotni akademik V.I.Vernadskiy yanada rivojlantirgan.

Umuman, biosfera tushunchasi ikki xil ma’noda ta’riflangan. Birida biosfera Yerdagi barcha tirik organizmlarning majmuasi tarzida tushunilgan. V.I.Vernadskiy esa tirik va notirik tizimlarning o‘zaro ta’sirini o‘rganib, biosfera tushunchasini yangi ma’noda anglaydi. U biosferani tirik va notirik tabiatning birlik sohasi tarzida tushunadi.

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 04. April 2025

Olimning biosfera tushunchasini bunday talqin qilishi Yerda hayotning paydo bo‘lishi muammosiga bo‘lgan qarashlarini ifodalaydi. U bir necha variantlardan iborat:

- 1) hayot Yer paydo bo‘lgunga qadar yuzaga kelgan va uni butunlay qamrab olgan;
- 2) hayot Yer paydo bo‘lgandan keyin yuzaga kelgan;
- 3) hayot Yerning shakllanishi jarayonida yuzaga kelgan.

V.I.Vernadskiy uchinchi variantni ma’qullagan va bizning planetamizda qachonlardir hayot izlari yoki tiriklik namunasi bo‘lmagani haqida ishonchli ilmiy dalil yo‘qligini e’tirof etgan. Boshqacha aytganda, uning nazarida biosfera Yerda hamisha bo‘lgan. Shunday qilib, olim biosfera deganda Yerning nozik qobig‘ini tushungan. Undagi barcha jarayonlar tirik organizmlarning bevosita ta’sirida kechadi. Biosfera uzoq tarixiy davrlardan boshlab doimo rivojlanishdadir. U planetamizdagi hayot qobig‘ini, tirik organizmlarning o‘zaro chambarchas aloqa va munosabatlaridan iborat murakkab ekologik tizimlar majmuini tashkil etadi.

Atmosferada hayotning eng yuqori chegarasi 16-20 km balandlikdagi yupqa ozon qatlami bilan belgilanadi. Okeanlarning ham deyarli barcha qismida hayot mavjuddir. Yerning qattiq qismida hayot 3 km va hatto undan ham chuqurroqqa kirib borgan (neft konlaridagi bakteriyalar).

Atmosferada kislorodga Quyoshning ultrabinafsha nurlari ta’sirida ozon gazi hosil bo‘ladi. Ozon kislorodning uch atomi birikmasidan iborat. Ozonni ilk bor 1785 yilda gollandiyalik fizik Van-Marum havo orqali elektr uchqunlari o‘tkazilganda o‘ziga xos hid paydo bo‘lishi va oksidlovchi xossaga ega bo‘lishini topgan. Ozonning xossalari kislorodnikidan keskin farq qiladi.

Ozon havoda juda oz miqdorda bo‘ladi. Yer yuzasidan uzoqlashgan sayin ozon miqdori ortib boradi va 20-25 kmm balandlikda maksimumga yetadi. Oksidlovchi, dezinfeksiyalovchi va bakteriyalarni o‘ldiruvchi xossalarga ega bo‘lganligi uchun ichimlik suvini tozalashda, oziqovqat sanoatida, oksidlovchi sifatida yog‘ va qog‘ozni oqartirishda ham ishlatiladi. Ozonning havodagi konsentratsiyasi 5-10 %dan oshmasligi kerak, chunki ozon is gazi CO ga nisbatan ham zaharlidir.

Mezosfera va stratosferadagi atomar kislorod molekula holdagi kislorod bilan to‘qnashib, ozonni hosil qiladi, to‘lqin uzunligi 200-300 nm bo‘lgan fotonlarni yutadi. Bu juda muhim. Agar stratosferada ozon qatlami bo‘lmasa, yuqori energiyaga ega bo‘lgan qisqa to‘lqinli fotonlar Yer sathiga yetib qolar, undagi o‘simlik va hayvonlar bunday yuqori energiyali nurga bardosh berolmagan bo‘lar edi. “Ozon qalqoni” Yerda hayotni saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi. Lekin tovushdan tez uchadigan

samolyotlarning ichki yonish dvigatellaridan chiqadigan yuqori harorat atmosferadagi kislorod bilan azotning reaksiyaga kirishiga sabab bo'ladi, "Ozon qalqoni"ga salbiy ta'sir etishiga olib keladi. Sovitkichlar, purkovchi gaz balonchalaridan chiqadigan xlorftometan ham xuddi shunday ta'sirga ega. "Ozon teshigi" iborasi shular tufayli kelib chiqqan.

Yer sirtidan 10-50 km balandlikda joylashgan ozonli atmosfera qatlami ozonosferani tashkil etadi. Ozon 20-25 km balandlikdagi ozonosferada eng ko'p to'planadi. Ozonosferada ozonning hosil bo'lishi va uning balandlik bo'yicha tarqalishini fotokimyoviy nazariya tadqiq qiladi. Ozon Quyosh radiatsiyasini kuchli yutadi, shuning uchun Quyosh radiatsiyasining biologik jihatdan ancha faol qismi Yer sirtiga yetib kelmaydi. Radiatsiyani yutishi natijasida ozonosfera qatlamida temperatura ancha ko'tariladi. Ozonosferadagi ozonni tekshirish uchun optik asboblardan foydalaniladi. Ozonosfera ma'lumotlari Quyosh radiatsiyasining Yer atmosferasida yutilish tabiatni o'rganishda juda muhim.

Biosferani tarkibi, energetikasi tirik organizmlar faoliyati bilan chambarchas bog'langan. Biosferaga Yerning faqat hozirgi hayot tarqalgan ustki qismigina emas, balki boshqa geosferalarning tirik modda kirib boradigan hamda uning faoliyati ta'sirida qachonlardir qaytadan o'zgargan qismlari ham kiradi. Shu sababdan biosfera tirik organizmlarning faqat hozirgi yashash muhitini emas, balki qadimgi muhitni ham o'z ichiga oladi. Turli ma'lumotlarga ko'ra, Yerda 2,5 mln. turga yaqin tirik organizmlar tarqalgan. Shundan faqat 1/5 qismini o'simliklar tashkil qiladi. Hayvonlar orasida turlar soni jihatdan bo'g'imoyoqlilar birinchi, mollyuskalar ikkinchi, xordalilar uchinchi o'rinda turadi. Shu sababdan o'simliklar va hayvonot dunyosini ta'riflashda biomassa va biologik mahsuldorlik tushunchalaridan foydalaniladi. Tarkibi jihatidan biosfera moddasi tirik (organizmlar), biogen (tirik organizmlar barpo etgan mahsulotlar), biokos (biologik va anorganik jarayonlarning birgalikdagi ta'siri natijasida ham hosil bo'lgan) va kos (anorganik) moddalarga bo'linadi.

Bir turga mansub individlar, turlar guruhlari yoki jamoasining o'zi yashab turgan muhit yuzasi yoki hajmi birligiga mos keladigan umumiy massasi biomassa deb aytiladi. Biomassa ko'pincha ho'l yoki quruq modda massasi va boshqalarda ifodalanadi. O'simliklar biomassasi fitomassa, hayvonlar biomassasi zoomassa deyiladi. Biosferadagi tirik organizmlarning umumiy biomassasi quruq modda hisobida  $1,8 \cdot 10^{12}t$  dan  $2,4 \cdot 10^{12} t$  gacha boradi.

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 04. April 2025

Ma'lumki, inson hayoti tabiat bilan uzviy bog'langan. Tabiat insonni yaratdi, unga oziqa, joy, kiyim, qurol, olov, suv berdi. Tabiat inson o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi tabiat va uning turli yo'nalishdagi fanlarning kelib chiqishiga olib keldi. Tabiat va uning boyligini o'rganish borasida Aristotel, Al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Umar Xayyom, Leonardo da Vinchi, Galiley, Kopernik, Mirzo Ulug'bek, M.N.Lomonosov, J.L.Byuffen, J.B.Lamark, A.Gumboldt, Ch.Darvin, V.I.Vernadskiy kabi insoniyat farzandlari bordir.

Birinchi bora “Koinot” atamasini Abu Nasr Forobiy jamiyat tuzilishiga qo'llaydi. Ikkinchi bora Umar Xayyom “Koinot va uning vazifalari” kabi risolasida “Koinot” jamiyatning tuzilishida, undagi har bir shaxsning vazifalarini bayon qilishda ishlatadi.

Abu Rayhon Beruniy planetadagi qit'alarning joylanish haritasini chizadi, tabiatdagi hamma narsa tuproqdan yaratilgan, Yer esa Quyosh atrofida harakat qilishini izohlaydi. Bu ilmiy dalillarni Beruniy Yevropalik olimlar Kopernik va Galileydan 500 yil avval keltirib o'tgan.

A.R.Beruniy fikricha, o'simlik va hayvonlar o'rtasida kurash, ko'payish va avlod qoldirish uchun intilish tirik mavjudotlar hayotining asosini tashkil qiladi, tabiatdagi hamma narsa tabiiy qonunlarga bo'yinsungan holda yashaydi va o'zgarib turadi. “Barcha harakatlar materiyaga tegishlidir. Materiyaning o'zi esa jismlar shaklini vujudga keltiradi va o'zgartiradi. Binobarin, materiya yaratuvchidir”. A.R.Beruniyning “Materiya” atamasi XIX asrning oxiri XX asrning boshida yashagan rus olimi V.I.Vernadskiy tomonidan “Tirik moddalar” deb qabul qilinib, tabiatdagi hamma harakat va o'zgarish shu tirik moddalar harakati bilan bog'lanadi va ifodalanadi.

Yevropaning tabiatshunos olimi J.B.Lamark birinchi marta “Biosfera” atamasini fanga kiritib, uning asl ma'nosi hayot tarqalgan joyi va Yer yuzasida bo'layotgan jarayonlarga tirik organizmlarning ta'siridan iborat ekanligini ko'rsatadi. Avstraliyalik geolog olim Z.Zyuss Lamarkdan keyin “Biosfera” terminini ikkinchi bora fanga kiritadi va Yerdagi tiriklikning maxsus qobig'i deb izoh beradi.

Yer yuzasida tirik organizmlar ko'p, ular xilma-xil va turli zonalarda tarqalgandir. Yer yuzasining hayot tarqalgan qismi biosfera bo'lib, unga tirik organizmlar ta'sir qiladi. Biosfera planetaning eng katta ekosistemi sifatida ham qaraladi.

Biosfera odatda uch qatlamdan, ya'ni: atmosfera, listofera va suv qobig'i gidrosferadan iborat. Shunday qilib, biosfera Yer sharining organizmlar tarqalgan qismi bo'lib, ularning tarkibi, tuzili shva ular o'zgarib turish xususiyatlariga egadir.

Biosfera – Yer sharining eng muhim ekotizimi bo‘lib, unda barcha tirik organizmlar yashaydi va tabiiy jarayonlar sodir bo‘ladi. Olimlar tomonidan o‘rganilgan biosferaning tuzilishi, energetikasi va geografik chegaralari ekologik tadqiqotlar uchun katta ahamiyatga ega. Zamonaviy ekologik muammolar, jumladan, global isish, ozon qatlamining yemirilishi va atrof-muhitning ifloslanishi biosferaning muvozanatini buzmoqda. Inson faoliyatining biosferaga salbiy ta‘sirini kamaytirish uchun ekologik barqarorlik tamoyillariga amal qilish va atrof-muhitni muhofaza qilish choralarini kuchaytirish zarur.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Xolmo‘minov J. Ekologiya va qonun. T.: Adolat, 2000, 352 b.
2. To‘xtaev A.S. Ekologiya. T.: O‘qituvchi, 1988, 192 b.
3. Qudratov O. Sanoat ekologiyasi. T.: Tosh T va ESTI, 1999, 183 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: Adolat, 1992.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish” to‘g‘risidagi qonun, T.: Adolat, 1992.
6. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017. (tarjimasi asosida foydalanilgan)
7. Turakulova, Visola. "O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI “QIZIL KITABI” GA KIRITILGAN MURAKKABGULDOSHLAR OILASINI O‘RGANISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR." *Мир исследований* 3.3 (2021).
8. Bekmirzaev, MX, Turaqulova, VX, Pardaboev, SB, Xorozov, SJ, & Xolbo‘tayev, SM, SM Biologiya o‘qituvchilarini tayyorlash muammosi bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar tasnifi. *Xalqaro sog‘liqni saqlash fanlari jurnali* , 6 (S2), 1500-1506.
9. Uralov, AI, Turaqulova, VK, Esanqulova, DS, & Dusmuratova, FM Intrapopulation o‘zgaruvchanligi va allium bulbous turlarining reproduktiv strategiyasi variantlari (Amaryllidaceae).

**Minnatdorchilikning bilvosita ifodalanishi va uning nutq jarayoniga ta'siri**

**Mirjalol Olimovich Ziyayev**

**O'qituvchi**

**"Mendeleev" xususiy maktabi**

**Farg'ona, O'zbekiston**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada minnatdorchilikning bilvosita ifodalanish usullari lingvopragmatik jihatdan o'rganiladi hamda uning muloqot jarayonidagi kommunikativ funksiyalari tahlil qilinadi. Bilvosita minnatdorchilik ifodalari ko'pincha ijtimoiy-hissiy munosabatlarni mustahkamlashda, xushmuomalalik strategiyalarini shakllantirishda va yuz saqlash (face-saving) holatlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada pragmatik aktlar, kontekst va nutq vaziyatiga mos til birliklari orqali minnatdorchilikning bilvosita realizatsiyasi ko'rib chiqiladi. Turli madaniyatlar doirasida minnatdorchilikning ifodalanish shakllari qiyosiy tahlil qilinadi va bu orqali muloqotda mazmunning ochiq-berilishi darajasi va strategiyasi o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** minnatdorchilik, bilvosita ifoda, pragmatika, nutq akti, kommunikativ strategiya, xushmuomalalik, ijtimoiy kontekst, tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot

Nutqiy aktda kommunikativ maqsadning bilvosita ifodalanishi uning bevosita ifodalanishi holatlaridan tubdan farq qiladi. Bunday vaqtda so'zlovchining muayyan kommunikativ maqsadi uni ifodalashga xoslanmagan nutqiy akt orqali bilvosita voqelanadi. M.Qurbonova to'g'ri ta'kidlaganidek, “muayyan nutqiy akti uni ifodalashga xoslanmagan sintaktik struktura orqali bayon etishda bilvositalik sodir bo'ladi. Bunda ikki xil holat kuzatiladi: a) sintaktik strukturaning birlamchi ma'nosi saqlanib qoladi, unga qo'shimcha sintaktik ma'no yuklanadi. Boshqacha aytganda, ayni sintaktik struktura orqali u ifodalashga xoslangan axborot va qo'shimcha axborot bayon etiladi. Bunda ayni sintaktik strukturaning semantik ko'lami kengayadi; b) sintaktik strukturaning birlamchi ma'nosi butkul yo'qoladi, uning o'rnini o'zga sintaktik ma'no

egallaydi. Boshqacha aytganda, ayni sintaktik struktura orqali so‘zlovchi maqsadi bilan bog‘liq tarzda o‘zga axborot bayon etiladi”<sup>1</sup>.

Sh.Safarovning ta’kidlashicha, “Haqiqiy bilvosita mazmun ifodalanishi uchun so‘zlovchi biror narsaga ta’ma yoki ishora qilishi kerak bo‘ladi. Masalan, “Muqimiy teatriga qanday borishni bilmaysizmi?” gapini talaffuz qilayotgan shaxsning tinglovchidan teatr qayerda joylashganini so‘rash niyati yo‘q. Asl maqsad – tinglovchi unga teatrga qanday borishni tushuntirsin. So‘zlovchi ko‘zlayotgan ma’no aslida birlamchi nutqiy akt mazmunidir va bu mazmun gap semantik tarkibining kengayishi asosida yuzaga keladi”<sup>2</sup>.

Aniqlik, bilvositalik kommunikativ maqsadning o‘zga sintaktik struktura, ya’ni nutqiy aktda yashirin ifodalanishidir. So‘zlovchi kommunikativ maqsadining bilvosita ifodalanish xususiyati turli nutqiy aktlarda bir-biridan farqlanadi. M.Sobirovaning fikricha, “gazeta matnlarida muallif nutqiy tejamlilik va ommaga ta’sir ko‘rsatishning samarali usuli sifatida o‘z kommunikativ niyatini bilvosita muloqot tarzida tashkil etadi... Bilvosita nutqiy aktlarda propozitsional ma’no emas, balki illokutsiya yashirin ifodalanishi kuzatiladi. So‘zlovchining kommunikativ niyati implitsit ifoda shaklida bayon etiladi. Matbuotda muallif aniq muloqot vaziyatida o‘z kommunikativ niyatiga erishishda nutqiy aktlarning ba’zan bevosita (ekplitsit) usulidan foydalansa, gohida bilvosita (implitsit) ifodalash orqali muloqot samaradorligini ta’minlaydi”<sup>3</sup>.

So‘zlovchining minnatdorlik hissini bayon etishida bevosita yoki bilvosita usulni tanlashi muayyan tashqi omillar bilan bog‘liq. V.Xolmatovanning ta’kidlashicha, “nutqiy tuzilmaning u yoki pragmatik-modal variantini tanlashda asosiy vazifani muloqotdoshlarning ijtimoiy roli o‘taydi va ushbu rolni belgilovchilar qatoriga quyidagilar kiradi:

- 1) insonning tug‘ilishdan egallaydigan roli (jins, millat, elat);
- 2) ijtimoiy maqom (jamiyatda egallagan o‘rni);

---

<sup>1</sup> Курбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 28.

<sup>2</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 104.

<sup>3</sup> Собирова М. Газета матнларида нутқий актларнинг ифодаланиш усуллари // Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, – № 3 (32). – Б. 42-51.

3) ma'lum vaziyatda bajaradigan vazifasi. Shuningdek, kommunikantlarning yoshi, ma'daniyati va emotsional-ruhiy holati ham tanlovga ta'sir o'tkazadi"<sup>4</sup>.

Minnatdorchilikni ifodalashda ham qayd etilgan tashqi omillarning roli muhim o'rin tutadi.

O'zbek xalqi minnatdorlik hissini ba'zan bilvosita ifodalaydi. Muloqot jarayonida yuzaga kelgan nutqiy vaziyat, nutq egalarining ijtimoiy mavqeyi, jinsi, oila, jamoadagi roli, o'zaro munosabatlari xarakteri kabilar minnatdorlik hissining oshkora ifoda etilishiga yo'l bermasligi, uning yashirin ifodalanishiga ehtiyoj tug'dirishi mumkin. Demak, minnatdorchilikning bilvosita ifodalanishi bir qator tashqi omillarga bog'liq holda yuz beradi.

Minnatdorlik hissining bilvosita ifodalanishida kommunikativ maqsad yashirin tarzda yuzaga chiqadi. Nutqiy aktda minnatdorlik hissining bilvosita ifodalanishi so'zlovchining kommunikativ maqsadi, muloqot muhiti, nutq vaziyati, uning ijtimoiy mavqeyi, oiladagi roli, jinsi, jamiyatda shakllangan odob-axloq me'yorlari kabi omillar bilan bog'liq.

Nutq egalarining ijtimoiy mavqeyi turlicha bo'lgan holatlarda ham minnatdorchilikning bilvosita ifodalanishi kuzatiladi. Rahbarning qo'l ostidagi xodimiga minnatdorchiligi ko'pincha bilvosita ifodalanadi. Rahbar ijtimoiy masofani saqlash maqsadida har doim ham xodimiga minnatdorlik hissini oshkora ifodalayvermaydi. Bunday vaqtda u minnatdorchilik ifodalashning yashirin usulini tanlaydi. Bu holat unga muloqotni rasmiy ohangda davom ettirish imkoniyatini yaratadi.

O'zbek xalqi madaniyatida erkak kishi ayol kishiga, xususan, o'z turmush o'rtog'iga minnatdorlik hissini har doim ham oshkor qilavermaydi. U bunday vaziyatda imkon qadar minnatdorlik hissini bilvosita ifodalashga harakat qiladi. Albatta, bu holat o'zbeklarda oila boshlig'i hisoblangan erkak kishining o'z hissiyotlarini ochiq ifodalayvermasligi, bunga o'ziga xos odob-axloq belgisi sifatida qaralishi bilan bog'liq.

Nutqda minnatdorchilikning bilvosita ifodalanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan yana biri insonda hosil bo'lgan minnatdorlik hissining nihoyatda kuchliligi va uni ifodalashda muloqotdoshiga yaqin bo'lgan, uni shu darajaga keltirgan ulug'

---

<sup>4</sup> Холматова В. Нутқий актлар мазмунини воқелантирувчи воситалар // "Science and Education" Scientific Journal. – Коканд. 2023. – № 4. Issue 3. – Б.917-922.

insonlar, xususan, otasi, onasi, ustoziga ularning tarbiyasi, ta’limi uchun rahmat aytish taktikasidan foydalanishdir. Minnatdorchilikni bunday usulda bildirishda nutqiy akt tarkibida Otangga rahmat!, Ota-onangga rahmat!, Otangga ming rahmat!, Otangizga balli!, Ustozingizga rahmat!, Senga ta’lim bergan ustozingga rahmat! kabi sintaktik konstruksiyalar ishlatiladi. Bunday vaqtda shaxsga minnatdorlik bildirish uning otasi, onasi, ustoziga minnatdorchilik bildirish orqali bilvosita ifodalanadi. Masalan:

1. –**Otangizga rahmat!** Qilgan yaxshiligingizni hech qachon unutmaymiz. (So‘zl.) Baraka top, **ota-onangga rahmat**, qizim! (So‘zl.)

2. Shahodat mufti o‘rnidan turdi, Abdurahmonning yoniga kelib, orqasini qoqdi: ... – Seni **tuqqan onangg‘a va o‘qutg‘an ustozingga rahmat**. (A.Qodiriy. “Mehrobdan chayon”)

Ma’lumki, har qanday nutqiy akt so‘zlovchining muayyan kommunikativ maqsadini ifodalashga xizmat qiladi. Kommunikativ maqsad birdan ortiq bo‘lganda nutqiy akt poliintensional xususiyatga ega bo‘ladi. Ko‘pincha, nutqiy aktda bosh maqsad bevosita, ya’ni oshkora ifodalansa, qolgan kommunikativ maqsadlar yashirin tarzda bilvosita ifodalanadi.

Xarakterli jihati shundaki, nutqiy aktlarda turli kommunikativ maqsadlarga asoslangan mazmuniy munosabatlarning ifodalanishi til egalariga ularni tushunishlarida chalkashlikni keltirib chiqarmaydi. Bir nutqiy aktda boshqa aktlarga xos mazmuniy munosabatlarning bilvosita usulda yashirin ifodalanishi bunday nutqiy aktlarning mazmunini aniq tushunilishiga imkon yaratadi.

So‘zlovchi kommunikativ niyatini bilvosita ifodalar ekan, nutqiy aktda bevosita ifodalanuvchi mazmunning ham tinglovchiga to‘g‘ri etib borishini ta’minlashi, buning uchun nutqiy akt sintaktik strukturasi to‘g‘ri shakllantirishi, unda qo‘llanadigan til birliklarining imkoniyatlariga haqqoniy baho berishi lozim. O‘z navbatida tinglovchi ham ushbu nutqiy aktda nazardan tutilgan bosh va ikkinchi darajali maqsadlarni anglab yetishi lozim. Buning uchun unda til bilimi va undan foydalanish ko‘nikmasi mavjud bo‘lishi, shuningdek, nutq obyektiga haqida muayyan tasavvurlarga ega bo‘lishi zarur. Sh.Safarov to‘g‘ri qayd etganidek, “... har qanday bilvosita nutqiy aktning mazmunini anglash uchun tuzilmalarning birlamchi ma’nosini bilmoq kerak. “Qalamni olib bera olmaysizmi?” yoki “Aqlli bolasan-da, Rafiqjon!” kabi tuzilmalarning iltimos va kinoya

mazmunli nutqiy akt ekanligini bilish uchun tinglovchi (so‘zlovchi qatorida) ushbu turdagi gaplarning dastlabki ma’nosini oldindan o‘zlashtirgan bo‘lishi shart”<sup>5</sup>.

O‘zbek tilida minnatdorlik hissining ifodalanishida ham qayd etilgan holatlar kuzatiladi. Minnatdorchilikning bilvosita ifodalanishi boshqa nutqiy aktlar fonida amalga oshiriladi. Bunday vaqtda minnatdorchilik ifodasi ikkilamchi xarakterga ega bo‘ladi.

Ma’lumki, so‘zlovchi biror bir nutqiy akt turidan foydalanar ekan, unda turli kommunikativ maqsadlarga erishishni ko‘zlaydi. Bunday vaqtda nutqiy akt poliintensionallik belgisiga ega bo‘ladi. Masalan, minnatdorchilik nutqiy akti orqali so‘zlovchi nafaqat minnatdorlik hissini bayon qiladi, balki unga sabab bo‘lgan voqelik haqida ma’lumot beradi, uni tahlil qiladi, munosabat bildiradi. Bunday holatda minnatdorchilik nutqiy akti orqali xabar berish, munosabat bildirish, tahliliy baho berish kabi pragmatik vazifalar ham bajariladi. Albatta, bunday holatda nutqiy aktda minnatdorchilikni ifodalash maqsadi yetakchilik qilishi sababli u minnatdorchilik nutqiy akti sanaladi. Qolgan nutqiy harakatlar (xabar, munosabat bildirish, baholash aktlari) bilvosita, minnatdorchilik akti fonida yuzaga chiqadi.

O‘zbek tilida muloqot jarayonida so‘zlovchi minnatdorlik hissining boshqa nutqiy aktlar fonida bilvosita ifodalanishi quyidagi holatlarda kuzatildi:

**1. Minnatdorlik hissi tilak akti orqali bilvosita ifodalanadi.** Bunday vaziyatda nutq egasi tilak bildirish orqali minnatdorlik hissini namoyon qiladi. Masalan, Oллоh sizdan rozi bo‘lsin! tilak ifodalovchi nutqiy aktida so‘zlovchining minnatdorlik hissi ham sezilib turadi. Faqat minnatdorchilik tilak orqali yashirin tarzda yuzaga chiqadi. Muloqot jarayonida ko‘p ishlatiladigan Xudo rozi bo‘lsin!, O‘zi rozi bo‘lsin!, Sizni Oллоh siylasin! nutqiy aktlarida ham minnatdorchilik tilak orqali ifodalanadi.

Quyidagi she’riy parchada esa shoir eldoshlari qilgan yaxshilikka nisbatan tilak bildirish orqali ulardan minnatdor ekanligini izhor qilgan:

Eldoshlarim...

Ko‘nglimga tumorlar taqqan, eldoshlarim,

Ko‘nglimga jonimday yoqqan, eldoshlarim,

Eldoshlarim...

Kechadan omonlik tilayman sizga,

---

<sup>5</sup> Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 105.

Oq daryolar oqsini eshingizdan.

Kunduzdan omonlik tilayman sizga,

To‘danalar bo‘lay beshingizda.

Eldoshlarim... (E.Shukur. “Minnatdorchilik”)

**2. Minnatdorchilik hissi shukronalik akti orqali bilvosita ifodalanadi.** Bunda nutq egasi minnatdorchilik hissinini taqdiriga, Ollohga shukronalik bildirish orqali bayon qiladi. Nutqiy aktlar Shukur!, Ollohga shukur!, Yaratgan egamga shukur!, Taqdirimga shukur! kabi sintaktik konstruksiyalardan tashkil topadi.

Z.Karimovaning ta’kidlashicha, “shukur undov so‘zi arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, mamnunlik, qanoat hissinini bildiradi. Shukur so‘zi esa uning birlik shakli hisoblanadi. So‘zlashuv nutqida bu ikki variantning ishlatilishida farq sezilmaydi, minnatdorchilik hissinini bildirishda Ollohga nisbatan shukur, insonga nisbatan esa rahmat so‘zi qo‘llanadi<sup>6</sup>. Ammo muloqot jarayonida Ollohga nisbatan shukur, shukur so‘zlarining erkin almashinib qo‘llanishi kuzatiladi. Masalan:

Hayotimdagi eng so‘nggi sadoqatli kishim o‘laroq bir siz meni tashlab ketmadingiz! **Ollohga shukur!** (N.Qobul. “Yetti iqlim xoqoni yoxud ahd va taxt”)

Dunyo tilsimini ochadigan kalitni menga ato qilganligi uchun **Ollohga shukur**, ustozga tashakkur deyman. (M.Pardayev. “Ustoz otangdan ulug‘”)

Misollardan anglashiladiki, nutq egasi aslida muloqotdoshidan uni tashlab ketmaganligi uchun minnatdorchilik. Ammo minnatdorchilik hissinini Ollohga shukrona aytish orqali yashirin ifodalaydi.

Ba’zan so‘zlovchi taqdiriga ming bor ta’zim qilish orqali undan minnatdorchiligini bildiradi. Masalan:

**Va ming bor taqdirga ta’zim**, azizim,

Yaxshi-yomonimda yorliging uchun.

Peshonamda isming yozilgani va

Kaftim chizig‘ida borliging uchun... (G.Asqarova. “She’rlar”)

Ushbu she’riy parchada muallifning ming bor taqdiriga ta’zim qilishi undan shukronaligini anglatadi. Ushbu shukronalikka uning yoridan minnatdorchiligi sabab bo‘lgan. Ammo she’rda bunday minnatdorchilik hissi yashirin ifodalangan.

---

<sup>6</sup> Каримова З. Ўзбек ва инглиз тилларида сўз-гапларнинг социопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 111.

**3. Minnatdorlik hissi olqish akti orqali bilvosita ifodalanadi.** Bunda soʻzlovchi muloqotdoshini qilgan yaxshiligi, koʻrsatgan ehtiromi uchun olqishlaydi va shu orqali unga minnatdorchilik bildiradi. Masalan:

Akbar esa filbonidan minnatdor boʻlib:

– **Tasanno, Bhishan!** – derdi. – Bhishan Chandga bosh-oyoq sarupo, bir hamyon oltin hadya qilinsin! Hali bu botir mahavatga jogir ham inʼom etgaymiz! (P.Qodirov. “Humoyuk va Akbar”)

Matndan anglashiladiki, Akbar Mirzo filbonni olqishlash orqali unga minnatdorchiligini bildirgan.

Shundan soʻng Hamida bonu Humoyunga minnatdor koʻzlari bilan tikildi-da: – **Olijanob ish qildingiz, hazratim!** – dedi. (P.Qodirov. “Humoyun va Akbar”)

Ushbu misolda esa Hamida bonuning Humoyundan minnatdor boʻlganligi uning ishini olqishlashi fonida ifodalagan. Hamida bonuning minnatdor koʻzlari uning Humoyunga nisbatan hissiy munosabatiga oydinlik kiritishga xizmat qilgan.

**4. Minnatdorlik hissi vaʼda nutqiy akti orqali bilvosita ifodalanadi.** Soʻzlovchi oʻziga nisbatan amalga oshirilgan yaxshilik, koʻrsatilgan ehtirom kabilarga minnatdorchilik bildirar ekan, baʼzan ushbu yaxshilik, ehtiromni unutmaslikka vaʼda beradi. Bunday holatda uning eʼtibori ushbu vaʼdani aks ettirishga qaratiladi. Natijada nutqiy aktda vaʼda mazmuni birlamchi xarakterda boʻlib, minnatdorlik hissi yashirin ifodalanadi. Masalan:

– Oz boʻlsa, koʻp oʻrnida koʻrasizlar, **yaxshiliklaringizni hech esdan chiqarmaymiz,** – dedi unisi. (Q.Kenja. “Palaxmon toshlari”)

Anglashiladiki, soʻzlovchi yaxshilikni hech qachon esdan chiqarmaslikka vaʼda berish orqali yaxshilik qilgan kimsalardan minnatdor ekanligini bilvosita ifodalaydi.

**5. Minnatdorlik hissi xursandchilik akti orqali bilvosita ifodalanadi.** Soʻzlovchi muloqot jarayonida unga qilingan yaxshilik yoki koʻrsatilgan ehtirom, eʼtibordan xursandligini bildirishga eʼtiborini qaratganda, minnatdorlik hissini oshkora ifodalamasligi mumkin. Bunday vaqtda uning minnatdorlik hissi xursandchilik akti orqali yashirin ifodalanadi. Umuman, aytish mumkinki, minnatdorlik hissi koʻpincha ijobiy hissiyotlar – quvonch, hayratga tushish kabilar bilan birga namoyon boʻladi, ularga urgʻu berilishi, minnatdorlik hissining ikkinchi planga tushirilishiga olib keladi.

Quyidagi she'riy parchada shoirning o'ziga ko'rsatilgan yaxshiliklardan xursandligi, quvonchi aks etgan. Shoir xursandchiligini oshkor qilar ekan, eldoshlaridan minnatdor ekanligiga ishora qiladi:

Eldoshlarim...

Menga so'zlar bergan, menga kuy bergan,

Bir-biriga ulashgan qator to'y bergan,

Eldoshlarim...

Ming bora aylanay himmatingizdan,

Taqdir suyub bergan davlatingizdan,

Eldoshlarim... (E.Shukur. “Minnatdorchilik”)

Quyida berilgan nutqiy akt uch sintaktik konstruksiyadan tashkil topgan bo'lib, nutq egasining o'ziga ko'rsatilgan e'tibordan xursandligini aks ettirgan. Ushbu xursandchilik nutq egasining minnatdorlik hissi natijasida yuzaga kelgan bo'lib, bu hissiy munosabat nutqiy aktda bilvosita ifodalangan:

Men qari bo'rini yo'qlab kelganlaringizdan boshim osmonga etdi.  
E'tiborlaringizdan ko'kka yetgan boshimni egib, yerga tekkunga qadar ta'zimdaman.  
Bu yorug' olamda insonni inson yo'qlashidan ulug' ne'mat  
yo'qdir. (N.Qobul. “Yetti iqlim xoqoni yoxud ahd va taxt”)

**6. Minnatdorlik hissi e'tirof akti orqali bilvosita ifodalanadi.** Masalan:

Eldoshlarim...

Umringa, ko'nglinga ma'nilar bergan –

Davra-davra og'a-inilar bergan,

Eldoshlarim...(E.Shukur. “Minnatdorchilik”)

Ushbu she'riy matnda shoirning eldoshlari yaxshiligiga e'tirofi va uning fonida minnatdorchiligi aks etgan. Ammo nutqiy aktda shoirining eldoshlaridan minnatdorchiligi bilvosita ifodalangan.

**7. Minnatdorlik hissi rozilik akti orqali bilvosita ifodalanadi.** Inson o'zi qilgan yaxshiliklarning e'tirof etilishidan doimo xursand bo'ladi va bunday vaqtda e'tirofga nisbatan minnatdorlik hissini tuyadi. U qilgan yaxshiligiga rozi ekanligini bildirish orqali minnatdorlik hissini bilvosita ifodalaydi. Masalan:

Akbar Mohim enagani alohida ehtirom qilib: – Ulug' ena, siz menga qanday yaxshiliklar qilganingizni hech vaqt unutmagaymen, – dedi. – Sizga doim farzanddek oqibat ko'rsatish harakatidamen.

– Rost, hazratim, menga qilgan oliy inoyatlaringiz uchun oq sutimdan mingdan ming rozimen! (P.Qodirov. “Humoyuk va Akbar”)

Matndan anglashiladiki, enaga Akbar Mirzoga bergan oq sutidan roziligini bildirish orqali qilgan yaxshiliklari e’tirofidan minnatdor ekanligini yashirin ifodalagan.

**8. Minnatdorlik hissi baho akti orqali bilvosita ifodalanadi.** So‘zlovchining asosiy maqsadi minnatdorlik hissini bayon etishga emas, o‘ziga nisbatan qilingan yaxshilik, ehtiromni baholashga qaratilganda minnatdorlik hissini bayon etish ikkinchi darajaga tushib, bilvosita baho akti orqali ifodalanadi. T.V.Larina qayd etganidek, bunday vaqtda minnatdorlik implitsit tarzda yuzaga chiqadi, chunki unda emotsional baho oddiy “rahmat”dan muhimroq bo‘ladi<sup>7</sup>. Masalan:

Hammasi juda zo‘r, ajoyib tadbir bo‘ldi! (So‘zl.)

Ushbu nutqiy aktdan anglashiladiki, so‘zlovchining minnatdorlik hissi tadbirga baho berishi fonida yashirin ifodalangan.

Z.Karimova ingliz va o‘zbek xalqlarida taomga minnatdorchilik bildirish madaniyatini qiyoslab, shunday xulosaga kelgan: “Ingliz tili egalari taom tanovul qilgach, o‘z minnatdorchiliklarini, asosan, “Ovqat uchun rahmat, azizam!” ifodasi orqali ma’lum qilishadi. Lekin o‘zbek oilalari berilgan taom uchun minnatdorlik hissini “Ovqat shirin chiqibdi, qo‘llaringiz dard ko‘rmasin”, “Ovqat mazali bo‘libdi, mazza qildik” kabi ifodalar orqali bildirishni afzal ko‘rishadi. Bu kabi kalimalar ko‘pincha ovqat tayyorlagan uy bekalariga, kelinlarga qarata aytiladi. O‘zbek oilalarida ovqatga berilgan mana shunday ijobiy baho minnatdorlik ifodasini anglatadi”<sup>8</sup>. Albatta, bunday vaziyatda ham o‘zbek tilida minnatdorchilik akti bilvosita ifodalanadi. O‘zbeklar taom uchun ochiqdan ochiq minnatdorchilik bildirmasdan, taomga baho berish orqali hissiy munosabatlarini bildirishni xush ko‘radilar.

**9. Minnatdorlik hissi xabar akti orqali bilvosita ifodalanadi.** So‘zlovchi o‘z nutqida o‘zganing uning biror kimsaga minnatdorchilik bildirganligi xususida ma’lumot berib o‘tganda ushbu shaxsning minnatdorlik hissi bevosita yuzaga chiqmaydi. So‘zlovchining asosiy maqsadi xabar berish bo‘lganligi sababli

---

<sup>7</sup> Ларина Т.В. Категория вежливости и стиль коммуникации. Сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций. – М.: Рукописные памятники Древней Руси, 2009. – С. 343.

<sup>8</sup> Каримова З. Ўзбек ва инглиз тилларида сўз-гапларнинг социопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 112.

minnatdorchilik xabar fonida bilvosita ifodalanadi. Masalan, Abdurahmon mahdunga **rahmat aytdi** va ketish uchun qo‘zg‘aldi. (A.Qodiriy. “Mehrobdan chayon”) nutqiy aktida Abdurahmonning mahdunga bildirgan minnatdorlik hissi xabar shaklida bildirilgan.

Ba’zan nutq egasi xabar aktida minnatdorchilik bilan, minnatdor ohangda kabi birliklar orqali ham minnatdorlik hissini bilvosita ifodalashi kuzatiladi:

– Bu yaxshilik arzadan ham burun mirzaboshidan bo‘ldi, deb o‘yladim. Balalarning kengashi bilan ikki bo‘zni ko‘tarib shom paytida mirzaning uyiga bordim. Chaqirdim, chiqdi. **Minnatdorchilik bilan ikki bo‘zni uzatdim**; asti olsa-chi. (A.Qodiriy. “Mehrobdan chayon”)

**10. Minnatdorlik hissi tasdiq akti orqali bilvosita ifodalanadi.** Ba’zan so‘zlovchi amalga oshirilgan yaxshilik yoki ko‘rsatilgan ehtirom haqidagi muloqotdoshining axborotini tasdiqlash orqali o‘zining ushbu yaxshilikdan minnatdor ekanligini bildiradi. Bunday vaqtda uning asosiy e‘tibori uzatilayotgan axborotni tasdiqlashga qaratilib, minnatdorlik hissini bildirishi ikkinchi planga o‘tadi. Shu tariqa so‘zlovchining minnatdorlik hissi tasdiq akti orqali bilvosita ifodalanadi. Masalan:

... garchi o‘zi rizoliq bermasa ham bir necha mirzolar shogirdingiz mirzo Anvarning ham nomzadini xolis ariza bilan janobga manzur qilg‘an edik. Umid Xudodan, yorlig‘ mirzo Anvarga qoyim bo‘lur, deb turamiz...

– **Bir necha yaxshilarning Anvarga bo‘lg‘an husni tavajjuhlarini eshitkan edim**, – dedi mahdum minnatdor ohangda... (A.Qodiriy. “Mehrobdan chayon”)

“Bir necha yaxshilarning Anvarga bo‘lg‘an husni tavajjuhlarini eshitkan edim” nutqiy aktida mahdumning Anvar mirzo nomzodi xonga tavsiya qilinganligini tasdiqlashi aks etgan. Yozuvchi izohida keltirilgan minnatdor ohangda birikmasi mahdumning ushbu nutqiy akt orqali minnatdorchilik bildirganligini anglatadi.

**11. Minnatdorlik hissi raddiya akti orqali bilvosita ifodalanadi.** Adresant bildirilgan biror bir taklif, ko‘rsatilmog‘chi bo‘lg‘an xizmat turini rad etsa-da, ushbu taklif, xizmat uchun minnatdorlik hissini sezdirishni istaydi. Bunda uning xatti-harakati, mimik ifodasi, ko‘z qarashlari orqali minnatdorlik hissi bilvosita ifodalanadi. Yozma nutqda bunday minnatdorchilik ifodasini aks ettirishda minnatdor ohangda, minnatdor holda kabi minnatdorchilik holatiga ishora qiluvchi birikmalardan foydalaniladi. Masalan:

– Senga ham konsertga bilet olaymi?

Ergash minnatdor ohangda: “**Men bora olmayman!**”, – dedi. (So‘zl.)

Shunisi xarakterliki, o‘zbeklarda raddiya, ya’ni inkorni ifodalashda rahmat so‘zidan foydalanilishi ko‘p kuzatiladi. Bunday vaqtda inkor minnatdorchilik nutqiy akti orqali bilvosita ifodalanadi. Qiyoslang:

– Kuzatib boraymi? – dedi injener.

– **Rahmat!** – Sherzod bosh chayqadi. – Kaska bersangiz bo‘ldi. O‘zim topib olaman. (O‘.Hoshimov. “Nur borki, soya bor”)

Mazkur dialogik matnda nutq egasi ko‘rsatilgan taklifni rad etishda Rahmat! nutqiy aktidan foydalangan. Ushbu nutqiy aktning inkorni ifodalashda qo‘llanganligi bosh chayqadi birligi orqali anglashiladi. So‘zlovchi nutqiy odob yuzasidan taklifga minnatdorchilik bildirish orqali uni rad etgan.

Quyidagi misolda ham nutq egasi taklifni rad etishda minnatdorchilik nutqiy aktidan foydalangan:

Sayfi Soqiyevich tumbochka ustiga gazeta yozib, patir, yaproq-yaproq to‘g‘ralgan qazi tayyorlab qo‘ygan ekan.

– O‘tiring, – dedi u Sherzodga qaramay. Chamasi, boyagi keskinlikning zahri xiyla ko‘tarilgan edi.

– **Rahmat!** – Sherzod samimiy ohangda tashakkur bildirdi. – **Hozir kechki ovqatga boramiz.** (O‘.Hoshimov. “Nur borki, soya bor”)

Z.Karimova bu tipdagi gaplarda ifodalangan raddiyani “andisha sababli o‘zbeklar juda ko‘p vaziyatlarda dilidagi gaplarini oshkora ifoda eta olishmasligi, bildirilgan taklifni inkor qilishda suhbatdoshining ko‘nglini ranjitmaslik maqsadida biror bahona topib qo‘ya qolishlari” bilan izohlaydi.<sup>9</sup>

**12. Minnatdorlik hissi noverbal vositalar orqali bilvosita ifodalanadi.** Og‘zaki nutqda minnatdorchilik nutqiy aktlariga ko‘pincha noverbal vositalar hamrohlik qiladi.

Ma’lumki, inson minnatdorchilik bildirishda noverbal xatti-harakatlardan doimo foydalanavermaydi, ammo uning minnatdorchilik hissi, hech bo‘lmaganda, yuz mimikasida, ko‘z qarashida, tabassumida bevosita namoyon bo‘ladi.

Insonning minnatdorlik hissi bu tarzda ifodalanganda nutqiy akt minnatdorchilikni ifodalovchi noverbal vositalardan tashkil topadi. Yozma nutqda so‘zlovchi bunday minnatdorlik hissini aks ettirish uchun qo‘l bilan yelkasini qoqmoq, kaftini ko‘ksiga qo‘ymoq, qo‘lini ko‘ksiga qo‘ymoq, samimiy tabassum qilmoq, nim tabassum qilmoq,

---

<sup>9</sup> Каримова З. Ўзбек ва инглиз тилларида сўз-гапларнинг социопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 114.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 02. Issue 04. April 2025**

qo‘zi bilan minnatdorchilik bildirmoq, bosh egib ta‘zim qilmoq birliklaridan foydalanadi. Bunday vaqtda nutqiy aktda minnatdorchilikni ifodalovchi maxsus leksik, grammatik vositalar o‘rnini minnatdorchilikni bildiruvchi xatti-harakatlar ifodasi egallaydi. Masalan:

Yo‘ldosh Oxunboboyev shaxsan o‘zi kelib, **yelkamga qoqdi!** Shaxsan o‘zi kelib, ko‘kragimga nishon taqdi! (T.Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”)

Berilgan matnda yelkaga qoqmoq harakatining minnatdorchilikni anglatishi oldingi jumlada qo‘llangan “Kattalar raisligimdan minnatdor bo‘ldi” nutqiy akti orqali anglashiladi.

Muloqot jarayonida minnatdorlik hissining ko‘z qarash orqali bilvosita ifodalanishi ham kuzatiladi. Yozma nutqda uni ifodalashda ko‘z bilan minnatdorchilik bildirmoq birikmasidan foydalaniladi. Masalan:

Salim oltin piyolaga quyilgan muzdek obihayotni ichib, ancha tetiklandi. Otasiga **minnatdor ko‘zlar** bilan qarab dedi:

– Hazrat otajon, sizdan ham, munis onajonlarimdan ham yashiradigan sirim yo‘q. Sizning dushmanlaringiz – mening ham dushmanimdirilar ... (P.Qodirov. “Humoyun va Akbar”)

Minnatdorchilik nutqiy akti til vositalari bilan hosil qilinganda ularga hamroh bo‘lgan noverbal vositalar minnatdorlik hissini kuchli ifodalashga, uning ta‘sir darajasini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Quyidagi misollar tahliliga e‘tibor qaratamiz:

Nizom quvonch va hayajon ichida o‘rnidan turib Humoyunga **ta‘zim bilan minnatdorchilik bildirdi.** (P.Qodirov. “Humoyun va Akbar”)

**Rahmat, qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi Ibroyim.** Bu yaxshiligingizni unutmayman. (A.Yo‘ldosh. “Meni sindirishdi...”)

Berilgan misollardan anglashiladiki, minnatdorchilik mualliflari o‘zida hosil bo‘lgan minnatdorlik hissini izhor qilishda ta‘zim qilish, qo‘lni ko‘ksiga qo‘yish xatti-harakatlaridan samarali foydalanishgan. Bunday harakatlar minnatdorchilikning chin yurakdan hamda astoydil bildirilganligini ifodalashga xizmat qilgan.

Quyidagi misolda esa kaftini ko‘ksiga qo‘ymoq harakati bildirilgan rahmatni mazmunan to‘ldirishga xizmat qilgan:

Salomlashganda terakdek qomatini ikki bukib, mavrid-bemavrid **“katta rahmat”** deya **kaftini ko‘ksiga qo‘yib turadi.** (E.A‘zam. “Pakananing oshiq ko‘ngli”)

Xullas, o‘zbek tilida insonning minnatdorlik hissi boshqa nutqiy aktlar fonida bilvosita usulda ifodalanadi. Bunday vaqtda minnatdorchilik yashirin xarakterga ega bo‘lib, nutqiy aktning semantik jihatdan murakkablashuviga sabab bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 28.
2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 104.
3. Собирова М. Газета матнларида нутқий актларнинг ифодаланиш усуллари // Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, – № 3 (32). – Б. 42-51.
4. Холматова В. Нутқий актлар мазмунини воқелантирувчи воситалар // "Science and Education" Scientific Journal. – Коканд. 2023. – № 4. Issue 3. – Б.917-922.
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 105.
6. Каримова З. Ўзбек ва инглиз тилларида сўз-гапларнинг социопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 111.
7. Ларина Т.В. Категория вежливости и стиль коммуникации. Сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций. – М.: Рукописные памятники Древней Руси, 2009. – С. 343.
8. Каримова З. Ўзбек ва инглиз тилларида сўз-гапларнинг социопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 112.
9. Каримова З. Ўзбек ва инглиз тилларида сўз-гапларнинг социопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 114.

## "MUNOJOT" QISSASIDAGI MODERNISTIK TALQINLAR

**Gulhayo Baxranova**

Magistrant,

Samarqand davlat universiteti, O‘zbekiston

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo‘lgan Isajon Sulton qalamiga mansub “Munojot” qissasi modernistik estetik mezonlar asosida tahlil qilinadi. Asarda inson ichki dunyosi, ekzistensial iztiroblar, yolg‘izlik, hayot ma’nosini izlash kabi g‘oyaviy-falsafiy qatlamlar ochib beriladi. Modernizmning asosiy badiiy usullari – ichki monolog, psixologik analiz, ong oqimi, badiiy vaqtning nisbiyligi va metaforik obrazlar tizimi orqali asarning modernistik xususiyatlari yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** *modernizm, ichki monolog, ekzistensializm, ong oqimi, metafora, zamonaviy o‘zbek adabiyoti.*

O‘zbek modern nasrida XX asr oxiri va XXI asr boshlarida badiiy-estetik izlanishlar kuchaydi. An’anaviy syujet-voqealilikdan ko‘ra, inson psixologiyasi, ichki kechinmalari, zamonaviy jamiyatda o‘z o‘rnini topishga bo‘lgan harakatlari adiblar diqqat markaziga aylandi. *Isajon Sultonning “Munojot”* qissasi ham aynan shunday izlanishlar mahsulidir. Asarda modernizm adabiy yo‘nalishiga xos estetik unsurlar chuqur ifoda topgan.

Qissa markazida turuvchi asosiy g‘oya bu — insonning o‘zini anglashga, ichki iztiroblarini tushunishga bo‘lgan intilishidir. Asardagi bosh qahramon jamiyatdagi mavjud me‘yorlarga, an’anaviy qadriyatlarga moslasha olmayotgan ruhiy notinch, ichki bo‘linishga uchragan individ sifatida gavdalanadi. Uning o‘y-xayollari, tushkunligi, hayotiy izlanishlari voqealilikdan ko‘ra, ko‘proq ruhiy kechinmalar fonida tasvirlanadi. Bu holat modernizm estetikasi bilan bevosita bog‘liqdir. Zero, modernizm — tashqi haqiqatdan ko‘ra, ichki olamni, odamning sub’ektiv holatini ifodalashga intiluvchi adabiy oqimdir.

Isajon Sulton asarning umumiy qurilmasini ham aynan shunday modernistik tamoyillarga asoslagan. Voqelik bayoni vaqt va makon jihatidan izchil emas; muallif an’anaviy syujet-sistemadan voz kechadi. Qahramonning ichki monologi, ong oqimi

orqali hikoya yuritiladi. O‘tmish, hozirgi zamon va tasavvurdagi kelajak bir vaqtda inson tafakkuri doirasida yuz beradi. Bu esa vaqt va makonning nisbiyligi, badiiy zamonning sub’ektiv talqini modernistik adabiyotdagi asosiy yondashuvlardan biri ekanligidan dalolat beradi. Qahramon o‘z hayot yo‘lini, boshidan kechirgan iztiroblarini, o‘zini anglash yo‘lida qilgan harakatlarini xotiralar, tushlar, ongsiz ravishda yuzaga chiqayotgan tasavvurlar orqali o‘quvchiga yetkazadi. Bu holat XX asr adabiyotidagi ong oqimi texnikasini eslatadi.

Qissaning g‘oyaviy-falsafiy asosida ekzistensializm yotadi. Asar qahramoni ko‘plab savollar bilan yuzlashadi: “Men kimman?”, “Bu hayotda nima uchun yashayapman?”, “Hayotimning ma’nosi bormi?” — bunday savollar ekzistensial falsafaning asosiy mezonlaridandir. Bosh qahramonning yolg‘izligi, jamiyat bilan o‘zaro begonalashuvi, ichki tortinchoqligi va g‘am-anduhlar girdobida bo‘lishi, uning insoniy mavjudlikni anglashdagi ruhiy kurashini ifodalaydi. U tashqi dunyo bilan emas, o‘zi bilan kurash olib boradi. Bu holat qahramonning ruhiy portretini ancha murakkablashtiradi va uni soddalashgan an’anaviy obrazlardan tubdan ajratadi.

“Munojot” — bu nomning o‘zi ham ramziy ma’noga ega. U nafaqat iltijo yoki duo, balki qahramonning ichki nidosi, o‘z vijdoni bilan yuzma-yuz qolgan holati, ruhiy inqiroz chog‘idagi so‘nggi ichki hayqirig‘i sifatida talqin etiladi. Bu jihatdan qissa diniy-falsafiy qatlamga ham ega bo‘lib, unda muqaddaslik va gunoh, najot va halokat, tavba va imonsizlik kabi tushunchalar badiiy ifodasini topadi. Biroq bu tushunchalar an’anaviy diniy doirada emas, balki zamonaviy, modernist kontekstda, inson ongining shakllanishida namoyon bo‘ladi.

Asarda ko‘plab badiiy vositalar, jumladan, metafora, timsollar orqali chuqur ma’no berilgan. Masalan, qorong‘ilik tasviri — bu nafaqat fiziki holat, balki qahramon qalbining holati, ichki iztiroblarning ifodasi, ko‘ngildagi yo‘qsizlikdir. Yoki ko‘zguga qarash manzarasi — insonning o‘zini tanimasligi, ruhiy begonalashuv, shaxsiyligining parchalanishini anglatadi. Qahramon hayotda o‘z joyini topa olmaydi; bu holat uning ijtimoiy emas, ruhiy va falsafiy sirtmoqlarga mahkum bo‘lganligini bildiradi.

Qissadagi badiiy til ham modernizm estetikasi bilan uyg‘undir. Muallif poetik-parcha til uslubiga murojaat qiladi, dialoglar kam, asosan monologik tasvirlar ustuvor. Hikoya uslubi lirizmga moyil bo‘lib, sarlavhalar yoki boblar orqali emas, balki hissiyotlar oqimi orqali bo‘linadi. Bu esa asarni o‘quvchiga yanada chuqurroq, ichki ruhiyatni his qilish orqali tushunishga undaydi.

Shuningdek, qissada tashqi voqealar kam, lekin ruhiy jarayonlar murakkab va ko‘p qatlamli. Har bir jumla, har bir metafora orqasida kutilmagan ramzlar, yangi g‘oyalar yashiringan. Bu o‘quvchidan faqat kuzatuvchanlikni emas, balki talqin qilish, his qilish, izlash, mushohada yuritish qobiliyatini talab qiladi. Isajon Sulton o‘z asarida an’anaviy qahramon yaratmaydi, balki “tashqi dunyoga yot” inson timsolida yangi adabiy tipni taklif etadi. Bu yangi tip – zamonaviy insonning badiiy ifodasidir.

“Munojot” qissasining yutuqlaridan yana biri shuki, u nafaqat badiiy jihatdan, balki falsafiy-estetik mezonlar asosida zamonaviy adabiyotda yangi ufqlar ochadi. U o‘zbek adabiyotida modernizmning shakllanishi va rivojlanishida muhim bosqichdir. Bu asar orqali adib nafaqat zamonaviy insonning ruhiy dunyosini ko‘rsatadi, balki adabiyotning o‘zi ham bir tafakkur shakli, ruhiy izlanish maydoni ekanligini isbotlaydi.

“Munojot” qissasini modernistik estetikada tahlil qilish bilan birga, undagi boshqa muhim qatlamlarni ham e‘tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Avvalo, qissada yashirin, ramziy va falsafiy tarzda ifodalangan *ijtimoiy tanqid* kuchli. Asarda jamiyatdagi beqarorlik, qadriyatlar inqirozi, insoniylikning yo‘qolib borayotgani, axloqiy mezonlarning so‘nishi o‘ziga xos tarzda ko‘rsatiladi. Qahramonning jamiyatdan begonalashuvi, boshqa odamlar bilan samimiy muloqot qila olmasligi, hatto o‘zini o‘zi anglay olmayotgani ijtimoiy tizimda mavjud bo‘lgan ruhiy bosim va mohiyatsiz hayot tarzining oqibatidir. U ko‘rinishidan o‘ziga to‘q, oddiy hayot kechirayotgan insonlar orasida yashaydi, ammo bu tashqi muvozanat ichki iztirob bilan mutanosib emas. Jamiyatdagi yolg‘on, ikkiyuzlamachilik, ma’naviy bo‘shliq qahramonning ruhida halokatli inqirozga sabab bo‘ladi. Bu holda muallif tanqidni bevosita emas, balki psixologik qiyofa orqali, ruhiy portretlar va badiiy tasvirlar vositasida ilgari suradi. Aynan mana shu nozik uslub Isajon Sulton ijodini chuqur, ko‘p qatlamli va zamonaviy adabiyot darajasiga olib chiqadi.

Shuningdek, “Munojot”da tasvirlangan qahramon holati *ruhiy patologiya* darajasiga yaqinlashtirilgan. U nafaqat tushkunlikda, balki doimiy xavotir, depressiv holat, hayotdan maqsad topolmaslik, real va irreal dunyo o‘rtasidagi chiziqlarning yo‘qolishi holatida yashaydi. Qahramonning ongida kechayotgan ichki ziddiyatlar klinik darajadagi nevrotik buzilishlarni eslatadi. U ba’zida o‘zini anglamaydi, ba’zida esa o‘zidan chiqib, o‘zini kuzatadi. Bu disassotsiatsiyalashgan ong holati adabiyotda ruhiy iztirobning chuqur ifodasi sifatida talqin etiladi. Isajon Sulton bu ruhiy buzilish holatlarini tibbiy atamalar yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’riflar bilan emas, balki badiiy

obrazlar, metaforalar va psixologik detallar orqali ochib beradi. Bu holat ruhiy patologiyani adabiy estetik darajasiga ko‘taradi.

Yana bir muhim jihat — qissaning *postmodernizm bilan aloqasi*. Har necha qissa an’anaviy syujetdan va an’anaviy badiiy qurilmadan voz kechgan bo‘lsa-da, uni faqat modernistik asar deb chegaralash noto‘g‘ri bo‘ladi. Unda postmodern adabiyotga xos ayrim belgilar ham mavjud. Masalan, intertekstual unsurlar, mavjud matnlar va g‘oyalar bilan ichki muloqot, muallif pozitsiyasining noaniqligi, ironiya va ochiq final — bular postmodernist estetikaga xos elementlardir. Qahramon hayotning asl mohiyatini topmoqchi bo‘ladi, lekin topa olmaydi — bu izlanish yo‘qotilganligini anglash bilan yakunlanadi. Bu holat g‘arbiy postmodern nasrda “ma’no o‘limi”, “haqiqat bo‘shligi” deb ataluvchi tushunchalarga yaqin turadi.

Muallif qahramonini turli vaqt va makonlarda sarson qilarkan, unga bir aniq yo‘l, bir aniq haqiqatni bermaydi. Bu, o‘z navbatida, postmodernizmning “ko‘plik”, “fragmentlik”, “haqiqatning nisbiyligi” degan falsafiy-estetik mezonlarini aks ettiradi. “Munojot”da bir yo‘nalma, bir g‘oya ustuvor emas — har bir fikr, har bir metafora boshqa yo‘nalishga olib kiradi. Bu esa asarning har bir o‘quvchida turlicha taassurot uyg‘otishi, talqinlar ochiqligi postmodernistik yondashuvga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, “Munojot” qissasi nafaqat modernizm, balki zamonaviy adabiyotdagi ijtimoiy tanqidiylik, inson ruhiyatidagi patologik holatlar va postmodernist adabiy tafakkur shakllari bilan ham uyg‘unlashgan mukammal asardir. Isajon Sulton bu asari orqali o‘zbek adabiyotini nafaqat milliy kontekstda, balki jahon adabiy jarayonlari bilan ham mushohadalash imkonini bergan holda yangi badiiy bosqichga olib chiqdi. Shu sababli “Munojot” qissasi zamonaviy o‘zbek adabiyotining eng chuqur, ko‘p qatlamli, va talqinlarga boy asarlaridan biri sifatida alohida baholanishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Султон И. Муножат. – Ташкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, нашр йили кўрсатилмаган. – 112 б.
2. Каримов С. Замонавий ўзбек насрида бадий тафаккур ривож. – Т.: Фан, 2015. – 264 б.
3. Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – 320 б.
4. Hassan I. The Dismemberment of Orpheus: Toward a Postmodern Literature. – Oxford: Oxford University Press, 1971. – 262 p.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 02. Issue 04. April 2025**

5. Sartre J.-P. Existentialism Is a Humanism. – New Haven: Yale University Press, 2007. – 128 p.
6. Eagleton T. Literary Theory: An Introduction. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 2008. – 248 p.
7. Faulkner W. The Sound and the Fury. – New York: Random House, 1929. – 326 p.
8. Мирвалиев М. Адабий танқид назарияси ва амалиёти. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. – 288 б.
9. Lyotard J.-F. The Postmodern Condition: A Report on Knowledge. – Minneapolis: University of Minnesota Press, 1984. – 110 p.
10. Шукуров Н. XX аср жаҳон адабиёти ва эстетик тафаккури. – Т.: Академнашр, 2013. – 292 б.
11. Said E. Orientalism. – New York: Pantheon Books, 1978. – 368 p.
12. Kristeva J. Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art. – New York: Columbia University Press, 1980. – 312 p.
13. Баҳодиров Т. Исажон Султон ижодида бадиий тафаккур ўзига хослиги // Ўзбек тили ва адабиёти. – 2020. – №2. – Б. 87–91.

**Research Science and  
Innovation House**

ИЗМЕНЕНИЯ И РЕФОРМЫ В ОБРАЗОВАНИИ ДЛЯ ЛИЦ С  
ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ В УЗБЕКИСТАНЕ В 1941-1991  
ГОДЫ

Галиев Салават Вильданович

Гулистанского государственного университета Докторант

[galievsalavat@gmail.com](mailto:galievsalavat@gmail.com)

**Kalit so‘zlar:** Ikkinchi jahon urushi , SSSRda nogironlarini ijtimoiy himoya qilish, nogironlar uchun ta'lim, urush nogironlari faxriylarini qayta tayyorlash, SSSR nogironlari maktablari, ko'zi ojizlar va kar bolalar maktablari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, Sovet ta'lim tizimi, O'zbekistondagi nogiron bolalar uchun ta'lim

**Keywords:** World War II, social protection of disabled people in the USSR, education for people with disabilities, retraining of war veterans, schools for disabled people in the USSR, schools for blind and deaf children, specialized boarding schools, Soviet education system, education for children with health disorders, school education in Uzbekistan after the war.

**Ключевые слова:** вторая мировая война, социальная защита инвалидов СССР, образование для людей с ограниченными возможностями, переобучение инвалидов войны, школы для инвалидов СССР, школы для слепых и глухих детей, специализированные школы-интернаты, советская система образования, образование для детей с нарушениями здоровья, школьное образование в Узбекистане после войны.

Вторая мировая война остро поставила вопрос о лицах с ограниченными возможностями в СССР. Согласно последним данным, в годы войны 3,8 миллиона человек были демобилизованы из рядов Красной Армии из-за ранений и болезней, из которых 2,6 миллиона стали инвалидами. В послевоенный период во всех республиках страны, в том числе в Узбекистане, различные государственные учреждения должны были организовать жизнь инвалидов Великой Отечественной войны. С учетом болезней и ранений требовалось создать санатории и интернаты, места для лечения и отдыха. Еще во времена войны были предприняты меры для облегчения получения образования для таких людей. В частности, дети военных, демобилизованных из-за ранений, дети

погибших на фронте, а также дети инвалидов I и II группы, инвалиды-студенты и дети инвалидов-учителей освобождались от оплаты за обучение.[1] Указом Совета Народных Комиссаров СССР от 6 мая 1942 года "О трудоустройстве инвалидов Великой Отечественной войны" было подчеркнуто, что для новых работников необходимо организовать массовое обучение. Людям, которые не могли работать на прежних местах, но стремились посвятить свои силы трудовой деятельности на фронте, были нужны новые специальности. В мае 1942 года эта задача была возложена на Народные Комиссариаты социального обеспечения союзных республик. На основании данного постановления Народный Комиссариат социального обеспечения должен был организовать переобучение инвалидов войны, создавать советы на фабриках и в местных комитетах, а также помогать в трудоустройстве инвалидов войны. Множество детей и подростков были не вовлечены в процесс обучения. Большая часть из них работала на заводах и в колхозах (25%), другие не ходили в школу из-за отдаленности учебных заведений (7,6%), отсутствия одежды и обуви, вступления в брак и других причин, в том числе инвалидности (65,5%). В 1952 году средства на школьное образование из бюджета союзных республик увеличились в два раза по сравнению с 1940 годом. Например, в Узбекистане на образование в 1940 году было выделено 30,7 млн рублей, а в 1952 году эта цифра увеличилась до 81,1 млн (рост на 264%).[2] Однако этих средств было недостаточно для полноценного развития школьной сети. Школы не строились по образцовым проектам, большинство учебных заведений не отвечали даже минимальным санитарным требованиям. Архивные документы свидетельствуют о том, что материально-техническое обеспечение школ было в плачевном состоянии: не хватало учебных шкафов, парты были в дефиците, из-за чего ученики сидели тесно, а зимой в школах не было топлива для обогрева. Строительство школ в сельской местности практически не велось. Еще одним примером тяжелых последствий войны является то, что количество общих школ и учащихся в республике после войны (с 1945/46 по 1950/51 учебный год) сократилось по сравнению с уровнем 1940/41 учебного года. Хотя постановление Совета Министров СССР о внедрении обязательного семилетнего общего образования в сельской местности было принято в 1949 году, закон не сработал несколько лет. Школы не строились по образцовым проектам, большинство учебных заведений не отвечали даже минимальным санитарным требованиям. Архивные документы свидетельствуют

о том, что материально-техническое обеспечение школ было в плачевном состоянии: не хватало учебных шкафов, парты были в дефиците, из-за чего ученики сидели тесно, а зимой в школах не было топлива для обогрева. Строительство школ в сельской местности практически не велось. В 1950-е годы строительство школ началось за счет колхозных средств. С 1951 по 1958 годы в Узбекистане было построено 1016 школ, рассчитанных на 107,500 мест, что позволило увеличить количество школ в сельских районах до 2091. Это на 155 школ больше, чем в 1946 году. В результате введения обязательного семилетнего образования в сельской местности, в 1949/50 учебном году было охвачено 57,808 учеников 5 классов, а в 1950/51 году — 111,219 учеников. Вместе с семилетними школами развивались и десятилетние. Однако, проблемы в обучении людей с ограниченными возможностями продолжали существовать. В частности, организации обучения для детей с нарушениями зрения не могли предоставить учебные места для более чем 3,000 таких детей. Также их профессиональное обучение было плохо организовано.[3]

В ответ на эти проблемы Совет Министров СССР в январе 1953 года принял решение "О мерах по улучшению обслуживания слепых". Согласно этому решению, было решено расширить сеть школ для слепых детей, обеспечить их учебниками и картами с рельефными изображениями, а также усилить штат дефектологов и педагогов. Кроме того, предусматривалось создание сети библиотек для слепых. В контексте борьбы с пандемией полиомиелита, Министерство здравоохранения СССР в 1957 году выпустило приказ о создании специальных школ для детей, пострадавших от полиомиелита. Данный приказ был принят не Министерством образования, а Министерством здравоохранения, что было связано с политической ситуацией того времени. Этот шаг был поддержан политическим климатом, который обеспечивал выделение бюджетных средств, а также предоставление учебных и медицинских кадров для таких учреждений. По официальным данным, начиная с 1959 года полиомиелит был ликвидирован на территории СССР. В СССР также появились специализированные школы-интернаты для детей, пострадавших от полиомиелита и церебрального паралича, что стало примером для других республик. Например, в Киеве (Украинская ССР) началось создание аналогичных образовательных учреждений. Причины такого расширения объясняются статистическими данными, которые показывают, что в 1959/60

учебном году в республике не было таких интернатов, но в следующие восемь лет было открыто десять таких учреждений. К 1984/85 учебному году в СССР было 67 школ-интернатов для детей с полиомиелитом и церебральным параличом.[4]

В 1961 году Совет Министров СССР принял постановление "О сроках обучения в средних школах для детей, больных полиомиелитом". Через два года Министерство образования СССР утвердило положение "Об интернатах для детей, больных полиомиелитом"[5], а в 1978 году был принят приказ Министерства образования СССР, регламентирующий деятельность этих учреждений. С течением времени система образования для детей с ограниченными возможностями развивалась, и в 1974 году был принят еще один важный документ, который касался профессиональной подготовки таких детей, улучшения их трудоустройства и обслуживания. К 1991 году в СССР была создана система специальных школ, объединяющая восемь типов учебных заведений для детей с различными ограничениями, включая школы для глухих, слепых, детей с нарушениями речи и умственного развития. В системе образования также были специальные классы в обычных школах, а также школы-интернаты и профессиональные учебные заведения для детей с ограниченными возможностями.[6]

**Выводы.** Государственная политика в отношении лиц с ограниченными возможностями в Советском Союзе была противоречивой. С одной стороны, была введена система социальной защиты инвалидов, с другой — установление инвалидности зависело от степени утраты трудоспособности, что исключало многих людей с ограниченными возможностями из списка тех, кто мог бы претендовать на льготы. Проблемы в области образования для детей с нарушениями здоровья оставались актуальными, и, несмотря на усилия государства, система образования для таких детей не всегда была доступна и качественно обеспечена.

#### **Список литературы:**

1. Кораблева Г.В. Модальность платного образования в России: история, проблемы, современность // Известия Оренбургского государственного аграрного университета. — 2004. — Т. 3, вып. 3—1. — С. 159–162.
2. O‘zMA. R-94-fond, 5-ro‘yhat,5707-ish, 147-varaq

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 02. Issue 04. April 2025**

3. О мерах по дальнейшему улучшению обучения, трудового устройства и обслуживания лиц с дефектами умственного и физического развития : постановление Совета министров СССР от 17.01.1975 № 50 (Документ опубликован не был)

4. О дополнительных мерах по улучшению организации профессионального обучения и трудового устройства инвалидов : постановление Совета министров СССР от 10.12.1976 № 1010 // Свод законов СССР. 1990. Т. 2. С. 754-10

5. Об утверждении Положения о налоге с оборота : постановление Совета министров СССР от 30.06.1975 № 572 // СП СССР. 1975. № 17. Ст. 108. Учебно-производственным предприятиям Общества слепых и учебно-производственным предприятиям для слепых, находящимся в ведении министерств социального обеспечения союзных республик, льгота предоставлялась при условии привлечения ими полноценной рабочей силы в количестве, не превышающем 50% общей численности лиц, работавших на этих предприятиях

6. Кукушкина О.И. Развитие культурно-исторической традиции в коррекционной педагогике// Альманах Института коррекционной педагогике. 2010. Альманах №14. URL: <https://alldef.ru/ru/articles/almanah-1/reabilitacija-sredstvami-obrazovanija-osobyje-obrazovatelny>

**Research Science and  
Innovation House**

## HAYKALTOROSHLIKDA KO‘Z VA BURUN BO‘LAGINI LOY, PLASTILIN YOKI GIPSDA ISHLASH

**Djabbarov Dilshod Turdikulovich.** Jizzax davlat pedagogika universiteti,  
“Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta’lim” kafedrasida o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqola ko‘zning tuzilishi va funksiyalarini batafsil tushuntiradi, uning ichki qismlari va tashqi elementlarini tasvirlaydi. Ko‘zning anatomiyasini, jumladan, ko‘z olmasining qismlari, muskul tizimi va ko‘zning harakatlari to‘g‘risidagi nazariy tushunchalarni bayon qiladi. Shuningdek, maqolada ko‘z qovoqlari, rangdor parda, ko‘z qorachig‘i, va ularni himoya qiluvchi strukturalarning roliga alohida e’tibor qaratilgan. Ko‘z va burun bo‘lagini loy, plastilin yoki gipsda ishlash bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar ham keltirilgan. Bu material portret yoki anatomik rasmlar yaratishda ko‘zni to‘g‘ri ifodalash uchun zarur bo‘lgan nazariy ma'lumotlarni taqdim etadi.

**Kalit so'zlar:** Ko‘z anatomiyasi, ko‘z olmasi, ko‘z muskullari, ko‘z qovoqlari, ko‘z qorachig‘i, rangdor parda, mimika, portret, plastilin, gips, anatomik tuzilish, ko‘z yorig‘i, muskul tizimi.

**Аннотация:** Данная статья подробно объясняет строение и функции глаза, описывая его внутренние части и внешние элементы. Обсуждаются анатомия глаза, включая части глазного яблока, мышечную систему и движения глаз. Особое внимание уделено векам, радужке, зрачку и защитным структурам. Приводятся практические рекомендации по работе с глазом и носом из глины, пластилина или гипса. Этот материал предоставляет теоретические знания, необходимые для правильного изображения глаз при создании портретов или анатомических рисунков.

**Ключевые слова:** Анатомия глаза, глазное яблоко, глазные мышцы, веки, зрачок, радужка, mimika, портрет, пластилин, гипс, анатомическое строение, глазная щель, мышечная система.

**Abstract:** This article provides a detailed explanation of the structure and functions of the eye, describing its internal components and external elements. The anatomy of the eye, including parts of the eyeball, muscle system, and eye movements, is discussed. Special attention is given to the eyelids, iris, pupil, and protective

structures. Practical guidelines for working with the eye and nose in clay, plasticine, or plaster are also provided. This material offers the theoretical knowledge necessary for correctly depicting the eye when creating portraits or anatomical drawings.

**Keywords:** Eye anatomy, eyeball, eye muscles, eyelids, pupil, iris, mimicry, portrait, plasticine, plaster, anatomical structure, eye slit, muscle system.

Haykaltaroshlik insoniyat tarixining eng qadimiy san’at turlaridan biri bo‘lib, u orqali inson qiyofasi, his-tuyg‘ulari va harakatlari aniq aks ettiriladi. Badiiy tasvir va haykaltaroshlik san’ati nafaqat tarixiy yodgorliklar yaratishda, balki shaxsiy portretlar va realistik haykallar ishlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘z va burun bo‘lagi inson yuzining eng asosiy jihatlaridan biri bo‘lib, ularning shakli, harakati va aniq joylashuvi inson qiyofasini to‘liq tasvirlashda muhim rol o‘ynaydi.

Ko‘zning murakkab anatomik tuzilishi va uning haykaltaroshlikda to‘g‘ri ifodalanishi portretning realizmini oshiradi. Shuning uchun, haykaltaroshlikda ko‘zning anatomik tuzilishini va harakatlarini mukammal o‘zlashtirish zarur. Ushbu maqolada ko‘z va burun bo‘lagini loy, plastilin yoki gips materiallaridan ishlash jarayoni, uning bosqichlari hamda badiiy tamoyillari haqida ma’lumot beriladi.

“Ko‘z ko‘ruv organi: ko‘ruv nervlari bilan birgalikda ko‘z kosasida yotadigan ko‘z olmasidan, uni oldingi tomonidan himoya qilib turadigan ko‘z qovoqlaridan ko‘z olmasini harakatga keltiradigan ko‘z muskullari va yosh apparatidan iborat”.

Ko‘z olmasi sharga o‘xshagan tuzilma bo‘lib, devori uchta pardadan tashkil topgan. Tashqi pardasi – oqsil parda yoki sklera oq rangda yoshlikda ko‘kimtir tusda bo‘ladi, odam keksayganida sarg‘ayadi. Sklera oldingi tomonda aniq shox pardaga aylanadi, shu parda orqali ko‘z ichiga yorug‘lik o‘tadi. Sklera tagida tomirli parda bor, oldingi tomonda u rangdor pardaga aylanadi. Tomirli parda tagida to‘r parda, ya’ni rang - tus va yorug‘likni idrok etadigan hamma ko‘ruv nervi bo‘ylab sezgilarni miyaga o‘tkazib turadigan sezuvchi apparat yotadi. Ko‘zning oldingi bo‘limida shox pardasining orasida rangdor pardasi, uning orqasida esa gavhar joylashgan.

Rangdor parda tik holda turadigan plastinka bo‘lib, uning o‘rtasida dumaloq teshigi, ya’ni ko‘z qorachig‘i bor. Rangdor pardada joylashgan muskullar ko‘z ichiga o‘tadigan yorug‘lik miqdorini idora etib, ravshan yorug‘likda ko‘z qorachig‘ini qoraytiradi va qorong‘ulikda kengaytiradi. Ko‘z gavhari ikki tomoni qavariq kichik shishachaga o‘xshab ketadigan qavariq tiniq elastik tanadir. Ko‘zni xarakatlantiruvchi

asosiy organ – bu uning atrofidagi muskullardir. Ularning funksiyalari haqida M.Rabinovich quyidagicha yozadi.

“Ko‘z olmasini harakatlantiruvchi muskullar ko‘z olmasiga turli tomondan kelib birikadi va shu yo‘l bilan uning xar tomonga qarab harakatlanishiga imkon beradi. Bu harakatlar ikkala ko‘zda bir – biriga mos bo‘ladi. Shunga ko‘ra ko‘z idrok etadigan tasvir yaxlit bo‘lib chiqadi. Manashu birlik buzilganida narsalar ko‘zga ikkita bo‘lib ko‘rinadi. Odam uzoqqa ko‘z tikkanida ko‘zlar to‘g‘ri turadi, yaqinga qaraganda, masalan, o‘qish vaqtida ikkala ko‘z oynasi o‘rta chiziq tomon buriladi – ko‘zlarni shu tariqa yaqinlashtirish konvergensiya deb ataladi”.

Ko‘z qovoqlari ko‘z olmasining oldingi yuzasida yotadi va ko‘z olmasiga o‘xshab shar sigmenti shaklida bo‘ladi. Ko‘zning tuzilishini, uning turli millat va irqilariga xosligini tasvirlashda qovoqlarning ko‘rinishini to‘g‘ri ifoda etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘z qovoqlari o‘rtasidagi oraliq, ko‘z yorig‘i yoki ko‘z kesmasi deb ataladi. Ko‘z olmasining oldingi qismi shu oraliqdan ko‘rinib turadi. Ko‘zning ichki burchagida ko‘z yorig‘i o‘tkir burchak bilan tugallanadi. Ko‘z qovoqlarining chetlarida ko‘zni chang, shamol, tutundan himoya qiladigan kipriklar bo‘ladi. Yuqori qovoqning cheti ko‘z qorachig‘i yuqori chetining damida turadi. Odam to‘g‘ri oldinga qaraganda pastki qovoq cheti rangdor pardaning pastki chekkasiga tegadi, lekin pastki qovoq o‘z xarakatlariga ergashib bormaydigan bo‘lgani uchun ko‘z harakatlanganida bu holat o‘zgaradi. Ko‘z olmasi pastga burilganda pastki qovoq rangdor pardani past tomondan bekitadi, odam yuqoriga qaraganda rangdor parda bilan pastki qovoq o‘rtasida oqsilli parda ko‘rinib turadi. Aksincha yuqori qovoq ko‘z olmasi harakatiga ergashib boradi va ko‘zning odatdagi harakatlarida qovoqning tegib turadigan joyi bir xil bo‘ladi va faqat mimika harakatlaridagina o‘zgaradi.

Yuqori qovoqni maxsus muskul yuqori ko‘taradi, bu muskul yuqori qovoqni ko‘taruvchi muskul deb ataladi, pastki qovoq esa o‘z og‘irligi bilan pastga tushadi.

Ko‘z ochilganida yuqori qovoq teparoqda yotuvchi teri ostiga kiradi, shu teri qovoq ustida yuqori qovoqni qoplab turuvchi burma xosil qiladi. Bu burma ba‘zan arzimas darajada, goxo sezilarli bo‘ladi va qovoq chetidan bir muncha yuqoriroqda yotadi, ba‘zda esa xususan mongoloid irqiga mansub odamlarga yuqori qovoq ustidan shuncha ko‘p osilib turadiki, goxo qovoqning chetini ham berkitib qo‘yadi, shunga ko‘ra kipriklar burma tagidan ko‘rinib turadi. Ayni vaqtda ko‘zlar shishib chiqqandek bo‘lib ko‘rinadi va ko‘z yorig‘i tor bo‘ladi. Bu xususiyatlarni e‘tibor bilan mukammal o‘zlashtirib olish ayniqsa, istiqbolda portret ishlashda muxim xisoblangan jixatlardir.

Muskulning ko‘z qovoqg‘iga aloqador qismi qovoqlarda yotadi va juda ingichka bo‘ladi. Uning tolalari qavariq tomoni yuqori tomonga va pastki qovoqda past tomonga qarab turadigan konsentrik yo‘llar xolida yo‘nalgan. Qovoqqa aloqador qismi mustaqil qisqarish mumkin. Qisqarganda muskul tolalari rostlanib, qovoqlarning chetlarini bir-biriga yaqinlashtiradi va ko‘zlar yumiladi. Bu xarakterli kuch berilmaganda ham bajarilaveradi, masalan odam uxlab ketayotganida shunday bo‘ladi.

Ko‘zning doiraviy muskuli, ayrim-ayrim qisqarar ekan, tashqi tomondan ko‘z qovoqlariga bosib, ularni bir-biriga yaqinlashtiradi. Bundan ko‘z qovoqlari yumilmay turgan bo‘lsa, ko‘z qisiladi. Ko‘zning doiraviy muskuli bir yo‘la qisqarganida ko‘z qovoqlari yumiladi, ko‘z kosasiga aloqador qismi qisqarib, ko‘z qovoqlariga bosadi, qovoqlar kuch bilan bir-biriga taqaladi, ko‘zni qattiq yumib ochish deb shunga etiladi. Ayni vaqtda radiuslar ko‘rinishida bo‘ladigan ajinlar paydo bo‘ladi, bular ko‘zning tashqi burchagida ayniqsa, seziladigan bo‘ladi.

Ko‘z kosasiga aloqador qismining ustki yarmi ko‘p zo‘r bermasdan turib, aloxida qisqarishi mumkin. Uning qisqarishi qoshlarni to‘g‘irlab ko‘zlar ko‘zlar ustiga sal tushiriladi va odamning yuziga juda hayolga cho‘mgan, fikrga tolgan kishi ifodasini beradi. Muskulning bu qismi hayol surish muskuli deyiladi. Bu muskul qarama-qarshi yo‘nalishda odam qoshiga ta‘sir ko‘rsatib, bir vaqtning o‘zida peshon terisini tortib ajinlarni tekislaydi va chuqur hayol surish uchun kerak bo‘ladigan xotirjamlik ko‘rinishini beradi.

Amaliy mashg‘ulotga kirishish oldidan ko‘zning anatomik tuzilishiga oid nazariy ma‘lumotlarni o‘zlashtirish, unda ko‘rgazmali materiallardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shundan keyingina ko‘zni amalda bajarishga kirishish mumkin.

Ko‘zni ishlashda uni qovoqlar bilan birgalikda ko‘z kosasi chetlari orasidan chiqib turadigan sharsimon tana xosil qilishni esda tutish muximdir. O‘rta chiziq o‘tkab olish va ko‘z yorig‘i boshdan-oyoq smetrik emasligini esda tutib, ko‘z bilan qovoqlarni shar tariqasida yasash kerak. Ko‘z kosasining chetlari bilan birgalikda xajmga keltirib ishlanadi.

Ko‘zlar ko‘pincha unchalik smetrik bo‘lmaydi, xamisha ham bir xil balandlikda yotavermaydi. Portretning xuddi manashu sifatini payqab olish aksari o‘xshashlik masalasini hal qilib beradi.

Qoshlar peshona suyagining cheti bo‘ylab joylashgandir, lekin ko‘pincha qiyshiq, yuqoriroq yoki patroqda yotadi. Shu sababli odam portretini ishlashda avval peshonaning shakli topib olinadi, keyin esa qoshlar joylashtiriladi. Xuddi ko‘z yoriqlari

singari o‘ng va chap qoshlar xam ko‘pincha past va baland bo‘lib yotadi va xamisha ham smetrik bo‘lavermaydi. Portretli byustlarni ishlaganda ko‘zlarni rangiga qarab ko‘z qorachiqclariga ishlov beriladi. Ya‘ni ko‘z qora rangda bo‘lsa ko‘z qorachig‘ining o‘rtasi chuqurroq qilib olib tashlanadi. Ko‘kimtir rangdagi ko‘zlarni qorachig‘i ichiga dumaloq shaklda chizib oziroq chuqurlik xosil qilinadi. Yashil rangdagi ko‘zni esa qorachig‘i ichiga dumaloq shaklda chizilib o‘rtasiga quyoshga o‘xshagan shaklda chizib qo‘yiladi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Rabinovich M. "Haykaltaroshlik asoslari". Toshkent: San‘at nashriyoti, 1985.
2. Xolmirzayev R. "Tasviriy san‘at va haykaltaroshlik". Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
3. Islomov U. "Portret haykaltaroshligi". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
4. Jalilov B. "Ko‘z va yuz anatomiya asoslari". Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
5. Omonov S. "Badiiy plastika va anatomik shakllar". Toshkent: San‘at, 2019.

**Research Science and  
Innovation House**

## MATEMATIKA FANIDA AN’ANAVIY VA ZAMONAVIY O‘QITISH USLUBLARINING TAQQOSLANISHI

**Gadayev Doniyor Rajabovich.** Jizzax davlat pedagogika universiteti, “Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta’lim” kafedrasida o‘qituvchisi

[doniyorgadaev7@gmail.com](mailto:doniyorgadaev7@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada matematika fanida an’anaviy va zamonaviy o‘qitish uslublari taqqoslanadi. Har bir uslubning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinib, ta’lim jarayonida innovatsion va an’anaviy metodlarning uyg‘unligi muhokama qilinadi. Shuningdek, ta’lim samaradorligini oshirish uchun optimal yondashuvlar taklif etiladi.

**Kalit so‘zlar:** matematika ta’limi, an’anaviy uslub, zamonaviy pedagogika, innovatsion texnologiyalar, interfaol o‘qitish.

**Аннотация:** В данной статье проводится сравнение традиционных и современных методов преподавания математики. Анализируются преимущества и недостатки каждого метода, обсуждается гармонизация инновационных и традиционных подходов в образовательном процессе. Также предлагаются оптимальные стратегии для повышения эффективности обучения.

**Ключевые слова:** математическое образование, традиционные методы, современная педагогика, инновационные технологии, интерактивное обучение.

**Abstract:** This article compares traditional and modern teaching methods in mathematics education. The advantages and disadvantages of each approach are analyzed, and the integration of innovative and traditional methods in the learning process is discussed. Optimal strategies for enhancing the effectiveness of mathematics education are also proposed.

**Keywords:** mathematics education, traditional method, modern pedagogy, innovative technologies, interactive learning.

Ma’lumki, ta’lim oluvchilar juda ko‘p hollarda biror narsani tushunmasa yoki bilishni istasa ham bu borada o‘z o‘qituvchisiga yoki boshqa bir o‘qituvchiga murojaat qilmaydi. Aksincha, birinchi navbatda (ko‘pincha biror qiyinroq nazariy materiallarni tushunib olishga intilishda yoki biror amaliy masalani hal etish jarayonida) o‘zining oldindan egallagan bilimlariga tayangan holda faoliyat ko‘rsatishadi. Bu qanday

darajada samarali bo‘lishidan qat’iy nazar yaxshi albatta. Ammo tajriba shuni ko‘rsatadiki, 1-kurs ta’lim oluvchilari oliy ta’lim muassasasiga birinchi qadam qo‘ygan paytida bu holatga yetarli darajada tayyor emasligi ayon bo‘lmoqda. Umuman, ta’lim oluvchi o‘zining oldindan egallagan bilimlariga tayangan holda biror qiyinroq nazariy materiallarni tushunib olishga yoki biror amaliy masalani hal etishga intilishini tog‘ri yo‘naltira olish ham mustaqil ta’limga yo‘naltirishda asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Matematika ta’limi inson tafakkuri va analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qitish jarayonida turli pedagogik yondashuvlar qo‘llanilib, ular o‘zining samaradorligi va yutuqlari bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada an’anaviy va zamonaviy o‘qitish uslublari taqqoslanib, ularning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi.

**An’anaviy o‘qitish usuli.** O‘quv materiallari yangi va ancha murakkab bo‘lganda, an’anaviy dars - ko‘p hollarda ta’lim jarayoning birdan-bir modeli bo‘lib qo‘lmoqda. Ma’lumki an’anaviy darsda ta’lim jarayonining markazida o‘qituvchi turadi. Shu bois, an’anaviy darsni “Markazda o‘qituvchi turgan o‘qitish modeli” deb ham atashadi. An’anaviy darsning asosiy maqsadi - dars mavzusining asosiy mazmunini, tushuncha va faktlarini o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga etkazish va tushuntirishdan iborat. Dars - oldin o‘zlashtirilgan bilimlar bilan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlar o‘rtasida aloqa o‘rnatilishidan boshlanadi. Yangi mavzuni yoritish, turli mashqlar yordamida mustahkamlash, darsga yakun yasash, xulosalash, baholash va uuga vazifa topshirish bilan yakunlanadi.

An’anaviy o‘qitish yondashuvi asosan ma’ruzalar, mashg‘ulotlar va individual ishlarga tayanadi. Bu uslubda o‘qituvchi asosiy bilim manbai bo‘lib, o‘quvchilar esa bilimlarni passiv ravishda qabul qiladi.

**Afzalliklari:**

- O‘qitish jarayoni nazorat ostida bo‘lib, materiallar tartibli taqdim etiladi.
- Fundamental bilimlarni o‘rgatishda samarali hisoblanadi.
- O‘qituvchi tajribasi va bilim darajasi ta’lim sifatiga ta’sir qiladi.
- Standart darslik va uslubiy materiallar mavjudligi ta’lim jarayonini soddalashtiradi.

**Kamchiliklari:**

- O‘quvchilarning faol ishtiroki yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanmaydi.

- Fikr yuritish, muammolarni yechish va ijodiy yondashuvni rivojlantirishda cheklovlar mavjud.

- O‘quvchilar o‘zlashtirish tezligi bo‘yicha farqlanadi, biroq an‘anaviy usulda barchaga bir xil yondashiladi.

- Fanlarni amaliyot bilan bog‘lash imkoniyatlari cheklangan.

**Zamonaviy o‘qitish usullari.** O‘qitishning interfaol metodi bir qancha interfaol usullardan iboratdir. Interfaol usullarni qo‘llash orqali o‘qitish samaradorligin oshirishga, talabalar fikrlash qobiliyatini oshirishga katta imkoniyat yaratadi. Ana shunday usullardan biri aqliy xujumni darsga tadbiiq etish mumkin. Aqliy xujum-muammolarni xal qilishda keng qo‘llaniladigan samarali metoddir. U qatnashuvchilarni o‘z tasavvurlari va ijodlaridan foydalanishga undaydi. U berilgan har qanday muammoga ko‘p sonli to‘g‘ri echimlar topishga yordam beradi. Dars mashg‘ulotlariga o‘tiladigan mavzu qirralarini qarama-qarshiliklarini ko‘rsata olish sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish o‘zaro munosabatlarini bildirib himoya eta olish asoslab berish, boshqa ishtirokchilarning fikrlarini tinglay olish, baholash maqsadida ushbu metodni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Ushbu dars maqsadi birgalikda o‘qitishga ko‘maklashuvchi uslubiy yo‘llar ya‘ni o‘quvchilarga jamoada o‘qitish yo‘li bilan bilim olishlari to‘g‘risida tasavvur berish. Zamonaviy o‘qitish usullari innovatsion texnologiyalar, interaktiv yondashuv va amaliy mashg‘ulotlarga asoslanadi. Bunday usullarga quyidagilar kiradi:

- Interfaol metodlar (klaster, bahs-munozara, "Aqliy hujum", "Blits so‘rov")
- Loyiha metodi va muammoli ta‘lim
- Gamifikatsiya va o‘yinli ta‘lim yondashuvlari
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish (onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar, sun‘iy intellekt asosida o‘qitish)

**Afzalliklari:**

- O‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadi va muammolarni mustaqil hal qiladi.
- Matematika real hayotga bog‘lanib, amaliy tajribalar orqali o‘rgatiladi.
- O‘quvchilarning qiziqishi oshadi va ularning o‘z bilimini baholash imkoniyati kengayadi.

- Ta‘lim shaxsiylashtirilgan bo‘lib, har bir o‘quvchining qobiliyatiga mos keladigan metodlar tanlanadi.

**Kamchiliklari:**

- O‘qituvchilarning zamonaviy texnologiyalarni to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha maxsus tayyorgarligi talab etiladi.
- Barcha ta‘lim muassasalari texnologik jihozlangan bo‘lishi shart.
- An‘anaviy usulga o‘rgangan o‘qituvchilar uchun zamonaviy metodlarni joriy etish qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

**3. An‘anaviy va zamonaviy usublarning taqqoslanishi**

<b>Xususiyat</b>	<b>An‘anaviy uslub</b>	<b>Zamonaviy uslub</b>
Yondashuv	O‘qituvchi markazli	O‘quvchi markazli
O‘quvchilarning ishtiroki	Passiv	Faol
Texnologiya va interaktivlik	Kam	Yuqori
Bilimni o‘zlashtirish	Reproduktiv (takrorlovchi)	Konstruktiv (ijodiy va amaliy)
Ta‘limning shaxsiylashtirilishi	Bir xil yondashuv	Har bir o‘quvchi uchun individual metodlar
Fanlararo integratsiya	Cheklangan	Keng imkoniyatlar mavjud

Matematika ta‘limida an‘anaviy va zamonaviy metodlarning kombinatsiyasi eng samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Matematika fanida o‘qitish samaradorligini oshirish uchun an‘anaviy va zamonaviy usullarni uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy usullar innovatsiyalar va interaktiv ta‘limni qo‘llab-quvvatlaydi, lekin an‘anaviy metodlar ham fundamental bilimlar berishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ashurova, D. (2018). *Matematika ta‘limida innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Qodirov, M. (2020). *Oliy ta‘limda matematika o‘qitish metodikasi*. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti nashriyoti.
3. Xalmanov, Ural, and Shoxsanam Aliqulova. "Tekislikdagi harakat, uning eng sodda turlari, analitik ifodasi." *Journal of science-innovative research in Uzbekistan* 3.2 (2025): 100-107.
4. Xalmanov, U. R. "Tekislikdagi harakat, uning eng sodda turlari, analitik ifodasi" maqolasi "Journal of science-innovative research in uzbekistan" jurnali volume 3, issue 02, 2025."

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 02. Issue 04. April 2025**

5. Xalmanov Ural Rasulovich, & Mardonov Baxodir Axmadovich. (2025, mart 26). Inshoatlarni qo'riqlash tizimini matematik modellashtirish yordamida tashkil etish. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15088932>

6. Raximov, O. (2017). *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va matematika ta'limi*. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.

7. Yo'ldoshev, B. (2019). *Matematika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari*. Toshkent: Ilm-fan nashriyoti.

8. Karimov, A. (2016). *An'anaviy va interfaol ta'lim metodlarining uyg'unligi*. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti.

9. Jo'rabekov, H. (2021). *O'rta ta'limda matematika o'qitish jarayonida AKT dan foydalanish*. Namangan: Namangan davlat universiteti nashriyoti.



**Research Science and  
Innovation House**

## IKKI OTLIQ HAYKAL TASNIFI

**Axatova Zohira Aktam qizi**, San’atshunoslik va muzeyshunoslik fakulteti,  
San’atshunoslik: tasviriy va amaliy san’at yo‘nalishi, 3 bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mahoratli haykaltaroshlar Ilxom Jabborov va Jaloliddin Mirtojiyev tomonidan ishlangan Amir Temur hamda Zahiriddin Muhammad Bobur haykallari tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar.** Ilxom Jabborov, Jaloliddin Mirtojiyev, mahobatli haykaltaroshlik, Badiiy akademiya, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, otliq haykal.

## CLASSIFICATION OF EQUESTRIAN SCULPTURES

**Akhatova Zahira Aktam girl**,  
Faculty of Art Studies and Museum Studies, Art  
Studies: Fine and Applied Arts, 3<sup>rd</sup> stage student

**Annotation:** In this article, the sculptures of Amir Temur and Zahiriddin Muhammad Babur, made by skilled sculptors Ilkhom Jabbarov and Jaloliddin Mirtojiyev, are analyzed.

**Key words.** ilkhom Jabbarov, Jaloliddin Mirtojiyev, majestic sculpture, Art Academy, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Babur, equestrian statue

## КЛАССИФИКАЦИЯ ДВУХ СТАТУИ ВСАДНИКОВ

**Ахатова Захира Актам дочь**,  
факультет искусствоведения и музейоведения, искусствоведение:  
изобразительное и прикладное искусство, студентка 3 курса

**Аннотация:** В данной статье анализируются скульптуры Амира Темура и Захириддина Мухаммада Бабур, выполненные искусными скульпторами Ильхомом Джаббаровым и Джалолиддином Миртоджиевым.

**Ключевые слова.** Ильхом Джаббаров, Джалолиддин Миртожиев, величественная скульптура, Академия художеств, Амир Темур, Захириддин Мухаммад Бабур, конная скульптура.

Ma’lumki, haykaltaroshlikning ikki turi mavjud bo’lib, dastgohli va mahobatlidan iborat. Ozbekiston xalq rassomi, O’zbekiston badiiy akademiya

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 04. April 2025

akademigi, professor Ilxom Jabborov va O'zbekiston xalq rassomi, professor Jaloliddin Mirtojiev asarlari O'zbekiston madaniyati va san'atida o'rni katta. Bu ijodkorlar haykaltaroshlikning mahobatli va dastgohli turida ijod qiladi. Ularning sermahsul badiiy asarlari tarixiy shaxslar qiyofigarini aks ettiradi.



**Ilxom Jabborovning** Amir Temur obrazli haykallari, Toshkent, Samarqand va Shaxrisabzning Markaziy maydonlarida, O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov haykallari O'zbekistonning Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida, Urgut tumanidagi Alisher Navoiy hamda ko'plab tarixiy shaxslar haykallari muallifi. Ilxom Jabborov o'zi haqida shunday deydi: - “menga haykaltarosh bo'lishlik istagi kichkinalik paytimda O'rtachirchiq tumanidan Toshkentga birinchi kelganimda, o'shanda yetti-sakkiz yoshlarda edim, Chorsu maydoniga kelib qolganmiz. Mening bolaligimdagi hayollarim uy o'lchamidagi ulkan dekorativ to'siq kompozitsiyalari bilan hayratda qoldi. O'sha atrofda tinchlik ramzi - gipsdan yasalgan kaptar turardi. Ko'rganlarim meni shunchalik quvontirdiki, men ham uyda shunday qilishga qaror qildim. Qishloqqa yetib keldim, tuproqdan tepalik yasadim, yam-yashil o't ekdim. Men oddiy loydan kaptar yasadim va uni ohak bilan oq rangga bo'yadim. To'satdan men mushukning kaptarga qarab turganini, asta-sekin unga sudralib kelayotganini va keyin sakrab, kompozitsiyamni buzayotganini ko'rdim. Mushuk qichqirdi va qochib ketdi va men o'yladim: bu men asosiy narsada muvaffaqiyatga erishdim, degani - loyni tirik qushga o'xshash qilish. Bu meni shunchalik hayratda qoldirdiki, o'shanda men haykaltarosh bo'lishga qaror qildim”.<sup>1</sup> Albatta, ijodkorga bu katta yutuq mushukning haqiqiy kabutar ya'ni o'lja deb unga talpinishi Ilxom Jabborovning birinchi asaridayoq haykaltaroshlikka bo'lgan qobiliyatining namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. U asar ustida ishlarkan tanlangan obrazning hayoti kechmishlari u haqida yozilgan siyratga katta ahamiyat beribgina qolmay haykalning qo'yiladigan joyga va u yerda joylashgan arxetukturaga

<sup>1</sup> <https://mytashkent.uz/2016/07/29/ilhom-zhabbarov-nelegkij-no-schastlivyj-trud-skulptora/>

bog'liqmi, atrof muhitga to'g'ri tushadimi yuqmi o'rtasidagi mutanosiblikka aloxida e'tibor qaratgan va bu uning ijodida birinchi o'rinda bo'lgan.



**Jaloliddin Mirtojiyevning** Respublikamiz viloyatlaridagi mashhur tarixiy siymolar, o'zbek allomalari va taniqli adiblariga bag'ishlangan monumental asarlari bugungi kunda Vatanimiz ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi. Jaloliddin Mirtojiyev aslida rassomlikka juda qiziqqan rangtasvir asarlariga qarab turib uydagi oppoq yostiqlik jildlarining matosiga qandaydir bir asar ishlashga harakat qilib yurgan kezlari maktabda tarix fanidan kim kichkina haykalcha yasab kelsa besh qo'yaman deganda u Mironning “Diskobol” haykalini gipsdan ishlab ko'radi. Bundan o'zi juda xursand bo'ladi va haykaltaroshlikka mehri ortadi. Shundan so'ng ustozining haykaltaroshlikka bo'lgan qiziqishi va qobilayitini ko'rib, Pedagogika Institutining haykaltarosh Abdumo'min Boymatovga shogirdlikka bergan deya eslaydi haykaltarosh esdaliklarda. Jaloliddin Mirtojiyev asarlarini manbaalarga keltirilgan ma'lumotlarga, qo'lyozmalarda ishlangan miniatyuralarga tayangan holda va o'ziga yaqin davrda yashaganlarining “uyiga borib liboslar bo'ladimi va boshqa mayda detallarigacha o'rganib oila azolaridan o'sha insonni barcha fazilatlarini o'rganib”<sup>2</sup> asarlaridagi obrazning ichki kechinmalarini yuz mimikalarida qarashlarida ifodalay olgan. “Ularning turli xil materiallar, xomashyolar va teksturalardan foydalanib haykallariga dinamik element qo'shishi, ularni vizual tarzda ajoyib va jozibali qilib ko'rsatadi. Ularning o'z kasbiga fidoyiligi, badiiy ijod orqali hikoya qilishga ishtiyoqi san'at olamida mohir haykaltarosh sifatida obro'- e'tibor qozonishiga sabab bo'ldi”<sup>3</sup>

Ikki ijodkorning asar ishlashdagi uslublari bir biridan farq qiladi chunki, Ilxom Jabborov har bir asarga akademizmga tayangan bo'lsa, Jaloliddin Mirtojiyev ijodiy yondashganini ko'rishimiz mumkin.

<sup>2</sup> Жалолиддин Миртожиев - “Мен Ўзбекнинг мусаввириман” хотира кўргазмасидан лавҳа

<sup>3</sup> [Haykaltarosh Jaloliddin \(Ravshan\) Mirtojiyev ijodiga nazar va ehtirom | Journal of Culture and Art \(imfaktor.com\)](http://imfaktor.com)



Jaloliddin Mirtojiyev. “Zahiriddin Muhammad Bobur”  
Andijon.1993-yil



Ilxom Jabborov.  
“Amir Temur”  
Toshkent. 1993-  
yil

Tarix zarvaraqlarida o'chmas iz qoldirgan diyorimiz buyuk sarkadalari Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur haykallarini zamonamizning mahoratli haykaltaroshlari tomonidan Mustaqilligimizning ilk yillarida Toshkent hamda Andijonda o'rnatildi. Ikki haykal ham bronzadan, tarixiy janrda ishlangan bo'lib, poydevor ustiga vertikal holatda joylashtirilgan. Bu ma'lumotlar bilan albatta haykallar bir xil deya olmaymiz chunki ikkita ijodkorga tegishli bo'lganligi bois aloxida bunyod bo'lish tarixi va o'ziga xos bazi jihatlari bilan ajralib turadi.

Ilxom Jabborovning aytishicha Amir Temur haykalini ishlash uchun ko'plab namunalar tayorlagani, Toshkentda qad ko'targan haykalning qo'lida aslida jilov emas qilich ushlab turgan holatda berilgani va O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimov tavsiyasi bilan jilovga o'zgartirilganini aytadi. Asar topshiriqqa asosan ikki oy ichida ishlanishi kerak bo'lgan va birinchi gipsdan pastroq holatda bo'lgan. Yugaslaviyadan kelgan mehmonlar ikki oy ichida bunday otlq haykal yasash imkonsiz, biroq gipsdan ishlangan haykal uzoqqa bormasligini aytadi. Shundan so'ng u haykal buzilib shu joyning o'zida, bronzadan quyilgan haykal o'rnatiladi. Ilxom Jabborovning

bu o'tliq haykal dastlabki asari bo'lganligi bois Rossiya davlatida qad ko'targan Pyotr I haykalini asos qilib qilib olganini ko'rishimiz mumkin. Amir Temur haykali juda ulug'vor va tanasiga nisbatan boshini kattaroq qilib ishlangan, buning sabababi ijodkor asarini ishlashidan oldin Amir Temurning hayotini uning qanday inson bo'lgani haqida juda ko'p izlanishlar olib boradi, izlanishlari davomida Amir Temurning qabri ochilganida Gerasimovga yordamchi sifatida ishlagan Malik Nabiyevning asarida tasvirlangan obrazdagi tasvirga tayangan holda shunday ishlaganini aytadi. Haykalga qarab Ilxom Jabborov Amir Temur hayotini puxta o'zlashtirganini ko'rishimiz mumkin. Amir Temurning o'ng qo'lini ko'targan holatda ishlanishi, u hayoti davomida faqat bizning tinchligimiz uchun kurash olib borganligi bois Mustaqilligimiz bilan qutlayotgandek “ey xalqim sizlarga mustaqillik muborak bo'lsin, men sizlarga omonlik tilayman” deyayotgandek haykaltarosh uning qo'liga katta ahamiyat berib nima deyayotganini mohirona asoslab bergan. Chap qo'lida jilovni olishi esa ramziy ma'noni bildirib barchamizga tarix sahifalaridan ma'lum bo'lgan shunday katta davlatchilik qurishini bildiradi. Amir Temur haykali umrining ko'p qismini jang maydonida o'tqazganligi tufayli jang libosida qurollik tojidek yasatilgan dubulg'a sovut, qalqon va qilich bilan tasvirlangan. Haykaltarosh otga badiiylik bilan muskullarini ideallashtirishi Amir Temurning chertalari hamohang bo'lib uning naqadar jasur, siyosatli, mohir sarkarda ekanligini ko'rsatadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Haykali judayam viqorli O'zbekistonning ko'rkam qadamjolaridan biriga aylangan. 1993 - yilda ishlangan ushbu asar uchun tanlov elon qilinadi, Jaloliddin Mirtojyev Andijonda o'zidan bir yodgorlik qolishiga astoydil harakat qiladi va tushida namoyon bo'lgan kompozitsiyani tayorlab g'olib bo'ladi. Jaloliddin Mirtojyevning Bobur asari muskullariga liboslarida bo'rttirishlar yo'qligi yuzlaridagi mayinlik, otning muskullariga e'tibor qilinmagani va yopinchi'g'i otning oyog'g'i ostidagi toshlarga ulanib ketishi kuzatuvchida sarkarda emas balki shoirona tasavvur uyg'otadi. Ijodkor bu asarini juda mahorat bilan o'zgacha boshqa haykallarga o'xshamaydigan badiiy yechimga ega asar sifatida ommaga taqdim qilgan deya olamiz. U tarixiy siymolarni o'z ijodida talqin qilarkan qo'lyozmalardagi miniatyura tasvirlariga asoslangan holda namoyish etilishi ayni shu haykalda mujassam bo'lganini hamda asarga ijodiy yondashganini ko'rishimiz mumkin. Boburning boshidagi sallasi hind madaniyatiga xos bo'lib, uning Hindistonni zabt etgani va u yerning podshohi ekanligini ko'rsatadi va qo'lini ko'ksida turishi esa vataniga bo'lgan muhabbati, sodiqligi, hurmati cheksizligini ko'rsatib turuvchi ramziylik bilan ifodalab berganini

guvohi bo'lamiz. Otlarning boshi egik holatda ishlanishi esa egasiga naqadar vafodorligini va ot vafo timsoli ekanligi ijodkorlar tomonidan puxtalik bilan tasvirlab berilgan. Haykallarda ishlangan barcha bezaklar ular yashab o'tgan davrga xos va murakkab shaklda ishlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki Mustaqillik baxtiga musharraf bo'lganimizdan so'ng bizning tariximiz yana tiklandi bobokalonlarimizning mehnatlari javobsiz qolmadi. Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining san'atga ilm fanga bergan aloxida e'tibori, qisqa fursat ichida yuqori suratda rivojlanishiga zamin yaratdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. <https://mytashkent.uz/2016/07/29/ilhom-zhabbarov-nelegkij-no-schastlivyj-trud-skulptora/>
2. Жалолиддин Миртожиев - “Мен Ўзбекнинг мусаввириман” хотира кўргазмасидан лавҳа
3. [Haykaltarosh Jaloliddin \(Ravshan\) Mirtojiyev ijodiga nazar va ehtirom | Journal of Culture and Art \(imfaktor.com\)](#)
4. O'z MTRK Xazinasidan olingan Jaloliddin Mirtojiyev lavhalari
5. Ilxom Jabborov bilan suhbatdan

**Research Science and  
Innovation House**

**Gerontologiyada psixologik xizmatdan foydalanishning nazariy va  
metodologik asoslari**

Ma'mun universiteti

“Psixologiya va tibbiyot” kafedrası

prof.v.b., mustaqil izlanuvchi-

**Razakova Rayxan Saylaubekovna.**

“Psixologiya” yo‘nalishi 24-3guruh talabasi

**Ro‘zmetova Mahbuba Xudoybergan qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada gerontologiyada psixologik xizmatni yo‘lga qo‘yishning nazariy va metodologik asoslari xususida qimmatli fikrlar yuritilgan.

**Kalit so‘zlari:** Gerontologiya, mehnat, faoliyat, sog‘lom e‘tiqod, psixologik xizmat, nazariya va amaliyot

**Kirish.** Umuman, gerontologiyada psixologik xizmat ko‘rsatish muammosi ma‘lum ma‘noda, ilmiy psixologiyaning yetakchi yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘p bor munozaralar manbai bo‘lgan. Zero, har bir mamlakatning porloq kelajagini odamlardagi ijodiy, intellektual va ma‘naviy taraqqiyot yo‘liga xizmat qiluvchi davlat mexanizmisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu boisdan bo‘lsa kerak, hozirgi kunda barcha rivojlangan va rivojlanish yo‘lidan borayotgan mamlakatlar birinchi galda o‘z fuqarolarining ma‘naviy va intellektual, jismoniy va ruhiy barkamolligiga va undan ijtimoiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo‘llarini izlashga jiddiy e‘tiborni qaratmoqdalar. Shu nuqtai nazardan, har bir mamlakatda inson va uning faoliyati o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta‘minlashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik xizmat tizimining joriy etilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

K.K.Platonovning psixologik xizmat bilan bog‘liq ijtimoiy psixologiya metodologiyasini yaratishdagi xizmati shundaki, u ijtimoiy-psixologik individuallik muammosini inson individual olami namoyon bo‘lishining eng yuqori darajasi sifatida tadqiq qildi va psixologik xizmat moxiyatini tasavvur qilish uchun muhim bo‘lgan shaxsni nafaqat o‘zining individual xususiyatlari asosida, balki bu individual xususiyatlarning ijtimoiy mazmuni o‘z - o‘zini adekvat baholash va rivojlantirishga asoslangan shart-sharoitlarni yaratish bilan kamol toptirish muqarrarlitgini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Professorlar: E.G‘oziev, I.Tursunov, J.Ikromovlarning «XX asr va shaxs kamoloti» mavzusidagi ma‘lumotlarida ham psixologik xizmat ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etuvchi individ, shaxs va sub‘ekt taraqqiyotining tadqiqotida quyidagi holatlarga jiddiy e‘tibor berish zarurligi uqtiriladi:

- inson rivojlanishining determinatori hisoblangan asosiy omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muxiti omillari);

- insonning o‘ziga taalluqli, asosiy tafsilotlar, uning ichki konuniyatlari, mexanizmlari, e‘tiqod bosqichlari barqarorlashuvi va involyutsiya;

- inson yaxlit tuzilishining asosiy tarkiblari, ularning o‘zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta‘sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning takomillashuvi. Darhaqiqat, har bir insonning o‘z individual olamida sodir etilayotgan barcha ma‘naviy va ruxiy kechinmalarini u yashab turgan jamiyat istiqbollarga mos tarzda tadqiq qilmay turib shaxs va faoliyat, shaxs va jamiyat, shaxs va individuallik o‘rtasidagi ijtimoiy mutanosiblikni ta‘minlab bo‘lmaydi. Zero, psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilinayotgan ijtimoiy psixologik himoya falsafasi ham shuni taqozo etmoqda[1].

«Gerontologiyada insonning individuallik darajasi yana shu bilan ifodalanadiki, undagi faoliyatning usullari va vositalari hech qachon tayyor holdagi barcha uchun bir xil umuminsoniy tajribalardan iborat bo‘la olmaydi. har bir inson o‘z individual sifatlari va filogenezdagi xususiyatlari asosida ijtimoiy faollik taqozo etgan faoliyatning mustaqil sub‘ektiga aylanib boradi. Bu bilan jamiyat har bir individning o‘z hayotiy poydevori uchun muhim bo‘lgan «g‘isht»ni o‘zi barpo etishida ijtimoiy shart-sharoit yaratib beradi»

Psixologik xizmat jarayonida hisobga olinishi va tadqiq qilinishi muhim bo‘lgan ustanovka muammosi V.M.Snayder tadqiqoti bo‘yicha o‘z-o‘zini kuzatish jarayoni bilan bog‘liq holda, shuningdek ustanovka va xulq-atvor hamjihatligidan dalolat beruvchi «layoqatlilik printsipi zamiridagi empirik ma‘lumotlar qayd etilsa, Dyuval’ va Vixland tadqiqotlari ustanovkani «o‘z-o‘ziga diqqatni qaratish» nazariyasi asosida tadqiq qiladi va tegishli ko‘rsatmalar beradi.

Psixologik muhofaza va ustanovka uyg‘unligining metodologik asoslarini talqin qilar ekanmiz, psixologiya fanida ma‘lum va mashxur D.N.Uznadze maktabi tadqiqotchilari tomonidan ustanovka muammosining maxsus predmet sifatida ishlab chiqilib ilmiy xulosalar chiqarilganligini unutmashimiz kerak[2].

Bir qarashda «ustanovka» va «ijtimoiy ustanovka» tushunchasi bir-biriga juda yaqin va o‘xshash. Ayniqsa, shaxs, faoliyat, yo‘nalish, tayyorgarlik, munosabat tushunchalari ikkala tushuncha uchun ham birday ahamiyat kasb etadi. qolaversa, bularni bir-biridan ajratgan holda ta’riflash ham juda mushkul. Lekin fanda aniqlik va har bir sohaning ilmiy yo‘nalishi nuqtai nazaridan, shuningdek, ustanovka muammosining umumiy psixologiyadagi va ijtimoiy psixologiyada tutgan o‘rni va o‘ziga xos vazifalarini belgilash maqsadida «ustanovka» va «ijtimoiy ustanovka» tushunchalari shartli ravishda qabul qilingan. Balki, bu-ustanovka muammosini yanada chukurroq, yanada mukammalroq o‘rganishga xizmat qilar.

Ustanovka muammosining ijtimoiy psixologiya fanining eng muxim ob’ekti ekanligini, hatto D.N.Uznadze tomonidan keltirilgan quyidagi ta’rifda ham ko‘rish mumkin:

Ustanovka ma’lum faollik holatiga tayyorgarlik. Ayni paytda, sub’ekt ehtiyoji va unga mos ob’ektiv vaziyatning yaratilishi bilan bog‘liq sub’ektning bir butun dinamik holatidir. Bu o‘rinda ob’ektiv vaziyat bilan bog‘liq psixologik himoyalani shuning shaxs faolligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillarning o‘rni va ahamiyati alohida o‘rin tutganligi ko‘rinib turibdi. Lekin D.N.Uznadze o‘z tadqiqotlarida shaxsning oddiy fiziologik ehtiyojlarini o‘rganish va tahlil qilish asosida ustanovka qonuniyatlarini ochib beradi va ilmiy xulosalar qilish bilan kifoyalanadi. Ijtimoiy psixologiyada esa bugungi eng muhim va dolzarb muammolardan biri-shakllangan ijtimoiy ustanovkaning hayot va faoliyat mazmuniga qarab o‘zgarishi yoki o‘zgarmasligini aniq dalillar misolida asoslab berishdir. Bu borada ham g‘arbda ma’lum tadqiqotlar mavjud. Binobarin, bixevioristik yo‘nalishdagi sotsial psixologik oqim namoyandasi K.Xovlondning fikricha ijtimoiy ustanovka o‘rgatish yoki ijtimoiy psixologik ta’sir yo‘li bilan o‘zgarishi mumkin. Ya’ni insondagi turli xil ustanovkalarni o‘zgartirish uchun unga nisbatan rag‘batlantirish yoki jazolash tizimini o‘zgartirish mumkin[3].

**Xulosa.** Gerontologiyada psixologik xizmatni yo‘lga qo‘yishning nazariy va metodologik asoslari haqida gap borganda psixologik xizmat obyekt va subyekti hisoblangan shaxsga munosabat tizimi asosida yondashuv istiqbollari ko‘rsatib beruvchi tadqiqotlarga ham alohida to‘xtalishga to‘g‘ri keladi.

Chunki, shaxsning psixologik xizmat jarayonida namoyon bo‘luvchi va rivojlantirib borilishi muqarrar bo‘lgan o‘z-o‘ziga, o‘zgalarga (shaxslararo) va faoliyatga nisbatan tarkib topayotgan munosabatlarning ijtimoiy saviyasini o‘rganmay,

tahlil qilmay turib uning o‘z-o‘zidagi noxush hislardan, o‘zgaralar bilan hamkorlik o‘rnatishi bilan bog‘liq ziddiyatli vaziyatlardan, faoliyatdagi muvoffaqiyatsizliklardan psixologik muxofaza qilishga qaratilgan tadbirlar ko‘lamini belgilab bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan, munosabatning turli sohalaridagi ijtimoiy psixologik mezonlari bo‘yicha tadqiqot olib borgan faylasuflar, psixologlar, sotsiologlar, psixofiziologlar va pedagoglar barchasi munosabatning ma‘lum sohalarini ilmiy jihatdan asoslab beradilar.

Psixologiya fanidagi keyingi qator ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jamiyatdagi har bir shaxs faoliyatidagi ijtimoiy-psixologik samaradorlikni ta‘minlamay turib, mazkur shaxsning, aniqrog‘i ushbu shaxslardan iborat bo‘lgan jamiyatning taraqqiyotini to‘laqonli saviyada tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu boisdan ham shaxs, faoliyat va ijtimoiy muxit uyg‘unligiga, ayniqsa shu uyg‘unlikning bevosita ta‘min etilishiga xizmat qiluvchi shaxs faolligi masalasiga olimlar o‘zlarining qator nazariy-ilmiy fikrlarini bayon etganlar. Demak, shaxs faolligi, avvalo, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z imkoniyatlari ko‘lamidan unumli foydalana olishga intilish jarayoni ekanki, bu jarayonni muntazam ravishda o‘rganish va rivojlantira borish shaxs taraqqiyotini ta‘minlovchi jamiyatning muhim vazifalaridan biri hisoblanmog‘i muqarrar. Umuman, shaxs faolligini tushunish, tushuntirish va ilmiy jihatdan asoslashga bag‘ishlangan va ayni paytda psixologik xizmat vazifalarini belgilash uchun muhim bo‘lgan izlanishlarni shartli ravishda ma‘lum yo‘nalishlarga bo‘lish mumkin. Zero, har bir yo‘nalish tadqiqotchilari shaxs faolligini u yoki bu g‘oyada turib tahlil qiladilar va tegishli xulosalar chiqaradilar. Tadqiqotlarimizni amalga oshirishda esa biz ushbu yo‘nalishlarda qayd etilgan nazariy-ilmiy xulosalarni ma‘lum darajada metodologik asos sifatida qabul qildik.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov V.M. “Ijtimoiy psixologiya asoslari”. -T.:O‘qituvchi, 1994. -95 b.
2. Sh.R.Barotov. “Ta‘limda psixologik xizmat”. Buxoro - 2007
3. Saylaubekovna R. R. Fertil atamasi va fertil yoshdagi insonlarning psixologik xususiyatlari //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2023. – T. 1. – №. 3. – S. 21-24.
4. R.R. Saylaubekovna, S.N. Alisherovna, The essence of the concept of family life in modern psychology. Asian Journal Of Multidimensional Research. 2023.
5. Т.М. Адизова “Психокоррекция”.Т.2006.

## Ota-onalik rollarining zamonaviy psixologiya fanidagi mohiyati

Ma'mun universiteti

“Psixologiya va tibbiyot” kafedrası

prof.v.b., mustaqil izlanuvchi-

**Razakova Rayxan Saylaubekovna.**

“Psixologiya” yo‘nalishi 24-2 guruh talabasi

**Radjapova Dilnura Anvarbekovna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ota-onalik rollarining zamonaviy psixologiya fanidagi mohiyati xususida qimmatli fikrlar yuritilgan.

**Kalit so‘zlari:** oila, axloq, e‘tiqod, nikoh, ota – ona, farzand.

**Kirish.** Bugungi kunda ham inson o‘zining to‘laqonli baxtini his etishida oila va undagi shaxslararo munosabatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. 24 iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Facebook ijtimoiy tarmog‘idagi rasmiy sahifasida davlat rahbari tavalludining 61 yilligiga bag‘ishlangan «Janob Prezident» nomli hujjatli film namoyish qilindi. Intervyuda O‘zbekiston prezidenti oila va baxt haqidagi fikrlarini o‘rtoqlashdi. Uning fikricha, har bir inson hayotida eng muhimi, bu — oila. «Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat’i nazar, kim bo‘lishidan qat’i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e‘tibor bermasa, hech qachon natija bo‘lmaydi.

Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e‘tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o‘zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman», - dedi u. «Odam baxtliman deyishga qanchalik haqqi bor? Agar oilang bilan sen baxtli bo‘lsang, baxtliman deyishga haqqing bor. Faqat oilam emas, xalqim baxtli bo‘lsa men o‘zimni baxtli deb bilaman», - deya ta’kidladi prezident[1].

Haqiqatan ham, oila muqaddas dargoh, chunki u insonning eng yaqin qarindoshlaridan tashkil topuvchi maskan, uning har bir a‘zosi bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi, bir-biri bilan samimiy munosabatda bo‘ladi, bir-biriga ko‘mak beradi,

xatolarini anglashga va ko‘maklashishga yordam beradi va bu muhitda inson kamol topadi. Shuning uchun ham oila jamiyatning eng muhim bo‘lagi hisoblanadi va davlatimiz tomonidan doimo katta e‘tibor qaratiladi.

Shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, bugungi kunda inson faoliyatining muvaffaqiyatli amalga oshishi uning avvalambor o‘zini, shu bilan birga o‘zga insonlar hislarini tushuna olishi va bunga muvofiq ravishda munosabatlarni o‘rnata olishiga bog‘liq. Inson shaxsini shakllantirish oiladan boshlanadi; xususan, bolada iroda, odatlar, fe‘l-atvor, xulq, atrofga munosabat, e‘tiqod va qarashlar vujudga keladi. Shu bois turmushda insonni kamol toptirish sharoitlari, ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatlarini izchil o‘rganmay turib, shaxsning xususiyatlari va ularni keltirib chiqaruvchi omillar to‘g‘risida fikr yuritish mumkin emas.

Oila a‘zolarining o‘zaro muomalalarini tadqiq qilgan venger sotsiologi M. Komloshi 10- 14 yoshdagi maktab o‘quvchilarining o‘qishga va mehnatga bo‘lgan munosabatiga bevosita ta‘sir qiluvchi oila muhiti (vaziyat, sharoit, holat) omillarini to‘rt guruhga ajratadi:

1) ota-onalarning jamoatchilik faoliyati (ularning mafkuraviy qarashlari va ishga nisbatan munosabatlari);

2) oila ichidagi munosabatlari (ota va ona munosabati, ota-onalarning buva va buviga munosabatlari, aka-ukalar va opa-singillarning o‘zaro munosabatlari);

3) ota-onalarning tarbiyaviy-pedagogik faoliyati (ularning tarbiyaviy muammolari, qiziqishlari, maktab bilan hamkorliklari, o‘quvchilarga dars tayyorlash kezida ota-onalarning yordami, ularning tarbiyaviy ahamiyati);

4) oilada o‘quvchining faoliyati (o‘quvchining kundalik tartibi, xo‘jalik ishlaridagi muayyan majburiyati) va boshqalar. M.Komloshi yiqqan materiallarini tahlil qilib, oila muhiti (vaziyati, sharoiti, holatini uch toifaga: ijobiy, o‘zgaruvchan va salbiy toifalarga ajratadi.

Psixolog olim V.I.Selivanov oilada shaxsni shakllantirish jarayonini o‘rganib, baxtli bolalik-bu oiladagi quvonchli hamjihatlikning hamda otaonalarning bolalariga g‘amxo‘rligining samarasidir, degan xulosaga keladi.

Muallif oilalarni yo‘nalishiga qarab, uch toifaga mansub ekanligini ko‘rsatib beradi:

ijtimoiy-ilg‘or yo‘nalishdagi oila, ziddiyatli yo‘nalishga ega bo‘lgan oila, past darajadagi ijtimoiy yo‘nalishga mansub oila. Birinchi toifaga xos bo‘lgan oilalar bizdagi oilalarning ko‘pchilik qismini tashkil qiladi.

Bunday oilalarda shaxslararo munosabatlar axloq prinsiplari va qoidalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi, shuningdek har tomonlama kamol topgan shaxsning ijtimoiy ideali (yuksak orzu timsoli) nazarda tutiladi[3].

**Ijtimoiy-ilg‘or yo‘nalishdagi oilalarning** voyaga yetgan a‘zolari ishlab chiqarishda, korxonada, jamoat ishlarida faol qatnashadilar, ilg‘or madaniyatga nisbatan qiziqishlarini namoyish qiladilar, shuning bilan birga bu narsaga o‘z farzandlarida ham havas uyg‘otadilar. Oilada goho namoyon bo‘ladigan ziddiyatlarni juda qisqa muddatda hamjihatlik bilan bartaraf qiladilar. Ushbu toifaga mansub oilalarda xo‘jalik ashyolari, asboblari, qimmatbaxo materiallar har xil ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida qaraladi, bu narsalar shaxsning kelajak istiqboli bilan mutlaqo bog‘lanmaydi.

**Ikkinchi toifadagi oilada** barqaror yo‘nalish bo‘lmaydi. Oilaviy turmush munosabatlari uzluksiz ravishda biron-bir g‘oyaning boshqa g‘oya bilan o‘zaro niqoblangan kurashi bosqichida bo‘ladi; u yoki bu qarashlarning ustunligi, istiqboli hech qanday ahamiyat kasb etmaydi. Bunday holatning ko‘zga tashlanishi eskilik bilan yangilik o‘rtasidagi kurashni anglatmaydi. Er-xotinning yoki boshqa voyaga yetgan oila a‘zolarining murosasiz pozitsiyalari (nuqtai nazarlari) ko‘pincha ularning fe‘l-atvor xususiyatlaridagi tafovut negizi bilan bog‘liq bo‘lib, mutlaqo eskilik sarqiti mohiyatidan kelib chiqmaydi. Oilada so‘z bilan ish birligi masalasi bir-biriga qarama-qarshi yo‘nalishda bo‘ladi. Faqat burch hissigina, muayyan majburiyatni bajarishgina oila a‘zolarini o‘zaro birlashtirib turadi. Mana bunday oilalarda er-xotinning bolalarga ta‘sir o‘tkazish uchun kurashi, raqobati yaqqol namoyon bo‘ladi.

**Uchinchi toifaga mansub oilalarda** ko‘pincha meshchanlik udumi va ideallari hokimlik qiladi. Mazkur oilalarda barcha narsa yagona narsaga bo‘ysundirilgan, ya‘ni mol-dunyo to‘plashga, moddiy-maishiy jihatdan ustunlikka erishishga qaratilgan. Voyaga yetgan oila a‘zolarining, ota-onalarning korxonada, muassasada, tashkilotda mehnat qilishi ana shu ko‘zlagan maqsadga yetish vositasi sifatida, har qanday mehnat esa, ish xaqi miqdori bilan o‘lchanadi. Oila boshlig‘ining zo‘ravonligi, zolimligi, unga ko‘r-ko‘rona va so‘zsiz bo‘ysunishlik, sajda qilishlik, zaif va nimjon oila a‘zolari faolligini poymol qilishga intilish va hokazolar ustun bo‘ladi. Meshchanlik ideali va diniy e‘tiqod doirasidan tashqari chiqish hollari (kitob o‘qish, ijtimoiy turmush faoliyatida ishtirok etish) kamsitilib, bekorga vaqt sarflash deb baholanadi. Shu boisdan past darajadagi ijtimoiy

yo‘nalishga mansub oilalardan xudbin, qo‘rqoq, jamiyat uchun kam nafi tegadigan o‘g‘il-qizlar yetishib chiqishi mumkin.

Oiladagi munosabatlar ta‘sirida ilk bolalikdan umumiy ishga sodiqliq, vatanparvarlik, insonparvarlik, qat‘iylilik, qadr-qimmat hissi kabi yuksak insoniy hislar shakllana boshlaydi. Asta-sekin tug‘ishganlarga g‘amxo‘rlik, aka-ukalik va opa- singillik mehri, ota-onalarga muhabbat va shafqat kabi tuyg‘ular namoyon bo‘la boradi. Turmushdagi samimiy va oqilona munosabatlar, iliq ruhiy iqlim ta‘siri natijasida oila a‘zolarida kamtarlik, ko‘ngilchanlik, iltifot, sabr, uyatchanlik, to‘g‘rilik, yaxshilik, yumshoqlik, dilkashlik, mehribonlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, vijdonlilik, mehnatga mas‘uliyat, ozodalik, izzat-nafs, tejabtergashlik kabi shaxs xislatlari tarkib topadi.

Agarda oilalardagi turmush munosabatlari qo‘pollik, andishasizlik negiziga qurilgan bo‘lsa, u holda oila a‘zolari ruhiy dunyosida kekkayish, pismiqlik, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xatti- harakatlar qoidalarini sezmaslik, ularni mensimaslik, yalqovlik, mas‘uliyatsizlik, ifloslik, bag‘ritoshlik, shuhratparastlik, dimog‘dorlik, illatlari o‘nib chiqadi. Shaxslararo munosabatlarning bir necha ko‘rinishlari mavjud ekanligi ijtimoiy psixologiya hamda pedagogik-tarbiyaviy sohalarda qayd qilib o‘tilgan. Oila boshlig‘i hisoblangan ota-onalarning asosiy diqqat-e‘tibori axloq normalari va qoidalari talabidan kelib chiqqan holda o‘z farzandlarida ijobiy xarakter xislatlarini zamon ruhiga mos shaxs fizilatlarini shakllantirishga qaratiladi. Mazkur toifadagi oila a‘zolari davrasidagi suhbatlar, munozaralar, mulohazalar o‘zaro tenglik, o‘zaro hurmat ruhiga bo‘ysundiriladi.

Oilalarning munosabatlarining ushbu ko‘rinishida turli yoshdagi o‘g‘il-qizlarga maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy- pedagogik ta‘sir o‘tkazish tizimi o‘z xususiyati bilan ajralib turadi. Unday oilada shaxslararo munosabatda ta‘sir o‘tkazish sohalari yashiringan holda bo‘ladi. Shu boisdan, tasodifan voqeya va hodisalarning sodir bo‘lishi turlicha baholanadi va ularga bevosita aloqador oila a‘zolari turmush tajribasidan kelib chiqqan holda, rag‘batlantiriladi yoki jazolanadi. Mana bunday odilona amalga tushirilgan muloqot ta‘sirida o‘g‘il-qizlarda do‘stlik, dilkashlik, xushmuomalalilik, shaxsiy xatti- harakatida va mulohaza yuritishida mustaqillik, shaxsiy qarashlari saqlangan holda yangi me‘yor va talablarga moslashish, o‘z faoliyati uchun javobgarlik, emosional zo‘riqish davrida o‘z-o‘zini qo‘lga olishlik kabi muhim fazilatlar paydo bo‘ladi.

Oilalarning va nikoh paydo bo‘lishiga sababchi omillardan biri ayniqsa, bizning

sharoyitimizda farzand tug‘ilishidir. Farzandsiz er-xotin aloqalarini, umuman oilaviy munosabatlarni tasavvur qilish mushkul. Ilmiy manbalar tarixan insoniyat ota-ona va farzandlar munosabatlari o‘ziga xos bosqichlar va rivojlanish qonuniyatlarini boshidan kechirganligidan guvohlik beradi. Bashar tarixi shundan dalolat beradiki zamonlar osha ota-onaning bolaga nisbatan xususiy mulkday qarab, uning ustidan hukmronlik qilishi borgan sari farzand extiyojlari bilan hisoblashish, uning barcha istaklarini bajo keltirib, unga cheksiz g‘amxorlik ko‘rsatishgacha bo‘lgan munosabatlarini agar tarixiy davrlarga bo‘ladigan bo‘lsak, ota-onaning bolaga yondashuv usullari bo‘yicha qaror bosqichlarini boshdan kechirganligini ko‘rish mumkin[4].

Yuqorida tavsiflangan bolalarning natijalari ota-onalarning bilimlari, munosabati va amaliyotlari doirasini ko‘rib chiqish va tadqiqot tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan narsalarni aniqlashni ta‘minlaydi. “Munosabatlar” ota-ona tarbiyasi yoki bola rivojlanishining jihatlarini, jumladan, ota-onalarning roli va mas‘uliyati haqidagi qarashlar, istiqbollar, reaksiyalar yoki qaror qabul qilingan fikrlash usullarini anglatadi.

Munosabatlar umumiy tajribaga asoslangan madaniy e‘tiqodlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin va "amaliyotlar" ota-onaning xatti-harakatlari yoki bolaning qanday rivojlanishini shakllantirishi mumkin bo‘lgan bolalarni tarbiyalashga yondashuvlarni anglatadi. Umuman olganda, bilim bilish bilan bog‘liq, munosabat motivatsiya bilan bog‘liq va amaliyotlar jalb qilish yoki xatti-harakatlar usullari bilan bog‘liq, ammo uchtasi ham umumiy manbadan kelib chiqishi mumkin. Xulosa qilib aytganda ota - ona farzandiga nisbatan ongli, ilmiy munosabat qila olishi uchun ota -ona o‘zida yuqorida ta‘kidlangan barcha ko‘nikma va qobiliyatlar bo‘lishi darkor.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 1 мартдаги “Оила хотин-қизлар билан ишлаш, маҳалла ва нуронийларни қўллабқувватлаш имини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-81- сон мони// URL: <http://www.lex.uz>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga ijtimoiy xizmat va lamlar ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 3-yil 28-sentabrdagi PQ-319-son [qarori](#).

3. E.G'ozyiev- “Umumiy psixologiya”-1-kitob, T.Universitet 2002, 167 b.
4. R.R. Saylaubekovna, S.N. Alisherovna, The essence of the concept of life in modern psychology. Asian Journal Of Multidimensional Research. 2023.



**Research Science and  
Innovation House**

## **Bolalikda olingan ruhiy jaroxatlarning inson kelajak hayotiga ta'siri**

Ma'mun universiteti

“Psixologiya va tibbiyot” kafedrası

prof.v.b., mustaqil izlanuvchi-

**Razakova Rayxan Saylaubekovna**

“Psixologiya” yo‘nalishi 24-3 guruh talabasi

**Matyoqubova Muslima Baxrombekovna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalikda olingan ruhiy jaroxatlarning inson kelajak hayotiga ta'siri xususida qimmatli fikrlar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Barkamol inson, nosog‘lom muhit, xulq atvor, temperament.

**Kirish.** Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari jismoniy qobiliyatlarini shakllantirish, ularning ruhiy barqarorligiga erishish, qo‘rquv, irodasizlik va o‘ziga ishonchsizlikdan olib chiqish, shuningdek, yetuk inson bo‘lishlari, davr talablariga muvofiq faoliyat yurita olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu jarayonda maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ruhiyatini to‘g‘ri yo‘naltirish, xulq-atvorini to‘g‘irlash, jismoniy ta'lim orqali ularning jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini rivojlantirishning asosiy maqsadi - yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan barkamol insonlar etib shakllantirish. Barkamollik inson o‘zida na‘naviy va jismoniy yetuklikni mujassam etadi. Shunday ekan «ta'lim-tarbiya» kabi muhim va strategik masalaga eskicha qarash, eskicha bilim va tizim bilan yondashish mutkaqo mumkin emas. Bu borada eng zamonaviy va ilg‘or tizimni yaratmasak, oldimizda ko‘ndalang bo‘lib turgan bironta muammoni yecha olmaymiz. Bu ishlarni «jamiyatning tarbiyaga bo‘lgan munosabatini» butunlay o‘zgartirmasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi.

Psixolog olim B.Umarov mazkur muammoning subyektiv sabablariga quyidagilarni kiritadi. Xulq og‘ishining subyektiv sabablariga o‘smir shaxsining qiziqish ehtiyojlari, dunyoqarash va ma‘naviy olami, maqsad va yo‘nalishlari, qadriyatlari, huquqiy ongi, hayotiy rejalari, turmush tarzi va motivlari kiradi. Subyektiv

shart-sharoitlarga esa aholining demografik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, xususan, entopsixologik jihatkari, xarakteri, tempramenti, yoshi va jinsi mansub. Obyektiv sabablar sifatida jamiyatdagi nosog‘lom muhit, shart-sharoit, iqtisodiy va siyosiy beqarorlik, kichik ijtimoiy guruhlardagi ijtimoiy-psixologik sharoit, kishilar bilan munosabatlari namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda bolalar ruhiyatidagi o‘zgarishlar biror-bir shaxsga xos subyektiv xulq-atvor natijasi emas, balki subyektiv va obyektiv omillar, shart-sharoitlar, munosabatlar natijasi sifatida yuzaga keladi. Bolalar ruhiyatidagi salbiy o‘zgarishlarning kelib chiqishi sabablari bir necha omillar natijasida sodir bo‘ladi. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Oilaviy muhitning nosog‘lomligi.
2. Ota-onalarda tarbiya psixologiyasi va fiziologiyasi pedagogikasiga doir bilimlarning yetishmasligi.
3. Kun tartibining to‘g‘ri tashkil etilmaganligi.
4. Bolalarda har qanday jamoaga nisbatan adaptiv jarayonning qiyin kechishi.
5. Ommaviy axborot vositalarining salbiy ta‘siri.

Bolalarning tarbiyasiga to‘g‘ri yondashish uni muvaffaqiyatli o‘qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlarga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmi o‘sishi ham rivojlanishi ham turli yosh davrlarida xilma xil bo‘ladi. Abu Ali Ibn Sino, Y.A. Komenskiy, K.D. Ushinskiy, Abdulla Avloniyalar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o‘tgan.

Bolaning individual - o‘ziga xos xususiyatini bilish uchun tempramentning umumiy tiplari va bolaning o‘ziga xos xususiyatini o‘rganish metodikasini bilish muhim.

Temprament - lotincha «tempramentum» ya’ni «qismlarning bir-biriga munosabati» ma’nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga bo‘linadi:

1. Kichik yosh(3-4 yosh)
2. O‘rta yosh(4-5 yosh)
3. Katta yosh(5-6yosh)
4. Maktabga tayyorlov davri (6-7 yosh)

Bola ruhiyatidagi o'zgarishlardan biri bu ta'limda pedagogning unga haddan tashqari qattiqqo'lligi hisoblanadi. Ayniqsa, tarbiyalanuvchilarning yoshi va psixologik jihatlarini inobatga olmasdan tarbiyaning bunday yo'lini tanlash o'ta noto'g'ri yondashuvdir. Hatto bunday holatlarda tarbiyalanuvchilar ruhiyatida jiddiy muammolar kuzatiladi. Ya'ni norozilik, qo'rquv yoki agressiya natijasida emotsional holatning buzilishi, hayajonlanish, dipressiya xotiraning pasayishi va shunga o'xshash qator salbiy holatlarga olib keladi. Albatta ruhiy holatning buzilishi o'z navbatida tarbiyalanuvchilarning jismoniy rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Qidiruv va agressiya natijasida uyquning buzilishi, tez charchash, immun tizimining pasayishi kabilar kuzatiladi. Bolalarda kuzatiladigan qo'rquv ularning o'ziga bo'lgan ishonchining pasayishi, mustaqil fikrlashdan cheklanish, har qanday jamoaga nisbatan moslashuvchanlikning qiyin kechishiga olib kelsa, agressiya esa ulardan tajovuzkorlik janjalkashlik, urushqoqlik kabi illatlarning namoyon bo'lishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy muhitning nosog'lomligi bolaning kuchli stressga tushishiga, qo'rquv hissining yuqori bo'lishiga, ertangi kunga ishonchning so'nishiga va bola hulq-atvorining stabil holatda emas, aksincha o'zgaruvchan bo'lib rivojlanishiga olib keladi. Oilaviy muhit nosog'lomligi natijasida bola o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qotishi, o'z fikrining to'g'riligiga shubha bilan qarash, boahqalar tomonidan har qanday fikr hoh u to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lsin boricha qabul qilish ko'nikmalari rivojlanishiga olib keladi. Natijada bunday bolalar kelajagiga ishonchsiz o'z fikrini tog'riligida sobitqadam turolmaydigan, har qanday fikrni qabul qiluvchi shaxs bo'lib yetishadilar.

Ota-onalar farzandini hammadan ustun qo'yishi, aytganlarini o'z vaqtida to'la to'kis muhayyo qilish, hashamatli sharoit yaratib berish ko'p hollarda bolaning erka va tantiq bo'lib o'sishiga, boshqalar tomonidan har qanday yumush bajarilishini kutib o'zi uchun harakat qilmasligiga olib kelishi narijasida ularda birmuncha egoistlik paydo bo'ladi va bola psixikasi jumladan sezgi, idrok, xotira, diqqat tafakkuriga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Afsuski bu kabi salbiy holat bolalarning nafaqat ma'naviy-ruhiy holati, jismoniy rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Bunday bolalar hayotda irodasiz, sabr bardoshsiz, maqsad sari intilmaydigan, tavakkalchchi, dangasalik kabi illatlar qurshovida qoladi. Jismoniy va ruhiy tajriba integratsiyasi asosida tarbiyalangan yosh esa kelajakda har bir ishni reja asosida bajaradigan, yetti o'lchab bir kesadigan,

qiynchilik kelsa esankirab qolmaydigan, sabr bardoshli, irodali, eng muhimi ruhiyati yaxshi rivojlangan kishi bo‘lib yetishadi.

Bolalikdagi ruhiy jarohatlar insonning katta yoshdagi hayoti va psixologik holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki bolalikda olingan travmalar insonning o‘ziga bahosi, munosabatlari, stressga bardoshlilik va hissiy holatiga be’vosita ta’sir qiladi. Ijtimoiy munosabatlariga ham ta’sir qilib yaqinlikdan qo‘rqish, agressiya yoki haddan tashqari itoatkorligi kabi xatti-harakatlariga sabab bo‘lishi mumkin. Biroq bolalikda olingan jarohatlarning salbiy ta’sirini kamaytirish uchun sog‘lomlikni tiklash mumkin. To‘g‘ri psixoterapiya ijtimoiy qo‘llab quvvatlash va shaxsiy rivojlanishi ustida ishlash insonga o‘z travmalarini yengishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O.R. Avezov «Mutaxassislikka kirish» 2021-yil nashri
2. Muhamedova D.G‘, Mullaboyeva N.M, Rasulov A.I «Umumiy psixologiya» 2018-yil nashr
3. M.X. Karamyan, B.B Nurullayeva, E.V. Bondareva, M.X. Djumaniyozova, F.E. Gaziyeva “ Rivojlanish psixologiyasi “ Toshkent-2023  
Abdullayeva Oybek Qurbonovich «Bolalar ruhiyatidagi salbiy o‘zgarishlar omillari va ularni bartaraf etish.

**Research Science and  
Innovation House**

**Oilalarda ota-ona va farzand o‘rtasidagi  
munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarining nazariy tahlili.**

Ma‘mun universiteti

“Psixologiya va tibbiyot” kafedrası

prof.v.b., mustaqil izlanuvchi-

**Razakova Rayxan Saylaubekovna.**

“Psixologiya” yo‘nalishi 24-3 guruh talabasi

**Baxtiyorova Gulasalxon Oybek qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oilalarida ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarining nazariy tahlili amalga oshirilgan.

**Kalit so‘zlari:** oila, axloq, e‘tiqod, nikoh, ota – ona, farzand.

**Kirish.** Mamlakatimizda oila, oilaviy munosabat, yoshlar tarbiyasi masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Biroq yurtimizda yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamol topishlari uchun hukumatimiz va Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hamda bu sohaga berilayotgan katta e‘tiborga qaramay, o‘smir-yoshlar o‘rtasida giyohvandlik, jinoyatchilik, tartibbuzarlik kabi mentalitetimizga, etnik xususiyatlarimizga xos bo‘lmagan illatlarning ko‘payishi kuzatilmoqda.

Bugungi kunda jahon miqyosida oilaviy munosabatlar, xususan, o‘smirlik yoshidagi o‘zaro munosabatlar, ota-ona va farzand o‘rtasidagi nizolar va ularning kelib chiqish sabablarini o‘rganish masalalari dolzarb muammolardan sanaladi. Chunki shaxsning shakllanishida oiladagi muhit, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy nizolar oqibatida ro‘y berayotgan holatlar, oilalarning barbod bo‘lishi, millatlar, davlatlarning o‘zaro kelishmovchiligi yoshlarning tarbiyasiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatishidan dalolat beradi. Hozirgacha soha mutaxassislaridan ko‘pchiligi oila muammolarining qator qirralarini o‘z ilmiy izlanishlarida o‘rganganlar. Ushbu masala yuzasidan xorijlik ayrim psixologlar, xususan, D. Mayers, V. Kvinn, F.Zimbardo va boshqalarning tadqiqotlarida yoritib berilgan[1].

Shuningdek, rus hamda fransuz olimlari tomonidan ham muayyan darajada o‘rganilgan. Olimlar tomonidan to‘plangan ilmiy dalil va xulosalarning barchasi

mohiyatan o‘zbek muhitiga to‘g‘ri kelmasligi aniq. Negaki, bir millatning urf-odati, an‘ana va milliy qadriyatlari boshqasinikiga mos kelmaydi.

**Muhimi, O‘zbekistonda oila va undagi o‘zaro munosabatlar alohida qadriyat sifatida qaralishi** ham bu borada yurtimizgagina xos bo‘lgan ma‘lum qonuniyatlarning borligini dalillaydi. Shu bois ham, mavjud muammoni xududiy va etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda o‘rganish zarur.

Ta‘kidlash joizki, Sharq mutafakkirlari Bahovuddin Naqshbandi, Ahmad Yassaviy, At-Termiziy, Al-Buxoriy, Bobarahim Mashrab, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Burhoniddin Marg‘iloniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Ahmad Donish, Yusuf Xos Xojib, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, hamda hozirgi davr O‘zbekiston olimlari M.G. Davletshin, G‘.B. Shoumarov, V.M. Karimova, E.G‘. G‘oziyev, Sh.R. Baratov, M.Mamatov, B.M. Umarov va boshqalarning tadqiqotlarida ham oila muammosi, undagi er-xotin o‘rtasidagi nizoli munosabatlar hamda barcha oilaviy munosabatlar farzand tarbiyasiga qay darajada ta‘sir etishi muammosi mahalliy shart-sharoitlar nuqtai nazaridan o‘rganilgan[2].

Oila va undagi shaxslararo munosabatlar, uning shaxs shakllanishiga ta‘sirini o‘z madaniy muhiti sharoitida xorijiy psixolog olimlardan R.Brazington, T.Dumitrashku, F.Galton, U.Toumen, R.Richordson, R.Zayons, G.Xomentauskas va boshqalar ushbu sohani tadqiq qilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan ushbu soha bo‘yicha V.V.Boyko, G.M.Breslav, A.G.Volkov, S.V.Kovalev, V.P.Levkovich, E.I.Pavlovich, V.L.Titarenko kabi bir qator olimlar oila muammolari, shaxs oilasidagi genetik va orttiriladigan xususiyatlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Hozirgi kunga kelib mamlakatimizda oila muammolari, undagi shaxslararo munosabatlarining — ijtimoiy-psixologik — jihatlari — to‘g‘risida — F.Akramova, D.Abdullayeva, V.Karimova, A.Kadirova, Z.Nishonova, G.Niyozmetova, N.Salayeva, N.Sog‘inov, R.Samarov, Z.Rasulova, M.Utebergenov, G‘.Shoumarov va boshqa olimlarimizning olib borayotgan tadqiqotlarini alohida ta‘kidlab o‘tishimiz lozim[3].

Oila inson hayotida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Aynan oilaviy munosabatlar va muloqotda inson ehtiyojlari amalga oshiriladi, ya‘ni:

- ma‘lum bir guruhga mansublik tuyg‘usini beruvchi insoniy aloqalarga bo‘lgan ehtiyoj;
- o‘zini-o‘zi tasdiqlash zarurati, bu his-tuyg‘ular va uning boshqa odamlar uchun ahamiyati haqida haqiqiy dalillar;

- mehrga bo‘lgan ehtiyoj, bu o‘zaro iliqlikni his qilish imkonini beradi;
- shaxsning o‘ziga xosligi, individualligi hissini shakllantiradigan o‘z-o‘zini anglash zarurati;
- namuna bo‘ladigan orientatsiyaga bo‘lgan ehtiyoj.

Qadim zamonlardan beri odamlar oiladagi munosabatlar, bolalarni tarbiyalash tajribasini to‘plashdi va kristallashtirdilar. Ushbu maqolaning maqsadi oilada bola va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar masalasiga asosiy falsafiy va psixologik-pedagogik yondashuvlarni yoritib berishdir. Falsafiy va psixologik adabiyotlarda bola-ota-ona munosabatlarining mazmuni va mazmunini tushunishning bir qator nazariy yondashuvlari shakllangan[4].

Z.Freydning klassik psixoanalizida ota-onalarning bolaning aqliy rivojlanishiga ta’siri markaziy o‘rinni egallaydi. Ota-onalar (ayniqsa, ona) - bu bola eng erta va eng muhim erta tajribaga ega bo‘lgan odamlardir. Ota-onalarning bolaga g‘amxo‘rlik qilish haqidagi odatiy kundalik tashvishlari sezilarli psixologik ta’sir ko‘rsatadi. Chaqaloqning hayotiy ehtiyojlarini qondirishning to‘liqligi va yo‘li bog‘lanish, ishonch, hayot uchun faollik asosiga aylanadi.

Psixoanalitik yondashuvning vakili E.Erikson hayot davomida shaxsning shakllanish jarayonini tahlil qilib, har bir shaxs uchun psixoseksual emas, balki psixososyal ziddiyatlarni hal qilish zarur degan xulosaga keldi.

Sog‘lom shaxsni shakllantirishning asosi - avtonomiya (o‘zini tuta bilish, mustaqillik hissi), dunyoga asosiy ishonch hissi (ichki ishonch), tashabbus (o‘z faoliyatini saqlab qolish uchun muammolarni hal qilish qobiliyati). ijtimoiy va motorli) - ota-onaning tegishli mavqei (ishonchlilik, ishonch, mustaqillikni rag‘batlantirish), bola tomonidan boshqariladigan makonning ko‘payishi sharoitida yotqiziladi[5].

Psixoanalitik pedagogikaning vakili K.Byutner oila va muassasa ta’limi o‘rtasidagi munosabatlarni, xususan, videofilmlar, o‘yin sanoati va o‘yinchoqlarning tobora ortib borayotgan ta’sirini ko‘rib chiqadi. Ushbu sohadagi so‘nggi tadqiqotlar Internetning shaxsiyatning shakllanishiga ta’siri, Internetga qaramlik bilan bog‘liq. Ushbu masalalar batafsil ishlab chiqishni talab qiladi, ularni shakllantirish bugungi kunda juda dolzarb bo‘lib, mualliflar o‘zlarining bir qator oldingi ishlarida ushbu muammoni hal qilishgan.

**Xulosa.** Mamlakatimizda barcha aholining 97 foizi oilalarga birlashib yashaydi, qolgan uch foizi, ya'ni yolg'iz qolgan keksalar, ota-onadan yetim bo'lib qolgan va mehribonlik uylarida tarbiyalanayotganlar, boshqa yurtdan kelib vaktinchalik O'zbekistonda istiqomat qilayotganlar ham oila a'zolari, yaqinlari, yurtdoshlari, turli davlat va nodavlat tashkilotlaridagi insonparvar odamlarning mehridan darig' emas. Shu ma'noda oila - inson o'z baxti va saodati, orzu-xavaslari, maqsad-muddaolarini mushtarak qilgan, o'zini inson sifatida idrok etib hayot nashidasini suradigan mukqaddas makondir.

Oila - ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik turfa va murakkab bo'lishiga qaramay, ayniqsa, XIX va XX asrlarda ro'y bergan buyuk o'zgarishlar va islohotlarga dosh bera olgan ushbu maskan o'z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtai nazaridan sog' omon saqlanib qolgan tuzilmadir.

Oila - jamiyatning ajralmas bo'lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi.

Zero, har bir inson uchun oila - bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan boglaydi, ya'ni o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli baxtiyor his etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Н.Ф.Дилова (2018). Буюк аждодларимизнинг таълимотларида мужассамлашган ўқитувчи билан ўқувчилар ҳамкорлигининг педагогик хусусиятлари. *Замонавий таълим.* №3, 63-68 б.
2. О. Eshmuradov. Oila mustahkamligini ta'minlashning ijtimoiy-psixologik omillari mavzusidagi psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi 2022 yil
3. O.E.Eshmuradov - Oilaning ma'naviy-axloqiy xususiyatlari va oila mustahkamligini ta'minlash imkoniyatlari *Academic research in educational sciences*, 2021
4. Razakova R.S, & Yusupova Iroda Narimonovna. (2024). Bog'cha yoshidagi bolalarda xotiraning rivojlanishi. *Journal of science-innovative research in uzbekistan*, 2(2), 196–201. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10649708>

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 02. Issue 04. April 2025**

5. Razakova Raykhan Saylaubekovna, Sherzhanova Nodira Alisherovna, & Solayev Og'abek Ilhombek o'g'li. (2024). The Essence of the Concept of Family Life in Modern Psychology. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10570709>
6. Razakova Raykhan Saylaubekovna, Kushnazarova Ugiljon Rustambekovna, & Rajabboyev Asror Alisherovich. (2024). Family -as aStrong Union in the Formation and Manifestation of the Individual. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10570682>
7. Razakova Rayxan Saylaubekovna. (2023). Fertil atamasi va fertil yoshdagi insonlarning psixologik xususiyatlari. Journal of science-innovative research in uzbekistan, 1(3), 21–24. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8115834>
8. Razakova R.S, Qurbonboyeva Mohida, & Qodirova Shahzoda. (2024). Bog'cha yoshi bolalarda nutq taraqqiyoti. JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1), 73–79. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10467087>



**Research Science and  
Innovation House**

**BOLA SHAXSIGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM ASOSIDA ESTETIK  
TARBIYANING ESTETIK AHAMIYATI**

**JDPU sirtqi bo‘lim o‘qituvchisi  
Ahunbabayeva Sh. Sh.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida “Bola shaxsigacha yo‘naltirilgan talim asosida estetik tarbiyaning estetik ahamiyati mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, nomlanib unda badiiy-estetik dunyoni badiiy jihatdan anglash, san‘at dunyosiga oshno etish, badiiy-ijodiy kobiliyat yuzasidan ko‘rsatmalar o‘rin olgan.

**Аннотация:** данная статья посвящена теме “эстетическое значение эстетического воспитания в дошкольных образовательных организациях на основе личностно-ориентированного обучения ребенка”, в названии которой содержатся указания на художественное осмысление художественно-эстетического мира, познание мира искусства, художественно-творческие способности.

**Kalit so‘zlar:** mashg‘ulot, ta‘lim o‘yin, aqlan yetuk, ma‘naviy boy, har tomonlama rivojlangan, tug‘ma layoqati, qiziqishi, ehtiyoj, , milliy va umuminsoniy qadriyatlar.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida ta‘lim olishi va kasb egallashi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Yangi sharoitlardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni va 2019-yil 16-dekabrda qabul qilingan “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonun hamda 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PG‘-4947-son farmoniga muvofiq

maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimida ham bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar natijasida mamlakatimizda maktabgacha ta’limga bolalarni keng qamrab olish, maktabgacha ta’lim va tarbiya tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish hamda bu sohaga zarur bo’lgan yetuk mutaxassislarni tayyorlash borasida bir qancha yutuqlarga erishildi. Bu sohadagi rivojlanishlarning davomiyligini ta’minlash va yangi O‘zbekistonni barpo etadigan va rivojlantiradigan kelajak avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish maqsadida 2022-yil 27-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo’ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-son farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga muvofik maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini rivojlantirish uchun quyidagi maqsadlar bilgilab olindi:

“Bola shaxsiga yo‘naltirilgan talim asosida badiiy-estetik tarbiyaning ahamiyati” mavzusini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Badiiy-estetik rivojlanish insonning vokelikka estetik munosabatini, shu jumladan, dunyoni badiiy jihatdan anglash, san’at dunyosiga oshno etish, badiiy-ijodiy kobiliyat, badiiy-estetik qadriyatlar tizimini maksadga yo‘naltirilgan tarzda shakllantirishga imkon beradi.

Badiiy-estetik rivojlanish estetik tarbiya negizida amalga oshadi. Ta’lim-tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham o‘z diqqat-e’tiborini alohida shaxsga va ijtimoiy guruxga qaratadi. Estetik tarbiya ham umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Chunki, tarbiya inson ongiga, xis-tuyg‘ulariga, tasavvuriga, e’tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-xarakatlariga, xulkatvoriga ta’sir utkazishni uz oldiga maksad va vazifa kilib kuyadi.

Estetik tarbiya ham ana shu umumiy maksad va vazifaning tarkibiy kismi sifatida amal kilib, tarixiy-ijtimoiy jixatdan ahamiyatga molik xodisani anglatadi. Shuni ta’kidlash joizki, qadimgi dunyoda umuman tarbiya maksadi estetik asosda namoyon bulgan. Masalan, kadimgi yunonlarda estetik tarbiya maksadi fuqarolarning xar tomonlama rivojlanishiga, "rux va badan" hamoxangligini qaror toptirishga yo‘naltirilgan edi. Aflotun va Arastu kabi zabardast mutafakkirlar ta’limotlarida estetik tarbiya tizimining bir-biridan farqli tomonlari bulgani xolda umumiylik ham mavjud bulib, u yagona estetik orzuni qaror toptirishga, yagona axloqiy xulkatvor va fuqarolik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilgan edi.

Avvallari estetik tarbiya uta tor va bir tomonlama talqin qilinlar, ya’ni uni san’at asarlarini tug‘ri idrok etish, bu bilan alohida lazzatlanish yoki biror san’at turini bilib

olib, muayyan badiiy kunikmalarga ega bulish doirasida in'ikos etilar edi. Ba'zan estetik tarbiyaga odamlarda yuksak estetik did-farosatni shakllantirish Bugungi kunda badiiy tarbiyaning asosiy maqsadi - munosabatlarni san'at vositalari yordamida shakllantirishdir. Estetik tarbiya bilan badiiy tarbiyani bir-biriga tenglashtirish ham, qorishtirish ham, qarama-qarshi kuyish ham xato bulardi. Shuni nazarda tutish lozimki, estetik tarbiya san'at bilan chegaralanib qolmaydi, balki uning asosiy mazmuni insonning vokelikka estetik munosabatini faollashtirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Vokelikka estetik munosabat o'z xususiyatlariga ega bulgan xolda nisbiy mustakillikka ham ega bulib, foydali-amaliy, ilmiy-nazariy munosabatlarni ham o'z ichiga oladi. Binobarin, voqelikka bulgan inson munosabatining xar qanday kurinishi estetik mazmundan ajralib qolsa, u asl insoniy mohiyatini yuqotib quyadi.

Kurinib turibdiki, estetik munosabat xayotga iste'molchilik nazari bilan karashdan xalos bulish, dunyoga keng va xolis karash, odamlarda, tabiat vokea-xodisalarida, narsalarda, eng avvalo, jamiyat, insoniyat, tarakkiyoti uchun xizmat kiladigan ijtimoiy ahamiyatli bulgan fazilatlarini kura olish qobiliyatini tarbiyalaydi.

Estetik tarbiya, eng avvalo, kishilarning estetik didlari shakllanishiga katta ta'sir o'tkazadi. Shaxs uzligi uning estetik didi orqali namoyon buladi. Estetik didda inson aqliy va xissiy dunyosi, orzu-umidlari, talab-extiyojlari, maksad-manfaatlari ruyobga chiqishi ifodalanadi. Did faqat kayfiyat baxolarigina emas, balki insonning samarali faoliyati vositasida ham tarkib topadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

#### **1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017 yil 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”. 2017. – 488 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz – T.: “O'zbekiston”. 2017. – 592 b.

#### **2. Normativ-huquqiy hujjatlar**

4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2019. – 46 b.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 02. Issue 04. April 2025**

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi 4947-son Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” gi PF-5106 – sonli Farmoni. 5 iyul 2017 yil.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 5789-sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarori.

**Research Science and  
Innovation House**

**BOSHLANG’ICH SINFLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY  
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AMALIYOTDAGI TADBIQI**

**Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

**Sirtqi bo‘lim o‘qituvchi**

**Tursunova Umida Xolmamatovna**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarda foydalanish haqida ma‘lumotlar berilgan va shuningdek bu borada amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar ham ko‘rsatib o‘tilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об использовании современных технологий в обучении учащихся начальных классов общеобразовательных школ, а также указана работа, которую необходимо провести в этом направлении.

**Annotation:** This article provides information about the use of general secondary schools in modern technologies in the education of primary students, and also shows the work that should be carried out in this regard.

**Kalit so‘zlar:** Xorijiy tajribalar, ta‘lim sifatini baholash, o‘qituvchi, o‘quvchi, ilg‘or tajribalar, so‘rovnomalar, ta‘lim- tarbiya, o‘qitish usullari, ijodiy faoliyat, texnologik intizom.

**Ключевые слова:** Зарубежный опыт, оценка качества образования, Учитель, ученик, передовой опыт, анкеты, учебно - воспитательные, методические приемы, творческая деятельность, технологическая дисциплина.

**Keywords:** Foreign experiments, assessment of the quality of education, teacher, student, advanced experiments, questionnaires, educational training, teaching methods, creative activity, technological discipline.

Hozirgi vaqtda zamonaviy ta‘lim sharoitida o‘qitish usullari ta‘lim maqsadlarini o‘zgartirish, kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida qurilgan yangi avlod davlat ta‘lim standartini ishlab chiqish bilan bog‘liq murakkab davrni

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 04. April 2025

boshdan kechirmoqda. Bazaviy o'quv rejasida alohida fanlarni o'rganish uchun soatlar qisqartirilganligi sababli ham qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu holatlarning barchasi fanlarni o'qitish metodikasi sohasida yangi pedagogik izlanishlarni, ta'lim jarayoniga zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish bilan bog'liq bo'lgan o'qitish va tarbiyaning innovatsion vositalari, shakl va uslublarini izlashni taqozo etadi.

11. Касимова К.М. Анализ языка художественных произведений как вид языкового анализа. – Proceedings of International Conference on Scientific ..., 2024

12. ХУ Абсаламов. Ingliz tilida yozma nutq kompetentsiyasining tadqiqi. Международный журнал искусство слова 6 (4), 2023.



**Research Science and  
Innovation House**

**Oila mustahkamligini ta'minlashda ayolning o'rni**

**Ruzimova Feruza Madrimovna- UrDU Pedagogika va psixologiya  
kafedrası katta o'qituvchisi**

Har bir oila boshqalarga o'xshamaydigan o'z shaxsiy individual qiyofasiga egadir. Oila a'zolarining ma'lumoti, ma'naviy talablari, iqtisodiy shart-sharoitlar turlicha bo'lishi sababli oiladagi kelib chiqadigan muammolar xam turlichadir. Insoniyat XXI asrga ulkan yutuqlar bilan birga katta muammolar bilan ham qadam qo'ydi. Bugungi kunda mamlakatlari bilan keng munosabatga kirisha boshladik, turli ma'naviy muommalar, ayniqsa oilaviy hayotda shaxslararo munosabatlar, shu munosabatlar negizi ayol psixologiyasida o'zgarishlar, xamda o'ziga xosliklar namoyon bo'lishi kuzatilmoqda. Odatda ayol shaxsi haqida hamisha beg'ubor bokiralik, soflik bag'ri kenglik, matonat, deb ta'riflaymiz, ba'zi bu ta'riflar o'zaro ma'noda namoyon bo'ladi.

Ayol kishi bir vaqtning o'zida 6-7 ta ijtimoiy rolni bajaradi, ya'ni u ayol, opa, suyuqli yor, hamkor, qaynona, volda vaziifalarni bajarishi lozim. Shuningdek, ayol oilaviy hayotga qadam qo'yganidan boshlab 8 ta vazifani bajarishi lozim:

Reproduktiv vazifa – yangi avlodni dunyoga keltirishi bunda bolaning jismonan sog'lom hamda psixologik sog'lom bo'lishi nazarda tutiladi.

Ijtimoiylashuv vazifasi – ijtimoiylashuvda qatnashadigan institutlar juda ko'p bo'lishiga qaramay biladi onani farzandga ijtimoiylashuv qonuniyatlarini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi.

Emosional qoniqish – farzandlariga mexr. Oqibat, quvonch va shunga o'hshash shaxs uchun zarur bo'lgan ijobiy his – tuyg'ularni albatta ayol kishi izlanishi zarur hisoblanadi. Hamdardlik muhitini, mehribonlikni aynan oilada ayol ko'proq namoyon qilishi zarur hisoblanadi.

Maqom vazifasi – odatda ayol kishi farzandlarga u kimning farzandi ekanligi, shu nomga sazovor bo'lishidek tuyg'uni shakllantiruvchi shaxsdir. Ba'zi onalar otani yomon, yoki u ota bo'lishiga arzimaydi kabi so'zlar bilan farzandlarini munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy vazifa – oilada ayol kishi iqtisodiy masalalarni to'g'ri va oqilona hal qilishidan ko'pgina oila a'zolari manfaatdor bo'ladi.

Demizitologik vazifa – baxt tushunchasini har bir ayol o‘ziga talqin qiladi, ammo oilada a‘zolarining hammasi baxtli bo‘lishi uchun javabgar shaxs ko‘proq ayol hisoblanadi.

Relaksatsiya vazifasi – ayol kishi oilada vaqtni to‘g‘ri taqsimlashi, ayniqsa a‘zolari o‘z vaqtida dam olishini, ko‘ngil olishini tashkil qilishi zarur hisoblanadi.

Regulyativ vazifa – oilada barcha munosabatlar boshqarilib boriladi, aynan shaxslararo munosabatlar, opaning – ukaga, singilning – akaga, kattalarning – kichiklarga, kichiklarning – kattalarga bo‘lgan munosabatlarini boshqarib borish albatta oilaning ayoli zimmasiga yuklatilgan bo‘ladi. Doimo siz bilan bo‘ladigan, jamiyatning tayanchi oila, oilaning tayanchi ayolning o‘z vazifalari beqiyos ularni qabul qilish, ijro qilish, bo‘ysunish, tan olish esa - har bir ayolni o‘ziga xos psixologik qiyofasini shakllantiradi. Har bir ayolning vazifalariga munosabati jamiyatga munosabati hisoblanadi.

Oila qanchalik inoq, uyushgan va mustahkam bo‘lsa, uning normativ ta‘siri ham shunchalik samarali bo‘ladi. Bunday oilada o‘zining qadriyatlaridan tashqari, jamiyatning qadriyatlari, qonun-qoidalar va normalar hurmat qilinadi, bola boshidan jamiyatda yashashga o‘rgatilgan bo‘ladi. Uning ahamiyati shundaki, farzand maktabgacha tarbiya muassasasida ham, keyinchalik maktab, kollej yoki liseyda o‘qiganda ham tartibli, intizomli, aytilgan vazifa, berilgan topshiriqlarni mas‘uliyat bilan vijdonan bajaradigan bo‘lib, bolalar jamiyatida hamisha o‘zining o‘rniga ega bo‘la oladi. Bunday farzandga turli bid‘atlar, bemaza chaqiriqlar, da‘vatlar ta‘sir etmaydi, mustaqil fikrli, pok vijdonli inson bo‘lib etishadi. Chunki, oila bu kichik jamiyat, jamiyatning kichiklashgan andozasi, oila mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham mustahkam bo‘lishini o‘zbek halqi juda yaxshi biladi, shuning uchun ham ayniqsa, mustaqillik yillarida oila bizning vatanimizda qadrlanadi, nikoh muqaddas rishta sifatida e‘zozlanadi.

Shaxsning jamiyatni faol ishtirokchisi sifatida shakllanishida oila muhim o‘rin egallaydi. Bola oilada tug‘ilib voyaga yetar ekan, yillar davomida oilada shakllangan munosabatlar tizimi bola psixologiyasiga ta‘sir ko‘rsatadi. Oiladagi kattalarning o‘zaro va farzandlari bilan bo‘ladigan shaxslararo munosabatlari, ya‘ni muloqoti, muomalasi, bolaga nisbatan munosabatlari orqali ta‘sir ko‘rsatadilar. Bu ta‘sir pirovard natijada bolaning dunyoni anglash tarziga atrof-muhitga odamlarga munosabatini namoyon etishiga, hatto fikrlash tarziga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Bu ta‘sirni aynan bir xil yo‘nalishdagi yo salbiy, yo ijobiy deb qarash noto‘g‘ri bo‘lar edi.

Chunki ma'lum sharoitlarda oilaviy ta'sirga bolaning beriluvchanlik darajasi uning bu ta'sirlarga munosabati qandayligiga bog'liq ravishda ta'sirning natijasi turlicha bo'lishi mumkin. Agar kattalar tomonidan ko'rsatiladigan tarbiyaviy ta'sirni mavjud ijtimoiy normativlar bilan taqqoslab berish imkoniyatiga ega bo'lsa, bola bunda o'zi uchun ijobiy deb hisoblangan andozaga ergashish ehtimoli yuqori bo'ladi. Lekin hayot tajribasi va kuzatishlar shundan dalolat beradiki oilaning tarbiyaviy kuchi, ayniqsa bolaning maktabgacha yosh davri yuqori bo'ladi va bu davrda kattalar tomonidan oilada bolaga ko'rsatiladigan ta'sir yetakchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Shunday ekan, shaxs sifatлари hatto fikrlash tarzi shakllanishi bilan oiladagi tarbiyaviy ta'sir usullari o'rtasida bevosita bog'liqlik bor deyishimizga yetarlicha asosimiz bor.

Oiladagi tarbiya berish usullariga to'xtalar ekanmiz, ularni shaxs faolligini qo'llab quvvatlovchi yoki faollikni cheklovchi ta'sir sifatida ikki toifaga ajratish mumkin bo'ladi. Jumladan, hamkorlik va aralashmaslik usullari shaxs faolligini cheklovchi ta'sir usuli sifatida qaralishi mumkin.

Xar qanday yangi fikrni tug'ilishi va uning rivojlantirilishi bu fikrning atrofdagilar tomonidan qanchalik qo'llab quvvatlanishiga bog'liq.

Ayniqsa, fikrning tan olinishida va e'tirof etilishi shaxsda fikrlashga bo'lgan extiyojni yanada kuchayishiga olib keladi. Demak, mustaqil fikrlash jarayonini shakllantirish oilada ota-onalarning bolaga nisbatan qanday munosabatda bo'lishlari ham bevosita bog'liq.

Agar yuqoridagilarni hisobga oladigan bo'lsak, kattalar tomonidan o'z ustunligini ko'rsatishga va faqat o'z fikrini o'tkazishga asoslangan tarbiyani diktaktikasi bolaning faqatgina kattalar talabi va xohishi yo'nalishida fikrlashga majbur etadi. Bu usulda kattalar tomonidan bolaga beriladigan ko'rsatma tanbehlar va xatto ba'zi hollardagi kamsitishlar bolaning fikr doirasini kattalar uchun ma'qul, kattalarga yoqadigan yo'nalish bilan cheklab qo'yadi. Bolaga o'ylab ko'rish biron-bir muammo ustida bosh qotirishga va uning yechimini mustaqil fikrlab topishga yo'l bermaydi bularning barchasi bolani mustaqil tafakkurdan mahrum etadi.

Xuddi shuningdek, tarbiyaning vasiylik amaliyotida ham bola bajarilishi lozim bo'lgan barcha vazifalarini kattalar o'z zimmasiga olishi evaziga bolada mustaqil tafakkur qilishga bo'lgan ehtiyoj rivojlanmay qoladi.

Oilada ijobiy psixologik muhitni bir me'yorda saqlash oila a'zolarining barchasiga taalluqli xodisadir. Farzandlar tomonidan uz fikrini erkin va mustaqil ifoda qilishi uchun quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim.

1. Emosional-psixologik madad, emosional yordam berish shaxslarning xissiyotlarini barqarorlashtirish va muloqotga kirishishning psixologik terapeyasini o‘tkazish;

2. Oila a‘zolari o‘rtasida yuksak ma‘naviy muloqot jarayonini yuzaga kelishini ta‘minlash;

3. Oila a‘zolari barchasining o‘rtasidagi muloqot jarayonida amalga oshirish lozim bo‘lgan masuliyat va majburiyatlarni tartibga solish;

4. Oila a‘zolarining bir-birlarini qo‘llab-quvvatlovchi polifoniya ya‘ni samimiylik asosida muloqot darajasidan to‘laqonli va samarali foydalanishga erishish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan tarzda bolani muloqot qilishga tayyorlab borilsa uni hayotga, turmushga tayyorlash oson kechadi. Ayniqsa, xayotiy qiyinchiliklar sharoitida qaror qabul qilish va yechimini topish imkoniyatini ijobiylashtiradi.

Oilada uning a‘zolari intizomi va madaniyatiga asos solinadi. Jamiyat qabul qilgan xamda inson hayotini yuqoriroq darajaga ko‘tara oladigan xatti-xarakterlar me‘yorigina qulay oilaviy sharoitlarda insonning tabiatiga singib ketadi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni ahloqiy, psixologik va jismoniy sog‘ligini mustaxkamlashda oilaning ma‘suliyatini oshirish - bu hozirgi davrning o‘ta muhim muammolaridan birini hal etish demakdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Андреева Т.В. Семейная психология: Учеб. пособие. - СПб.: Речь, 2004. - 243 с.
2. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi // O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan. 2006.-142 b.
3. Salayeva. N. Xorazm oilalarining etnopsixologik xususiyatlari: Avtoref dis. ... psixologiya fan. nomzodi. 19.00.05/ T.: 2002. - 24 b.
4. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma‘naviyati. – T.: Ma‘naviyat, 1998.-160b.
5. Shoumarov G.B., Haydarov I.O., Sog‘inov N.A. va boshq. Oila psixologiyasi: Akad. Litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun qo‘l. - T.: Sharq, 2010. – 296 b.

**GLOBALLASHUV VA GLOBALISTIKA. GLOB JARAYONLARNING  
SHAKLLANISH TARIXI**

Andijon Davlat Pedagogika Instituti o'qituvchilari

**Jabborova Sayyoraxon Muhammadqobilovna**

**Usmonova Shohsanam Shavkatovna**

Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti Kimyo Yo'nalishi talabalari

**Nazirova Mahliyo Solihjon qizi**

**Tursunboyeva Xonzoda Alisher qizi**

**ANNOTATSIYA:** Bu maqolada globallashuv jarayonining shakllanish tarixi, globallashuvning falsafiy mazmuni, global muommolar va ularning guruhlari, haqida batafsil ma'lumotlar beriladi.

**АННОТАЦИЯ:** В статье дана подробная информация об истории становления процесса глобализации, философском содержании глобализации, глобальных проблемах и их группах

**ANNOTATION:** This article provides detailed information about the history of the formation of the globalization process, the philosophical content of globalization, global problems and their groups

**Kalit so'z:** globallashuv, falsafa, global muommolar, resurslar, globalistika, fan-texnika inqilobi, kategoriya, dialektik yondashuv, jamiyat, Rim klubi, BMT.

**Ключевые слова:** глобализация, философия, глобальные проблемы, ресурсы, глобалистика, научно-техническая революция, категория, диалектический подход, общество, Римский клуб, ООН.

**Keywords:** globalization, philosophy, global problems, resources, globalistics, scientific and technological revolution, category, dialectical approach, society, Club of Rome, UN.

Globallashuv-(lotincha “globus”- shar, yer sayyorasi)-XX asrning ikkinchi yarmi-XXI asr boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibotlar, davlatlar va kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, atrof-muhitga texnogen ta'sirning kuchayishi, “ommaviy madaniyat” namunalarining keng tarqalishi, axborot-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar

xavfining ortib borishini ifoda etuvchi tushuncha. “Globallashuv” atamasi dastlab amerikalik olim T. Livettning 1983 yili “Garvard biznes-revyu” jurnalida chop etilgan maqolasida tilga olingan edi. Global jarayonlarning shakllanish tarixi. Hozirgi globallashuv jarayonlarining ilk nishonalariga XV asr oxirlaridan boshlab duch kelish mumkin, XIX asr boshiga kelib esa u amalda real shakl-shamoyil kasb etdi. Bu pirovardida yagona geografik, ma’lum darajada iqtisodiy va siyosiy jahon maydoni shakllanishiga olib kelgan Buyuk geografik kashfiyotlar yuz bergan davr edi. Ayni shu davrda dunyoni tushunishga nisbatan geotsentrik yondashuvlar geliotsentrik yondashuvlarga o’rin bo’shatdi, insoniyat esa, nihoyat, kun va tunning almashishini to’g’ri talqin qilishga muvaffaq bo’ldi. Fan falsafadan ajralib chiqib, bilimlar to’planishi va texnikaning rivojlanishiga kuchli turtki berdi, fan-texnika taraqqiyoti va sanoat inqilobi yuz berishiga sabab bo’ldi. So’nggi zikr etilgan voqealar pirovard natijada insonning tabiatni o’zgartiruvchi imkoniyatlari va uning atrof muhit bilan munosabatini butunlay o’zgartirdi.

**Global jarayonlarning shakllanish tarixi.** Global miqyosdagi muammolar ilmiy munozaralar predmeti sifatida XX asrning 60-70 yillarda jahon hamjamiyatida jiddiy qiziqish uyg’otgan. Dastlab 1930 yillarda E.Lerua, Teyyar de SHarden va V.I.Vernadskiylar insoniyat hamjamiyatining global mohiyatini va uning Erdagi yashash tarixi uchun masuldir deganlar. Keyin bu masala malum vaqtga unutildi va bir necha yildan keyingina 1970-80 yillarda yana esga olindi. Bugungi kunda globallashuv jaryonining jadallashuvi o’zaro aloqadorlik va o’zaro tasir dialektikasi, madaniyat taraqqiyotiga, tasir o’tkazmoqdaki, bu o’z navbatida yoshlardagi ijtimoiy masullik jarayoni zamonaviy ilm-fan yutuqlari, xalqaro axborot almashinuvining jadal rivoji bilan o’zaro aloqadorlikda yuzaga keladi.

**GLOBALLASHUVNING FALSAFIY MAZMUNI.** Falsafa nafaqat insonning azaliy muammolari va g’am-tashvishlarini, balki uning so’nggi yillarda fan-texnika taraqqiyoti ta’sirida tobora jadalroq sur’atlarda, shu jumladan dunyo miqyosida o’zgarayotgan real hayoti kundalik amaliyotini ham aks ettiradi. Shu munosabat bilan yuzaga kelayotgan yangi hodisalar, g’ayrioddiy qiyinchiliklar va alohida sharoitlar olimlarning ham, faylasuflarning ham e’tiborini tortmoqda. Bunda falsafaning fandan ustunligi shundaki – u o’z xulosalarida tafsilotlar va muayyan dalillarga mahkam yopishib olmaydi, ayrim, uzuq-yuluq va o’tkinchi narsalarni osongina chetlab o’tadiki, bu unga asosiy e’tiborni ishning mohiyatiga qaratish, rivojlanishning eng muhim omillari va asosiy jarayonlarini qayd etish imkonini beradi. Falsafaning mazkur

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 04. April 2025

fazilatlarini insonning ijtimoiy munosabatlar tizimida yoki «jamiyat-tabiat» tizimida yuzaga kelayotgan murakkab, kompleks vazifalarni hal qilishga majbur bo‘layotgan hozirgi sharoitlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan falsafiy tahlilning, muhim narsalarni ikkinchi darajali narsalardan, qonuniy narsalarni tasodifiy narsalardan farqlash, tarixiy rivojlanishda obektiv jarayonlarning subektiv omillardan farqi kabi usullari va metodlari hozirgi vaqtda insoniyat duch kelgan olamshumul muammolarni nazariy anglab yetish va amalda bartaraf etish uchun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Globalashuv hodisasi . Hozirgi davr haqida aniqroq tasavvur hosil qilish uchun XX asr boshigacha jahon tarixi asosan mustaqil rivojlangan va bir-biriga jiddiy ta’sir ko‘rsatmagan sivilizasiyalardan iborat bo‘lganini nazarda tutish muhimdir. Hozirgi vaqtda dunyo so‘nggi yuz yillik ichida yuz bergan jamiyat hayoti barcha jabhalarining faol integrasiyalashuvi natijasida sezilarli darajada o‘zgardi va yaxlit bir butun organizmga aylandi. Buning oqibati o‘laroq, ayrim xalqlar va butun insoniyatning ijtimoiy ongida global jarayonlar va ularning ta’sirida yuzaga kelgan umumiy (dunyo miqyosidagi) muammolar bilan belgilangan jiddiy o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Jahon hamjamiyati o‘z rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qo‘ygani, u avvalgi bosqichlardan nafaqat o‘zgarishlar miqyosi, balki faollik darajasi va universal xususiyati bilan ham farq qilishi ayon bo‘ldi. Bu o‘zgarishlarning butun majmui, shuningdek ularning sabablari 1990- yillarda globalashuv (lot. globus – yer kurrasi) deb nomlandi. Globalashuv jamiyat hayotining turli jabhalarida butun Yer sayyorasi uchun yagona bo‘lgan tuzilmalar, aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallashtirish jarayonidir. Shuningdek globalashuv global makonning tutashligi, yagona jahon xo‘jaligi, umumiy ekologik o‘zaro aloqadorlik, global kommunikasiyalar va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Globalistika. Jahon rivojlanishining eng yangi tendensiyalarini anglab yetish borasidagi ko‘p sonli sa’y-harakatlar globalashuv jarayonlarining mohiyati, tendensiyalari va sabablarini, ular ta’sirida yuzaga kelayotgan global muammolarni aniqlash va bu jarayonlarning oqibatlarini anglab yetishga qaratilgan fanlararo ilmiy tadqiqotlar sohasi – globalistika paydo bo‘lishiga olib keldi. Kengroq ma’noda «globalistika» atamasi globalashuvning turli jihatlari va global muammolarga oid ilmiy, falsafiy, madaniy va amaliy tadqiqotlarni, jumladan ularning olingan natijalarini, shuningdek ularni ayrim davlatlar darajasida ham, xalqaro miqyosda ham iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jabhalarda amalga joriy etish borasidagi amaliy faoliyatni ifodalash uchun qo‘llaniladi. Shuni ta’kidlash lozimki, globalistika

## “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 04. April 2025

odatda ilmiy bilimning tabaqalanishi natijasida yoki turdosh fanlar tutashgan joyda paydo bo‘ladigan ayrim fanlar qatoriga kirmaydi. Uning vujudga kelishi zamirida qarama-qarshi jarayonlar – hozirgi zamon faniga xos bo‘lgan integrasiyalashuv jarayonlari yotadi. Globalistika tadqiqotlar va bilishning shunday bir jabhasiki, bu yerda turli fanlar va falsafa, asosan bir-biri bilan uzviy aloqada, har biri o‘z predmeti va metodi nuqtai nazaridan, globallashuvning turli jihatlarini tahlil qiladi, global muammolarni bir- biridan alohida va yaxlit tizim sifatida o‘rganib, ularning yechimlarini taklif qiladi. Globalistika mustaqil ilmiy yo‘nalish va ijtimoiy amaliyot jabhasi sifatida 1960-yillarning oxirlaridan e‘tiboran shakllana boshladi, lekin uning paydo bo‘lishi uchun obektiv asoslar ancha oldin yuzaga kelgan edi.[1]

Ikkinchi jahon urushining boshqa bir oqibati jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy sohasida yuzaga keldi va u turli-tuman xalqaro tashkilotlarning mislsiz darajada o‘shishida namoyon bo‘ldi. Ularning orasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), hech shubhasiz, ajralib turadi. Yevropadagi integratsiya jarayonlari ham urushning tugashi bilan bog‘liqdir. (U. Cherchil. “Yevropa Qo‘shma Shtatlari”). Bosh harbiy jinoyatchilar guruhi va natsistlarning asosiy tashkilotlari ustidan o‘tkazilgan Nyurnberg sud jarayoni yana bir muhim tadbir va ayni vaqtda xalqaro munosabatlarni huquqiy tartibga solish sohasida dunyo miqyosidagi hamkorlikning ilk tajribasi bo‘ldi. Bu jarayon 1945 yil 8 avgustda g‘olib mamlakatlar – SSSR, AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya tomonidan tashkil etilgan tarixdagi birinchi Xalqaro harbiy tribunal tomonidan amalga oshirildi va hozirgi xalqaro sud tizimini tashkil qilish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Ayni shu davrda liberalizm va demokratiya g‘oyalari dunyo miqyosida keng tarqala boshladi, ijtimoiy borliq asoslarini, jamiyatning axloqiy negizlari va ijtimoiy rivojlanishning asosiy tamoyillarini qayta anglab yetishga qaratilgan jiddiy tadqiqotlar va nazariy ishlovlar majmui paydo bo‘ldi.[2]

Globallashuvning serqirraligi jahon bozorini sezilarli darajada o‘zgartirdi, jahon xo‘jaligi o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon etib, milliy xo‘jaliklardan kuchliroq va muhimroq tus olishiga imkoniyat yaratdi. Quyidagilar globallashuv serqirraligining muhim xususiyatlari hisoblanadi: 1970-yillardan globallashuv o‘z rivojlanishining yangi bosqichiga ko‘tarildi va serqirra tus oldi. Ayni shu davrda axborot-texnologiya inqilobining rivojlanishi jadallashdi, mif, din, falsafa, fan, ekologiya bilan bir qatorda global ong ijtimoiy ongning yana bir shakli sifatida paydo bo‘ldi. Rim klubi. Yuqorida qayd etilgan qarashlardagi tub burilish asosan Rim klubi faoliyati ta’sirida yuz berdi. 1968 yil Rimda o‘zining birinchi majlisiga yig‘ilgan olimlar, faylasuflar va jamoat

arboblarining bu nufuzli xalqaro tashkiloti hozirgi davrning eng muhim umuminsoniy muammolari bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash va e'lon qilishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. Bu tashkilotning 1972 yilda e'lon qilingan «O'sish chegaralari» deb nomlangan birinchi ma'ruzasiyoq juda katta shov-shuvga sabab bo'ldi, chunki insoniyat o'zi anglamagan holda «poroxli bochka ustida o'tirib, gugurt o'ynayotgani»ni ko'rsatib berdi. Rim klubining asoschisi va birinchi prezidenti Aurelli Pechchei mazkur tadqiqotga yozgan so'zboshisida shunday deb qayd etgan edi: «Endilikda ona-Yerimiz har qanday o'sish sur'atlariga dosh berishga, insonning har qanday erkaliklarini ko'tarishga qodir ekanligiga sog'lom fikrlaydigan odamlarning birortasi ham ishonmaydi. O'sish chegaralari borligi ravshan, lekin ularning qandayligi va qayerdaligini hali aniqlash lozim».[3]

«Hozirgi davrning global muammolari» tushunchasi 1960-yillar oxiri – 1970-yillarning boshlarida keng tarqaldi va shundan beri ilmiy va siyosiy muomala(leksikon) hamda ommaviy ongdan mustahkam o'rin oldi. Global muammolar butun yer kurrasini, uning nafaqat odamlar bevosita yashaydigan qismini, balki Yerning qolgan yuzasi, yer osti bo'shliqlari, atmosfera, gidrosfera va hatto inson faoliyati doirasiga kiruvchi kosmik fazoni qamrab olishi bilan izohlanadi. Shunday qilib, global muammolar to'g'risida so'z yuritilganda butun sayyora nazarda tutiladi, uning eng yirik tarkibiy birligi sifatida esa mintaqa qabul qilinadi.[4]

Global muammolar - bu shunday muammolarki, ular butun insoniyatning manfaatlariga daxl qiladi, uning kelajagiga xavf soladi hamda ular butun xalqaro hamjamiyatning ishtiroki bilangina hal etilishi mumkin. Fan va falsafada global muammolarni yanada aniqroq tavsiflash uchun ularning sifati, va muhim xususiyatlari nuqtai nazaridan tavsiflovchi qo'shimcha mezonlar qo'llaniladi. Birinchidan, global muammolar o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat ayrim kishilarning manfaatlariga, balki butun insoniyat taqdiriga daxldordir. Ikkinchidan, ularni bartaraf etish uchun butun sayyora aholisi hech bo'lmasa aksariyat qismining kuch-g'ayratini birlashtirish va ular bahamjihat, izchil ish ko'rishi talab etiladi. Uchinchidan, bu muammolar dunyo rivojlanishining obektiv omili hisoblanadi va biron-bir mamlakat ularni e'tiborga olmasligi mumkin emas. To'rtinchidan, global muammolarning yechilmagani kelajakda butun insoniyat va uning yashash muhiti uchun jiddiy, balki tuzatib bo'lmaydigan oqibatlariga olib kelishi mumkin.[5]

Global muammolarning barchasi ularning keskinlik darajasi va yechimining ahamiyatiga, shuningdek real hayotda ularning o‘rtasida qanday sababiy bog‘lanishlar mavjudligiga qarab uch katta guruhga ajratiladi: Birinchi guruh eng katta umumiylik va muhimlik darajasi bilan tavsiflanadigan muammolar. Ular turli davlatlar o‘rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadi. Bu yerda jamiyat hayotidan urushni bartaraf etish va adolatli dunyoni ta‘minlash; yangi xalqaro iqtisodiy tartib o‘rnatish kabi ikki o‘ta muhim muammo farqlanadi. Ikkinchi guruh jamiyat va tabiatning o‘zaro ta‘siri natijasida yuzaga keladigan muammolar bo‘lib, ular odamlarni energiya, yonilg‘i, chuchuk suv, xom ashyo resurslari va shu kabilari bilan ta‘minlash kabilardir. Bu guruhga ekologik muammolar, shuningdek Jahon okeani va kosmik fazoni o‘zlashtirish ham kiradi. Uchinchi guruhni «inson – jamiyat» tizimi bilan bog‘liq muammolar ya‘ni demografiya muammosi, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, xalqaro terrorizm tahdidi, ma‘naviyat masalalari va shu kabilardir[6].

XULOSA.Falsafiy yondashuv global muammolarni ularning ijtimoiy ahamiyati jihatidan yaxlit o‘rganishni nazarda tutadi. Bunday tadqiqot ularning asl tabiati va genezisini aniqlash, ilmiy va amaliy yechimini topish yo‘llarini belgilab beradi. Falsafa inson hayotining mazmuni, o‘lim va umrboqiylik masalalarini kun tartibiga qo‘yadiki, bu insoniyatga global muammolar tahdid solayotgan sharoitda ayniqsa muhim ahamiyat ega. Global muammolarga yanada aniqroq mo‘ljallanish uchun tabiiy-tarixiy jarayonni yaxlit ko‘radi va uni talqin qilishga nisbatan dialektik yondashuv mahsuli hisoblanadi. Falsafaning metodologik funksiyasi shundan iboratki, bashariyat rivojlanishining obektiv tendensiyalarini tushunish va anglashda «tabiat», «jamiyat», «sivilizatsiya», «ijtimoiy taraqqiyot», «fan-texnika inqilobi» kabi boshqa muhim kategoriyalarni ishlab chiqadi. Falsafa nazariy fikrlash madaniyatini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratdi va bu orqali ma‘naviy madaniy funksiyani bajaradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. "Global jarayonlar va zamonaviy taraqqiyot" – T. Yo‘ldoshev
2. "Globallashuv: mohiyati, rivojlanish bosqichlari va oqibatlari" – Sh. To‘xtayev
3. "Siyosiy globalizm va uning mafkuraviy asoslari" – M. Jo‘rayev
4. "Global muammolar va ularning yechimlari" – U. Karimov
5. "Xalqaro munosabatlar nazariyasi" – D. Tursunov
6. "Jahon siyosati va diplomatiya asoslari" – B. G‘aniyev

“OMMAVIY MADANIYAT”NING SHAKLLANISH TARIXI

**Jabborova Sayyoraxon Muhammadqobilovna**

**Usmonova Shoxsanam Shavkatovna**

Andijon Davlat Pedagogika Instituti o'qituvchilari

**Nabijonova Mohlaroy Shavkat qizi**

**Yo'ldashoxunova Marhabo Nurmuhammad qizi**

Aniq va Tabiiy Fanlar fakulteti kimyo yo'nalishi talabalari

**Annotatsiya.** Ommaviy madaniyat – keng ommaga mo'ljallangan va ommaviy axborot vositalari, sanoat, texnologiyalar orqali tarqaluvchi madaniy hodisa hisoblanadi. Uning shakllanishi sanoat inqilobi, matbaa, radio, televideniye va internet taraqqiyoti bilan bog'liq. Ommaviy madaniyat XX asrda kino, musiqa, sport, moda va reklama sanoati orqali keng rivojlandi, XXI asrda esa ijtimoiy media va raqamli texnologiyalar ta'sirida yangi shakllarga ega bo'ldi. Bugungi kunda u globalizatsiya jarayonining muhim qismi sifatida madaniy integratsiyani tezlashtiradi.

**Kalit so'zlar:** Ommaviy madaniyat, pop-madaniyat, kino, televideniye, internet madaniyati, musiqa, moda, sport, sanoat inqilobi, globalizatsiya, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy media, influencerlar.

**Abstract.** Popular culture is a cultural phenomenon aimed at the general public and distributed through the media, industry, and technology. Its formation is associated with the industrial revolution, the development of printing, radio, television, and the Internet. Popular culture developed widely in the 20th century through the film, music, sports, fashion, and advertising industries, and in the 21st century it took on new forms under the influence of social media and digital technologies. Today, it accelerates cultural integration as an important part of the globalization process.

**Keywords:** Popular culture, pop culture, film, television, internet culture, music, fashion, sports, industrial revolution, globalization, digital technologies, social media, influencers.

**Аннотация:** Массовая культура — это культурное явление, предназначенное для широкой публики и распространяемое через средства массовой информации, промышленность и технологии. Его становление связано с промышленной революцией, развитием книгопечатания, радио, телевидения и

Интернета. Массовая культура активно развивалась в XX веке благодаря кино, музыке, спорту, моде и рекламе, а в XXI веке она приобрела новые формы под влиянием социальных сетей и цифровых технологий. Сегодня он ускоряет культурную интеграцию как важную часть процесса глобализации.

**Ключевые слова:** Массовая культура, поп-культура, кино, телевидение, интернет-культура, музыка, мода, спорт, промышленная революция, глобализация, цифровые технологии, социальные сети, инфлюенсеры.

**KIRISH** “Ommaviy madaniyat” hodisasi G‘arb olamida XX asr boshlarida paydo bo‘ldi. Jamiyatning demokratlashuvi va ta’limning ommaviylashuvi madaniyat sohasida zodagonlar monopoliyasining zaiflashishiga uyg‘ongan “quyi tabaqalar”ning madaniy iste’moli oshishiga imkon yaratdi. Zamonaviy texnologiyalar yengil mo‘siqa va yuzaki mazmunli davriy nashrlar, bema’ni teledasturlar va soddalashtirilgan syujetli filmlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. 20-asrlarda nashriyot va teleeshittirishning rivojlanishi, “ommaviy madaniyat”ning keng tarqalishiga yordam berdi. "Ommaviy madaniyat" tushunchasi, xususan: moda, hayot, sog‘liqni saqlash mahsulotlari, arxitektura, professional sport, ommaviy badiiy madaniyat, estrada musiqasi, adabiyot (engil o‘qish), audiovizual mahsulotlar (teleseriallar va tokshoular, ko‘ngilochar radio radioeshittirishlar), tasviriy san’at (shu jumladan biennale), siyosiy harakatlar (jumladan, mafkura targ‘iboti), ilm-fan (“yengil” variantda), reklama, imidj yaratish, siyosiy texnologiyalar, folklor, komp’yuter o‘yinlari kabi voqelikni o‘z ichiga oladi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.** Ma’lumki, “ommaviy madaniyat” asosini ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlari tashkil qiladi. „Ommaviy madaniyat” Shaxs madaniy ongini noto‘g‘ri shakllantiradi, milliy madaniyatni buzadi, umuminsoniy madaniy qadriyatlarni shubha ostida qoldiradi. Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma’naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog‘liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda.. Amerikalik faylasuf va yozuvchi Duayt Makdonald o‘zining “Ommaviy madaniyat nazariyasi” maqolasida bu haqda shunday yozadi: “...Ommaviy kommunikatsiya tizimi orqali ommaviy madaniyat jamiyat a’zolarining mutlaq ko‘pchiligiga amal qiladi, inson dunyosining barcha ko‘rinishlarida: ma’lum turmush tarzi va kiyim uslubidan tortib, turning ma’lum cheklovlarigacha; mafkuraviy tamoyillarga rioya qilishdan yaqinlar o‘rtasidagi maxsus munosabatlargacha o‘z qoidalarini o‘rnatadi. Ommaviy madaniyat inqilobiy xususiyat va dinamiklikka ega bo‘lib, sinflar, an’analar va didlar o‘rtasida har qanday to‘siqlarni

buzadi; u barcha madaniyatlararo xususiyatlarni eritib yuboradi, o‘z yo‘lidagi hamma narsani aralashtirib yuboradi. Shu bilan birga, barcha qadriyatlarini yo‘q qilishi ham mavjud. Madaniyatda gomogenizatsiya ( S.I.-madaniy bir xillik, qo‘shilib ketish) va undan keyingi madaniy "kolonizatsiya" shunday sodir bo‘ladi [1].

Hozirgi vaqtda butun jahonda globallashuv jarayonlarining kuchayib borishi bilan Yer yuzida tinchlik-barqarorlikni saqlash, aholi farovonligi, uning munosib turmush darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlash, umumbashariy muammolar bilan birgalikda, milliy madaniyat, san‘at va urf-odatlarini saqlab qolishdek masalalar ham kun tartibiga chiqmoqda. Globallashuv jarayoni bilan bog‘liq ziddiyatlar, avvalo, ma‘naviyat va madaniyat sohasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. “Shu jihatdan globallashuvga butun dunyoni qamrab olgan madaniy inqilob deb ta‘rif berish ham mumkin” [2].

O‘zbekiston mustaqillikka erishib, jahon xamjamiyatida o‘z o‘rniga, nufuziga ega bo‘lib borayotgan bugungi kunda, globallashuv jarayoni ta‘siridan chetda turishi mumkin emas. Mamlakatimiz tinchligiga raxna solayotgan muammolardan biri esa “ommaviy madaniyat” tahdididir. Xalqimizning ma‘naviy olamini bunday tahdidlardan asrash, o‘ta murakkab bir zamonda xalqaro maydonda sodir bo‘layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga yetib borish, ular haqida xolis va mustaqil fikrga ega bo‘lish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridandir. [3]

“Ommaviy madaniyat” yoshlarning madaniy ongining to‘g‘ri shakllanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu ma‘noda “ayrim yosh ijrochi va ijodiy guruhlarining jamoatchilik e‘tiboriga taqdim etayotgan „asar”lari san‘atning hech qanday talab va mezonlariga javob bermaydi. Nafaqat mavzu, musiqa va ijro usullari, balki sahna harkatlarida ham ochiqdan-ochiq ajnabiy „ommaviy madaniyat” ko‘rinishlariga taqlid qilish, „yulduzlik” kasaliga chalinish holatlari tez-tez uchrab turayotgan chinakam san‘at muxlislarini ranjitmasdan qolmaydi”. 60 yillardan rivojlangan Rok xarakati XX asrning ikkinchi yarmidagi badiiy xayotning yorqin timsoliga aylandi. U Angliya va AKShdan oyoq olib butun dunyoni egallab oldi. “Ommaviy madaniyat”ning tub ildizlaridan quvvat olgan bu rokxarakatning ijodkorlari Elvis Presli, “Betliz” va boshqa guruxlar o‘z chiqishlari bilan mashxur bo‘ldilar. [4]

Ommaviy madaniyat tarixini insoniyat sivilizatsiyasining dastlabki kunlariga borib taqash mumkin. Qadimgi madaniyatlarda ommaviy madaniyatning bayramlar, o‘yinlar, hikoyalar kabi o‘ziga xos shakllari bo‘lgan. Biroq, bugungi kunda biz bilgan ommaviy madaniyat 19-asrda ommaviy axborot vositalari va urbanizatsiyaning

kuchayishi bilan paydo bo'la boshladi. Gazeta, jurnal, radio kabi ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi ommaviy madaniyatni har qachongidan ham kengroq auditoriyaga yetkazish imkonini berdi. Bu mashhur madaniyat, moda va musiqa kabi ommaviy madaniyatning yangi shakllarining paydo bo'lishiga olib keldi. Ommaviy madaniyat rivojida urbanizatsiya ham muhim rol o'ynadi. Odamlar qishloqdan shaharga ko'chib o'tishlari natijasida ular yangi odamlar va madaniyatlar bilan aloqa qilishdi. Bu turli xil madaniy ta'sirlarning uyg'unlashuviga olib keldi, natijada ommaviy madaniyatning yangi shakllari paydo bo'ldi. [5]

20-asrda ommaviy madaniyat rivojlanishida davom etdi, televidenie va kino kabi ommaviy axborot vositalarining yangi shakllari paydo bo'ldi. Ushbu yangi media shakllari ommaviy madaniyatni yanada kengroq auditoriya bilan baham ko'rish imkonini berdi. Ommaviy madaniyat xilma-xil soha bo'lib, uni tasniflashning turli usullari mavjud. Biroq, ommaviy madaniyatning eng keng tarqalgan turlariga quyidagilar kiradi: 1. *Ommaviy madaniyat*: Ommaviy madaniyat ma'lum bir davrda jamiyatning hukmron madaniyatidir. U ko'pincha tijoratlashuvi va keng auditoriyani jalb qilishi bilan ajralib turadi. Ommaviy madaniyatga Gollivud filmlari, estrada musiqasi va teleko'rsatuvlar misol bo'la oladi. *Qarama-qarshi madaniyat*: *aksil madaniyat* - bu hukmron madaniyatga qarshi bo'lgan madaniyat. U ko'pincha o'zining muqobil qadriyatlari va turmush tarzi bilan ajralib turadi. Qarama-qarshi madaniyatga 1960-yillardagi hippy harakati va 1970-yillardagi pank-rok harakati misol bo'la oladi. *Submadaniyat*: Submadaniyat - bu madaniyat ichidagi madaniyat. U ko'pincha umumiy qadriyatlar va manfaatlar bilan ajralib turadi. Submadaniyatlarga gotlar, geymerlar va xip-xop muxlislari misol bo'la oladi. *Ekran madaniyati*: Ekran madaniyati - bu kino, televizor va video o'yinlar kabi ommaviy axborot vositalarini iste'mol qilishga qaratilgan madaniyat. Ekran madaniyatiga misol qilib teleko'rsatuvlarni tomosha qilish va kino premyeralarida qatnashish kiradi.

Ommaviy madaniyatning shakllanishi bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, u sanoat inqilobi, matbaa, radio, televideniye va internet taraqqiyoti bilan bog'liq. Ommaviy madaniyatning dastlabki shakllari. Antik davr: Rim va Yunoniston madaniyatida teatr, gladiator janglari, xalq o'yinlari ommaviy madaniyatning ilk shakllari bo'lgan. O'rta asrlar: Qahramonlik eposlari, xalq og'zaki ijodi va sayohatchilar hikoyalari keng tarqalgan. Sanoat inqilobi va matbaaning rivojlanishi (XVIII-XIX asrlar). Matbaa sanoatining rivojlanishi kitob va gazetalarni keng ommaga yetkazish imkonini berdi. Musiqa, teatr va adabiyot tobora ommaviy tus oldi. XX asr –

ommaviy madaniyatning gullab-yashnashi. Radio va kinoning paydo bo'lishi (1920-30-yillar) – odamlar uchun yangi ko'ngilochar vositalar yaratildi. Televideniye rivojlanishi (1950-yillar) – global ommaviy madaniyat shakllandi. Pop-madaniyatning rivojlanishi (1960-80-yillar) – musiqa, moda va sport ommaviy iste'mol ob'ektiga aylandi. XXI asr – raqamli inqilob va ijtimoiy tarmoqlar. Internet va ijtimoiy media (Facebook, Instagram, TikTok) ommaviy madaniyatni tezkor tarqatish va shakllantirishga olib keldi. Globalizatsiya tufayli madaniyat turlarining aralashuvi va yangicha formatlar paydo bo'ldi. [6]

Ommaviy madaniyatning turlari. Musiqa va estrada san'ati: Pop, rok, hip-hop, elektron musiqa kabi janrlar ommaviy madaniyatning asosiy qismlaridan biridir. Mashhur qo'shiqchilar va guruhlar (The Beatles, Michael Jackson, BTS va boshqalar) global ommaviy madaniyat yetakchilariga aylangan. Kino va televideniye. Hollywood filmlari, Bollywood, Netflix kabi platformalar butun dunyoga ommaviy madaniyat mahsulotlarini yetkazib beradi. Seriallar, realiti-shoular va animatsion filmlar keng auditoriya uchun ishlab chiqiladi. Ijtimoiy media va internet madaniyati. Bloggerlar, influencerlar, memlar va internet trendlari ommaviy madaniyatning yangi shakllarini yaratadi. TikTok, YouTube va Instagram ommaviy madaniyatni tezkor tarqatish vositasiga aylandi. Moda va brendlar. Dunyo miqyosidagi mashhur brendlar (Nike, Gucci, Adidas) ommaviy iste'mol madaniyatining bir qismidir. Ommaviy moda (fast fashion) kundalik kiyinish madaniyatini shakllantiradi. Sport va shou-biznes. Futbol, basketbol, Olimpiya o'yinlari kabi sport musobaqalari global miqyosda ommaviy madaniyatning muhim qismiga aylangan. Mashhur sportchilar ommaviy madaniyat yulduzlariga aylanib, brendlar bilan hamkorlik qilishadi. Xulosa va takliflar. Ommaviy madaniyat jamiyatning rivojlanish jarayonida muhim rol o'ynaydi. U keng ommaga mo'ljallangani sababli global miqyosda tarqaladi va turli omillar ta'sirida doimiy o'zgarib boradi. Texnologiyalar rivojlanishi bilan ommaviy madaniyatning yangi shakllari paydo bo'lishi davom etmoqda. Olimlar ommaviy madaniyatning yuksalishining kelib chiqishini sanoat inqilobi tomonidan yaratilgan o'rta sinfning yaratilishi bilan bog'laydilar. Ishchi sinflarga aylantirilgan va an'anaviy dehqonchilik hayotidan uzoqda bo'lgan shahar muhitiga ko'chib o'tgan odamlar ota-onalari va xo'jayinlaridan ajralishning bir qismi sifatida hamkasblari bilan bo'lishish uchun o'z madaniyatini yaratishni boshladilar. Ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng, ommaviy axborot vositalaridagi yangiliklar g'arbda muhim madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarga olib keldi.

**XULOSA** Xulosa qilib aytganda, yuqorida sanab o‘tilgan muammolarni bartaraf etishda, birinchidan, targ‘ibot-tashviqot tizimini shakllantirish, ikkinchidan, tashqi va ichki siyosiy holatni milliy mafkura bilan bog‘lagan holda milliy manfaatlar negizida ko‘rib chiqish va baho berish, uchinchidan, milliy mafkura negizlarini aniqlash va aniq siyosiy maqsadlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish kerak bo‘ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Dwight MacDonald “A Theory of Mass Culture”, in Diogenes, No. 3, Summer 1953, pp. 3-4.
2. Saidov U. “Olomon adabiyoti”, “Tafakkur” jurnali, 2008, №2, 5-bet.
3. Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasi. «Xalq so‘zi», 04.08.2017.
4. I.Karimov. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T., “Ma‘naviyat”,2008, 142- bet.
5. Milliy istiqlol g‘oyasi. Darslik.T.,”Akademiya” nashriyoti, T, 2005, 114-bet.
6. B‘yukenen P. G‘arbning halokati. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2007, 1-son, 35-bet.

**Research Science and  
Innovation House**

GINGO BILOBA O‘SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI, TARQALISHI VA  
AHAMIYATI

ABDUVOHIDOVA MARJONA ABDUSALIM QIZI

Andijon davlat pedagogika instituti

Biologiya yo‘nalishi talabasi

**Аннотация:** В статье анализируется ботаническая структура, ареал распространения и практическое значение растения гинкго двулопастный. Результаты исследования показывают, насколько это растение важно с фармакологической и экологической точки зрения. Гинкго билоба издавна используется в традиционной медицине и до сих пор широко применяется в биологически активных добавках.

**Ключение слова:** Гинкго двулопастный, семейство гинкговых, ботаническое описание, фармакологическое значение, флавоноиды, древнее растение, лекарственные растения, кровообращение, память, двудомный, долгожитель.

**Annotation:** This article analyzes the botanical structure, distribution area and practical importance of the Ginkgo biloba plant. The results of the study show how important this plant is in pharmacological and ecological terms. Ginkgo biloba has long been used in traditional medicine, and is still widely used in biologically active additives. Ginkgo biloba, Ginkgoaceae family, botanical description, pharmacological value, flavonoids, ancient plant, medicinal plants, blood circulation, memory, dioecious, survivor.

**Key words:** Ginkgo biloba, Ginkgoaceae oilas, botanik tavsif, farmakologik ahamiyat, flavonoidlar, qadimiy o‘simlik, dorivor o‘simliklar, qon aylanishi, xotira, ikki uyli, tirik qoldik.

Ginkgo biloba - Ginkgoaceae oilasiga mansub bo‘lib, ikki uylik, barg to‘kuvchi daraxt. Balandligi 20–35 metr ga yetadi. Barglari yelpig‘ich shaklida, ikkiga bo‘lingan, parallel tomirli va yashil rangda bo‘ladi, kuzda sariq tus oladi. Urug‘lari sariq-oltin rangda, yemishga o‘xshash tuzilishga ega, lekin o‘ziga xos hidga ega. Erkak va urg‘ochi daraxtlar alohida bo‘ladi. Ginkgo – "tirik qoldiq" deb ataladi, chunki u 200 million yildan ortiq vaqt oldin paydo bo‘lgan va hozirgacha saqlanib qolgan yagona tur. Ginkgo

biloba asli Xitoyning sharqiy qismida Zhejiang viloyatida tabiiy holda o'sadi. Hozirda u butun dunyoda dekorativ daraxt sifatida ekiladi. Subtropik va mo'tadil iqlim sharoitlariga moslashgan, shahar muhitidaga (havo ifloslanishi va qurg'oqchilikka) chidamli. AQSh, Yevropa, Yaponiya va Janubiy Koreyada keng tarqalgan. O'zbekistonda ham bog'lar va parklarning manzarali daraxti sifatida uchraydi.

Ginkgo barglari xotirani yaxshilash, qon aylanishini yaxshilash va antioksidant xususiyatlarga ega dorilar tayyorlashda ishlatiladi. U demensiya va Altsgeymer kasalligiga qarshi profilaktik vosita sifatida o'rganilmoqda. Shahar muhitida havo sifatini yaxshilaydi, chunki u zararli gazlarga chidamli va uzoq umr ko'radi ya'ni 1000 yilgacha yashashi mumkin. Ginkgo BILOBA parklar, bog'lar va xiyobonlarda estetik ko'rinish yaratadi, ayniqsa kuzda sariq barglari bilan diqqatni tortadi. Ginkgo mahsulotlari (barg ekstrakti, dorilar) farmatsevtika va kosmetika sohasida katta talabga ega. Urug'lari esa ba'zi Osiyo mamlakatlarida oziq-ovqat sifatida ishlatiladi.

Ginkgo biloba o'simligining ahamiyati ko'p qirrali:

1. Ekologik ahamiyati: Ginkgo daraxtlari atmosferani tozalashga yordam beradi, karbonat angidridni so'rib olib, kislorod chiqaradi. Shuningdek, ularning soya berishi va havo sifatini yaxshilash xususiyati bor.

2. Salomatlikka foydasi: Ginkgo bilobaning mevalari va yaproqlaridan tayyorlanadigan preparatlar qon aylanishini yaxshilash, xotirani mustahkamlash va bosh miya faoliyatini yaxshilash xususiyatiga ega. Shu sababli, u ko'plab dorivor preparatlarda qo'llaniladi.

3. Tarixiy va madaniy ahamiyati: Ginkgo daraxtlari Xitoyda ming yillar davomida muqaddas daraxtlar sifatida e'tirof etilgan. Ular tinchlik va uzoq umr ramzilaridan biri hisoblanadi.

Ginkgo biloba o'simligining barglari va urug'lari xalq tibbiyotida uzoq vaqt davomida ishlatilgan. Bugungi kunda ginkgo ekstrakti ko'plab dori vositalarining tarkibiga kiradi va ularni xotira va aqlli faoliyatni yaxshilash, qon aylanishini yaxshilash, oksidlanishga qarshi va yallig'lanishga qarshi vosita sifatida ishlatish mumkin. Shuningdek, ginkgo ekstrakti Altsgeymer kasalligi kabi nevrologik kasalliklarni davolashda yordam beradi. Ginkgo daraxtlari atmosferani tozalashga yordam beradi, karbonat angidridni so'rib olib, kislorod chiqaradi. Shuningdek, ularning soya berishi va havo sifatini yaxshilash xususiyati bor. Ginkgo biloba o'simligi o'zining noyob va chiroyli tashqi ko'rinishi bilan bog'larda, xiyobonlarda va jamoat

joylarida keng qo'llaniladi. Ginkgo daraxtining barglari kuzda oltin sariq rangga bo'yalib, sezilarli darajada chiroyli va diqqatni tortadi.

**Xulosa** qilib aytganda Ginkgo biloba — qadimiy nahorli daraxt bo'lib, o'zining noyob biologik va farmakologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu o'simlik Xitoyda tabiiy holatda saqlanib qolgan yagona vakil bo'lib, dunyo bo'yicha ko'plab mamlakatlarda dori-darmon sanoatida keng qo'llaniladi. Ginkgo biloba barglarida flavonoidlar, terpenoidlar va boshqa bioaktiv moddalar mavjud bo'lib, ular inson salomatligi uchun muhim hisoblanadi. O'simlik asosan qon aylanishini yaxshilash, xotirani mustahkamlash va qarish jarayonlarini sekinlashtirishiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston yuksak o'simliklarining zamonaviy tizimi. Pratorov O'.P. Odilov T.O. "O'qituvchi "NMIU - 2007 -- 65 bet
2. O'simliklar sistematikasi. Sahobidinnov .S.S Toshkent 2012 -- 130 bet
3. H. Kh. Kholmatov, O. A. AHMEDOV, N. A. MUSAYEVA Fundamentals of pharmacognosy and botany, Tashkent 2017.
4. O'zbek botanika terminalogiyasi masalalari - Zokirov Q. Z, Jamolxonov X.A. 2015 Vebsayt:
5. <http://www.ziyonet.uz>
6. <http://www.wikipedia.ru>

Research Science and  
Innovation House

**MATERNAL STRESS AND OFFSPRING PANCREATIC  
PROGRAMMING: MORPHOLOGICAL, METABOLIC, AND  
IMMUNOLOGICAL DIMENSIONS**

**Umerov A.A, Niyozov N.Q**  
**Tashkent Medical Academy**

**Abstract.** Maternal stress casts a shadow over offspring development, subtly reprogramming the pancreas—a guardian of metabolic health. This study, conducted in Uzbekistan, investigates how prenatal stress shapes pancreatic morphology, glucose metabolism, and immune responses in rat offspring, seeking clues to metabolic programming. Pregnant Wistar rats underwent chronic stress, with offspring assessed via histology, metabolic tests, and cytokine profiling. Findings revealed reduced beta-cell mass, impaired insulin release, and elevated pro-inflammatory cytokines, yet adaptive immune markers suggested partial resilience. In Uzbekistan’s youthful population (62% under 30), these insights highlight prenatal stress as a diabetes risk factor, urging global strategies for stress mitigation to protect future generations.

**Keywords:** maternal stress, pancreatic morphology, beta-cell programming, glucose metabolism, immune response, offspring health, metabolic disorders, developmental programming.

**Introduction.** Prenatal stress weaves a complex web, altering offspring organs like the pancreas, pivotal to glucose homeostasis, yet its role in pancreatic programming remains underexplored [1]. Globally, diabetes surges, with early-life stressors implicated, while in Uzbekistan, where 62% are under 30, maternal pressures amplify risks [2]. Stress hormones like glucocorticoids may disrupt islet development and immune balance, fostering metabolic vulnerability. Current research often overlooks the interplay of morphology, metabolism, and immunity, leaving gaps in understanding long-term outcomes. This study probes how maternal stress reprograms the offspring pancreas, integrating histological, metabolic, and immunological lenses to uncover mechanisms and inform interventions, resonating from Tashkent’s labs to global health forums.

**Materials and Methods.** Pregnant Wistar rats (n=25) endured restraint stress (2 hours/day, gestational days 8–18), while controls (n=25) remained unstressed.

Offspring were studied at postnatal day 55, reflecting metabolic maturity. Pancreatic tissues were processed for hematoxylin-eosin staining and immunohistochemistry (insulin, glucagon, PCNA) to evaluate islet structure and proliferation. Glucose tolerance tests (2 g/kg, intraperitoneal) monitored insulin and glucose over 120 minutes, with ELISA quantifying insulin and C-peptide levels. RT-PCR assessed glucocorticoid receptor (*NR3C1*), inflammatory (*IL-1 $\alpha$* , *IL-18*), and regulatory (*TGF- $\beta$* ) gene expression. Serum cortisol and cytokine levels (*IL-1 $\alpha$* , *IL-18*) were measured via multiplex assays. Western blot analyzed pancreatic STAT3 signaling, linked to immune-metabolic crosstalk. Data were collected in Uzbekistan, leveraging local lab capabilities, with statistical analysis (ANOVA,  $p < 0.05$ ) ensuring rigor.

**Results.** Stressed offspring exhibited a 32% reduction in beta-cell mass and a 20% rise in alpha-cell ratio, with disrupted islet architecture versus controls [3]. Glucose tolerance tests showed a 40% lower insulin peak at 20 minutes and 25% slower glucose clearance, indicating metabolic strain [4]. Serum cortisol rose 20%, with *IL-1 $\alpha$*  and *IL-18* elevated 2.2-fold and 1.9-fold, respectively, signaling inflammation. *NR3C1* expression increased 2.4-fold, linking stress to programming, while *TGF- $\beta$*  rose 1.8-fold, suggesting immune modulation [5]. STAT3 phosphorylation was 1.6-fold higher, hinting at adaptive signaling. Notably, 12% of stressed offspring maintained normal glucose responses, reflecting variable programming outcomes.

### **References**

1. Entringer, S., Buss, C., & Wadhwa, P. D. (2015). Prenatal stress, development, health and disease risk: A psychobiological perspective—2015 Curt Richter Award Paper. *Psychoneuroendocrinology*, 62, 366–375. DOI: 10.1016/j.psyneuen.2015.08.019
2. Reynolds, R. M. (2013). Glucocorticoid excess and the developmental origins of disease: Two decades of testing the hypothesis—2012 Curt Richter Award Winner. *Psychoneuroendocrinology*, 38(1), 1–11. DOI: 10.1016/j.psyneuen.2012.08.012
3. Portha, B., Chavey, A., & Movassat, J. (2011). Early-life origins of type 2 diabetes: Fetal programming of the beta-cell mass. *Experimental Diabetes Research*, 2011, 105076. DOI: 10.1155/2011/105076
4. Vaiserman, A. M. (2015). Epigenetic programming by early-life stress: Evidence from human populations. *Developmental Dynamics*, 244(3), 254–265. DOI: 10.1002/dvdy.24211

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 02. Issue 04. April 2025**

5. Wellen, K. E., & Hotamisligil, G. S. (2005). Inflammation, stress, and diabetes. *Journal of Clinical Investigation*, 115(5), 1111–1119. DOI: 10.1172/JCI25102
6. Umerov A., Niyozov N. PANCREATIC MORPHOMETRY UNDER STRESS //International journal of medical sciences. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 362-368.
7. Umerov A. A., Niyozov N. Q. PANCREATIC MORPHOLOGY IN EXPERIMENTAL STRESS //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2025. – T. 5. – №. 1. – C. 223-227.
8. Umerov A. A., Niyozov N. Q. PANCREATIC PATHOLOGIES: UNDERSTANDING THE INTERPLAY BETWEEN CHRONIC DISEASES AND METABOLIC DYSFUNCTION //CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD. – 2025. – T. 2. – №. 1. – C. 104-107.



**Research Science and  
Innovation House**

**Организация деятельности с неуспевающими детьми.**

**Д. У. Атаджанова - независимый исследователь УрГУ**

Повышение качества обучения и усвоения знаний обучающимися всегда являлось приоритетной задачей для образовательных учреждений, несмотря на множество изменений, происходящих в этой сфере. На сегодняшний день многими исследователями отмечается увеличение темпов роста снижения успеваемости учеников, причем, это касается как обучающихся с низким уровнем успеваемости, так и тех, у кого достаточно высокие показатели по этому критерию.

На протяжении всего XX века в отечественной и зарубежной психологии менялись подходы к проблемам психологии подростка, которые можно рассматривать в двух контекстах: а) регламентации всех сторон жизнедеятельности и б) гуманизации и предоставлении свободы выбора. Так или иначе, но ни один из подходов, реализуемый в интересах подростка, не может претендовать на исключительность в силу противоречивости тенденций, сказывающихся на психосоциальном и индивидуально-психологическом развитии подростка в меняющемся обществе. Достаточно прозорливым оказалась в этом плане «Педология подростка», созданная Л.С. Выготским с учетом опыта исследований, составивших базис культурно-исторического подхода к пониманию задач подросткового возраста.

Интерес к проблеме успешности учебной деятельности подростков в современном мире связан не только с необходимостью его конструктивного взаимодействия с другими людьми во всех сферах общественной жизни, но и с гуманизацией отношения со стороны взрослых к нормативным трудностям его личности и жизнедеятельности в целом. Каждый человек, не имеющий серьезных отклонений в нервно-психологическом развитии, может быть успешным при определенных условиях: наличии цели, мотивации, адекватной самооценки, образованности, гибкой психики, умении общаться с людьми, стремлении к саморазвитию

Проблема учебной успешности подростков в психолого-педагогической литературе поставлена на одно из центральных мест не случайно, так как именно

на этом возрастном этапе у многих подростков наблюдается психологический «отход от школы». Двойственное отношение к обучению школьного типа обусловлено многими причинами, в том числе и сменой ведущего вида деятельности. Именно поэтому отношение подростка к учению является своеобразным отражением его образа Я, а также испытывает влияние базовых психологических реакций данного возраста, таких, как реакция эмансипации, группировки со сверстниками и др.

Особенности неуспевающих учащихся:

- низкий уровень знаний, как следствие этого низкий уровень интеллектуального развития;
- отсутствие познавательного интереса;
- не сформированы элементарные организационные навыки;
- учащиеся требуют индивидуального подхода с психологической и педагогической (в плане обучения) точки зрения;
- нет опоры на родителей как союзников учителя;
- дети, в основном, из асоциальных семей;
- отсутствие адекватной самооценки со стороны учащихся;
- частые пропуски уроков без уважительной причины, что приводит к отсутствию системы в знаниях и как следствие этого - низкий уровень интеллекта.

Отставание ученика в усвоении конкретного учебного предмета можно обнаружить по следующим признакам:

1. Низкий уровень умственного развития.

Причины:

- Педагогическая запущенность.
- Частые заболевания.
- Пропуски занятий.
- Органические нарушения центральной нервной системы и головного мозга.

Проявляется:

- Не умеет устанавливать причинно-следственные связи.
- Учитывать все признаки предмета или явления.
- Видеть общее и. д.

2. Несформированность учебных навыков. Ребенок не умеет учиться:

- работать с текстом;

- выделять главное, существенное;
- не может организовать свое время и распределить усилия и т. д.

3. Дефицит внимания с гиперактивностью.

Характеризуется:

- отвлекаемостью;
- подвижностью;
- неусидчивостью и т. д.

4. Отсутствие познавательного интереса.

Обусловлено:

- с ребенком никто не занимался, не развивал его познавательные способности;
- ему мало что интересно, он не посещает кружки и секции, не читает книг, а предпочитает пустое время препровождение.

5. Несформированность произвольной сферы.

Проявляется в том, что ученик делает то, что ему нравится и не способен прилагать волевые усилия для выполнения учебных задач.

6. Конфликтные отношения

- со сверстниками;
- учителями;
- отказ от усилий в учебной деятельности.

7. Низкий познавательный интерес.

Не срабатывают карательные меры (двойки, наказания и т. д.) Ребенок нуждается в поддержке, показе того, что он состоятелен в других видах деятельности.

Полезно включить занимательные задачи и головоломки, интересные рассказы, обеспечить “эффект новизны” при решении учебных задач.

8. Низкий уровень развития словесно-логического мышления.

Необходимо делать большой упор на наглядность в решении и изложении учебного материала, обеспечивая реализацию принципа доступности учебного материала.

9. Низкая работоспособность: утомляемость, истощаемость, медленный темп работы.

Необходимо выяснить причину отставания, определить действительный уровень его знаний, после чего “возвратить его” на ту ступень обучения, где он

будет соответствовать требованиям программы, Государственным Образовательным Стандартам.

Продумать и осуществить индивидуальный план обучения.

Как помочь слабоуспевающему ученику:

1. Для закрепления необходимо более длительное время и больший объем решаемых задач.
2. Учитель для себя и для ученика должен сформулировать минимум знаний и навыков, который должен усвоить ученик.

Виды работ со слабоуспевающими учениками:

- Карточки для индивидуальной работы.
- Задания с выбором ответа.
- Деформированные задания.
- “Разрезные” теоремы.
- Перфокарты.
- Карточки - тренажеры.
- Творческие задания.
- “карточки-информаторы”,
- “карточки-с образцами решения”,
- “карточки-конспекты”.

### **Список литературы**

1. Батюта, М. Б. Возрастная психология: учебное пособие / М. Б. Батюта, Т. Н. Князева. - М.: Логос, 2013. - 306 с.
2. Божович, Л. И. Личность и её формирование в детском возрасте / Л. И. Божович. - СПб. : 2008. - 571 с.
3. Гуревич, П. С. Психология и педагогика / П. С. Гуревич. - М.: Юрайт, 2013. - 480 с.
4. G‘oziyev E.G‘. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2014. – 118 b.
5. Nishanova, Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya [Matn] : darslik / Z.T. Nishanova va boshq. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2018. – 600 b.

**Takomillashmagan zamburug‘larning umumiy tavsifi, asosiy vakillari**

**ERGASHEVA GULCHIROY RO‘ZIMUHAMMAD qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti

Biologiya yo‘nalishi talabasi

**Аннотация:** Грибы — самая многочисленная по числу видов группа наземных растений, насчитывающая более 100 000 видов. Грибы произошли от жгутиконосцев. Слизеподобные грибы также имеют гетеротрофное питание. Этот способ питания и ряд других особенностей грибов показывают, что они схожи как с растениями, так и с животными.

**Ключение слова:** Мицелий, эукариотические организмы, грибы, половое и бесполое, бесполое.

**Annotation:** Fungi are the largest group of lower plants in terms of the number of species, with more than 100,000 species. Fungi evolved from flagellates. Fungi, similar to slime molds, also have a heterotrophic diet. This type of nutrition and a number of other features of fungi indicate that they are similar to both plants and animals.

**Key words:** Mycelium, eukaryotic organisms, fungi, sexual and asexual, asexual.

Zamburug‘lar turlarining miqdori jihatidan tuban o‘simliklar ichida eng katta guruh hisoblanib, 100 mingdan ortiq turi mavjud. Zamburug‘lar evolyutsiya jarayonida Flagellatlardan kelib chiqqan. Shilimshiq'larga o‘xshash zamburug‘lar ham geterotrof oziqlanish xususiyatiga ega. Tirik organizmlarning an'anaviy bo‘linishida zamburug‘lar o‘simliklar tarkibiga kiritilib o‘rganilgan. Bunga ularning substratdan oziqa moddalarni shimib oziqlanishi, o‘simliklarga o‘xshash yaxshi shakllangan hujayra qobig‘i borligi va rivojlanish siklining asosiy qismida harakatsiz ekanligi asos qilib olingan. Lekin ularning geterotrof oziqlanishi asosida yuzaga keladigan modda almashinish jarayonlari xuddi hayvonlarnikiga o‘xshash o‘tishi, ya'ni mochevina, glikogen hosil qilishi va hujayra qobig‘ida xitin moddasining bo‘lishi hayvonlarga ham o‘xshash ekanligidan dalolat beradi. Hozirgi paytda zamburug‘lar eukariot organizmlarning alohida olami sifatida ajratilgan va ularga quyidagi tavsif berilgan: yaxshi shakllangan qalin hujayra qobig‘iga ega; adsorbativ oziqlanadi; ko‘payish asosan sporalar yordamida; vegetativ holatida harakatsiz va qulay sharoitda cheksiz o‘sish qobiliyati bor; geterotrof organizm; zaxira oziqa modda sifatida glikogen

to‘planadi. Zamburug‘larning kelib chiqishi polifilitik xususiyatga ega bo‘lib, har xil guruhga mansub rangsiz xivchinlilardan yoki xivchinlarini yo‘qotgan amyobasimon flagellyatlardan paydo bo‘lgan, deb hisoblaniladi. Sodda tuzilgan zamburug‘larning vegetativ tanasi shilimshiq-larnikiga o‘xshash yalang‘och plazmodiy shaklida bo‘lib, boshqa organizmlarning hujayrasi ichida parazitlik qilib hayot kechiradi. Lekin zamburug‘larning asosiy qismida gifa deb ataluvchi shoxlangan ipchalar hosil bo‘ladi. Gifalar to‘plami mitseliy deb ataladi. Zamburug‘lar tallomining tuzilishiga ko‘ra tuban va yuksak guruhlarga bo‘linadi. Tuban zamburug‘larda vegetativ tanasi hujayralarga bo‘linmagan, yuksaklarida esa mitseliylari ko‘p hujayrali bo‘ladi. Zamburug‘ hujayrasining tuzilishi quyidagi xolda bo‘ladi:

1. Hujayrasiz mitseliy, yani mitseliy 1 ta yirik hujayradan iborat bo‘lib, bo‘g‘inlarga bo‘linmagan va ko‘p yadroli. Xitridiomitsetlar, oomitsetlar, gifoxitridiomitsetlar va zigomitsetla mitseliysi hujayrasiz tuzilgan.

2. Hujayrali mitseliy, yani mitseliy bo‘g‘inlarga bo‘lingan, hujayra aloxida qismlardan iborat bo‘ladi. Hujayra tarkibida bitta yoki bir nechta yadrosi bo‘ladi. Haltachali va bazidiyali zamburug‘lar ko‘p hujayrali va to‘siqlar bilan ajralgan bo‘ladi.

Ko‘pchilik zamburug‘larda giflar bir-biri bilan parallel qo‘shilgan mitseliy tugunchasini hosil qiladi va bu rizomorf deyiladi. Ba‘zi rizomorflarning uzunligi bir necha metr bo‘lishi mumkin. Ular moddalarni o‘tkazish vazifasini bajaradi. Zamburug‘lar vegetativ, jinssiz va jinsiy yo‘l bilan ko‘payadi. Vegetativ ko‘payish mitseliyning uzilib mustaqil individga aylanishi, oidiylar, sklerotsiyalar vositasida va kurtaklanish yo‘li bilan boradi. Jinssiz ko‘payish ikki xil yo‘l bilan, yani, endogen (oomitset, xitridiomitset) va konidiasporalar (zigomitset) hosil qilish bilan amalga oshadi. Jinsiy ko‘payish bir necha usulda boradi. Gametogamiya, somatogamiya va gametangiogamiya. Zamburug‘larni klassifikatsiyalashda ulardagi xivchinlarining joylashishiga, ularning tuzilishiga, jinssiz va jinsiy ko‘payishi xususiyatiga, hujayra devorining tuzilishiga va polisaxaridlar tarkibiga e‘tibor qaratiladi va 7 ta sinfga bo‘lib o‘rganiladi.

1. Xitridiomitsetsimonlar (Chytridiomycetes) – vegetativ tana po‘stsiz, hujayra devori yoq. Jinssiz ko‘payish zoosporalar yordamida, jinsiy ko‘payish gametogamiya yo‘li bilan borib, hujayra devorida xitin va glyukan bo‘ladi.

2. Gifoxitriomitsetsimonlar (Hyphochytriomycetes) – vegetativ tanaga ega, bir hujayrali bo‘lib, rizomitseliy hosil qiladi. Jinssiz ko‘payishi shoxlangan bir xivchinli zoospora yordamida sodir bo‘ladi. Hujayra devorida xitin va selluloza uchraydi.

3. Oomitsetsimonlar (Oomycetes) – mitseliysi rivojlangan, lekin hujayrasiz tuzilishli. Jinssiz ko‘payishi ikki xivchinli zoosporalar vositasida boradi. Jinssiy ko‘payishi oogamiya, hujayra devorida selluloza va glyukan bor.

4. Zigomitsetsimonlar (Zygomycetes) – mitseliysi yaxshi rivojlangan, ko‘pchilik vakillarida tana hujayrasiz tuzilishga ega. Jinssiz ko‘payishi sporangiospora hosil qilish bilan boradi. Jinsiy ko‘payishi izogamiya, hujayra devorida xitin va xitozan bor.

5. Askomitsetsimonlar (Ascomycetes) – mitseliysi yaxshi rivojlangan, ko‘p hujayrali. Jinssiz ko‘payishi konidiasporalar yordamida. Jinsiy ko‘payishi gametangiogamiya, jinsiy sporalari endogen yo‘l bilan xaltachalar ichida rivojlanadi. Hujayra devorida xitin va glyukan bor. Achitqi zamburug‘larida esa xitin va manin moddasi bor.

6. Bazidiomitsetsimonlar (Basidiomycetes) – mitseliysi ko‘p hujayrali. Jinssiz ko‘payishi konidiasporalar yordamida. Jinsiy ko‘payishi – somatogamiya. Jinsiy ko‘payish sporalari bazidiya deb ataluvchi hujayralar ustida sodir bo‘ladi.

7. Deyteromitsetsimonlar, yoki takomillashmagan zamburug‘lar (Deuteromycetes) – bir hujayrali, mitseliysi yaxshi taraqqiy etgan. Jinssiz ko‘payishi konidiasporalar yordamida. Jinsiy ko‘payishi o‘rganilmagan. Hujayra devorida xitin va glyukan uchraydi.

**Xitridiyasimonlar ajdodi (sinfi) — Chytridiomycetes.** Bu zamburug‘larning tallomi ko‘pincha bir hujayrali, ayrimlari hujayra qobig‘isiz yoki kuchsiz rivojlangan mitseliyga ega; jinssiz ko‘payganda orqa tomonida joylashgan, bitta qamchinsimon xivchinli zoospora hosil qiladi; jinsiy ko‘payish gametogamiya yoki xologamiya; hujayra qobig‘ida xitin va glyukan hosil bo‘ladi. Uning yashash tarzi suv muhitiga bog‘liq bo‘lib, ozroq qismi suvdagi o‘simlik va hayvon qoldiqlarida saprofit holda, ko‘pchilik qismi esa suvo‘tlari, suvdagi yuksak o‘simliklarda, umurtqasiz hayvonlarda va quruqlikdagi yuksak o‘simliklarning ildizida parazit holda hayot kechiradi. Ushbu sinf vakillari ichida hayvonlarning xitin qoplamini substrat sifatida ishlatib hayot kechiruvchilari ham bor.

**Gifoxitridiyasimonlar ajdodi (sinfi) - Hyphochytridiomycetes** Ushbu sinf vakillari juda oz miqdorda ( 50 ga yaqin tur ) tarqalgan bo‘lib, vegetativ tanasi xitridiyasimonlarnikiga o‘xshash bir hujayrali, ayrimlari hujayra qobig‘isiz ko‘rinishga ega. Xitridiyasimonlarning vakillaridan zoosporalaridagi xivchinlarining oldindan joylashganligi va patsimonligi, shuningdek, hujayra qobig‘ida xitin va selluloza bo‘lishi bilan farq qiladi.

**Oomitsetsimonlar ajdodi (sinfi) - Oomycetes** Oomitsetsimonlar sinfi vakillarining mitseliylari yaxshi rivojlangan, lekin to‘siqlar bilan ajralmaganligi sababli hujayralarga bo‘lin- magan. Jinssiz ko‘payishda ikki xivchinli zoospora hosil qiladi. Hujayra qobig‘ida selluloza glyukan bo‘ladi. Ushbu sinfga suv muhitida keng tarqalgan, suvdagi o‘simlik va hayvon qoldiqlarida saprofit holda hayot kechiruvchi yoki suvo‘tlari va suvdagi hayvonlarda parazitlik qilib yashovchi zamburug‘lar kiradi.

**Xulosa:** Zamburug‘lar turlarining miqdori jihatidan tuban o‘simliklar ichida eng katta guruh hisoblanib, 100 mingdan ortiq turi mavjud. Zamburug‘lar evolyutsiya jarayonida Flagellatlardan kelib chiqqan. Shilimshiq'larga o‘xshash zamburug‘lar ham geterotrof oziqlanish xususiyatiga ega. Zamburug‘lar tallomining tuzilishiga ko‘ra tuban va yuksak guruhlarga bo‘linadi. Tuban zamburug‘larda vegetativ tanasi hujayralarga bo‘linmagan, yuksaklarida esa mitseliylari ko‘p hujayrali bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ó. Prátov, F. O‘. Azimova. BOTANIKA 6-sinf uchun darslik
2. A. To‘xtayev. BIOLOGIYA 9-sinf uchun darslik
3. I. Hamdamov „BOTANIKA ASOSLARI“
4. R. Babayeva, BOTANIKA
5. [www.wikipedia](http://www.wikipedia)

**Research Science and  
Innovation House**

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH TIZIMINING ELEMENTLARI

Andijon Davlat Pedagogika Instituti O'qituvchilari

**Jabborova Sayyoraxon Muhammadqobilovna**

**Usmonova Shohsanam Shavkatovna**

Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti kimyo yo'nalishi talabalari

**Sodiqova Dilshoda Murodulla qizi**

**Solijonova Shaxzoda Kamoldin qizi**

**ANNOTATSIYA:** Maqolada korrupsiyaga qarshi kurashning barcha asosiy elementlari va yo'nalishlari tahlil qilinadi. Huquqiy, ma'muriy va institutsional asoslar qayta ko'rib chiqiladi, fuqarolik jamiyatining roli va axborot tarqatish tizimi takomillashganligi tushuntiriladi, xalqaro hamkorlikning ahamiyati ta'kidlanadi. Ushbu maqolada korrupsiyaga doir muammo va unga qarshi kurashda samarali strategiyalar ishlab chiqilishi kerakligi chuqur batafsil bayon qilinadi.

**АННОТАЦИЯ:** В статье анализируются все основные элементы и направления борьбы с коррупцией. Рассматриваются правовые, административные и институциональные рамки, разъясняется роль гражданского общества и усовершенствованная система распространения информации, а также подчеркивается важность международного сотрудничества. В статье подробно рассматривается проблема коррупции и необходимость разработки эффективных стратегий борьбы с ней

**ANNOTATION:** The article analyzes all the main elements and directions of the fight against corruption. The legal, administrative and institutional frameworks are reviewed, the role of civil society and the improvement of the information dissemination system are explained, the importance of international cooperation is emphasized. This article deeply describes the problem of corruption and the need to develop effective strategies to combat it.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, Oliy Majlis, BMT, Kengash, Konvensiya, Deklaratsiya, Qonunchilik, Jamiyat.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 02. Issue 04. April 2025**

**Ключевые слова:** коррупция, Олий Мажлис, ООН, Совет, Конвенция, Декларация, Законодательство, Общество.

**Keywords:** corruption, Oliy Majlis, UN, Council, Convention, Declaration, Legislation, Society.

Bugungi kunda korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Korrupsiya so‘nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biri. Ta’kidlash lozimki, korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalariga, xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti *Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida* ta’kidlaganidek, “Jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi”

Korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor huquqiy asoslari qator xalqaro huquqiy normalarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 2003 yil 31 oktyabrda qabul qilingan BMT ning Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi;
- 2000 yil 15 noyabrda qabul qilingan BMT ning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi;
- 1999 yil 27 yanvardagi Yevropa Kengashining “Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risida” gi Konvensiyasi;
- 1999 yil 4 noyabrdagi “Korrupsiyaga uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to‘g‘risida” gi Konvensiyalari va boshqalar.

O‘zbekiston yuqorida ta’kidlangan xalqaro normalardan 2008 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, shuningdek, 2010 yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Istanbul Harakat rejasini ratifikatsiya qilgan. Ta’kidlash joizki,

mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy hayotga tatbiq etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli **“O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmoni** qabul qilinib, mazkur Farmon asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida *Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi* tashkil etildi. Farmon bilan, Agentlikka Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tarmog‘ining Istanbul harakatlar dasturi doirasidagi ishlar hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amalga oshirilishini ta‘minlash, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi boshqa xalqaro shartnomalari qoidalarining bajarilishi bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifa va vakolatlari, shuningdek fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqa sohalar kesimida korrupsiyaning darajasini baholovchi milliy indeks tuzishni tashkillashtirish yuklatildi. Shuningdek, mazkur Farmon asosida quyidagi chora-tadbirlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilanligi ahamiyatlidir, xususan:

- 2020–2021 yillarda barcha davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplayens-nazorat”) ni bosqichma-bosqich joriy etish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyati, shuningdek ushbu sohadagi davlat va boshqa dasturlar samaradorligini monitoring qilish hamda baholash imkonini beruvchi E-Anticor.uz elektron platformasini joriy etish;

- korrupsiya holatlari haqida xabardor qilish imkonini beruvchi maxsus mobil dasturiy ta'minotni joriy etish.

Xorijiy amaliyot tahlili shuni ko'rsatdiki, bozor iqtisodiyoti qonunlarga asoslangan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat va xususiy sektor ishtirokchilarining xalqaro standartlar, qonun hujjatlari va boshqa zamonaviy usullarga muvofiq samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim vositalardan biri o'z tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorat (compliance control) tizimini tashkil etish hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorati – davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 26-moddasiga muvofiq Ombudsman tomonidan Bosh prokuraturaga 17 ta murojaat yuborilgan (2019 yil – 21 ta). Ushbu murojaatlardan 2 tasi o'z tasdig'ini topgan. Bu sohada amalga oshirilayotgan ushbu mazmundagi islohotlarning natijasi sifatida *Transparency International* xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan har yili e'lon qilib boriladigan **“Korrupsiyani qabul qilish indeksi”** da O'zbekiston 180 ta davlat orasida 2017 yilda 157-o'rin, 2018 yilda esa 158-o'rinni egallagan bo'lsa, 2019 yilda 25 ball bilan 153-o'rinni egallab, 5 pog'onaga ko'tarildi. Bundan tashqari, **Jahon odil sudlov loyihasining Huquq ustuvorligi indeksidagi “Korrupsiyadan holilik” indikatorida** O'zbekiston 2019 yilda 0,38 ball bilan 95-o'rinni egallagan bo'lsa, 2020 yil bo'yicha 128 davlat orasida 0,40 ball bilan 89-o'rinni egallab, 6 pog'onaga ko'tarilganligi malakatimizda korrupsiyaga qarshi tizimli olib borilayotgan islohotlarning samarasidir.[1]

Mamlakatimizda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, huquqni qo'llash amaliyotida mansabdor shaxslarning korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etayotganlik holatlari hali hamon uchramoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, *2017–2019 yillar davomida 6127 nafar mansabdor shaxsning* pora olishi bilan bog'liq jinoiy javobgarlik masalasi hal

qilinganligi, 2019 yilning dastlabki olti oyida jami 661 nafar turli toifadagi mansabdor shaxslarga nisbatan korrupsiya bilan bog‘liq 590 ta jinoyat ishlari qo‘zg‘atilganligi, korrupsiyaga qo‘l urgan va jinoyati fosh qilingan mansabdor shaxslarning 25 nafari respublika, 36 nafari viloyat va 476 nafari tuman-shahar miqyosidagi vazirliklar, idoralar hamda korxonalar va tashkilotlarda ishlab kelganligi, korrupsiya jinoyatlarining asosan tibbiyot, ta‘lim, davlat xizmati ko‘rsatish, xususan tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga litsenziya va ruhsat berish bilan bog‘liq sohalarda hali hamon kamaymayotganligi tashvishlidir.[2]

Xorijiy davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ko‘plab davlatlarda, xususan *Singapur, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH* kabi rivojlangan mamlakatlarda “Davlat xizmati to‘g‘risida” gi, “Davlat xizmatida jamoatchilik nazorati to‘g‘risida” gi Qonunlar hamda davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar, shuningdek sudyalarning xatti-harakat me‘yorlarini tartibga soluvchi Axloq kodekslari mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin. E‘tiborli jihat shundaki, mazkur normalar bilan davlat xizmatchilarining olishi mumkin bo‘lgan sovg‘a yoki hadyalarning aniq miqdori ham belgilab qo‘yilgan. Masalan, AQSH da ushbu miqdor 20 AQSH dollarini, Fransiyada 35 yevro, Buyuk Britaniyada 140 funt, Rossiyada 3000 rubl etib belgilangan, Kanadada esa mansabdor shaxslarning pul ko‘rinishidagi sovg‘alar qabul qilishi qat‘iyan taqiqlanadi, Singapurda davlat boshqaruvida faoliyat ko‘rsatuvchi mansabdor shaxslarning gonorar, zaym, qimmatli qog‘ozlar kabi to‘lovlarni olishi ta‘qiqlangan [3].

Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan yuqoridagi xorij tajribasi vazirlik tizimida joriy qilingan bo‘lib, unga ko‘ra xodimlarning fuqarolar, boshqa tashkilotlar xodimlari, jumladan turli joylar va xorijiy mamlakatlarga uyushtiriladigan xizmat safarlari davomida sovg‘alar olishi taqiqlandi. Xorijiy safarlar davomida olingan sovg‘alar, vazirlikka o‘tkaziladigan tartib joriy qilindi. Bundan tashqari, bugungi kunda ilg‘or xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish jarayonida qo‘llyotgan usullaridan biri bu davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi harajatlarini deklaratsiya qilishning majburiy etib belgilanganligidir. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad mansabdor shaxslarning noqonuniy daromad olishni oldini olish va manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etishdan iboratdir. Davlat xizmatida ushbu usul bugungi kunda **150 dan ortiq mamlakatda** qo‘llanilmoqda[4].

Ta’kidlash joizki, davlat xizmatchilarining mulkiy deklaratsiya tizimi korrupsiyaning oldini olish, noqonuniy boyish va manfaatlar to’qnashuvini aniqlashning qudratli vositasidir. Jahon banki ma’lumotlariga ko’ra, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga a’zo mamlakatlarning aksariyatida aktivlarni deklaratsiyalashning keng jamoatchilik uchun oshkora tizimi yo’lga qo’yilgan. Korrupsiyaga qarshi amaldagi xalqaro standartlar, jumladan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va boshqa qator huquqiy hujjatlarda davlat xizmatchilari tomonidan aktivlarning e’lon qilinishi korrupsiyaga qarshi samarali vosita ekani e’tirof etilgan. Bu borada *Daniya* tajribasiga ko’ra, 2002 yilda qabul qilingan “Korrupsiya to’g’risida” gi Daniya Qonuni korrupsiyaning oldini olish chora-tadbirlarining ustuvorligini belgilovchi, ta’sirchan ogohlantiruvchi xususiyatga ega bo’lgan asosiy normativ-huquqiy hujjatdir. Xususan, ushbu qonunning qoidalari Daniya hukumati vakillarini har yili o’z mol-mulki va shaxsiy daromadlari to’g’risidagi ma’lumotlarni nashr etishga, xorijiy kompaniyalarda aksiyalarga ega bo’lishni taqiqlashga majbur qiladi, bu ularning boshqaruv faoliyatining oshkoraligi va shaffofligini, korrupsion holatlarini oldini olishga yordam beradi. Korrupsiyani oldini olishning muhim omili shundaki, mamlakatda davlat xizmatchilari yuqori darajadagi ijtimoiy muhofazaga ega: ular bepul tibbiy xizmat va ta’lim olish huquqiga va ijtimoiy kafolatlarga tayanishlari mumkin, bu esa korrupsion harakatlar ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi. Bundan tashqari, *Finlyandiya* Moliya vazirligi davlat xizmatchilari axloqining asosiy muvofiqlashtiruvchi organi hisoblanishi bilan xarakterlidir. Moliya vazirligi hukumat amaldorlari uchun imtiyozlar va sovg’alarni berish va olish tartibini belgilaydi, shuningdek davlat xizmatchilari daromadlarini tekshirish vakolatiga ham ega. Finlyandiya milliy taftish byurosi (NAOF) esa mamlakatda korrupsiyani oldini olish maqsadida *yilda ikki marotaba* markaziy hukumat moliyasini tekshiradi, soliq siyosatini nazorat qiladi va siyosiy partiyalar va saylov kompaniyasini moliyalashtirishni nazorat qiladi. Yuqoridagi tahlillar, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda mazkur turdagi jinoyatlarni oldini olish borasida mamlakatimizda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini ko’rsatmoqda.

**birinchidan**, “Davlat xizmati to’g’risida” gi Qonun loyihasi ishlab chiqilib, muhokama qilinayotgan bo’lsa-da, hali hamon mazkur Qonun qabul qilinganicha yo’q. Shu sababdan “Davlat xizmati to’g’risida” gi O’zbekiston Respublikasi Qonunini, shuningdek davlat xizmatchilarining Axloq kodeksini qabul qilish, mazkur normalarda

davlat xizmatchilarining o‘z faoliyatini olib borish jarayonida amal qilishi lozim bo‘lgan hamda korrupsiyani vujudga kelishiga imkon yaratib beruvchi sabab va shart-sharoitlarni oldini olishga qaratilgan me‘yorlar aks ettirilishi maqsadga muvofiqdir;

**ikkinchidan**, xalqaro va ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o‘rgangan holda davlat xizmatchilarining mol-mulki, daromadlari hamda katta hajmdagi harajatlarini deklaratsiya qilishni tartibga soluvchi normalarni milliy qonunchilik tizimiga implemenetatsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o‘z navbatida mansabdor shaxslarning mol-mulkiidagi o‘zgarishlarni muntazam ravishda kuzatish imkoniniyatini beradi, deklaratsiyalarning ommaviyligi, ya‘ni jamoatchilik uchun ochiqligi esa ularning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ahamiyatini yana-da oshirishi shubhasizdir.[5]

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

1. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;
3. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
4. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;
5. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti;

**Xulosa.** "Korrupsiya"—shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish” Odatda mansabdor shaxs tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan, shuningdek, bu bilan bog‘liq rasmiy nufuz maqomidan, imkoniyatlar va aloqalaridan o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi. Respublikamizda ushbu jinoyatga qarshi kurash sohasida maqsadli siyosat olib borilmoqda. Jumladan, ushbu sohada qonunchilik asoslarini takomillashtirish, davlat organlarining, jamiyatning ochiqligini ta‘minlash, axborotlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish borasida ahamiyatli ishlar amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, korrupsiyaga qarshi kurashish va bu sohada samarali

chora-tadbirlar ishlab chiqish masalalari davlatimiz rahbariyatining diqqat markazidadir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://uza.uz/oz/politics/zbekistonrespublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>. (President Shavkat Mirziyoyev's Address to the Oliy Majlis);

2. Авдеев В.А., Авдеева О.А. Стратегические направления противодействия коррупции в РФ // Российская юстиция. 2016. № 7. С. 19–21. (Strategic directions for combating corruption in the Russian Federation. Avdeev V.A., Avdeeva O.A.);

3. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-3088008> / (Law of the Republic of Uzbekistan on Combating Corruption);

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. // <https://lex.uz/docs/-4355387> / Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 29.05.2019y., 5729-son. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On measures for further improvement of the Anti-Corruption System in the Republic of Uzbekistan”);

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida”gi Farmoni. // <https://lex.uz/ru/docs/-4875784> Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 30.06.2020y., 6013-son. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On additional measures to improve the Anti-Corruption System in the Republic of Uzbekistan”);

**KORRUPSIYA VA KORRUPSIYAVIY HUQUQBUZARLIKNING  
MOHIYATI, KELIB CHIQISHI VA UNING ASOSIY KO'RINISHLARI**

Andijon Davlat Pedagogika Instituti o'qituvchilari

**Jabborova Sayyoraxon Muhammadqobilovna**

**Usmonova Shoxsanam Shavkatovna**

Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti Kimyo yo'nalishi talabalari

**Maxmudov Farhod Faxriddin o'g'li**

**Mirzayeva Marjona Ilhomjon qizi**

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish konsepsiyasi, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari va ularning korrupsiyaning oldini olish tajribasi tahlil qilinadi. Xususan, xorijiy davlatlardan Singapur, Malayziya, Yangi Zelandiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSH, Gruzziya, Ispaniya va boshqa qator davlatlarning qonun hujjatlari o'rganilib, tahlil qilindi. Ilmiy-tadqiqot ishimizda boshqa davlatlar tajribasidan kelib chiqib, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari yuzasidan amaliy takliflar va ilmiy xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, korrupsiya jinoyatlari, korrupsiyaga qarshi kurash, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish, poraxo'rlik, mansabdor shaxslarning jinoyatlari.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье анализируется коррупция, концепция противодействия коррупции, вопросы ответственности за коррупционные преступления в развитых зарубежных странах и их опыт предупреждения коррупции. В частности, из зарубежных стран изучены и проанализированы законодательные акты Сингапура, Малайзии, Новой Зеландии, Китая, Южной Кореи, Германии, Великобритании, США, Грузии, Испании и ряда других стран. В нашей исследовательской работе даны практические предложения и научные выводы по вопросам ответственности за коррупционные преступления на основе опыта других государств.

**Ключевые слова:** коррупция, коррупционные преступления, противодействие коррупции, злоупотребление должностными полномочиями, взяточничество, должностные преступления.

**ABSTRACT:** This article analyzes corruption, the concept of countering corruption, issues of responsibility for corruption crimes in developed foreign countries and their experience in preventing corruption. In particular, legislative acts of Singapore, Malaysia, New Zealand, China, South Korea, Germany, Great Britain, USA, Georgia, Spain and a number of other countries were studied and analyzed from foreign countries. Our research work provides practical suggestions and scientific conclusions on the issues of responsibility for corruption crimes based on the experience of other states.

**Keywords:** corruption, corruption crimes, anti-corruption, abuse of power, bribery, official crimes.

**KIRISH** Bugungi kunda jahon hamjamiyati oldida korrupsiya davlatlar rivojlanishiga, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy yuksalishiga to'sqinlik qilayotgan salbiy illat sifatida paydo bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, “Korrupsiyaning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investisiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi”[1]. Haqiqatdan ham, korrupsiyaviy jinoyatlar davlatning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, shuningdek xalqning davlat organlariga nisbatan ishonchini susaytiradi [2]. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan ilk kunlardan boshlab korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatiga yetarli darajada etibor berilmasdan, asosan, davlatning bir qator asosiy shartnomalarga qo'shilishi bilan harakterlanib, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratish, rivojlangan davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lidagi tajribasini o'rganish, ularni amaliyotga tadqiq qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini qonuniy tartibga solish masalalariga oid zarur chora-tadbirlar ko'rilmadi.

Qonunning samarali ijrosini ta'minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son Farmoni bilan “2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi” hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlanib, uning asosiy vazifalari belgilab berildi Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 30-iyundagi “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 6013-sonli

## “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 04. April 2025

Farmoni qabul qilindi va ushbu Farmonda ham korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor vazifalari belgilab berildi.[1]

Amalga oshirilgan islohotlar korrupsiyaviy jinoyatlarning sodir etilish dinamikasiga muayyan darajada ta'sir qildi. Jumladan, 2020-yilda korrupsiyaviy jinoyatlar bo'yicha jami 1723 nafar, shundan 9 nafar respublika darajasidagi, 45 nafar viloyat darajasidagi, 1669 nafar tuman va shahar darajasidagi mansabdor shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilib, korrupsiya oqibatida yetkazilgan 500 mlrd so'mlik moddiy zararining 71 foizi yoki 355 mlrd so'mi aybdorlardan tergov davomida undirilgan bo'lsa, 2021-yilning 6 oyi mobaynida 2544 nafar mansabdor shaxsga nisbatan korrupsiya holatlari bilan bog'liq bo'lgan 1676 ta jinoyat ishlari tergov qilinib, sudlarga yuborilgan.[2]

Jinoyat qonunchiligimizdagi korrupsiyaga oid normalarni tanqidiy jihatdan qayta ko'rib chiqish, mazkur jinoyatlar elementlarining kompleksligi, maqsadga muvofiqligi, sohaga oid xalqaro standartlar hamda ilg'or xorijiy tajribaning milliy qonunchilikka yetarli darajada joriy etilganligi kabi masalalarni ilmiy jihatdan tadqiq qilish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, korrupsiyaga oid samarali jinoyat qonunchiligini yaratish asoslantirilgan va ilmiy xulosalar asosida tashkil etilganidagina kutilgan samarani beradi. BMT tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashga yo'naltirilgan hujjatlar ichida 2003-yil dekabr oyida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi katta ahamiyat kasb etadi [7]. O'zbekiston Respublikasi 2008-yil 7-iyuldagi qonun bilan mazkur Konvensiyaga qo'shilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha nafaqat BMT, balki Yevropa Ittifoqi, Jahon banki, Transperensy International xalqaro nohukumat tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Butunjahon bojxona tashkiloti ham korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha o'zlarining faoliyatida alohida e'tibor berib kelmoqda. Ushbu tashkilotlar tomonidan korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashda hamkorlik qilish va boshqa davlatlarni, xalqaro biznes tashkilotlarini korrupsiyaga qarshi kurashga jalb qilishga qaratilgan qator xalqaro hujjatlar qabul qilingan.[3]

Germaniya huquqshunoslarining fikriga ko'ra, mansabdorlik jinoyatlari nafaqat sub'ekt – mansabdor shaxsning belgisi bo'yicha, balki himoya qilinadigan ob'ekt – davlat apparati normal amal qilishi bo'yicha ham birlashtirilgan. “Basharti shaxs: a) amaldor yoki sudya hisoblanadigan; b) boshqa ommaviy-huquqiy xizmat munosabatlarida bo'lsa; v) ommaviy boshqaruv vazifalarini qaysidir hokimiyat

organida yoxud boshqa muassasada yo uning topshirig'iga ko'ra amalga oshirishga da'vat etilgan bo'lsa, u mansabdor shaxs hisoblanadi”. Bundan tashqari, “bevosita ommaviy xizmat qilishga da'vat etilgan”, ya'ni “mansabdor shaxsning o'zi bo'lmasada, hokimiyatning qaysidir organida ommaviy boshqaruv vazifalarini amalga oshirayotgan yoki bunday vazifalarni amalga oshiruvchi muassasa yoxud birlashmada band bo'lgan xodim mansabdorlik jinoyatlarining sub'ekti hisoblanadi” Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksining 332-moddasiga ko'ra korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun olti oydan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan [4].

Ispaniya Jinoyat kodeksi esa, poraxo'rlik jinoyatini pora evaziga amalga oshirilgan xatti-harakatlarning qonuniy yoki noqonuniyligiga ko'ra ikki turga ajratadi. Kodeksning 419-moddasiga ko'ra, mansabdor shaxs yoki davlat xizmatchisining o'z xizmat majburiyatlarini buzish yoki bajarmasligi evaziga o'zi yoki uchinchi shaxslar foydasini ko'zlab, sovg'a, mukofot yoki har qanday ko'rinishdagi taqdirlashni qabul qilishi, so'rashi yoki qabul qilishga rozilik bildirishi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, uch yildan olti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi, shuningdek, davlat xizmati bilan shug'ullanishni alohida taqiqlash va sodir etgan qilmishi uchun yetti yildan o'n ikki yilgacha muddatga mansabdor bo'lish taqiqlanadi. Kodeksning 420-moddasi shunday xatti-harakat yoki harakatsizliklarni o'z majburiyatlarini buzmaganda sodir etish uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi. Ispaniya qonunchiligida shuni ko'rishimiz mumkinki, agar davlat organi xodimlari korrupsiya bilan bog'liq jinoyatni sodir qilsa, u faqatgina jinoiy javobgarlikka tortilib qolmasdan muayyan muddatga davlat xizmatida ishlashi taqiqlanadi. Bu korrupsiyaga qarshi kurashishning o'ziga xos yo'li hisoblanib, korrupsiyani oldini olishga samarali ta'sir ko'rsatadi.[5].

O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida”gi Qonuni talablari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-son “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi, 2021 yil 16 iyundagi PF-6247-son “Davlat organlari va qo'mita tizimining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmonlari, 2019 yil 27 maydagi PF-5729-son “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2

martdagi 62-son “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odoq-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” qaroriga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi xalqaro qo‘mita tizimi tavsiyalari va ilg‘or dunyo tajribasi, jumladan ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurash menejmenti tizimi – Talablar va ularni qo‘llashga doir tavsiyalar” xalqaro standarti talablari va tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi O‘RQ-419-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 27-maydagi PF-5729-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020-yil 29-iyuldagi PF-6013-son “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlarining ijrosini ta‘minlash, shuningdek, idoraviy hujjatlarini ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimi” xalqaro standarti talablariga muvofiqashtirish maqsadida, korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish; korrupsiyaviy xavf-xatar – Institut xodimlari yoki uchinchi shaxslar tomonidan tashkilot nomidan yoki ularning manfaatlari yo‘lida korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish xavfi; 5 korrupsiyaviy xarakterliklar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish; korrupsiyaviy huquqbuzarlik – sodir etilganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida javobgarlik belgilab qo‘yilgan korrupsiya alomatlariga ega xatti-harakat; korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi – Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish vazifasi yuklangan tarkibiy tuzilma; korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi – korrupsiyaviy harakatlarning, O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va Institutning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki hujjatlari buzilishining oldini olish, tizim xodimlari tomonidan o‘z faoliyatini professional va xulq-atvor jihatdan

yuksak darajada amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar; Korrupsiyaga qarshi kurash tizimi quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi va faoliyat yuritadi: qonuniylik - Institutdagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ilg'or dunyo tajribasi, shuningdek Institut ichki hujjatlariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi; korrupsiyaga nisbatan murosasizlik (toqatsizlik) – Institut o'z faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning har qanday shakllari va ko'rinishlariga murosasiz (toqatsiz) munosabatda bo'ladi. Institut hodimlariga korrupsiyaviy xavf-xatar kelib chiqishi mumkin bo'lgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish qat'iy taqiqlanadi; ochiqlik va shaffoflik – Institut xodimlari va kontragentlari, keng jamoatchilikni Institutda qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida xabardor qilish (maxfiylik va xizmat siri to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda); korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning preventiv xususiyatga ega bo'lishi, tizimlili va yaxlitligi - korrupsiyaning oldini olish, korrupsiyaviy harakatlarning sodir etilishiga xizmat qiluvchi sabab va shart-sharoitlar hamda korrupsiyaviy xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishning ustuvorligi. Korrupsiyaga qarshi joriy etilayotgan chora-tadbirlar va tartib-taomillar aniqlangan xavf-xatarlar darajasiga mos kelishi va Institutning barcha funksiyalari va yo'nalishlarini qamrab olgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga birlashtirilishi; korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi - korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni sodir etgan Institut xodimlari o'zining mavqei va egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Institutning ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi;

**XULOSA.** Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. [Elektron manba].URL: <https://kun.uz/30443880>
2. . Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi. // [Elektron manba]. URL: <https://lex.uz/docs/-1461329> (United Nations Convention Against Corruption); URL:<https://www.transparency.org/en/cpi/2020/index/nzl>
3. Criminal Law of the People’s Republic of China. // [Electronic resource]. URL:<https://www.fmprc.gov.cn/ce/cgvienna/eng/dbtyw/jdwt/crimelaw/t209043.htm>
4. Ответственность за должностные преступления в зарубежных странах. / Отв. ред. Решетников Ф.М. – М., 1994. – С. 41-42; (Responsibility for official crimes in foreign countries);
5. Уголовный кодекс Федеративной Республики Германии в редакции от 13 ноября 1998 г. по состоянию на 15 мая 2003 г. Ст.198. URL: [http://rawunsch.de/images/Ugolovnyiyi\\_Kodeks.pdf](http://rawunsch.de/images/Ugolovnyiyi_Kodeks.pdf) (Criminal Code of the Federal Republic of Germany); 11. Criminal Code of the Kingdom of Spain. // [Electronic resource]. URL: [https://www.legislationline.org/download/id/6443/file/Spain\\_CC\\_am2013\\_en.pdf](https://www.legislationline.org/download/id/6443/file/Spain_CC_am2013_en.pdf)

Research Science and  
Innovation House

## MATEMATIK STATISTIKA ELEMENTLARI

Andijon davlat pedagogika instituti  
Tabiiy va Aniq fanlar fakulteti Kimyo yo'nalishi  
Talabasi: **Rahmatjonova Zarina Elyorbek qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada matematik statistikaning asosiy tushunchalari o'rtacha qiymat, moda, mediana, dispersiya, standart og'ish, tanlanma, korrelatsiya va regressiya kabi elementlar keng yoritilgan. Har bir tushuncha sodda formulalar, misollar va amaliy holatlar bilan tushuntirilgan. Shuningdek, statistikaning ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot va ishlab chiqarish kabi sohalardagi qo'llanilishi haqida fikr yuritilgan. Maqola umumiy o'rta ta'lim darajasida statistikani tushunish va undan foydalana olish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Matematik statistika, o'rtacha qiymat, dispersiya, standart og'ish, moda, mediana, statistik tahlil, tanlanma, regressiya, korrelatsiya.

### **Kirish**

Bugungi kunda axborot oqimi nihoyatda kengayib borayotgan bir davrda statistik ma'lumotlarga tayanib to'g'ri xulosa chiqarish, tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalari har bir sohaga zarur bo'lib bormoqda. Statistik bilimlar yordamida turli hodisa va jarayonlarni o'rganish, ularning qonuniyatlarini aniqlash, prognoz qilish va boshqarish imkoniyati tug'iladi. Statistika chuqur o'rganish esa faqat nazariy emas, balki amaliy mahoratni ham talab qiladi. Matematik statistika — statistik jarayonlarni matematik usullar orqali o'rganishga asoslangan fan bo'lib, u har qanday ma'lumotlar to'plamidan aniq, asosli va ilmiy xulosa chiqarish imkonini beradi. Ayniqsa, o'quvchilarning tanqidiy va tahliliy fikrlashini shakllantirishda matematik statistikaga oid elementlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada matematik statistikaga oid asosiy tushunchalar, ularning formulalari, kundalik hayotda va ta'limda qo'llanilishi hamda oddiy misollar orqali mavzuni tushunarli yoritish maqsad qilingan. Shu orqali ushbu fan yo'nalishining o'quvchilarga nafaqat nazariy, balki amaliy foyda berishi ko'rsatib beriladi.

### **Asosiy qism**

Matematik statistika — bu statistik ma'lumotlarni matematik usullar yordamida tahlil qilishga asoslangan fan sohasidir. Ushbu yo'nalish, ayniqsa, hozirgi kunda

axborot va raqamlar bilan ishlash tobora muhimlashib borayotgan davrda katta ahamiyat kasb etadi. Statistik tahlillar orqali ko‘plab real hayotdagi hodisa va jarayonlarni chuqur o‘rganish, umumlashtirish va bashorat qilish mumkin. Statistik usullar yordamida olingan ma’lumotlar nafaqat ilmiy izlanishlarda, balki kundalik qaror qabul qilishda ham muhim o‘rin tutadi. Matematik statistikaning asosiy elementlari quyidagilardan iborat: o‘rtacha qiymat (matematik kutish), moda, mediana, dispersiya, standart og‘ish, tanlanma va umumiy to‘plam tushunchalari, korrelatsiya va regressiya tahlili. Bu tushunchalar bir qarashda sodda tuyulsa-da, ular orqasida muhim amaliy ma’lumotlar yotadi. Ayniqsa, katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa va lo‘nda ifodalash, ular asosida to‘g‘ri xulosa chiqarish uchun ushbu elementlar ajralmas vosita hisoblanadi. Masalan, o‘rtacha qiymat statistik to‘plamdagi ma’lumotlarning umumiy holatini anglatadi. Bu ko‘rsatkich orqali to‘plamdagi qiymatlarning umumiy darajasi aniqlanadi. Moda esa eng ko‘p takrorlangan qiymatni bildiradi va u ayniqsa demografik yoki savdo statistikalarida muhim rol o‘ynaydi. Mediana — qiymatlar tartiblanganida o‘rtadagi qiymat bo‘lib, u markaziy tendensiyani ifodalovchi ishonchli ko‘rsatkich hisoblanadi. Dispersiya va standart og‘ish ma’lumotlarning o‘rtacha qiymat atrofida qanday tarqalganligini bildiradi. Ayniqsa, sifat nazorati, ilmiy tajribalar yoki sotsiologik so‘rovlar natijasida olingan ma’lumotlarda bu ikki ko‘rsatkich asosiy tahliliy vositalardan biri hisoblanadi. Dispersiya qanchalik kichik bo‘lsa, ma’lumotlar o‘rtacha qiymatga yaqin bo‘ladi, bu esa ularning barqarorligini ko‘rsatadi. Tanlanma va umumiy to‘plam tushunchalari ham statistik tahlilning muhim qismlaridir. Har doim ham umumiy to‘plamni to‘liq o‘rganishning imkoni bo‘lmagan holatlarda tanlanma asosida umumlashtirishlar qilinadi. Bunda to‘g‘ri tanlanma olish, unga mos usulda tahlil o‘tkazish matematik statistika vositalari orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, korrelatsiya va regressiya tahlillari ham statistik metodlarning muhim tarkibiy qismidir. Korrelatsiya ikki o‘zgaruvchi o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasini ko‘rsatadi. Masalan, talabalarning darsga tayyorgarligi bilan ularning baholari o‘rtasidagi bog‘liqlikni korrelatsiya yordamida aniqlash mumkin. Regressiya esa bir o‘zgaruvchini ikkinchisi yordamida bashorat qilish imkonini beradi. Bu iqtisodiy prognozlar, ilmiy tadqiqotlar yoki marketing strategiyalarida keng qo‘llaniladi. Statistik tahlilni vizual tarzda ifodalash uchun grafiklar va diagrammalar katta yordam beradi. Histogramma, doira diagrammasi, chiziqli grafiklar ma’lumotlarni ko‘zni quvontiradigan va qulay qabul qilinadigan shaklda taqdim etadi. Bu, ayniqsa, o‘quvchilarga statistik tahlil mohiyatini oson tushuntirishda foydali vosita hisoblanadi. Umuman olganda, matematik

statistikaning har bir elementi o‘ziga xos amaliy qiymatga ega. Bu elementlar nafaqat matematikada, balki iqtisodiyot, tibbiyot, ta’lim, sotsiologiya, ishlab chiqarish va boshqa ko‘plab sohalarda keng qo‘llaniladi. Statistik fikrlash malakasi zamonaviy dunyo talablari bilan hamohang ravishda shakllanib, har bir shaxs uchun foydali ko‘nikmaga aylanadi.

Statistika fani kundalik hayotimizda, turli sohalarda, ayniqsa ta’lim, iqtisodiyot, sog‘liqni saqlash va ishlab chiqarish sohalarida katta ahamiyatga ega. Statistik ma’lumotlar asosida xulosa chiqarish, qaror qabul qilish, rejalar tuzish mumkin. Statistika matematik asosda o‘rganish esa uni yanada chuqur tushunishga yordam beradi. Shu bois, ushbu maqolada matematik statistika o‘id asosiy tushunchalar, formulalar va ularning oddiy misollar orqali amaliy ahamiyati yoritiladi.

1. Matematik statistikaning mohiyati Matematik statistika — bu statistik ma’lumotlarni matematik usullar yordamida tahlil qilishni o‘rgatuvchi fan. Bu fan statistik kuzatuvlar natijasida olingan ma’lumotlar asosida umumlashma chiqarish, gipotezalarni tekshirish, bashorat qilish kabilarni o‘z ichiga oladi.

2. Asosiy tushunchalar va ularning formulalari

2.1. O‘rtacha qiymat (Matematik kutish) Bu ko‘rsatkich tanlangan ma’lumotlar to‘plamining o‘rtacha darajasini bildiradi. Uning formulasi quyidagicha:

$$\bar{x} = \frac{x_1 + x_2 + \dots + x_n}{n}$$

Misol: Agar 5 nafar o‘quvchining baholari 4, 5, 3, 4, 5 bo‘lsa:

$$\bar{x} = \frac{4+5+3+4+5}{5} = 4.2$$

2.2. Moda Moda — to‘plamda eng ko‘p uchraydigan qiymat. Misol: 2, 3, 3, 4, 5 to‘plamida moda = 3

2.3. Mediana Mediana — tartiblangan qiymatlarning o‘rtadagi elementi. Misol: 2, 4, 5, 7, 8 to‘plamida mediana = 5

2.4. Dispersiya Bu ko‘rsatkich ma’lumotlarning o‘rtacha qiymatdan qanchalik og‘ishini ko‘rsatadi:

$$D = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2$$

Misol: 3, 5, 7 qiymatlari uchun:

$$\bar{x} = 5, \quad D = \frac{(3-5)^2 + (5-5)^2 + (7-5)^2}{3} = \frac{4+0+4}{3} = 2.67$$

2.5. Standart og‘ish Bu dispersiyaning kvadrat ildizidir:

$$\sigma = \sqrt{D}$$

$$\sigma = \sqrt{2.67} \approx 1.63$$

3. Statistik ma'lumotlar bilan ishlash bosqichlari

Ma'lumotlarni yig'ish (anketalar, kuzatuvlar)

Ma'lumotlarni tartiblash, guruhlariga ajratish

Asosiy statistik ko'rsatkichlarni hisoblash

Grafiklar, diagrammalar tuzish

Xulosa chiqarish

4. Korrelatsiya va regressiya Korrelatsiya — ikki o'zgaruvchi orasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Regressiya esa bir o'zgaruvchi asosida boshqasini bashorat qilish imkonini beradi.

Misol: O'quvchining uyga vazifaga ajratgan vaqti (soat) va testdagi ballari orasidagi bog'liqlikni tahlil qilish.

5. Amaliy qo'llanilishi Matematik statistika quyidagi sohalarda keng qo'llaniladi:

Ta'limda: o'quvchilarning baholarini tahlil qilish

Tibbiyotda: dori vositalarining samaradorligini baholash

Iqtisodiyotda: bozorni tahlil qilish, narx o'zgarishlarini prognozlash

Ishlab chiqarishda: mahsulot sifatini nazorat qilish


6. Grafik va jadvallar bilan tahlil qilish Statistik ma'lumotlarni yanada tushunarli qilish uchun histogramma, doira diagrammasi, chiziqli grafiklar kabi usullar qo'llaniladi. Misol: 5 ta fan bo'yicha olingan ballarni chiziqli grafikda tasvirlash orqali kuchli va zaif tomonlarni ko'rish mumkin.

7. Tanlanma va umumlashma tushunchasi Har doim barcha obyektlarni tekshirib chiqish imkoni bo'lmagani uchun tanlanma (ya'ni bir qismi) asosida umumiy xulosa chiqariladi. Matematik statistika ana shu umumlashtirishni asoslaydi.

**Xulosa:** Matematik statistika hayotning deyarli barcha sohalarida qo'llaniladigan, muhim va zarur fan hisoblanadi. Oddiy matematik formulalar yordamida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va qarorlar qabul qilish mumkin. Statistik fikrlash malakasini shakllantirish o'quvchilarning tahliliy tafakkurini rivojlantiradi va real hayotda duch keladigan vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutishlariga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Tojiev A., Yo‘ldoshev M. – Statistika asoslari. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2020.
2. Rizaev Sh.S. – Matematik statistika kursi. Toshkent: Fan, 2019.
3. Karimov B.S. – Matematika va ehtimollar nazariyasi. Toshkent, 2021.
4. Musurmonov N., Ibragimova M. – Statistika va uning amaliyotda qo‘llanilishi. Samarqand, 2018.
5. Zaripov F.X. – Matematik analiz va ehtimollar nazariyasi. Toshkent: Ilm-Ziyo, 2017.



**Research Science and  
Innovation House**

## ОПИСАНИЕ, СИСТЕМАТИКА, РАСПРОСТРАНЕНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙСТВА САДОВЫХ

Andijon davlat pedagogika instituti  
Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi  
Talabasi: **Latipova Dilshoda**

**Annotatsiya:** Govzabondoshlar oilasi (Boraginaceae) o'simliklar sistematikasida muhim o'rin egallaydi. Bu oila yer yuzining deyarli barcha hududlarida tarqalgan turlardan iborat. Ushbu tezisda govzabondoshlar oilasining morfologik va anatomik tavsifi, sistematikasi, tarqalishi va ayrim vakillari haqida batafsil ko'rib chiqiladi.

**Абстрактный:** Семейство Boraginaceae занимает важное место в систематике растений. Это семейство состоит из видов, распространенных практически во всех регионах мира. В диссертации дается подробный обзор морфологического и анатомического описания, систематики, распространения и некоторых представителей семейства гипсофиловых.

**Abstract:** The Boraginaceae family occupies an important place in plant systematics. This family consists of species distributed in almost all regions of the Earth. This thesis provides a detailed review of the morphological and anatomical description, systematics, distribution and some representatives of the Boraginaceae family.

**Kalit so'zlar:** Kampirchopon (Trichodesma), oq tukli kampirchopon - Fincanum nayzatuklar (Echium), Govzabonlar (Anchusa), Zag'chakuzlar (Myosotis), Italiya govzaboni (Anchusa Italica).

**Ключевые слова:** Божья коровка (Trichodesma), коровка беловолосая - Fincanum Echium, Anchusa, Myosotis, итальянский Anchusa Italica.

**Ключевые слова:** Божья коровка (Trichodesma), коровка беловолосая - Fincanum Echium, Anchusa, Myosotis, итальянский Anchusa Italica.

Govzabondoshlar oilasi o'simliklar dunyosining eng katta va xilma-xil oilalaridan biridir. Ushbu oilaga kiruvchi o'simliklar turli ekotizimlarda uchraydi va ularning ko'plab vakillari odamlar hayotida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, oilaning ayrim vakillari zaharli va toksik xususiyatlarga ega bo'lib, bu o'simliklarning

tibbiyot va ekologiya nuqtai nazaridan o'rganilishini talab etadi. Govzabondoshlar oilasining sistematikasi turli ilmiy tahlil va tadqiqotlar asosida shakllangan bo'lib, bu oilaning ko'plab turli qismlarini aniqlashda, ularning ekologik roli va hayotiy faoliyatlarini tushunishda yordam beradi. Ushbu maqolada, govzabondoshlar oilasining asosiy turlari, ularning tasnifi, tarqalishi, ekologik roli va inson hayotidagi ahamiyati batafsil tahlil qilinadi.

Govzabondoshlar oilasi 120 turkum va 2300 turni o'z ichiga oladi. Oila vakillari O'rta Yer dengizi, G'arbiy va Markaziy Osiyoda, Shimoliy Amerikaning Tinch okeani atroflarida ko'proq tarqalgan. Vakillari asosan daraxt, buta va o'tlardan iborat. Yaprog'lari yaxlit, yonbargchasi, poyada odatda, navbat bilan joylashgan. Bu oilaga alohida to'pgul tuzilishi xarakterlidir. Ular doimo poyasining uchida ochilguncha, biroz buralgan, ochilganda yarimsoyabon ko'rinishni hosil qiladi. Guli ko'pincha ikki jinsli, aktinomorf tuzilishli, 5 a'zoli. Kosachabarglari qo'shilib o'sgan besh bo'lakli. Tojbarglari chekkasi bilan birini bosib yoki buralgan holda joylashadi. Uning rangi hatto bitta o'simlikda ham turlicha bo'lishi mumkin. Changchilari 5 ta, urug'chilari 1-2 mevachi bargdan tuzilgan, tugunchalari ustki asosida nektardoni bor. Gullari hashoratlar yordamida chetdan changlanadi. Bu oilaning eng ko'p tarqalgan turkumlari quyidagilardir: Kampirchopon (*Trichodesma*), nayzatuklar (*Echium*), Govzabonlar (*Anchusa*), Zag'chakuzlar (*Myosotis*) va boshqalar. Govzabon xo'kiztili (*Anchusa*). Bular bir va ko'p yillik o'tlardir. Urug'lari zaharli hisoblanadi. G'alla va boshqa ekinlar orasida o'sadigan begona o'tlar bo'lib, bo'z va partov yerlarda uchraydi. Italiya govzaboni (*Anchusa Italica*) turi keng tarqalgan. Bu oilaning yana bir vakillaridan biri Kampirchopondir . Kampirchopon (*Trichodesma incanum* Bunge) govzabonguldoshlarga mansub ko'p yillik begona o't. Poyasi sershox, yerbag'irlab, ba'zan tikka o'sadi. Bo'yi 30-100 sm. O'simlikning hamma qismlari kumushsimon oq tuklar bilan qoplangan. Barglari tuxumsimon, bandsiz. Gullari zangori, tarvaqaylagan ro'vaksimon to'pgulga yig'ilgan. Mevasi tuxumsimon yong'oqcha. Aprel-oktabrda gullab, mevalaydi. Ildizi o'q ildiz. Bosh ildizi 5-6 m chuqurlikkacha kiradi, ildiz bo'g'zidagi kurtaklardan yer usti novdalari o'sadi. Vegetativ va urug'idan ko'payadi, qishlab chiqqan urug'lari 7-10°C haroratda unadi. Mart - aprel boshida maysalari ko'karadi. Bir tup kampirchopon 1000 tagacha urug beradi. Urug'i tuproqqa sochilib ketadi.

Govzabondoshlar o'simliklarining ko'plab vakillari va ularning tarqalgan hududlari ekologik nuqtai nazardan juda katta qiziqish uyg'otadi. Ayniqsa, bu

o‘simliklarning o‘ziga xos kimyoviy tarkibi, biologik faoliyatlari va o‘simliklar orasidagi o‘zaro aloqalarini o‘rganish, ularning tabiatdagi roli haqida muhim bilimlar beradi. O‘simliklar tasnifining ilmiy asosda amalga oshirilishi ekologik tadqiqotlar va resurslardan foydalanishdagi samaradorlikni oshiradi. Bu o‘simliklarning o‘rganilishi, ularning inson hayotiga va tabiatga ta‘sirini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Oq tukli kampirchopon - *Fincanum*. Ildizpoyadan o‘sadigan, bo‘z rangli yoki kul rang ko‘p yillik o‘simlik. May oyidan boshlab noyabrgacha gullaydi va meva tugadi. Adirlar, toshli yerlar, g‘alla va boshqa ekinlar orasida o‘sadi. Kampirchoponning barg poya va xususan urug‘ida alkaloidlar bo‘lganidan, uning urug‘i aralashgan maxsulotlarni iste‘mol qilgan kishilar va uy xayvonlari og‘ir kasallikka duchor bo‘ladi.

**Xulosa:** Govzabondoshlar oilasi o‘simliklar dunyosida o‘zining xilma-xilligi va ekologik ahamiyati bilan ajralib turadi. Ularning sistematikasi va tasnifi o‘simliklar olamidagi turli muhim o‘zgarishlar va o‘zaro aloqalarni aniqlashga yordam beradi. Govzabondoshlar oilasining tarqalishi va uning yirik hududlarda, jumladan, tropik va subtropik zonalarda mavjudligi o‘simliklarning ekologik moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu o‘simliklarning toksik xususiyatlari va zaharli moddalar ishlab chiqarish qobiliyati, ular haqida yanada chuqurroq ilmiy tadqiqotlar olib borishni zaruriyatga aylantiradi. Govzabondoshlar oilasining ekologik ahamiyatini to‘g‘ri tushunish, nafaqat tabiiy resurslardan foydalanishda, balki biologik xilma-xillikni saqlashda ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, inson faoliyatining ekologik ta‘sirini nazorat qilishda muhim vosita hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘.E Xo‘janazorov, X. Mavlonov, J.S.Sadinov (Botanika) Toshkent Innovatsiya-Ziyo 2022
- 2.<https://azkurs.org/govzabondoshlar-oilasi-boraginaceae.html>
- 3.<https://uz.wikipedia.org/wiki/Govzabon>

## BOLALARNING MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORGARLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

**Karimova Sarvinoz Xamidilo qizi.**

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2- bosqich talabasi.

**Anotatsiya:** Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash o'zining bir qator mezolariga ega. Bu jarayonda bolalarni jismoniy, aqliy, ruhiy, irodaviy va ma'naviy jihatdan maktabga tayyorlash, ularning maktab ta'limida zo'riqmasligi, ta'limning uzliksizligi va samaradorligini ta'minlovchi asoslardandir. Ushbu maqolani o'qib chiqish orqali siz bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning bir qancha metodikalari bilan tanishib olasiz.

**Kalit so'zlar:** maqsad, vazifa, mazmun, ta'lim, davlat talabi, pedagogika, bola psixologiyasi, maktabga tayyorlash, rivojlantirish, maktabgacha ta'lim, aqlan rivojlanish, ma'nau rivojlanish, jismonan rivojlanish. oila, mashg'ulot, shakl, ma'naviy tarbiya, faoliyat, estetik tarbiya, mehnat tarbiyasi, rasm, loy, qurilish materiallari, musiqa, jismoniy madaniyat.

Bolalarni maktabga tayyorlashda talimiy faoliyatlarning ahamiyati. Talimiy faoliyat tarbiyachi tomonidan bolalarga kerakli bilim va malakalarni umumiy holda xabardor qilish demakdir. Bundan tashqari bolaning ta'lim tarbiya olishida oila, va maktabgacha ta'lim tashkilotlari ham juda muhim ahamiyat kas etmoqda.

Bolalarni maktabga tayyorlashda oilani va maktabgacha ta'lim tashkilotining o'rni. O'zbekiston Respublikasida "Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda ota-onalarning mustaqil ta'lim berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilingan bolalar uchun MTTlarda, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Oila bolani maktabga tayyorlashda tarbiyani har tomonlama, jumladan ma'naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi. Ma'naviy tarbiyani bolaga o'tmishda Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi yo'lida kurashgan xalq qahramonlari haqida gapirib berish, davlatimizning ramziy belgilari bilan tanishtirish, mustaqillik, Vatan haqidagi she'r va qo'shiqlarni yod oldirish, qadriyat va an'analimizni o'rgatish orqali singdirish mumkin. Oilaviy tarbiya jarayonida shaxsning bir qator axloqiy jihatlari shakllanadi-ki boshqa hech qaysi tarbiya obyekti oiladagidek yuqori natija bermaydi. Ularga insonparvarlik, mehr-muruvvat, rahm-shafkat, hamdardlik, muomala madaniyati, burchi va sadokat minnatdorchilik kabi insoniy fazilatlar turadi. Oila davrasida qo'shiqlar kuylanishi, biror ertak yoki asarni oila davrasida o'qish, birga spektakl va kino ko'rish va tahlil

qilish, qiyinish madaniyatini shakllantirish, uyda gullar parvarish qilish, rasm solish va hokozolar bolani estetik tarbiyasini shakllantirishdagi 73 jihatlardir. Ota-onalar voyaga etayotgan farzandlarining jismoniy barkamolligiga o'ta ma'suliyat bilan qarashlari lozim. Masalan: ertalabki badan tarbiya mashqlarini bolalar bilan birgalikda bajarish, to'g'ri va vitaminlashtirilgan ovqat berish, dam olishni, uyquni to'g'ri tashkil etish vaqtida shifokor nazoratidan o'tkazishlari zarur. Bola hayotida mehnat tarbiyasi muhim sanaladi. Bolalarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda mehnat qilish odobini shakllantirish va ko'nikmalar hosil qilishda, ularning qiziqishlari hisobga olingandagina erishiladi. Ota-onalar bolani maktabga tayyorlashda unda mehnat ko'nikma va malakalarini hosil qilishga, mehnatga ehtiyojni tarbiyalashga, boshqalarning mehnatini qadrlashga, mehnat natijalarini ehtiyot qilishga o'rgatishga jiddiy e'tibor berishlari lozim. Mehnat bolalarda uyushqoqlik, diqqat, saranjom-sarishtalikni tarbiyalash, shuningdek maqsadga erishishda sabot va matonat kabi iroda xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani bog'chadayoq yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar tomonidan o'tkaziladigan ta'limiy faoliyatlar jarayonida bolalarda mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalari hosil qilinadi, tarbiyachining so'zini tinglash, o'rtoqlari bilan gaplashmaslik, har bir tarbiyachi tomonidan berilgan savollarga javob berishga harakat qilish, tarbiyachi tomonidan aytilgan fikrlarni takrorlashga o'rgatib boriladi. Har bir yosh guruhlarda qancha mashg'ulot o'tkazish maktabgacha ta'lim muassasasi ta'lim-tarbiya dasturida belgilab qo'yilgan. Har bir MTTda metodik xonalar mavjud bo'lib, unda MTTda ta'limtarbiya dasturining hamma bilimlari bo'yicha metodik qo'llamalar bo'ladi. Tarbiyachi ta'limiy faoliyat jarayonida yangi pedagogik texnologiya materiallaridan va tarbiyaning samarali metod va usullaridan foydalanadi. Bolaning yoshi, ruhiy-fiziologik xususiyatlari inobatga olinsa, tarbiya berishning samaradorligi oshadi. Tarbiyachi har bir bolaning imkoniyatlarini aniqlab olishi kerak, bolalar o'zi yashayotgan jamoaga munosabatiga qarab bir necha guruhlarga bo'linadi:

1-guruh: ijobiy xulqli bolalar bo'lib, ular tez do'stlashadilar. Ularni jamoa a'zolari hurmat qiladi. Bu toifadagi bolalar jamoaning faollari bo'lib, tarbiyachi jamoa munosabatlarini o'rnatishda ularga suyanadi.

2-guruh: faol tashabbusga qo'shiladi, ammo beqaror bo'ladi.

3-guruh: tortinchoq bo'lib, o'yinda qatnashmaydilar, mashg'ulotlarda sust bo'ladilar.

Bunday bolalarga alohida e'tibor zarur. Tarbiyachi guruhdagi har bir bolaga individual yondashib, ularning bir-biri bilan o'z aro munosabatga kirishib,

do‘stlashishiga yordam beradi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotining asosiy pedagogik vazifasi – bolalarni yuksak ma‘naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash va ularni maktabda o‘qishga har tomonlama tayyorlashda ota-onalarga muntazam ravishda yordam ko‘rsatishdan iborat: Maktabgacha tarbiya tashkiloti xodimlarining eng birinchi vazifasi – maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ota-onalari va oilasining boshqa a‘zolari ongida bola tarbiyasida oila birinchi darajali ahamiyatga egaligi va har bir oila bolalarining faollashuvida oilaviy va ijtimoiy tarbiyaning birligiga erishilgandagina kutilgan natijaga olib kelishiga chuqur ishonch uyg‘otishdir. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti ota-onalarda pedagogik bilimlar asosini yaratadi. Ularda tarbiya haqidagi fanga qiziqish uyg‘otadi. O‘z bilimlarini doimo kengaytirish istagini va unga intilish hissini uyg‘otadi. Keyinchalik esa maktab pedagogik umumta‘limiga kirishib ketish hissini uyg‘otadi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim-tarbiyani har tomonlama, jumladan, ma‘naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalari birgalikda olib borilib bola maktabga chiqariladi. Bola MTTda olgan bilimlarini maktabda davom ettirishga shundagina qiynalmaydi.

Bolalarning bilimlarni egallab olishlari ularning aqliy faolligini rivojlantirish aqliy malaka va ko‘nikma egallab olishlari, ularning maktabda muvaffaqiyatli o‘qishlari uchun bo‘lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishda manba bo‘lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to‘g‘ri sidagi bilimlar tizimini, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

2. Bilimga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq. Bilishga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish aqliy tarbiyaning muhim vazifasidir.

3. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchilarni, ya‘ni qiziquvchanligini ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

4. Aqliy malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish, ya‘ni eng oddiy faoliyat usullari predmetlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo‘lmagan belgilarni ajratib ko‘rsatish, boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko‘nikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo‘lib, bolaning bilimlarni chuqur egallab olishiga yordam beradi. Eng muhimi shundaki, bolalarga bilim beribgina qolmay, ularni olgan bilimlaridan aqliy va amaliy vazifalarni hal etishga foydalanishga o‘rgatish. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad, mazmun bo‘lishi kerak. Maktabgacha ta‘lim tashkilotining ota-onalar bilan ishlashidan jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo‘shib olib borish, keng aholi

ommasi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil qilish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlaridan otaonalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlaridan eng keng tarqalgan shakl va usullarini keltiramiz.

– Ota-ona va oila bilan yakkama-yakka ishlash. Bunda oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o'tkazish, ularga maslahat berish, ota-onalarni bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotidagi hayoti bilan tanishtirish kabilar kiradi.

– Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar. Bular otaonalarning guruhiy va umumiy majlislari, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari.

– Ko'rsatmali ishlar – ishning bu turi: ko'rgazmalar uyushtirish, bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, ota-onalar burchagi, ota-onalar uchun kutubxonalar tashkil qilish.

– Bolaning oilasini borib ko'rish va oila a'zolari bilan yaqindan tanishish. Bolalar maktab ta'limiga tayyorgarligiga ta'sir etuvchi omillar haqida gapirar ekanmiz, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni oilada tarbiyaning ota-onalar bilan hamkorlikda, bundan keyin yanada takomillashtirish yo'llarini izlab topilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Talimiy faoliyatga tayyorlanish mazmuni ham mavjud bo'lib, ushbu mazmunga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Ta'limiy faoliyatni rejalashtirish.
2. Kerakli jihozlarni oldindan tayyorlash.
3. Bolalarni ta'limiy faoliyatga tayyorlash.

Bolalarni maktabga tayyorlashda tarbiyachi ta'limiy faoliyatni bir bo'limidan bitta emas, balki butun bir ta'limiy faoliyatning mazunini rejalashtirib olib borilsa, ijobiy natijani qo'lga kiritadi. Tarbiyachiga metodik qo'llanmalardan foydalanib mashg'ulot o'tish tavsiya etiladi.

Bolalarni maktabga tayyorlashda jismoniy tarbiyalashning ahamiyati.

Jismoniy tarbiya – maktabgacha pedagogikaning muhim bir bo'limi bo'lib, bizda qaror topgan jismoniy tarbiya tizimining dastlabki bo'g'inidir. Uning vazifasi, bola sogligini saqlash, jismoniy sifatlarini o'stirish, yoshlarni mehnatga va vatan himoyasiga tayyorlashdir

Bolalarni maktabga tayyorlashda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning ahamiyati. Bolalarning matematik tushunchalarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi, ularning idrokini, ya'ni sensor tuyg'ularini o'stirish bilan bevosita bog'liqdir

Shuningdek, psixologlarning fikricha, E.A. Labunskiy va boshqalar tomonidan maktab o'quvchilarining tasvirlash faoliyatini o'rganish jarayonlari shuni ko'rsatib

o‘tadi, maktabda tasviriy san‘at darslarini tuzilishi, bolalarning MTTda olgan bilim, malaka va ko‘nikmalar asosida ularni hisobga olgan holda tashkil etiladi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat ta‘limiy faoliyatlarida bolalar, asosan, amaliy ish bajaradilar, sa‘nat asarlari bilan rasmga qarab hikoya qilish, kitobdagi ilyustratsiyalarni ko‘rib chiqish jarayonida tanishadilar, maktabda tasviriy san‘atning turlari rang tasvir, grafik, haykaltaroshlik va dekorativ san‘at asarlar bilan yanada chuqurroq tanishadilar maktabgacha ta‘lim tashkilotida tasviriy faoliyat ta‘limiy faoliyatlari xilma-xildir, rasm, mazmunli dekorativ va loy applikasiya ta‘limiy faoliyatlari. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida ta‘limiy faoliyatlarning hammasiga katta ahamiyat beriladi. Maktabda esa tasviriy san‘at darslarining rasm (naturaga qarab) mavzu asosida va dekorativ turlari o‘tkaziladi. Bundan chiqdi bola hayotiga, ta‘lim – tarbiyasiga uning atrofidagi muhit juda katta tasir ko‘rsatadi. Bolalar maktabgacha ta‘lim tashkilotining katta guruhidagi naturaga qarab rasm chizish mashg‘ulotlarda mantiqiy fikr yuritishga, kuzatishga asosiy ajratib ko‘rishga predmetni fazoviy xususiyatlarini analiz qilishga o‘zlari mustaqil ravishda tasvirlash vositalarini tanlashga o‘rganadilar.

Bularning hammasi esa maktabda o‘qish protsessida zarurdir. Shunday qilib, tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o‘sadi va bu orqali maktabda o‘qishga tayyorlanib boriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq. 1997.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘limi to‘g‘risida»gi Qonuni.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta‘lim- tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari. Tuzuvchilar Rasulova M, Abdurahmonova X. va boshqalar. – Toshkent, 2000.
4. Bolalarni maktabga o‘qishga tayyorlash (ilmiy maqolalar to‘plami). Toshkent: 1997.

**Research Science and  
Innovation House**

**BOLALARNI MAKTABDA TA'LIM OLIISHGA TAYYORLIGINI  
TASHXISLASH USULLARI.**

**Manabjonova Mahliyo Mansurjon qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

**Anatatsiya:** Bolaning maktabda ta'lim olishga tayyorligini tashxislash bu tekshiruv juda zarur. U oila uchun bolaning qaysi jihatlariga tuzatish (agar u zarur bulsa) kiritishda, olti yoshlining muvaffaqiyatlari va kamchiliklariga qanday yondashishda, shu maqsadda u tarbiyachilarga, qolaversa, 1-sinf o'qituvchilari uchun ham kerak.

**Tayanch so'zlar:** tashxislash, aqliy rivojlanish, Kern-Irasek, «Grafik diktant», yo'riqnoma, suhbat, kuzatish, ko'nikma, tayyorgarlik, discomfort, yondashish, omil.

Bolaning maktabda ta'lim olishga tayyorligini tashxislash. Bu tekshiruv juda zarur. U oila uchun bolaning qaysi jihatlariga tuzatish kiritishda, olti yoshlining muvaffaqiyatlari va kamchiliklariga qanday yondashishda, shu maqsadda u tarbiyachilarga, qolaversa, 1- sinif o'qituvchilari uchun ham kerak. Bolani o'qitish uchun uni har tomonlama bilishi kerak.

Prezidentning joriy yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni hamda “O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi.

Yangi vazirlik oldiga maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviyestetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo'yildi

Bolalarning sog'ligi va jismoniy rivojlanganligi holatini tashxislash. Maktabga qabul qilinishdan oldin barcha bolalar o'z yashash joylaridan bolalar poliklinikasi tarkibida tor mutaxassislik bo'yicha shifokorlardan iborat bo'lgan tibbiy komissiya tekshiruvidan utishi shart. Ular bolaning sog'ligi va maktabga tayyorgarligi haqida o'z

xulosalarini berishadi. Mazkur tekshiruvning erta bahorda o‘tkazilishi bolada aniqlangan yetishmovchiliklarni yoz davomida dispanserizatsiyada to‘ldirib olish imkonini beradi. Harakatning asosiy turlari, qo‘l muskullari sport o‘yinlarining oddiy ko‘nikmalari, harakat sifati rivojlanganligini musobaqa, estafeta tarzida o‘tkaziladigan sport va harakatli o‘yinlar davomida tekshirish mumkin

Bolalarning maktabda ta‘lim olishga tayyorligini tashxislash usullari. Bolaning maktabda ta‘lim olishga tayyorligini tashxislash bu tekshiruv juda zarur. U oila uchun bolaning qaysi jihatlariga tuzatish (agar u zarur bulsa) kiritishda, olti yoshlining muvaffaqiyatlari va kamchiliklariga qanday yondashishda, shu maqsadda u tarbiyachilarga, qolaversa, 1-sinf o‘qituvchilari uchun ham kerak. Bolani o‘qitish uchun uni har tomonlama bilish kerak. Afsuski, bugungi kunda tashxis tizimining takomillashmaganligi, o‘zini oqlamagan turli xil shakllarni ko‘pligi ta‘lim muassasalarining hamda ota-onalarning bolalarni maktabga tayyorlash borasida faoliyatini qiyinlashtirmoqda. Masalan, ayrim maktablarda bolalarni birinchi sinfga olishda bolaning maktabga tayyorgarligini belgilovchi asosiy ko‘rsatgich sifatida tez o‘qish ko‘nikmasi (bir minutda 50-70 va undan ham oshiq so‘z) ilgari surilmoqda. Vaholanki, bu ko‘nikma maktabgacha ta‘lim davlat dasturiga kiritilmagan. Agar bola tez o‘qishga o‘rgangan bo‘lsa yomon emas, biroq bu maktabga borishdagi shartli talab sifatida qabul qilinmasligi kerak.

Bolaning shaxsiy–psixologik va aqliy rivojlanganligini tashxislash.

Tashxislash suhbatlari savollari:

1. Familiyangni, ismingni, otangni ismini ayt.
2. Ota – onangning familiyasi, ismi, otasining ismini ayt.
3. Sen qizmi yoki o‘g‘il ? Katta bo‘lsang kim bo‘lasan: xolami, tog‘ami?
4. Sening akang (opang) bormi, kim katta?
5. Yoshing nechada? Bir yildan keyin nechaga kirasan, iki yildan keyinhi?
6. Hozir ertalabmi yoki kechqurun (kunduzimi yoki ertalabmi)?
7. Sen qachon nonushta kilasan-kechqurunmi, ertalabmi? Tushlikni ertalab qilasanmi, kunduzimi? Tushlik oldin bo‘ladimi yoki kechki ovqat?
8. Sen qayerda yashaysan? Uy manzilingni ayt (Qanday mamlakatda? Prezident kim? Vatanimizning bayrog‘ini, gerbini ko‘rsat va boshq.)
9. Otang (onang) kim bo‘lib ishlaydi?
10. Rasm chizishni yaxshi ko‘rsanmi? Bu qalamning (lentaning, ro‘molning) rangi qanaqa?

# “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 04. April 2025

11. Hozir yilning qaysi fasli – qishmi, bahormi, yozmi, kuzmi? Nega sen shunday deb hisoblaysan? 12. Nega qor qishda bo‘ladi, yozda emas?
13. Haydovchi (shifokor, o‘qituvchi ) nima ish qiladi?
14. Maktabda qo‘ngiroq, parta nima uchun kerak?
15. O‘zingning o‘ng ko‘zingni, chap qulog‘ingni ( o‘ng yoki chap qo‘l bilan ) ko‘rsat. Ko‘z va quloq nima uchun kerak?
16. Qanday hayvonlarni bilasan?
17. Sen qanday qushlarni bilasan?
18. Nima katta: sigirmi, echkimi? Kushmi yoki asalari? Nimaning panjasi katta: kuchuknikimi, xo‘roznikimi?
19. Nima katta: 8mi, 5mi, 7mi, 3? 3dan 6 gacha, 9 dan 2 gacha sana.
- 20) Bilmasdan birovning narsasini sindirib qo‘ysang, nima qilish kerak?
21. Uy telefonlaringning, onangning, otangning, buvingning ish joylaridagi telefonlarning raqamini eslab ko‘r...
22. Agar ota-onang ( kechqurun va dam olish kunlari) uyda yo‘q bo‘lsa – qayerda bo‘lishi mumkin?
23. Sen (katta do‘konda, bozorda, hayvonot bogida, seni majburan olib ketganda, notanish ko‘chada ko‘p kishilik avtobusda, metroda va boshq.) adashib qolsang, bunday holatlarda nima qilgan bo‘larding?

Bolaning sog‘ligi va maktabga tayyorgarligi haqida o‘z xulosalarini berishadi. Mazkur tekshiruvning erta bahorda o‘tkazilishi bolada aniqlangan yetishmovchiliklarni yoz davomida dispanserizatsiyada to‘ldirib olish imkonini beradi. Harakatning asosiy turlari, qo‘l muskullari sport o‘yinlarining oddiy ko‘nikmalari, harakat sifati rivojlanganligini musobaqa, estafeta tarzida o‘tkaziladigan sport va harakatli o‘yinlar davomida tekshirish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risidagi” qonuni O‘.R.Q-595.16.12.2019 yil.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021-йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2707-сонли Қарори. 2016 йил, 29 декабрь.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Мақтабгача таълим муассасалари фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида” ги 528сонли Қарори. 2017 йил, 19 июль.

**BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA OILA VA MAKTABGACHA  
TA'LIM TASHKILOTINING O'RNI.**

**Rahmonova O'rinoy Lutfiddin qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

**Annotatsiya:** Oilaviy munosabatlar bolalarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglashi uchun yordam bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** kichik jamoa, oilaviy munosabat, muhit, ota-onalar, farzand, MTT.

Oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiyma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

Ma'lumki, oilaviy munosabatlar – ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlardir. Ushbu munosabatlar bolalarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini qurish holati ro'y beradi. Iyosh, ya'ni farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini qurish holati ro'y beradi.

Shaxsning ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi, unda ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishida oila tarbiyasi asosiy rolni bajaradi. Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir.

Darhaqiqat, oilaning farzandlar o'quv faoliyatiga g'amhurlik qilishi tarbiyadagi bosh masalalardan biri bo'lib, ota-onalar farzandlarining ta'lim jarayonida bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari yo'lida mas'uliyatni chuqur his etishlari zarur.

Bolaning maktabgacha rivojlanishida bosib o'tadigan yo'li juda katta. Bola yetti yoshga qadam qo'ygan yil – uning hayotida juda mas'uliyatli davr. Bola uchun betashvish hayot tugab, oldinda hiyla murakkab va jiddiy sinov turadi. Ya'ni, bola endi yangi maktab jamoasiga kirib borishi lozim. Endi u shu jamoaning a'zosi ekanligini his etishga, intizomga bo'ysunishga, yangi tartibga moslashishi kerak. Bola hali kichkina, bajaradigan burchlari ko'p, o'quv yuki esa katta.

Bular maktabda o'qish, uy vazifalarini bajarish, ustiga-ustak dastlabki jamoat topshiriqlari.

Bola hayotida maktab bilan bog'liq tub burilish yuz beradi. Bunday muhim narsa o'yindan mehnatga, kundalik, majburiy va uzoq mehnatga o'tishdan iboratdir. Buning o'zi bo'lmaydi, hatto u maktabgacha ta'lim muassasasida tayyorlangan bolalarga ham oson emas. Uydan maktabga kelgan bolalarga bundan ham qiyin. Bu davrda ota-onalardan katta diqqat-e'tibor talab etiladi. Muhimi esa qayta qurishni yengillashtirish, mumkin qadar beozor qilish uchun bolani bunday qayta qurishga oldindan tayyorlashdir.

Buning uchun nima qilish kerak? Avvalo, burch haqidagi tushuncha mumkin qadar ertaroq singdiriladi.

Bolalarni maktabga tayyorlay boshlaganda asta-sekin ularning bilimlarini tizimga solib borish lozim. Bu yoshga kelib bolalar tabiat va jamiyatda ro'y beradigan hodisalar haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Biroq bu tasavvur hali yuzaki, ba'zan esa aniq bo'lmaydi. Shu sababli bo'lg'usi maktab o'quvchisiga u duch kelgan hodisalarning mohiyatini tushuntirish zarur. Unga madaniy-maishiy muassasalar – kutubxona, do'kon va boshqalar haqida ma'lumot berish kerak.

Bolani maktab bilan alohida tanishtiriladi, uning umumiy ko'rinishi, xonalari bilangina emas, muhimi – nimaga mo'ljallanganligi, vazifasi bilan ham tanishtiriladi.

Eng avvalo, uyda maktab o'quvchisi shug'ullanishi uchun alohida joy ajratilishi, o'z stoli bo'lishi lozim. Buning uchun sekreter ham qulay. Stol yoshga moslab tanlanishi shart. Bola stol yonida turganida u tirsagidan 2-3 sm baland bo'lsa, mos hisoblanadi. Stol past bo'lsa, bola o'tirganida bukilib qoladi. Baland stol umurtqa pog'onasining qiyshayiga, qomatining buzilishiga olib keladi. Stolni o'yinchoq va boshqa narsalar bilan to'ldirib yubormaslik kerak. Avval otaonalarning o'zlari daftar, kitob, qalamlarga joy belgilab berishlari, keyin bolaga nima qayerda turishini eslab qolishiga yordam berishlari kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarni saranjomsarishtalikka ham o'rgatish lozim.

## “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 04. April 2025

Mashg'ulotlar uchun yoritilishning ham ahamiyati katta. Agar yorug'lik kam bo'lsa, bola beixtiyor boshini egadi, ko'ziga zo'r keladi, tez toliqadi. Kunduzgi yorug'lik chap tomondan tushgani ma'qul, shunda qo'lning soyasi daftar-kitobga tushmaydi. Kechqurun umumiy yorug'lik manбайдan tashqari, yopiq stol lampasini ham yoqib qo'yish foydali. Uni ham chap tomonga qo'yish kerak. Shunda daftar va kitobga ko'proq yorug'lik tushadi.

Bolani maktabga tayyorlashda u bilan birga ko'cha harakati qoidasini o'rganish, keyin esa uni bevosita ko'chada, chorraha va ayrilishlarda, albatta, sinab ko'rish kerak. Bolaning noma'qul xattiharakatlari ota-onalar e'tiboridan chetda qolmasligi lozim. Biroq ular muhokama qilinayotganda do'stona ishonch ruhi o'rtadan ko'tarilmasligi lozim. Bolalarning xatti-harakatini nazorat qilib borish kerak, albatta, ammo nazoratni ularning butun xattiharakatini qat'iy reglament asosida tekshirishga aylantirib yubormaslik lozim. Bu bolalarning mustaqilligi va tashabbusini bo'g'ib qo'yishi, so'zga kirmaydigan bo'lib qolishlariga sabab bo'lishi mumkin. Nazorat va talabchanlik deb, erkalash va rag'batlashtirishni cheklab qo'yish yaramaydi. Ishonch va oqilona talabchanlik bilan birgalikdagi erkalovchi, samimiy munosabat bolaga o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch bag'ishlaydi.

Ma'lumki, o'g'il bolalar bilan qiz bolalarning psixologik farqini hisobga olmay turib ularni tarbiyalab bo'lmaydi. Qiz bolalar yoshligidanoq odamlarga, ularning munosabatiga, kerakli buyumlar (kiyim-kechak, idish-tovoq va boshqalar)ga ko'proq qiziqadilar. Qiz bolalar ko'proq ta'sirlanuvchan, o'ziga olaveradigan, o'zini-o'zi ishontiruvchan, nisbatan beqaror bo'ladilar. Qiyinchilik va qaramaqarshilik yuz berdimi, darrov kattalarga yordam so'rab murojaat qiladilar. Ular o'ta bajaruvchan, bardoshli, shuning bilan birga arazchi, o'zini-o'zi yaxshi ko'radigan bo'ladilar. Ular maqtov, rag'batlashtirishni kuchliroq qabul qiladilar, muvaffaqiyatsizlik, tanbehdan ko'proq qayg'uradilar. Qizlar kam harakatqoq bo'lib, odatdan tashqari sharoitda, o'zlariga ma'qul mashg'ulot topishga qiynaladilar, muayyan maqsadsiz sayr qilishni yoqtirmaydilar. O'g'il bolalar dadil, yaratuvchan, ularning qiziqish doiralari ham keng va xilma-xil bo'ladi.

Maxsus tayyorgarligi bo'lmagan ota-onalar uyda mashg'ulotlarni MTT tayyorlov guruhlarida olib boriladigan darajada izchil olib bora olmaydilar. Biroq muhimi bu emas. Muhimi ota-ona bolaning kundalik duch keladigan barcha narsalar haqidagi tasavvurini sodda, qulay tarzda bayon qilingan tushunchalar bilan boyitib borishi lozim, buning uchun esa ularning bilim va turmush tajribalari yetarlidir.

Mashg'ulotlarda xilma-xil ijobiy misollardan foydalanish, bolalarda ularga bo'lgan qiziqishni, taqlid qilishga intilishni rivojlantirish, taqlid qilish uchun namuna tanlashga yordamlashish ma'qul. Bu bolaning o'ziga xos ijobiy inson bo'lib yetishiga imkon beradi.

Agar bola MTTga bormasa, unda bola nutqining rivojlanishiga imkon beradigan mashg'ulotlar o'tkazilishi zarur. Bu mashg'ulotlardan maqsad bolalarning o'zlari tushunishi oson so'zlarni ongli o'zlashtirishlari, so'zlarning ma'nosini nozik idrok etish, ularni obrazli qo'llanishlariga erishishdan iborat.

Bolani o'zi yoqtirmagan ishni bajarishga va oldin o'rganib qolgan odatini qilmaslikka o'rgatish kerak. Yurish, sayr, uyda qilinadigan jismoniy mehnat bolalarning deyarli butun bo'sh vaqtini egallashi lozim.

Ota-onalar quyidagilarga rioya etishlari maqsadga muvofiqdir:

- bolalarning mashg'ulotlarga kechikishlari va uyga o'z vaqtida qaytmasliklariga yo'l qo'ymasliklari;

- ularning dars tayyorlashlari uchun uyda qulay sharoitni yaratib berishlari;

- bolalarda uy vazifalarini bajarishga nisbatan mas'uliyatli yondashuvni qaror toptirishlari;

- bolalarga o'quv topshiriqlarini bajarish hayotiy zaruriyat ekanligini uqtirishlari, vazifalarni mustaqil, vijdonan bajarish ko'nikmalariga ega bo'lishlariga e'tibor qaratishlari;

- bo'sh vaqtdan unumli foydalanishlarini nazorat qilib borishlari.

Xulosa qilib aytganda, oilada bola ta'lim-tarbiyasiga ijodiy va jiddiy yondashish, bolalarda ijobiy sifatlarni rivojlantirishga erishish ularni maktab ta'limiga tayyorlashda hamda ularning shaxs sifatida to'laqonli shakllanishlarida muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Djurayev R.X, Inoyatova M.E. Iste'dodli farzand tarbiyasi. Otaonalar kitobi. Toshkent, 2013.

2. Pedagogika. /prof. M.X.Toxtaxodjayeveaning umumiy tahriri ostida.- T.: —O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.- 400 b.

3. Xasanboyeva O. va boshqalar —Maktabgacha ta'lim pedagogikasi -T., 2006.

Shodmonova Sh. va boshq. Pedagogik texnologiyalar.- T.: —Fan va texnologiyal, 2011.

## ADDEKTIV AXLOQ VA UNING PSIXOLOGIK JIHATLARI.

**Rajabbojev Asror Alisherovich**-Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Elektron pochta: [asror@urdu.uz](mailto:asror@urdu.uz)

tel: +998 93 676 20 92

### Аннотация

Mazkur maqolada addiktiv axloqning mohiyati, shakllanish sabablari va inson psixikasiga ta'siri tahlil qilinadi. Addeksiya — bu insonning muayyan odat yoki faoliyatga haddan tashqari berilib ketishi bo'lib, u psixologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Tadqiqot davomida addektiv xulq-atvor turlari, ularning yuzaga kelish omillari va psixologik xususiyatlari ilmiy nazariyalar va amaliy misollar asosida yoritib beriladi. Ayniqsa, yoshlar orasida tarqalgan internet, o'yin, spirtli ichimlik va giyohvandlik kabi addiksiyalar psixologik portreti hamda ularning oldini olish va korreksiya qilish usullari ko'rib chiqiladi. Ushbu maqola addiktiv axloq muammosiga oid psixologik tadqiqotlarni chuqurlashtirish va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** addektiv axloq, addeksiya, submadaniyat, aleksitimiya, insonning ma'naviy-axloqiy tarbiyalanganligi, oila, giperstimulyatsiya

### Аннотация

В данной статье анализируются сущность аддективного поведения, причины его формирования и влияние на психику человека. Аддекция — это чрезмерное увлечение человека определённой привычкой или видом деятельности, которое приводит к психологическим и социальным проблемам. В ходе исследования рассматриваются виды аддективного поведения, факторы их возникновения и психологические особенности на основе научных теорий и практических примеров. Особое внимание уделяется таким видам аддекции, распространённым среди молодёжи, как интернет-зависимость, игровая зависимость, алкоголизм и наркомания, а также их психологический портрет, методы профилактики и коррекции. Данная статья направлена на углубление психологических исследований проблемы аддективного поведения и расширение возможностей их практического применения.

**Ключевые слова:** Аддиктивное поведение, аддикция, субкультура, алекситимия, духовно-нравственное воспитание личности, семья, гиперстимуляция.

#### Annotation

This article analyzes the essence of addictive behavior, the reasons for its formation, and its impact on the human psyche. Addiction is an excessive attachment of a person to a certain habit or activity, which leads to psychological and social problems. The research highlights the types of addictive behavior, the factors of their emergence, and their psychological characteristics based on scientific theories and practical examples. Special attention is given to the psychological portrait of addictions that are widespread among young people, such as internet addiction, gaming, alcohol, and drug abuse, as well as methods of prevention and correction. This article aims to deepen psychological research on the problem of addictive behavior and expand opportunities for its practical application.

**Keywords:** Addictive behavior, addiction, subculture, alexithymia, spiritual and moral education of a person, family, hyperstimulation.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olish” ekanligini ko‘rsatadi.<sup>1</sup>

Shu jihatdan yoshlarni har tomonlama qo‘llab quvvatlash jarayonida har bir yosh shaxs o‘z-o‘zini anglashi va har qanday holatda o‘zini boshqarishni bilishi muhim ahamiyat kasb etadi, jamiyatda har bir shaxsni rivojlanib borganini uning ijtimoiy muhitda tutgan mavqei ham o‘zgarib boradi. Shaxs o‘z mavqeiga moslashib uni chuqur anglab borar ekan, uning bilimlari va faoliyati ham ijtimoiylashib boradi. Shu nuqtai

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqidan 2017 yil 20 sentabr.

nazardan kelib chiqib, shaxsni o‘ziga xos xususiyatlari tashqi muhit ta’sirida namoyon bo‘lib borishi bilan bir qatorda, o‘zining yangi-yangi xususiyatlarini, qirralarini ko‘rsatishga imkon yaratiladi. Shaxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqi va o‘zini tutishi sabablarini o‘rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan narsa bo‘lib, masalani yoritishning ikki jihati farqlanadi:

a) ichki sabablar, ya’ni xatti-harakat egasining sub’ektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo‘ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar);

b) tashqi sabablar - faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari. Ya’ni, bular ayni konkret holatlarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan tashqi omillardir[2].

Jahon psixologiyasi fanida shaxsning kamoloti, uning rivojlanishi to‘g‘risida xilma-xil nazariyalar yaratilgan bo‘lib, tadqiqotchilar inson shaxsini o‘rganishda turlicha pozitsiyada turadilar va muammo mohiyatini yoritishda o‘ziga xos yondashishga egadirlar. Shu jumladan bolalarda kuzatiladigan agressivlik holatlarini keltirib chiqaruvchi omillarni diagnostika qilishga to‘xtalsak avvallo uning yuzaga kelish sabablari va oqibatlari shu sababli bolada yuzaga keladigan frustratsiya, destruksiya, stresslar uning:

-shakllanishi, rivojlanishi, takomillashuviga salbiy ta’sirlarni aniqlash;

-shaxs sifatida faoliyatga kirishishda, munosabat va muloqot o‘rnatishdagi murakkabliklar va muammolarni o‘rganish;

-ularning o‘zaro bog‘lanishini aniqlash hamda ushbu holatlarni bartaraf qilish, oldini olish kabi jarayonlarda bolada yuz beradigan psixologik o‘zgarishlar va evrilishlar kuzatiladi.

Insonning — ma’naviy-axloqiy — tarbiyalanganligi — uning — tevarak-atrofdagi munosabatlaridan namoyon bo‘ladi. U insonning hislarida, kechinmalarida ifodalanadi hamda xulq-atvorida, xatti-harakatida ko‘rinadi .

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug‘ullanuvchi komissiyalar faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qaroriga ko‘ra, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olish - jinoyatchilik va jamiyatga qarshi boshqa xatti - harakatlarga qarshi kurashni kuchaytirishga qaratilgan aniq choralar belgilangan bo‘lib, bu jinoyatchilikning oilaviy munosabatlar va shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlari tizimidagi o‘zaro uzviy aloqasi doirasida o‘rganishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili addektiv axloqning ko‘p omilli ko‘rinish ekanligini ko‘rsatadi [1]. Muhtoj axloqning shakllanishiga yordamlashuvchi tashqi ijtimoiy omillar bozorda yangi va yangi mollarga - bog‘lanib qolishning potensial ob'ektlarini chiqarib tashlovchi oziq-ovqat sanoati yoki farmasevtik industriya sohasidagi texnik taraqqiyotni kiritish mumkin. Omillarning shu guruhiga yoshlarni kimyoviy moddalarni iste‘mol qilishga faol jalb etuvchi giyohvand moddalar bilan savdo qiluvchilarning faoliyati ham tegishlidir.

Bundan tashqari, urbanizatsiya darajasi bo‘yicha biz odamlar orasida o‘zaro shaxsiy aloqalar susayayotganini kuzatamiz. Mustaqillikka intilib, odam unga kerakli ko‘mak va xavfsizlik hissini yo‘qotadi. Insoniy o‘zaro munosabatlardan lazzatni izlash o‘rniga biz yanada ko‘proq taraqqiyotning qalbsiz mahsulotlariga murojaat qilamiz.

1. Ba‘zi ijtimoiy guruhlar uchun muhtoj axloq guruhli dinamika ko‘rinishi hisoblanadi.

2. Submadaniyat eng turli-tuman shakllarda chiqishi mumkin: o‘smirlar guruhi, norasmiy uyushma, jinsiy kamchilik yoki shunchaki erkaklar kompaniyasi.

3. Shuningdek, addektiv axloqning sodir bo‘lishida yetakchi rol oila bilan bog‘liqdir.

4. Qator mualliflarning fikriga ko‘ra, tobelikning shakllanishida yetakchi rol go‘daklik jarohatiga (hayotining birinchi ikki yilidagi qattiq qiynaydigan kechinmalar shaklida) taalluqli [3].

Zamonaviy taassurotlarga muvofiq tobe axloqli odamlar o‘z-o‘zini hurmat qilishni quvvatlashda jiddiy qiyinchiliklarni his qiladilar. Yaxshi ma'lumki, masalan, odam kayf holatida o‘zini erkinroq va odatdagidan o‘ziga ishonganroq sezadi. Boshqa tomondan, ichkilikbozliklar kompaniyasi uchun dolzarb mavzudagi suhbat xarakterlidir: “Sen meni hurmat qilasanmi?”

Addektivlik, shunday qilib, shaxsning o‘z-o‘zini baholashini boshqarishida o‘ziga xos vosita bo‘lib chiqadi .

5. Tobe shaxsning jiddiy oilaviy muammosi, aleksitimiya - ota-onalarning o‘z tuyg‘ularini ifodalash (ulami tushunish, belgilash va gapira olish) ga layoqatsizligi bilan birga boradigan ota-onalarning o‘zlaridagi hissiy buzilish bo‘lishi mumkin.

6. Avlodlar o‘rtasida chegaraning, oila a‘zolarining bir-biriga o‘ta psixologik bog‘liqligining yo‘qligi, giperstimulyatsiya - yana bir salbiy omil xisoblanadi.

Oila nafaqat tobe axloqning sodir bo‘lishida, balki uni qo‘llab- quvvatlashda ham ahamiyatli rol o‘ynaydi. Qarindoshlarning o‘zlari turlicha garchi undan real tarzda

azoblansalarda, uning kuchida addikt “buzish”ni qo‘zg‘atadigan psixologik muammolarga ega bo‘lishlari mumkin.

Ayni vaqtda tadqiqotlarda aniqlanishicha, bitta oilada bolalar turlicha axloqni namoyish qiladilar. Bundan tashqari, hatto ota-onalari ichkilikbozliklikdan azob chekadigan oilalardagi bolalarda tobe axloq shakllanishi shart emas.

7. O‘smir shaxsning individual xususiyatlari tobe axloq shakllanishida muhim rol ni o‘ynaydi. Individual farq doirasida dastavval muhtoj axloqning jinsiy saylovini ta’kidlash zarur.

8. Insonning psixofiziologik xususiyatlari addektiv axloqning individual o‘ziga xosligini aniqlovchi omili xisoblanadi .

9. Tobe axloqqa bilvosita moyillik asab tizimining tipologik xususiyatlari bilan aniqlanadi.

10. Shaxs axloqiga ta’sir qiluvchi boshqa muhim individual omillar stressga chidamlilik bo‘lib xisoblanadi [4].

Ihomsizlik, hayot mazmunining yo‘qligi, o‘z hayoti uchun mas’uliyatni o‘ziga olishga qobiliyatsizlik - bu va odamning boshqa ahamiyatli tavsifnomasi, aniqrog‘i, ularning deformatsiyasi, shubhasiz, tobe axloq va uni saqlashning shakllanishiga yordamlashadi.

Tobe axloqning omillari haqida gapirganda uning asosida odamning tabiiy ehtiyojlari yotishini yana bir bor ta’kidlash lozim. Tobelikka moyillik, umuman olganda, insonning universal xususiyati hisoblanadi. Biroq muayyan sharoitlarda ba’zi neytral ob’ektlar shaxs uchun hayotiy muhim ehtiyoj esa ularda nazorat qilinmaydiganga aylanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Айвазова А.Е. Психологические аспекты зависимости. СПб., Издательство «Речь»,2003. – 120 с.
2. Karimova V.M.Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent. 1999
3. Komilova N.F. Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi. O`quv qo`llanma. Toshkent : RBIMM, 2008 . – 205 b.
4. To`laganova G.Q. Tarbiyasi qiyin o`smirlar. Monografiya. Toshkent : Universitet, 2005. - 122 b.
5. Yadgarova G.T “Tarbiyasi qiyin guruhga mansub bolalar bilan ishlash”, uslubiy qo‘llanma, Toshkent, 2007

**BXSR VA XXSR HUKUMATLARINING VAQF SOHASIDA OLIB  
BORGAN SIYOSATI**

**Hazratov Suhrob**  
**Buxoro Davlat Universiteti**  
**2-bosqich magistranti**

**Annotatsiya.**

Ushbu maqola BXSR va XXSRda vaqf sohasida olib borilgan o‘zgarishlar, diniy muassasalar va tashkilotlarning tugatilishi kabi voqealar tahlil etadi. Sovet hukumatining nazorati ostida bo‘lgan ushbu Respublikalarda vaqf mulklari davlat hisobiga o‘tkazilib, diniy tashkilotlarning ta‘minoti uzib qo‘yildi

**Kalit so‘zlar:** BXSR, XXSR, Sovet hukumati, vaqf yerlari, madrasa, masjid, qozixona, Mahkamayi shariya.

**Абстрактный.**

В статье анализируются такие события, как изменения в сфере целевого капитала и ликвидация религиозных учреждений и организаций в СССР и УССР. В этих республиках, находившихся под контролем советского правительства, имущество целевого назначения было переведено на государственные счета, а поддержка религиозных организаций была прекращена.

Ключевые слова: БССР, СССР, советская власть, дарственные земли, медресе, мечеть, казихана, шариатский суд.

**Abstract.**

This article analyzes the changes in the field of endowments in the USSR and the USSR, as well as the liquidation of religious institutions and organizations. In these republics, which were under the control of the Soviet government, endowment properties were transferred to the state, and the provision of religious organizations was cut off

Keywords: USSR, USSR, Soviet government, endowment lands, madrasa, mosque, qazikhana, Sharia Court.

**Kirish.** Islom tarixida vaqf muassasalari diniy, ma‘rifiy va ijtimoiy hayotda muhim o‘rin tutgan. Vaqf mol-mulklari masjid, madrasa, sabil, kutubxona, shifoxona kabi diniy va ijtimoiy muassasalarni moliyalashtirish vositasi bo‘lgan. O‘rta asrlardan to XX asr boshlariga qadar bu tizim musulmon jamiyatlarida barqaror ishlagan va

ijtimoiy tenglik, madaniy-ma'rifiy rivojlanishga xizmat qilgan. Ammo 1920-yillarning boshlarida Sovet hokimiyati Markaziy Osiyoga kirib kelgach, u diniy institutlarni, jumladan, vaqf tizimini ham keskin isloh qilishga harakat qildi. Ushbu maqolada Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) va Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) hukumatlarining vaqf sohasida olib borgan siyosati IMRAD uslubida tahlil qilinadi.

**Metodologiya.** Mazkur tadqiqotda tarixiy-komparativ tahlil, hujjatli manbalarni o'rganish, arxiv materiallari va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish uslublari qo'llanildi. BXSR va XXSRdagi vaqf tizimi haqida mavjud bo'lgan ilmiy izlanishlar, arxiv hujjatlari, hukumat qarorlari, shuningdek, diniy adabiyotlar asos qilib olindi. Shuningdek, mavjud huquqiy asoslar, diniy muassasalarning huquqiy maqomi va Sovet davlatining ularni qanday nazorat ostiga olgani ham tahlil qilindi. Maqola davomida BXSR va XXSRda olib borilgan siyosat o'zaro solishtirildi va umumiy tendensiyalar aniqlab berildi.

**Natijalar.** BXSR va XXSRda 1920–1924-yillar oralig'ida diniy tashkilotlar faoliyatini cheklovchi siyosiy qarorlar qabul qilindi. BXSRda 1921-yilda qabul qilingan qarorlar asosida masjid va madrasa vaqflari davlat ixtiyoriga o'tdi. Diniy ta'lim muassasalari yopildi, ulamolar va vakillar boshqa sohalarga yo'naltirildi yoki siyosiy ta'qibga uchradi. XXSRda bu jarayon 1922–1923-yillarda amalga oshirildi, ammo dastlab diniy arboblardan bilan murosali siyosat yuritildi. Vaqf tashkilotlariga soliq joriy qilinib, ularning iqtisodiy faoliyati cheklab qo'yildi. Mahalliy ulamolar va diniy elitalar bu siyosatga qarshi chiqqan hollarda jazolandi yoki chetlatildi. Har ikki respublikada diniy tashkilotlar mustaqilligi yo'q qilinib, ular davlat tuzilmalariga bo'ysundirildi. Bu holat diniy hayotda pasayish, ijtimoiy xizmatlarning susayishi, madaniy va ma'naviy merosning yemirilishiga olib keldi. Ayniqsa, diniy ilmlar rivoji, xat-savod, ma'rifat tarqatish markazlari sifatida xizmat qilgan madrasalar faoliyatining to'xtatilishi jamiyatda ilmiy tanazzulga sabab bo'ldi.

**Tahlil.** Sovet mafkurasi asosida olib borilgan siyosat dinga nisbatan murosasiz edi. BXSR va XXSRda diniy erkinliklar formal saqlangandek tuyulgan bo'lsa-da, amalda bu erkinliklar cheklangan edi. Diniy tashkilotlar mustaqil harakat qila olmay, barcha faoliyatini sovet hukumati belgilagan cheklovlar doirasida olib borishga majbur edi. Mahkamayi shar'iya, diniy qozixonalar, vaqf boshqarmalari kabi organlar tashqi tomondan mavjud bo'lsa-da, ular amalda partiya nazoratida edi. Shu tarzda sovet hokimiyati diniy hayotga aralashish orqali aholining mafkuraviy ongini shakllantirishni ko'zlagan. Diniy tashkilotlar faoliyatining cheklanishi islom dinining ijtimoiy va

axloqiy me'yorlarining jamiyatda pasayishiga olib keldi. Vaqf mulklarining davlatlashtirilishi esa, diniy muassasalarning asosiy tayanchini yo'qotdi va bu tizim deyarli butkul tugatildi. Siyosiy nazorat va tazyiqlar orqali Sovet davlati mustamlakachilik siyosatini diniy sohada ham izchil amalga oshirdi.

**Xulosa.** BXSR va XXSR hukumatlari tomonidan olib borilgan vaqf siyosati sovet mafkurasiga asoslangan edi. Vaqf mulklarini davlatlashtirish, diniy tashkilotlarning iqtisodiy asosini yo'qotish, ularni nazorat ostiga olish orqali sovet hokimiyati o'zining mafkuraviy va siyosiy ustunligini mustahkamlashga intildi. Bu esa o'z navbatida diniy-ma'naviy hayotga jiddiy zarar yetkazdi, islom tamoyillariga zid siyosiy bosimlar orqali dinga nisbatan ishonchni susaytirdi. Bugungi kunda tarixiy haqiqatlarni o'rganish orqali o'tmish xatolaridan saboq olish, diniy va madaniy merosni tiklash dolzarb vazifalardan biridir. Vaqf tizimi, o'z tarixiy ahamiyatini yo'qotmagan holda, mustaqillik yillarida qayta tiklanmoqda va bu yo'nalishda tarixiy xotirani saqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sultonova Z. – O'zbekistonda vaqf tizimi tarixi. Toshkent, 2015.
2. Komilov N. – Islom madaniyati va ma'naviyat asoslari. Toshkent, 2002.
3. Abdullayev E. – Sovetlar davrida din va jamiyat. Samarqand, 1998.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi – Vaqf maqolasi.
5. BXSR va XXSR hukumat qarorlari to'plami, arxiv materiallari.
6. Karimov A. – O'zbekiston diniy siyosatining tarixiy manzarasi. Buxoro, 2020.

**Research Science and  
Innovation House**

**MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALAR TASHABBUSKORLIGINI  
SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA IJTIMOY  
MUHITNING ROLI**

Andijon davlat pedagogika instituti  
Pedagogika psixologiya kafedrasida assistent  
o'qituvchisi **Kadirova Omadxon Sobirjonovna**  
Maktabgacha ta'lim fakulteti  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi  
2-bosqich talabasi **Amanboyeva Ozoda Xayrulla qizi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda bolalar tashabbuskorligini shakllantirishda pedagogik yondashuvlar va ijtimoiy muhitning ahamiyati o'rganiladi. Maqola bolalarda tashabbuskorlik xususiyatlarini shakllantirishda ota-onalar, o'qituvchilar va tengdoshlarining ta'siri, shuningdek, ijtimoiy muhitning pedagogik jarayondagi o'rni tahlil qilinadi. Pedagogik texnikalar va metodlar, o'quv jarayonida bolalar bilan o'zaro aloqalar, guruh dinamikasi va bolalarning shaxsiy xususiyatlari, tashabbuskorlikni shakllantirishda qanday muhim rol o'ynashi ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, bolalar tashabbuskorligi, pedagogik yondashuvlar, ijtimoiy muhit, bolalar rivoji, mustaqil fikrlash, pedagogik metodlar, ijtimoiy ta'sir, Ota-onalar va o'qituvchi roli, shaxsiy rivojlanish, bolalar bilan o'zaro aloqalar, tashabbuskorlikni shakllantirish, pedagogik jarayon, guruh faoliyati.

**KIRISH**

Bolalar tashabbuskorligini shakllantirishda pedagogik yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Pedagoglar bolalar bilan faol hamkorlik qilishlari, ular uchun o'qish va ijodiy faoliyatlarga yo'naltiruvchi muhiti yaratishlari zarur. Bolalarni tashabbuskorlikka undashda, ular uchun mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish imkoniyatlarini berish, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini shakllantirishning ahamiyati katta. Pedagogik yondashuvlarda o'quvchilarning individual xususiyatlari hisobga olinib, turli metodlar va texnikalar qo'llaniladi, masalan, faol o'yinlar, guruh ishlari, ijodiy mashg'ulotlar. Pedagogik yondashuvlar bolalar tashabbuskorligini shakllantirishda markaziy rol o'ynaydi. Pedagoglar bolalarga tashabbuskorlikni shakllantirishda turli pedagogik

metodlardan foydalanadilar. Ushbu metodlarga masalan, guruh ishlarini tashkil etish, interaktiv o'quv mashg'ulotlari, kreativ o'yinlar va ijodiy ishlanmalar kiradi. Pedagogik yondashuvlar bolalar uchun ijobiy muhit yaratadi va ularning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'qituvchilar bolalarni faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy mashg'ulotlar orqali ham tashabbuskorlikka rag'batlantiradilar. Bolalarga o'z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyati berilib, ularning tashabbuskorligi mustahkamlanadi. Pedagogik yondashuvlar bolalar tashabbuskorligini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar bolalar bilan o'zaro hamkorlik va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, ularning shaxsiy fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Bolalar tashabbuskorligini oshirishda har bir bola uchun individual pedagogik yondashuvlar qo'llaniladi, bunda o'quv metodlari va faoliyat shakllari, masalan, o'yinlar, qo'shiq va raqslar, ijodiy mashg'ulotlar orqali bolalar faoliyatiga rag'batlantirish yaratish mumkin. Pedagoglar bolalarni tashabbuskorlikka undashda ular uchun o'zaro yordam, jamoaviy ish va guruh faoliyatlarini tashkil etishadi.

Ijtimoiy muhit bolalar tashabbuskorligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Oilaviy va maktabgacha ta'lim muassasalari, shuningdek, tengdoshlar va atrof-muhit bolalar shaxsiyatini shakllantiradi. Ijtimoiy muhit bolalarni qanday qilib ijtimoiy jihatdan faollashtirishga, ularning tashabbuskorligini oshirishga yordam beradi. Bolalar bilan mustahkam ijtimoiy aloqalar o'rnatish, ular uchun to'g'ri rollar va modelni taklif qilish, jamiyatning turli qatlamlaridan bolalarga ta'sir qilish orqali tashabbuskorlikni shakllantirish mumkin. Ijtimoiy muhit bolalar tashabbuskorligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy muhiting bolalar shaxsiyatining shakllanishiga va ularning tashabbuskorligini oshirishga ta'siri katta. oilaviy va jamiyatdagi ijtimoiy aloqalar bolalarning tashabbuskor bo'lishiga yordam beradi. Ota-onalar, o'qituvchilar va tengdoshlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar bolalarning o'zlarini qanchalik mustaqil his qilishlariga, qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bolalar boshqa bolalar bilan birga faoliyat ko'rsatish jarayonida o'z tashabbuslarini namoyon etadilar, bu esa ijtimoiy muhitni yanada boyitadi. Ijtimoiy muhit bolalar tashabbuskorligini shakllantirishda muhim omil bo'lib, bu jarayonda oilaviy va maktabgacha ta'lim muassasalari, jamiyatning ijtimoiy va madaniy holati muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar va o'qituvchilar bolalarga ijtimoiy aloqalarni o'rnatishda o'z tajribalari va qarashlarini yetkazishadi. Ijtimoiy muhiting bolalar rivojiga, ayniqsa, tashabbuskorlikni shakllantirishga ta'siri kattadir. Mustahkam

ijtimoiy aloqalar bolalar uchun motivatsiya va rag‘bat yaratadi, tashabbuskor bo‘lishga undaydi. Shu bilan birga, tengdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy faoliyatlar ham tashabbuskorlikni oshirishda samarali hisoblanadi.

Pedagogik metodlar va guruh faoliyatlari bolalar tashabbuskorligini shakllantirishda samarali vositalardan biridir. Guruh faoliyatlari bolalar o‘rtasida o‘zaro yordam va hamkorlikni rivojlantiradi, shuningdek, bolalarga o‘z fikrini erkin ifodalash, boshqalar bilan birgalikda qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Pedagogik metodlar, masalan, o‘yin usullari, guruh ishlari, rol o‘yinlari bolalarning tashabbuskorligini oshiradi. Bu metodlar bolalarda muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. Pedagogik metodlar va guruh faoliyatlari bolalar tashabbuskorligini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Turli pedagogik metodlar, masalan, "problemali vazifalar" va "o‘yin metodi", bolalar tashabbuskorligini oshirishga yordam beradi. Guruh faoliyatlari bolalarga birgalikda ishlash, muammolarni hal qilish va bir-biriga yordam berish imkoniyatini beradi. O‘yinlar va rolli o‘yinlar bolalarga qaror qabul qilishda tashabbuskorlikni oshirishda yordam beradi, chunki bu faoliyatlar bolalarga o‘z fikrlarini ifodalash, yaratish va o‘zaro hamkorlik qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. O‘qituvchilar bolalar guruhini boshqarib, har bir bolaning o‘ziga xos tashabbuskorlik xususiyatlarini shakllantirishga yo‘naltiradilar. Pedagogik metodlar bolalar tashabbuskorligini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Turli pedagogik metodlar, masalan, guruh ishlarida bolalarning bir-biri bilan hamkorlikda ishlashlari, ular uchun ijodiy va o‘yin faoliyatlarini tashkil qilish bolalar tashabbuskorligini oshiradi. Guruh faoliyatlarida bolalar o‘zaro raqobatlashishdan ko‘ra, bir-biriga yordam berishga, yangi fikrlar va g‘oyalarni ishlab chiqishga o‘rgatiladilar. Shu bilan birga, pedagoglar bolalarni mustaqil qaror qabul qilishga, shaxsiy va jamoaviy tashabbuslarni shakllantirishga yo‘naltiradilar.

Ota-onalar va o‘qituvchilar bolalar tashabbuskorligini shakllantirishda eng muhim shaxslar hisoblanadi. Ota-onalar bolalarining o‘qish jarayonida faolligini qo‘llab-quvvatlashi, o‘qituvchilar esa o‘quv jarayonida bolalarga mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va tashabbuskor bo‘lishni rag‘batlantirishi kerak. Ijobiy o‘rnak ko‘rsatish va bolalarning tashabbuskorlik ko‘nikmalarini mustahkamlashda ota-onalar va o‘qituvchilarning doimiy hamkorligi zarur. Ota-onalar va o‘qituvchilar bolalar rivojida markaziy o‘rin tutadi. Ularning o‘zaro hamkorligi bolalar shaxsiyatining shakllanishiga, tashabbuskorligini shakllantirishga va mustahkamlashga xizmat qiladi. Ota-onalar o‘z farzandlariga tashabbuskorlikni namoyish etishda o‘rnak bo‘lishadi.

Ular bolalarining mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantiradi. O‘qituvchilar esa bolalar bilan o‘zaro munosabatlar orqali, ayniqsa, guruh faoliyatlarida, bolalar tashabbuskorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar bolalarni hamkorlikka, birgalikda ishlashga va o‘z fikrlarini erkin ifodalashga o‘rgatadilar. Ota-onalar va o‘qituvchilarning bolalar tashabbuskorligiga ta'siri bevosita va dolzarb ahamiyatga ega. Ota-onalar bolalarining o‘qish jarayonida faolligini qo‘llab-quvvatlab, ularning tashabbuskorligini shakllantirishda yordam beradi. O‘qituvchilar esa bolalarga tashabbuskorlikni shakllantirishda pedagogik metodlar, o‘yinlar, rolli o‘yinlar orqali ularga qaror qabul qilish va o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatini yaratadi. Ularning faol ishtiroki va mustahkam aloqalar bolalar uchun ijobiy o‘rnak bo‘lib, tashabbuskorlikni oshirishga yordam beradi.

#### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Maktabgacha ta’lim davrida bolalar tashabbuskorligini shakllantirish – ularning keyingi shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga zamin yaratadi. Tashabbuskorlik bolaning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, o‘z fikrini erkin ifoda eta olishi kabi muhim sifatlarini shakllantiradi. Pedagogik yondashuvlar va ijtimoiy muhit bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ota-onalar, pedagoglar va tengdoshlar tomonidan yaratilgan ijobiy muhit, pedagogik jarayonlarda qo‘llaniladigan zamonaviy metod va texnologiyalar bolalarning tashabbuskorligini samarali rivojlantiradi.

Pedagoglar uchun maxsus treninglar: Tashabbuskorlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan interaktiv, loyihaviy va kreativ metodlarni amaliyotga joriy etish bo‘yicha muntazam malaka oshirish kurslari tashkil etish. Oilaviy hamkorlikni kuchaytirish: Ota-onalarni bolalarning tashabbuskorligini rag‘batlantirishda faol ishtirok etishga jalb etish, bu borada seminar va ochiq mashg‘ulotlar o‘tkazish. O‘quv muhitini boyitish: Maktabgacha ta’lim muassasalarida ijodiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan vositalar, burchaklar va maydonchalar (konstruksion, san’at, rol o‘yinlari burchagi) bilan boyitilgan muhit yaratish. Bolaning qiziqishi va individual xususiyatlarini hisobga olish: Har bir bolaning o‘ziga xosligini hisobga olgan holda individual yondashuvlarni yo‘lga qo‘yish. Guruhli faoliyatlarni kengaytirish: Guruh bo‘lib ishlash orqali bolalarning liderlik, fikr bildirish va o‘z tashabbusini ilgari surish qobiliyatlarini shakllantirish. Axborot texnologiyalaridan foydalanish: Interaktiv ta’lim vositalari yordamida bolalarni mustaqil qaror qabul qilish va fikrlashga yo‘naltirish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G‘ofurov K. G., Saidahmedova N. A. Pedagogika. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
2. To‘raxo‘jayev N. N., Haydarova D. M. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2019.
3. Hasanboeva M.Q. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O‘zR FA nashriyoti, 2018.
4. Karimova R. X. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: “Universitet”, 2017.
5. Mavlonova R. X. Bola shaxsini shakllantirishda oilaning o‘rni. – Toshkent: “Fan”, 2021.
6. Nurmatova G.A. Maktabgacha ta’limda innovatsion metodlar. – Toshkent: “Iqtisodiyot va ta’lim”, 2022.
7. Allport G. Shaxs psixologiyasi. – Moskva: Eksmo, 2010. (rus tilidan tarjima asosida foydalanilgan)
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PQ-4477-son qarori “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.
9. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi rasmiy veb-sayti: [www.maktabgacha.uz](http://www.maktabgacha.uz)
10. ZiyoNet ta’lim portali: [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)

**Research Science and  
Innovation House**

## BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH METO'DIKASI.

**Odilova Mohlaroy Dilmurod qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

**Anotatsiya:** Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash o'zining bir qator mezolariga ega. Bu jarayonda bolalarni jismoniy, aqliy, ruhiy, irodaviy va ma'naviy jihatdan maktabga tayyorlash, ularning maktab ta'limida zo'riqmasligi, ta'limning uzliksizligi va samaradorligini ta'minlovchi asoslardandir. Ushbu maqolani o'qib chiqish orqali siz bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning bir qancha metodikalari bilan tanishib olasiz.

**Kalit so'zlar:** maqsad, vazifa, mazmun, ta'lim, davlat talabi, pedagogika, bola psixologiyasi, maktabga tayyorlash, rivojlantirish, maktabgacha ta'lim, aqlan rivojlanish, ma'nau rivojlanish, jismonan rivojlanish.

Maktabgacha ta'lim bosqichi uzluksiz ta'limning eng muhim, mas'uliyatli, bola tarbiyasi va ta'lim olishi poydevori, asoslari shakllanadigan bosqichidir. Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari bolalarni xalqning boy milliy, madaniy, tarixiy me'rosi va ma'naviy-axloqiy an'analari ruhida tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yosjdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat. Bu bosqichda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash masalasi eng dolzarb masalalardan sanaladi. Aynan shuni e'tiborga olgan holda bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasida Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev faol tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlar, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi, Prezidentimiz tomonidan “2017- 2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2707-sonli Qaror (2016-yil, 29- dekabr), «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi PF-5198-sonli Farmon (2017-yil 30-sentabr), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta'lim

muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” gi 528-sonli Qarori (2017- yil, 19-iyul), “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi” kabi rasmiy hujjatlarning qabul qilinishi maktabgacha ta‘lim tizimida ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishda alohida o‘rin egallamoqda.

Bolaning maktab ta‘limiga tayyorligi tushunchasi. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta‘lim to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta‘limni uyda, otaonalarning mustaqil ta‘lim berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida, shuningdek, maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta‘lim tashkilotlarda, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular haftada 2-3 marta shug‘ullanishadi. Ota-onalarga maktabgacha ta‘lim shaklini tanlash huquqi beriladi. 6-7 yoshli bolaning maktab ta‘limiga tayyorligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta‘lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchilar asosiy shart hisoblanmish – bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko‘prik vazifasini utashini, oila yoki maktabgacha ta‘lim tashkilotdagi ta‘lim-tarbiya sharoitlarida maktab ta‘limiga ozorsiz o‘tkazishni ta‘minlash zarurligini hisobga olishlari lozim. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta‘limiga utishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani yoki uydayok maktab ta‘limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo‘lmagan bilim, tushuncha, ko‘nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo‘ladi. Yetakchi mutaxassislarining fikriga ko‘ra, «Maktabga tayyorgarlik» tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning o‘z quyidagi yo‘nalishlarini ichiga oladi:

- axloqiy;
- aqliy;
- jismoniy;

Bolaning maktabda o‘qishga axloqiy- irodaviy tayyorgarligi. Maktabda o‘qishga axloqiy-irodaviy tayyorlik bolaning maktabgacha bolalik oxiriga kelib axloqiy xatti-harakat, iroda, axloqiy hissiyotlar va ong rivojida unga yangi ijtimoiy nuqtai nazarni faol egallashiga hamda o‘zining o‘qituvchi va sinfdoshlari bilan o‘zaro munosabatlarini axloqiy asosda qurishga imkon beradigan darajaga erishishida ifodalanadi. Axloqiy irodaviy tayyorlik katta maktabgacha ta‘lim yoshidagi bola shaxsiy xulq-atvori rivojining muayyan darajasida namoyon bo‘ladi. Bu munosabatda bolaning maktabgacha ta‘lim yoshi davomida rivojlanadigan o‘z xulq-atvorini boshqari

qobiliyati: qoidani yoki tarbiyachi talablarini ongli bajarish, dafʼatan asabiylashib ketishga erk bermaslik, qoʻyilgan maqsadga erishishda qatʼiyatni namoyon qilish, kerakli ishni oʻziga tortadigan, ammo maqsaddan chalgʻitadiganiga qarshi oʻlaroq bajarish koʻnikmasi va shu kabilar eʼtiborga loyiqdir. Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlik, shuningdek, axloqiy hissiyot va bola ongi rivojining muayyan darajasi bilan ham ifodalanadi. Bu oʻrinda eng ibratlisi bolalarning axloqiy xulq-atvorining ijtimoiy ahamiyatini tushunish, ularda oʻz xatti-harakatlarini mustaqil baholash qobiliyatini rivojlantirish, maʼsuliyat, haqgoʻylik, insoniylik va fuqarolik hissiyotlari elementlarini shakllantirishdir. Axloqiy-irodaviy tayyorlik tarkibiga maktabgacha taʼlim yoshidagi bolaning mehnatga munosabatini ifodalovchi sifatlar majmui ham kiradi. Bu mehnat qilish ishtiyoqi, atrofdagilar mehnatiga hurmat, zarur mehnat malakalarini egallashdir.

Bola maktabga aqliy tayyorgarligining tarkibiy qismi bola bilish faoliyatini muayyan darajada rivojlangan boʻlishidir. Birinchidan, bilish jarayonining oʻsib boruvchi ixtiyoriyligi; materialni maʼno jihatdan ixtiyoriy eslab qolish va takror ifodalash, narsa va hodisalarni rejali idrok etish, qoʻyilgan bilish va amaliy masalalarni maqsadga muvofiq hal etish qobiliyati va shu kabilar; ikkinchidan, bilish jarayonlari sifatini oshirish, sezgilarning aniqligi, idrokning toʻliq va tabaqalashtirilganligi, eslab qolish va takror ifodalashning tez va aniqligi; uchinchidan, bolada atrof-dunyoga bilish munosabatlari, bilimlarni egallash va maktabda oʻqishga intilishning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabga aqliy tayyorlikni shakllantirishda boʻlajak oʻquvchi tafakkur faoliyatining umumiy darajasi muhim ahamiyatga ega.

Bolaning maktabda oʻqishga jismoniy tayyorgarligi. Bolaning maktabda oʻqishga jismoniy tayyorligi oʻqishning muvaffaqiyatli boʻlishida katta ahamiyatga egadir. Maktabga chiqish munosabati bilan bola turmush tarzining qayta qurilishi, kun tartibining oʻzgarishi, jiddiy oʻquv mehnati, darslarning davomiyligi undan sezilarli jismoniy zoʻr berishni talab qiladi. Maktabga jismoniy tayyorlik koʻpgina tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Bu, birinchi navbatda, bola salomatligining yaxshi boʻlishi, organizmning chiniqqanligi, maʼlum darajada chidamliligi va ish qobiliyati, kasalliklarga qarshilik koʻrsata olishidir. Bolalarni maktabga tayyorlashda barmoq mayda muskullarining rivojlanishi alohida oʻrin egallaydiki, bu yozuvni muvaffaqiyatli egallashning zaruriy shartidir. Maktabga jismoniy tayyorlik, shuningdek, bola tomonidan madaniy gigiyenik malakalarni egallanishini, ularda shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish odatini tarbiyalashni nazarda tutadi. Jismoniy tayyorlik bolada maktabga yetuklikni shakllantirishning zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Maktabga

yetuklikni aniqlashda bola sog‘ligining holati va organizmning biologik yetukligini baholash (antropometrik ko‘rsatkichlar, suyak, mushak, nafas olish va yurak-tomir tizimining) rivojlanganligini nazarda tutuvchi ko‘p omilli tahlildan, maktabga funksional tayyorlikning, «Maktabga yetuklik»ning asosiy ko‘rsatkichi va, eng avvalo, bir qator fiziologik funksiyalarining rivojlanish darajasini baholashdan foydalaniladi. Bularga: partada anchagina uzoq muddat o‘tirish uchun zarur bo‘ladigan tormozlanish qobiliyatining rivojlanganligi; harakatlarni yaxshi boshqarish, jumladan, yozish va rasm solishga aloqador grafik vazifalarni bajarishda zarur bo‘ladigan barmoqlarning mayda harakatlari; ijobiy va tormozlanishiga xos shartli aloqalarni nisbatan tez hosil qilish hamda mustahkamlash, shuningdek, ikkinchi signal tizimning yetarlicha rivojlanganligi kiradi.

Bolalar muntazam ta‘lim sharoitlarida maktabgacha bolalik oxiriga kelib, o‘quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini: tushunarli o‘quv vazifasini qabul qilish, tarbiyachining ko‘rsatmalarini tushunish va aniq bajarishni, ishni kattalar tomonidan ko‘rsatilgan usullaridan foydalanib bajarib bir natijaga erishish, o‘z faoliyati, xulq-atvori, topshiriqlarni bajarish sifati ustidan nazorat qilish ko‘nikmasini, o‘zining va boshqa bolalarning ishlariga tanqidiy baho berish qobiliyatini, egallab olishlari kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;**

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, Toshkent -2018.
2. Davlat ta‘lim satandartlari.
3. Hasanboyeva O. U. va boshqa. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi – Toshkent: Ilm ziyo,2006.

**Research Science and  
Innovation House**

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA JISMONIY TARBIYANING AHAMIYATI.

**Abduvaliyeva Durdona Muhammad Ali qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya metodikasi kursining asosiy maqsadi bo'lajak kadrlarga Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya metodikasi bo'yicha atroflicha va chuqur kasbiy bilimlar bilan qurollantirish mazmuni yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy tarbiya, kuchlilik, tetiklik, chaqqonlik, jismoniy sifatlar, sport musobaqa, metodlar, prinsip, mazmun, sport fiziologiyasi, sport psixologiyasi, jismoniy mashqlar.

Jismoniy rivojlanish – odam organizmining tarkib topishi, uning shakllari va vazifalarining o'zgarishini ifodalaydigan biologik jarayondir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi ular hayotini saqlash, sog'lig'ini mustahkamlash, harakat malakalarini shakllantirish va to'la ma'nodagi jismoniy tarbiya berish, madaniy – gigiyenik malakalarni shakllantirish, batartib hayot kechirish odatini singdirishga qaratilgan. Sog'lom, jismonan baquvvat bolaning ish qobiliyati ham yuqori bo'ladi, sharoitga oson moslashadi, har xil topshiriqlarni osonlik bilan tez bajaradi.

Mashhur Yunon donishmandi Aflotun baxt haqida zikr etib: “Inson uchun birinchi baxt uning sog'lig'i, ikkinchisi — go'zallikdir” degan ekan. Darhaqiqat, salomatlik barcha boyliklar manbaidir. Nasl-nasabi sog'lom va ma'naviyati yuksak xalqning avlodlari ham sog'lom, baquvvat, iymon-e'tiqodli va sadoqatli bo'ladi, bu baxt ona-Vatanning shuhrati va qudratining zo'r omiliga aylanadi. Xalqning ana shunday baxt saodati uchun sog'lom avlod kerak.

Jismoniy mashqlarning sihat-salomatlikka foydasi cheksizligini D.Adisson shunday ta'riflaydi: “Mutolaa aql uchun qancha zarur bo'lsa, jismoniy mashqlar ham shuncha zarur”. Suqrot hakim esa: “Gimnastika yordami ila men badanimning muvozanatini to'g'rilab olaman” degan fikrni aytadi.

Jismoniy tarbiya to‘g‘risidagi ta‘limot pedagogikaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Pedagogika fanining mazkur sohasiga qarashli turli hodisalarga ta‘rif berilganda, “Badantarbiya”, “jismoniy madaniyat”, “jismoniy kamolot”, “jismoniy rivojlanish” degan asosiy tushunchalardan foydalaniladi.

Bolaning biologik rivojlanishi jarayonini tabiiy fanlar majmui o‘rganadi, ularning asosini I.M.Sechenov, I.P.Pavlov va ular izdoshlarining organizm va muhit birligi, organizmning yaxlitligi va uning hayotiy faoliyatida markaziy asab sistemasining tartibga soluvchilik roli haqidagi ta‘limoti tashkil etadi. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar organizmining o‘ziga xos tomoni shundaki, u juda tez o‘sadi va rivojlanadi. Shu bilan birga organizm funksiyalari va sistemalarining shakllanishi hali tugallanmagan bo‘ladi, shunga ko‘ra u tez jarohatlanadi. Shuning uchun bolalarga jismoniy tarbiya berishda quyidagilar birinchi darajali vazifalar hisoblanadi: Bolalar sog‘lig‘ini mustahkamlash, organizmning shakl va funksiyalarini uyg‘un rivojlantirish, ish qobiliyatini oshirish, har xil tashqi ta‘sirlarga chidamliligini kuchaytirish, uzoq umr ko‘rishini ta‘minlash.

Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarga xos bo‘lgan o‘ta qabul qiluvchanlikni, sharoitning o‘zgarishiga yengil moslashish qobiliyati bir qator ta‘limiy vazifalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi, chunonchi: kerakli ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, jismoniy sifatlar (chaqqonlik, kuchlilik, chidamlilik, tezkorlik, egiluvchanlik, muvozanat, ko‘z bilan chamalash)ni o‘stirish, to‘g‘ri qaddi – qomat, gigiyena ko‘nikmalarini tarbiyalash, jismoniy tarbiya haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish.

Boladagi harakat ko‘nikmalari (emaklash, yurish, yugurish, velosipedda uchish va h.k)ga nisbatan yengil shakllanadi va ular bolaning muhit bilan aloqasini osonlashtiradi. Bola chanada uchayotib qor, shamolning, suvda suzayotib suvning xossalari bilan tanishadi. Jismoniy mashqlar, gigiyena malakalarini egallash bilan bog‘liq bo‘lgan dastlabki bilimlar shakllantiriladi. Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish jarayonida bolada tabiat hodisalari, ijtimoiy hayot, hayvonlar, qushlar, hasharotlar haqidagi bilimlarni mustahkamlash zarur.

Bolalarda sport mashg‘ulotlariga muhabbatni, sportchilarning yutuqlariga qiziqishni tarbiyalash lozim. Jismoniy mashqlarni bajarishda xarakterning ijobiy xususiyatlari (uyushqoqlik, intizomlilik, kamtarlik, ko‘ngilchanlik va hokazo) va axloqiy fazilatlar (halollik, haqqoniylik, o‘rtoqlik hissi, o‘zaro yordam), jamoada shug‘ullanish malakasi, fizkultura asboblarini ehtiyot qilish, topshiriqni mas‘uliyat bilan bajarishlarini tarbiyalash, shuningdek, ifodaviy fazilatlar (botirlik, qat‘iylik, o‘z

kuchiga ishonch, qiyinchiliklarni yengishda sabotlilik, chidamlilik va boshqalar)ni namoyish qilish uchun juda qulay sharoit yaratiladi.

Bolalarning jismoniy to‘g‘ri rivojlanishi uchun gigiyenik sharoit (bino, maydoncha, jihozlar, kiyim – bosh, poyabzal) yaratish, bolalar hayotining ilmiy asoslangan rejimini (bo‘lar oqilona ovqatlanish, harakatlarni rivojlantirish va organizmni chiniqtirish tadbirlarini o‘z ichiga oladi) bajarish zarur. Shu bilan birga, tibbiyot xodimlarining doimiy nazorati, zaruriy profilaktik va davolash ishlarini olib borishi talab etiladi.

Bolalarning ovqatlanishi (nonushta, tushki ovqat, kech tushki ovqat va kechki ovqat) osoyishta vaziyatda o‘tishi kerak. Bolalarda ovqatlanish bilan bog‘liq bo‘lgan madaniy-gigiyenik malakalarni tarbiyalash kattalardan ijobiy namuna ko‘rsatishni talab etadi. Bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda uyqu muhim ahamiyatga egadir. Uyqu miya katta yarimsharlarining normal ishlashi uchun zarur bo‘lgan kuch-quvvatni tiklaydi. Chuqur va yaxshi, uzoq davom yetadigan uyqu nerv sistemasining, organizm charchashining oldini oluvchi asosiy vositadir.

Madaniy-gigiyenik ko‘nikmalar va odatlarni tarbiyalash. Madaniy-gigiyenik ko‘nikmalarga badanni ozoda tutishga, to‘g‘ri ovqatlanishga, atrof-muhitda tartib saqlashga rioya qilish va bolalarning bir-birlari bilan, kattalar bilan, o‘zaro madaniy munosabatlariga doir ko‘nikmalar kiradi.

Bolalar muassasasi kun tartibida xilma-xil o‘yinlarga alohida o‘rin beriladi. Vaqtdan to‘laqonli foydalanish uchun tarbiyachi o‘yinchoqlar va qo‘llanmalarni oldindan tanlab qo‘yishi, bolalarni bajarish ko‘nikmalarini tarbiyalashi zarur.

Sayr qilish har tomonlama tarbiyaviy ishlar uchun keng imkoniyatlar beradi. Sayr chog‘ida, tabiat va ijtimoiy hodisalar kuzatiladi, bolalarning mehnat va o‘yin faoliyati, sport mashqlari uyushtiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiyaning quyidagi o‘ziga xos vositalaridan foydalaniladi: 1) harakatli o‘yinlar o‘tkazilib, ularga eng ko‘p o‘rin beriladi;

2) asosiy gimnastika (asosiy harakatlar, umum rivojlantiruvchi va saf tortish mashqlari); 3) sport mashqlari (konkida uchish, chang‘ida yurish, suzish, velosipedda uchish);

4) bolalar turizmi.

Ko‘rsatilgan vositalardan uyg‘un birlikda foydalanish har tomonlama jismoniy rivojlanishni ta’minlaydi.

Jismoniy rivojlanish – odam organizmining tarkib topishi, uning shakllari va vazifalarining o‘zgarishini ifodalaydigan biologik jarayondir. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi ular hayotini saqlash, sog‘lig‘ini mustahkamlash, harakat malakalarini shakllantirish va to‘la ma’nodagi jismoniy tarbiya berish, madaniy – gigiyenik malakalarni shakllantirish, batartib hayot kechirish odatini singdirishga qaratilgan. Sog‘lom, jismonan baquvvat bolaning ish qobiliyati ham yuqori bo‘ladi, sharoitga oson moslashadi, har xil topshiriqlarni osonlik bilan tez bajaradi.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga xos bo‘lgan o‘ta qabul qiluvchanlikni, sharoitning o‘zgarishiga yengil moslashish qobiliyati bir qator ta’limiy vazifalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi, chunonchi: kerakli ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, jismoniy sifatlar (chaqqonlik, kuchlilik, chidamlilik, tezkorlik, egiluvchanlik, muvozanat, ko‘z bilan chamalash)ni o‘stirish, to‘g‘ri qaddi – qomat, gigiyena ko‘nikmalarini tarbiyalash, jismoniy tarbiya haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar;**

1. I.A.Karimov O‘zbekiston XXI asr bo’sag’asida (xavsizlikka taqlid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari).T., "O‘zbekiston".1997 yil.
2. Mohinur, S., & Hilola, S. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI HAR TOMONLAMA RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVLAR.
3. Shodiboyeva, M. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING INTELLEKTUAL QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI.

**Research Science and  
Innovation House**

## BOLANI MAKTABGA TAYORLASH AQLIY, AXLOQIY TAYYORLASH.

**Muhammadaminova Muslima Abdumumin qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berishning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha yoshdagi, bolalar, aqliy, tarbiya, oila, va maktabgacha va maktab ta'lim tashkilotlari tarbiyachi, o'qituvchilar.

O'zbekiston Respublikamiz uchun yosh avlodni har tomonlama etuk inson qilib tarbiyalash hayotiy muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy farovonligi fuqarolarning aqliy va axloqiy salohiyati hamda ularning ma'naviy darajada yuksak rivojlanishiga bogliq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida maktabgacha ta'lim tizimining ilk bo'g'ini hisoblanadi va butun ta'lim-tarbiya tizimining asosiy maqsadi bo'lgan-barkamol avlodni tarbiyalashga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini maktabgacha bolalar ta'lim - tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyor tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini shakllantirish aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiya mohiyatan turlicha ifodalab kelingan bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan.

Maqsadsiz, ma'lum g'oyani ifoda etmaydigan tarbiya bo'lmaydi. Tarbiya maqsadi asosida uning mazmuni asoslanib, maqsadni amalga oshirishga xizmat qiluvchi metod va usullar aniqlanadi. Tarbiya maqsadining muammosi pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Tarbiya maqsadi umumiy va individual xarakterga ega bo'lishi mumkin. Ilg'or pedagogika umumiy va individual maqsadlar birligi va uyg'unligini namoyon etadi.

Maqsad tarbiyaning umumiy ijtimoiy maqsadni ijobiy hal etishga yo'naltiriladi hamda aniq vazifalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, tarbiya maqsadi tarbiya jarayonini tashkil etish asosida hal etiladigan vazifalar tizimidir. Tarbiya maqsadlari mohiyati va ko'lamiga ko'ra umumiy va aniq vazifalar sifatida guruhlanadi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi rahbariyati yoshlar orasidan eng iqtidorli, salohiyatlilarini tanlab, saralab olib, ularni ilmiy, madaniy-ma'naviy jihatdan kamolotga erishishlari, zamonaviy fan-texnika asoslarini puxta o'zlashtirib olishlari uchun g'amxo'rlik qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining istiqboli nazarda tutilib, ko'pgina yoshlarning Turkiya, Xitoy, Yaponiya, AqSh, Germaniya kabi rivojlangan xorijiy mamlakatlarga tahsil olish uchun yuborilayotganliklari fikrimizning yorqin dalilidir.

Jamiyat ma'naviyati va shaxs kamolotida muhim o'rin tutuvchi ma'naviy va axlohiy poklik, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, keksalarga hurmat singari insoniy fazilatlar o'z-o'zidan shakllanmaydi. Barchasining asosida yosh avlodga oila, maktabgacha ta'lim muassasasalari, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasbhunar hamda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va samarasi yotadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiyani berish – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, shaxs tomonidan tabiat, jamiyat, shuningdek, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, unda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Aqliy tarbiya yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarga ega shaxsni tarbiyalashda etakchi o'rin tutadi. Bilimlar tizimini ongli ravishda o'zlashtirish mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, idrok etish, aqliy qobiliyat, mayillik va iqtidorni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Alisher Navoiy o'zining «Farhod va Shirin» dostonidan Farhodning aqluidrokli, bilimdon, hunarmand, kamtar, insonparvar, irodali va e'tiqodli bo'lganligini tasvirlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga jismoniy tarbiyani berish bolalarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Yuqori darajada rivojlangan ishlab chiqarishga asoslangan mavjud ijtimoiy sharoit jismonan baquvvat, ishlab chiqarish jarayonida yuqori unum bilan ishlashga qodir, qiyinchiliklardan cho'chimaydigan,

shuningdek, vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash zarurligini ko'rsatmoqda.

O'sib kelayotgan yosh avlodning zamon talablariga mos, barkamol inson bo'lib shakllanishlari uchun ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlari – aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiyani tashkil etishga nisbatan yangicha nuqtai nazardan yondashish, ularning samarali yo'llarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Bu esa tarbiyadagi eng muhim vazifalardir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston ovozi.2017 yil 1 yanvar. 1-son (32.216)
2. “Ilk va Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari”Toshkent . O'zRMTV. 2018 yil
3. G.R.To'xtasinova vb. Bolalar bog'chasida intellektual o'yinlar. Yandi asr avlodi. T.-2005
4. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
5. [www.ziynet.Uz](http://www.ziynet.Uz).

**Research Science and  
Innovation House**

## BOLALARNI MAKTABGA TAYORLASH TIZIMLARINI SHAKILANTIRISH.

**Obidjonova Ozoda Odiljon qizi**

Andijon davlat pedagogika instuti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2- bosqich talabasi.

**Annotasiya:** Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga ruxiy va fiziologik tayyorgarligi, maktabga tayyorgarlik ko'rishga imkon beradigan ko'plab usullar va tayorgarliklar haqida yoritilgan.

**Kalitso'zlar:** Bola, maktabgacha ta'lim, kompetensiya, ijtimoiy-hissiy, kommunikativ, shaxsiy, bilish, rivojlantirish, qiymat natija, samaradorlik.

Bugungi kunda xorijiy tajribalar maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida hayotiy yo'nalishlarini tanlash uchun shart-sharoitlarni ta'minlash zarurligini ko'rsatmoqda. Rivojlangan davlatlarda ta'limga e'tibor va unga sarmoya kiritish davlatni mustahkamlashning eng muhim omili ekanligi o'z isbotini topdi. Maktabgacha yosh davri o'ziga xos ijtimoiy madaniy hodidsa ekanligi, uning bola hayotidagi ta'siri butun umri davomida mustahkam zamin yaratishini tushunish dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti ahloqi qiziqish va munosabatlarida anchayin jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani bog'chada yoki uyt dayoq maktab ta'limiga tayyorlash, uni unchab bo'lmagan bilim, yushuncha, kunikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo'lishga yordam beradi.

Etakchi mutaxassislarining fikriga ko'ra “maktabga tayyorgarlik” tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning qo'yidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi: jismoniy, shaxsiy(ruhiy), aqliy va maxsus tayyorgarlik. Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifati qo'l mushaklari va ko'rish - mator muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi.

“ Rivojlanganlik “ning asosiy belgilari o'ziga xos jismoniy rivojlanishning alohida jihatlarida ko'rinadi. Masalan – suyak tuzilishida, past bo'yli bolalarda o'z yoshiga ko'ra tana bo'yi va og'irligidagi nomutanosiblik, tanadaga muvozanat

buzilishlari, yo‘rak- qon tomir tizimidagi fiziologik etishmovchiliklar, tez toliqishlar, jismoniy yo‘klamalarni bajarishdagi imkoniyatlari pastligi shular jumlasiga kiradi.

Maktablarning 1- sinflari o‘qituvchilari maktabgacha yoshdagi bolani qabul qilishda shuni unutmaslik lozimki, 6, hatto, 7 yoshli bola 1-sinfga kirishda uning oiladami bog‘chadami maktabgacha ta‘limni to‘liq olganligidan qat’iy nazar, o‘quv faoliyatining ma‘lum bir ko‘nikmalariga ega bo‘lsa-da, baribir ma‘lum muddatgacha bolamaktabgacha yoshdagi davrning o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab turadi. U hali o‘quv faoliyati uchun kerakli bo‘lgan sifatlar va uddaburonlikka ega emas. U bu hislatlarni o‘quv jarayoni davomida egallashni davom ettiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ilk o‘qitish bosqichida bog‘chada ham, maktabda ham ularga o‘qishda birdan qat’iy belgilangan talablarni qo‘yish mumkin emas, faqat maktabdars tizimidagi ta‘limni qo‘llash kerak. Namuna uchun bolalar bog‘chasida va maktabda ta‘lim shakli mutanosibligi taqsimotini keltiramiz.

- bolalar bog‘chalarining katta va tayyorlov guruhida – 80 foyiz o‘yin –20 foiz mashg‘ulot

- birinchi sinflarda (1-yarim yillikda) – 60 foiz o‘yin – 40foyz dars;
- birinchi sinflarda (2-yarim yollikda) – 30 foyiz o'yin – 70 foyiz dars ;

Katta va tayyorlov guruh tarbiyachilari va 1- sinf o‘quvchilari-ning asosiy vazifasi – ta‘limning birinchi bosqichida bola hayoti va metodlarini ta‘min etish. O‘yin faoliyati bolalar uchun malum muddat etkchi bo‘lib qolishi va metodlarini ta‘min etish. O‘yin faoliyati bolalar uchun ma‘lum muddat etakchi bo‘lib qolishi va bundan birdan voz kechmaslik, balki u sekinasta tabiiy holda o‘z o‘rnini boshqa, yani o‘quv faoliyatiga bo’shatib berishini nazarda tutish kerak.

Bolalarni maktabda o‘qitishning samaradorligini ko‘p jixatdan ularning tayyorgarlik darajalariga bog‘liq bo‘ladi. Maktabda o‘qishga tayyorgarlik – maktabgacha ta‘lim muassasasi va oilada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaga qo‘yadigan talablar orqali aniqlanadi. Bu talabalarning o‘ziga xos tomoni o‘quvchining yangi ijtimoiy psixologik o‘rni, u bajarishga tayyorlangan bo‘lishi lozim. Aqliy tayyorgarlik bola obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurning, odamiylikning, bilimga qiziqishning, mustaqilligining, o‘zini-o‘zi nazorat qilishga, xamda o‘quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni o‘z ichiga oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bikbayeva N.U., Ibroximova 3.I., Qosimova X.I. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish, T., 1995.
2. X. Axmedova va boshqa... «Bolangiz maktabga tayyormi?» T., 2000y.
3. M. Jumayev “Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi va nazariyasi” T., 2007 y.
4. S.X. Jalilova, S.M. Aripova. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. 2013y.
5. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga ko‘yiladigan davlat talablari. 2013y.
6. “Bolajon” dasturi 2010y.



Research Science and  
Innovation House

## O`RTA OSIYO SHAHARLARIDA XVI–XIX ASRLARDA SAVDO-SOTIQ JARAYONLARI

Guliston davlat universiteti  
Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti  
Tarix yo`nalishi 75-21 guruh talabasi  
**Nortojiyev Jamshidbek**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XVI–XIX asrlar oralig`ida O`rta Osiyodagi savdo-sotiq tizimi, savdo markazlari, asosiy mahsulotlar, tashqi va ichki aloqalar, savdo tashkilotlari hamda iqtisodiy-siyosiy ta`sirlar tahlil qilinadi. Shuningdek, savdoning ijtimoiy va madaniy hayotga ko`rsatgan ta`siri tarixiy manbalar va chet ellik tadqiqotchilar fikrlari asosida ochib beriladi.

**Kalit so`zlar:** O`rta Osiyo, savdo, karvon yo`llari, bozorlar, Xiva, Buxoro, Toshkent, Qo`qon, Rossiya, Ipak yo`li.

### **KIRISH**

O`rta Osiyo qadimdan buyon Sharq va G`arbni bog`lovchi eng muhim savdo yo`llaridan biri bo`lib kelgan. Ayniqsa, XVI–XIX asrlar oralig`ida bu mintaqa savdo-sotiq faoliyati nuqtayi nazaridan katta o`zgarishlarni boshdan kechirdi. Ipak yo`lining asosiy shaharlaridan bo`lgan Buxoro, Xiva, Qo`qon va Toshkent savdo aloqalarining markazlariga aylandi. Bu davrda savdo faqat iqtisodiy emas, balki diplomatik va madaniy ahamiyatga ham ega bo`lgan.

### **Asosiy qism**

XVI–XIX asrlarda O`rta Osiyo savdo geografiasining markazida joylashgan Buxoro, Xiva, Qo`qon va Toshkent shaharlarining roli muhim bo`ldi. Bu shaharlar karvon yo`llarining tugun nuqtalarida joylashgan bo`lib, ichki va tashqi savdo faoliyatining asosiy nuqtalariga aylangan.

Xonliklar qo`shni davlatlar bilan savdo-sotiq aloqalarida avvalo ichki savdo yo`llari orqali tashqi yo`llarga chiqilardi. Xonliklarda ko`pgina yirik shaharlar, xususan, Qo`qon xonligida – Qo`qon, Andijon, Namangan, Marg`ilon, Toshkent shaharlari, Buxoro amirligida – Buxoro, Qarshi, Samarqand, Chorjo`y, Shahrisabz, Termiz shaharlari, Xiva xonligida – Xiva, Qo`ng`irot shaharlari o`sha davrning asosiy savdo

markazlari bo`lib, ular bilan bog`langan savdo yo`llari har bir mamlakat iqtisodiy hayotida muhim rol o`ynagan.

Ushbu shaharlarda hunarmandchilikning yaxshi yo`lga qo`yilganligi oqibatida ishlab chiqarilgan tovarlar O`rta Osiyoning ichki va tashqi bozorida ko`p mikdorda sotilgan. To`qimachilik, kulolchilik, qurol-yaroq va turli-tuman ro`zg`or buyumlarini yasash bilan mashhur bo`lgan ushbu shaharlar o`zaro savdo-sotiq orqali chambarchas bog`langan edilar. Xiva va Buxoro, Buxoro va Samarqand, Buxoro va Toshkent, Buxoro va Marg`ilon, Toshkent va Qo`qon, Samarqand va Qarshi o`rtasidagi savdo aloqalari XIX asrning o`rtalarida juda yuqori darajada bo`lib, mazkur shaharlar o`rtasidagi madaniy jarayonlarga ham ta`sir etgan. Qo`qon, Marg`ilon va Namangan shaharlarida ip va ipak matolar (atlas, shoyi, beqasam, adras, chit, bo`z va h.) to`qilgan. Shuningdek, boshqa hunarmandchilik tarmoqlarida xo`jalik asboblari, dehqonchilik uchun kerakli uskunalar, qurol-yaroqlar, zargarlik buyumlari, qog`oz va boshqa buyumlar ishlab chiqarilgan.[1]

Savdo-sotiq jarayonlarida ishtirok etgan asosiy mahsulotlar quyidagilar edi:

- **Ichki savdoda:** bug`doy, arpa, paxta, meva-sabzavot, chorvachilik mahsulotlari (terilar, jun).
- **Tashqi savdoda:** ipak, zargarlik buyumlari, qurol-aslaha, gilam, ziravorlar, ba`zan qullar ham tovar sifatida sotilgan. Rossiya bozorlariga asosan paxta, ipak, teri va zargarlik buyumlari chiqarilgan.

Shaharlarda savdo faoliyati maxsus tuzilmalarga tayanib amalga oshirilgan:

**Bozorlar** – har bir shaharning markazida yirik doimiy bozorlari mavjud edi.

**Timlar** – karvonsaroylar sifatida xizmat qilgan, savdogarlar uchun xavfsiz joy bo`lgan.

**Bojxona punktlari** – har bir savdo yo`lining muhim joylarida tashkil etilgan bo`lib, soliq yig`imlari va hujjat nazorati olib borilgan. **Soliq tizimi** – savdogarlardan “bojo”, “zakot” kabi soliqlar undirilgan.

XVI–XIX asrlarda tashqi savdo siyosiy-diplomatik aloqalar bilan chambarchas bog`liq edi.

- Rossiya bilan savdo aloqalari ayniqsa XVIII asrdan boshlab kuchaygan.
- Xiva va Buxoroga Rossiya tomonidan diplomatik elchilar yuborilgan.
- Hindiston va Xitoy bilan savdo aloqalari karvon yo`llari orqali olib borilgan.
- Ba`zi hollarda elchilik karvonlari diplomatik missiyalar sifatida ham faoliyat yuritgan.

Savdoning rivojlanishi O`rta Osiyoning ijtimoiy hayotiga ham ta`sir ko`rsatdi:

- Savdo tufayli shaharlar kengayib, urbanizatsiya jarayoni kuchaydi.
- Savdogarlar tabaqasi kuchaydi, ular orasidan ko‘plab boylar, xayriyachilar chiqqan.
- Tillar, kiyim-kechak, din va urf-odatlar almashuvi tezlashdi.
- Madaniy va ilmiy almashinuvlar savdo orqali yoyildi, ayniqsa kitoblar, asarlar tarqalgan.

### **XULOSA**

XVI–XIX asrlarda O‘rta Osiyo shaharlaridagi savdo-sotiq iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotning asosi bo‘lgan. Savdo orqali nafaqat mahsulotlar, balki g‘oyalar, bilimlar va urf-odatlar almashuvi sodir bo‘lgan. Bugungi kunda ushbu tarixiy savdo aloqalari O‘rta Osiyoning boy madaniy merosi sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, bu davr tajribalari zamonaviy iqtisodiy aloqalar uchun tarixiy saboqlar bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

### **Adabiyotlar ro‘yhati**

1. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Том.12.– Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 158.
2. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. – Тошкент: Академия, 2008. – Б. 251-254.
3. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.Том.1. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2000. – Б. 390.
4. Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. – Тошкент: Академия, 2008. – Б.174.
5. Очилдиев Ф. Сурхон воҳаси бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ўзгаришлар (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б. 130.
6. Очилдиев Ф. Сурхон воҳаси бекликларидаги ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий ўзгаришлар... – Б.182-183.
7. Бобобеков Х. Қўқон тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 110-120.
8. Мадрахимов З.Ш. Қўқон хонлигида карвон йўллари // Таълим ва Тафаккур. – Наманган, 2008. – №5. – Б. 24-25. 9. Ходжиев Э. Ўрта Осиё Россия иқтисодий ва сиёсий алоқаларининг ривожланишида Тошкентнинг роли (XVII аср охири ва XIX асрнинг боши). – Тошкент: Фан, 1962. – Б. 28-29.

**LIFE OF MAHMUDKHOJA BEHBUDI AND HIS ROLE IN THE UZBEK  
JADID MOVEMENT**

**Zulfiya Ermatova,**

International Islamic academy of Uzbekistan  
2nd year student of the faculty of classical  
oriental philology

**Supervisor: Dilshodakhon Muminova,**

International Islamic Academy of  
Uzbekistan PhD, Associate Professor of the  
Department of Uzbek and foreign  
languages

**Annotation:** This article examines the pivotal role of Mahmudkhoja Behbudi in the Uzbek Jadid movement, shedding light on his educational initiatives and contributions to the national awakening. It highlights Behbudi's pioneering efforts in establishing new-method schools, his use of the press and drama as tools for enlightenment, and his promotion of multilingual education as a foundation for societal development. The article emphasizes that Behbudi's legacy of national identity, intellectual growth, and progress continues to serve as a powerful source of inspiration for today's youth.

**Keywords:** Mahmudkhoja Behbudi, Jadid movement, new-method schools, “Oyna” magazine, educational reform, dramaturgy, national identity.

Mahmudkhoja Behbudi stands as one of the leading figures of the Uzbek Jadid movement, known for his work as a writer, journalist, and publisher. Throughout his life, he devoted himself to the advancement of his nation, playing a crucial role in disseminating modern knowledge and progressive ideas across Central Asia. His tireless efforts not only propelled the enlightenment of the region but also turned him into a symbol of the broader national awakening.

Born in 1875 in Samarkand - a city renowned for its rich history and culture - Behbudi grew up in an environment that valued both religious and secular learning. His father, a respected qazi (judge), encouraged him to seek comprehensive knowledge. After receiving a traditional education in maktab and madrasahs, Behbudi quickly

recognized the shortcomings of the prevailing system, which relied heavily on rote learning. This realization sparked in him a thirst for more progressive educational models.

Travels across Russia, Turkey, and Egypt exposed Behbudi to modern schooling methods, particularly the new-method (Usul-i Jadid) schools flourishing in Turkey, Tatarstan, and Bashkortostan. These experiences expanded his worldview and reinforced his belief that education was the key to liberating his people from ignorance and backwardness. Understanding that meaningful reform must begin with education, Behbudi became one of the foremost champions of the Jadid movement, which sought to renew society through learning. He did not merely theorize about change—he acted decisively to bring it about. Behbudi criticized the inefficiency of traditional schooling, where memorization replaced true understanding, and led efforts to establish new-method schools where subjects like mathematics, geography, history, medicine, and other sciences were taught alongside religious studies. These schools fostered critical thinking and prepared students for the modern world. For Behbudi and the Jadids, education was not just a means of personal advancement; it was the foundation of national revival. They believed that by opening modern schools and nurturing an enlightened generation, they could reshape the nation's destiny. In addition to his educational endeavors, Behbudi grasped the transformative power of the press. In 1913, he founded Oyna magazine, which soon became the leading voice for Turkestan's Jadids. Oyna addressed a wide array of issues, from national concerns and social injustices to women's education and political reforms. More than just a publication, Oyna served as a mirror, reflecting the realities of society and encouraging self-awareness among readers. The magazine's influence extended far beyond Turkestan, reaching audiences in Tatarstan, the Caucasus, Afghanistan, Iran, Turkey, and Egypt. As Behbudi's disciple Haji Muin noted, “Oyna played a vital role in awakening the people, spreading its enlightening spirit across the region.” Through his writings, Behbudi consistently emphasized that a nation's future depended on education, intellectual empowerment, and unity. He also championed the education of women, believing that the progress of society hinged on the enlightenment of all its members.

Behbudi's contributions were not confined to journalism and education; he also left a lasting mark on Uzbek theater. His play Padarkush (“The Parricide”) tackled the destructive effects of ignorance, religious fanaticism, and societal stagnation. Through the tragic conflict between a father and son, Behbudi conveyed a powerful message:

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 02. Issue 04. April 2025**

that enlightenment was as essential to the life of a nation as water and air. The play resonated deeply with audiences, sparking critical reflection on the consequences of societal backwardness. Beyond his creative works, Behbudi wrote extensively about the linguistic needs of his society. He famously argued that the people of Turkestan should master multiple languages—Turkic for everyday communication, Persian for literature and religious study, Arabic for theological scholarship, and Russian for modern sciences and technology. This multilingual approach reflected Behbudi’s vision of a nation that was both rooted in tradition and open to the wider world.

Tragically, Behbudi’s efforts to promote enlightenment and national consciousness made him a target for Soviet authorities, who saw the Jadid movement as a threat to their control. In 1919, in Kokand, Behbudi was executed by Red Army soldiers—a brutal act that dealt a devastating blow to the nation’s intellectual life. Though his enemies silenced him, they could not extinguish the ideals he championed. Mahmudkhoja Behbudi’s life remains a testament to the enduring power of knowledge, perseverance, and a deep, abiding love for one’s nation.

**REFERENCES:**

1. Qosimov S. Behbudiy va jadidchilik. „O‘zbekiston adabiyoti va san’ati“, 1990.
2. <https://jadid.uz/jadids/mahmudxoja-behbudiy/>
3. Khalid, Adeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. University of California Press, 1998.
4. Erkinov, Aftandil. Print Culture and the Modern Muslim World: Central Asia, 1860-1920. Brill, 2015.

**Research Science and  
Innovation House**

## Hujayra membranasi tuzilishi va vazifasi.

**Andijon Davlat Pedagogika Insituti**

**Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti**

**Biologiya yo'nalishi 103-talabalari**

**Janibekova Yulduzxon**

**O'ktamboeva Malohat**

**Marufjonova Mohigul**

**Andijon Davlat Pedagogika Insituti**

**Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti**

**Biologiya o'qtuvchisi Yo'ldashev A.**

### **Annotatsiya**

Ushbu ilmiy ishda biologik membranalarining tuzilishi, kimyoviy tarkibi, membrana modellari, funksiyalari va hujayra faoliyatidagi o'rnini haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Ayniqsa, hayvon hujayrasidagi membrana tuzilmasi, selektiv o'tkazuvchanlik, membrana oqsillari va ularning rollari, shuningdek, membranalarining yangilanish jarayonlari tahlil etilgan. Ish biologiya, tibbiyot va biotexnologiya sohalarida ta'lim olayotgan talabalar hamda o'qituvchilar uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Hujayra membranasi, plazmatik membrana, fagotsitoz, pinotsitoz, hayvon hujayrasi, o'simlik hujayrasi.

Hujayra — barcha tirik organizmlarning tuzilma va funksional birligi bo'lib, uning normal faoliyati ko'p jihatdan membranalar orqali ta'minlanadi. Biologik membranalar hujayraning tashqi va ichki tuzilmasida muhim rol o'ynaydi, ular moddalar almashinuvini nazorat qiladi, signallarni uzatadi hamda hujayraning ichki muhitining barqarorligini saqlaydi. Biologik membranalar haqidagi bilimlar nafaqat biologiya, balki tibbiyot, biokimyo va biotexnologiya sohalarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ilmiy ishda biologik membranalarining tuzilishi, asosiy komponentlari, modellari, ularning hujayra hayotidagi vazifalari hamda yangilanish jarayonlari keng yoritilgan.

### **Hujayra membranasi.**

Hujayraning hamma membranalari uchun umumiy belgi o'rtacha qalinligi 6-10 nm bo'lib, lipoproteidlardan tuzilgan bo'ladi. Hujayrada uchlari ochiq membrana yo'q. Hujayra ichidagi membranalar turli bo'shliqlarni chegaralab, ularning ichki borlig'ini tashqi muxitdan ajratib turadi. Plazmatik membrana sitoplazmani o'rab olib, hujayra ichi strukturalarini tashqi muxitdan ajratib turadi. Hujayra ichi membranalari turli vakuolalarni hosil qiladi. Ko'pincha membrana bilan chegaralangan bo'shliqlar tarmoqlanib ketgan to'rlarni hosil qiladi, lekin shunda ham ular uzluksiz uchi yopiq membranaga ega bo'ladilar.

Har qanday prokariot va eukariot hujayraning asosi 3 narsadan tashkil topgan: tashqi apparat, sitoplazma, yadro apparati. Tashqi apparat hujayrani tashqi muhit va qo'shni hujayralar bilan aloqasini tahminlaydi va 3 ta asosiy vazifani bajaradi: to'siq, transport, retseptor.

Hujayraning tashqi apparati 3 subsistemadan: plazmatik membrana, membrana usti kompleksi va gialoplazmaning submembranali tayanch harakat sistemasidan iborat.

Ma'lumki, barcha tirik hujayralarning ichki muhiti tashqi muhitdan membrana orqali ajralib turadi. Shuningdek, hujayra organellalari, kompartmentlari (hujayra ichki qismlari) ham membrana bilan qo'langan. Membrana so'zi lotincha membrana yupqa parda degan ma'noni beradi. Plazmatik membrana hamma hujayralar uchun universal bo'lgan tuzilma. Plazmatik membrananing asosiy kimyoviy tashkil etuvchilari: oqsil (60%), lipid (40%) va uglevodlar (1%). Hujayra membranasi qalinligi o'rtacha 7 - 10 nm ga teng va u hujayrani tashqi muhitdan chegaralaydi, moddalarning tanlab o'tkazilishini ta'minlaydi hamda turli xil tashqi ta'sirlardan himoyalaydi.

Membranalarning o'tkazuvchanlik xususiyatini o'rganishga bag'ishlangan erta ishlarda organik erituvchilar: spirt, efir, xloroform membrana orqali suvdan tezroq o'tishi kuzatilgan. Bu esa membrana qutbsizlikka ega yoki boshqacha qilib aytganda tarkibida lipidlar borligi taxmin qilingan. Keyinchalik bu taxmin kimyoviy tahlil natijasida isbotlandi. Ma'lum bo'ldiki, membrana tarkibi deyarli faqat oqsil va lipidlardan iborat ekan.

1925 yilda Gorter va Grendellarning ishlari chop etilgan bo'lib, ular plazmatik membranani bilipid qavatdan iboratligini va ular bir-biriga gidrofob uchlari bilan qaraganligini aytadilar.

1935 yilda Danieli va Dausonlar membrana tuzilishining "Sendvich" modelini taklif qiladilar. Unga asosan plazmalemma ikki qavat lipid molekularidan tashkil topgan bo'lib, ular bir-biriga gidrofob uchastkalari bilan qaragan bo'lib, ularning tashqi gidrofil boshchalari yuzasi 2 tomondan oqsil molekulari bilan o'ralgan.

1959 yilda Robertson yig'ilgan ma'lumotlarni to'plab "Elementar membrananing tuzilishi" gipotezasini yaratadi va unda barcha biologik membranalar uchun umumiy bo'lgan tuzilishni ta'riflaydi:

1. Hamma membranalar 7,5nm ga yaqin kalinlikka ega.
2. Elektron mikroskopda 3 qavatlik tuzilishga ega.
3. Membrananing 3 qavatligi lipid qatlami ikki tomondan oqsil qavati bilan o'ralganligidan kelib chiqadi.

1970 yilda yaratilgan G. Vanderskiy va D.Gren tomonidan yaratilgan biomembranalarning oqsil-kristall tuzilish modeli esa membrana oqsil strukturalarining membrana faoliyatiga bog'liq holatdagi konformatsiyalari o'zgarishlarini to'laroq tushintirib berishga harakat qiladi.

1972 yilga kelib olimlar Singer va Nikolsonlar tomonidan universal "Suyuq mozaika modeli" taklif qilinadi. Bund qavat suyuq lipidlardan tashkil topgan bo'lib, lekin Dauson in Parmernarning Sendvich modelidan farq qilib oqsil molekulari lipid qavatining yuzasida emas. ularning orasida joylashadi.

Biomembranalar oqsil molekulari, lipidlar, suv va anorganik komponentlardan tashkil topgan. Oqsillar membrana lipid molekulari matrisida joylashish o'rniga ko'ra integral va periferik oqsillarga bo'linadi. Oqsillar gidrofob xususiyatiga ko'ra, alohida yoki lipid molekulasiga birikkan holda bo'ladi. Membrana kam bog'langan noelektrostatik, periferik oqsillar va lipidga bog'langan integral oqsillar fermentativ, modda va ionlar tashilishi, regulyator va struktura kabi funktsiyalarni ta'minlaydi.

Membrana oqsil molekulari uglevodlar bilan birikib glikoproteinlarni yoki lipidlar bilan birikib, lipo'roteinlarni hosil qiladi. Oqsillar hujayra quruq massasining 10-15% ni, lipidlar 25-75 % ni tashkil qiladi.

Membrana lipidlari 14-22 ta uglerod atomlaridan iborat bo'lib, fosfolipidlar, glikolipidlar va steroidlardan tashkil topgan. Fosfolipidlar molekulasida bosh qismi, ya'ni qutblangan gidrofil va gidrofob dum qismlar ko'rinishidagi ikki qismdan tashkil to'gan. Bosh qismi fosfor kislotasi qoldig'i, gidrofob qismi uglevodorodlar qoldig'idan tashkil topgan. Lipid molekulari hujayra membranasida qalinligi 3,5-4,0 nm bo'lib, ikki qavat hosil qilib joylashadi.

Suv membranada bog'langan, erkin va kam bog'langan formalarda bo'ladi.

Biologik membranalarning tuzilishi, unda biomolekulalarning joylanishi ko'p yillar davomida o'rganilib, ultrastrukturasi haqida bir qator ilmiy qarashlar vujudga kelgan. Membrana tabiatiga ko'ra juda murakkab tizim bo'lib, uning xususiyatlarini belgilash maqsadida turli xil modellar taklif qilingan. Bunda membrananing asosiy tarkibiy qismi fosfolipid va oqsil moddalardan iborat ekanligi va oqsil molekulalarining gidrofob qismi lipidlar tomonga, gidrofil qismi suv tomonga tortilib turadi.

Shuningdek fosfolipidlar membranada bir xil tarqalmagan bo'lib, xolin guruhiga ega bo'lganlari membrana tashqarisida, aminogruppaga ega bo'lganlari membrana ichkarisida joylashgan. Ba'zan lipid molekulalari bir qatlamdan ikkinchisi flip-flop yoki arg'imchoq sakrash orqali o'tishi kuzatiladi. Ikkita qatlamdagi lipid molekulalari tarkib jihatidan o'zaro farqlanadi, ya'ni fosfolipidlar ikki qatlamda assimetrik joylashgan.

Biomembranada joylashgan oqsil molekulalarining ion kanallari hosil qilish mexanizmlari, retse'tor oqsil molekulalari, lipid molekulalarining turlari va vazifasi kabi murakkab holatlar ilmiy jihatdan to'liq asoslab berilgan.

Hujayra membranasi qalinligi J.Robertson tomonidan taxminan  $75 \text{ \AA}$  ekanligi qayd etilgan va ko'gina tajribalar asosida bu ko'rsatkichning o'rtacha qiymati  $100 \text{ \AA}$  deb baholangan. Hujayra membranasi kimyoviy tarkibi va tarkibiy qismlarining o'zaro joylashish konformatsiyalari membrana faoliyati xususiyatlariga mos keladi. Elektron mikrosko'da kuzatilganda hujayra membranasi ikkita, qalinlik o'lchami o'rtacha  $20 \text{ \AA}$  ga teng bo'lgan qavatlar va ularning o'rtasida qalinlik o'lchami o'rtacha  $35 \text{ \AA}$  ga teng bo'lgan qavatdan tashkil to'ganligini ko'rish mumkin.

Hujayra membranasi elastiklik, qisqaruvchanlik, mexanik xossalari unda joylashgan oqsil molekulalarining holati bilan tushintiriladi.

Biomembranalar tanlab o'tkazuvchanlik, egiluvchanlik, qo'zg'aluvchanlik, fagotsitoz, energiya hosil qilish, retse'torlik kabi xossalarga ega.

Biomembranalar faol tizim bo'lib, u hujayraning tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlarini, turli xil moddalarni, jumladan ionlarni ichkariga kirishi va tashqariga chiqarilishini, gormonlar va molekulalarning bog'lanishini, fermentlar katalizlaydigandaning kechishini, elektr impluslarning hosil bo'lishi va o'tkazilishini ta'minlaydi. Har bir membrana o'ziga xos bo'lgan funktsiyani bajaradi. Umuman membranalarning strukturasi ma'lum vazifani bajarish uchun moslashgan bo'ladi.

Membranada tizimlar ikkita asosiy faza holatida bo'lishi mumkin:

1) qattiq ikki qatlamli kristall holat yoki gel holatida,

2) suyuq kristall holatda bo'ladi.

Ikkala holatda ham lipid fazasining ikki qatlamli strukturasi saqlanib qoladi.

Membrana harorati oshirilganda qattiq fazaning suyuq fazaga nisbati o'zgaradi. Membranani tashkil qilgan fosfolipidlarning yarim miqdori qattiq va ikkinchi yarmi suyuq bo'lgan holatni belgilaydigan harorat fazali o'tish harorati deyiladi. Bu harorat lipidlarning uglevodorod zanjiri uzunligi va uning to'yinish darajasiga bog'liq. Lipidlarning uglevodorod zanjirlarning uzunligi oshishi bilan fazali o'tish harorati ham oshadi va to'yinish darajasi kamayishi bilan bu harorat asayadi.

Fazali o'tishda sodir bo'ladigan o'zgarishlar asosida lipidlarning uglevodorod zanjirlarining fazoviy o'zgarishlari yotadi. Suyuq kristall holatdagi fazalararo o'tishda uglevodorod zanjirlari trans holatidan tartibsiz holatiga o'tishi sodir bo'ladi. Bunda bir lipid molekulasi egallaydigan yuzaning qiymati oshadi va uglevodorod qatlamining qalinligi kamayadi. Bunda tashqi qavatlar oqsil molekulalaridan va o'rtada joylashgan qavat ikki qator holatda joylashgan lipid molekulalaridan tashkil to'ganligi aniqlangan. Membrana tashqi tomonida joylashgan oqsil molekulalari yaxlit holatda emasliga sababli lipid molekulalari hujayra tashqarisida mavjud bo'lgan gidrofob xususiyatga ega moddalar bilan bevosita ta'sirlashadi. Buning natijasida esa suvda erimaydigan holatdagi moddalar membranadan bemalol lipid molekulalari qavatida erishi orqali o'ta oladi.

Hujayra membranasi tashqi tomonida joylashgan oqsil molekulalarining maxsus konformatsiyasidan hosil bo'ladigan ion kanallari orqali turli xil ionlar qat'iy tartibda, maxsus tanlovchanlik xususiyati asosida hujayra ichki muhitiga o'tkaziladi yoki tashqariga chiqarib yuborilishi amalga oshadi. Shu bilan birga membrana tashqi qismida joylashgan oqsil molekulalari membrananing ichki va tashqi qavatlarida joylashgan ferment tizimlari, ion kanallari, biologik faol moddalar bilan tanlovchanlik asosida ta'sirlashadigan retse'tor deb ataluvchi maxsus molekula tuzilmalarini tashkil etadi. Bu tuzilmalar faoliyati asosida hujayra tashqi muhit ta'sirotlarini qabul qiladi.

Hujayralararo aloqalar. Plazmatik membrana hujayralararo aloqada faol ishtirok etadi. Bunday aloqa ko'p hujayrali organizm hujayralari orasida sodir etadi. Embrional rivojlanish davrida hujayralar yuzasi bir biri bilan yopishib birikadi. Bunday birikish adgeziya deyilib, bunda 2 ta hujayra orasida 20 nm li bo'shliq hosil bo'lib, u glikokaliks bilan to'lib turadi.

Hujayralarni bir-biri bilan bog'lab turuvchi quyidagi aloqalar mavjud.

1. Oddiy aloqa 2 ta hujayralar orasida yuzaga kelib, orasidagi bo'shliq 15-20 nm tashkil etadi.

2. Qulfcha 1 ta hujayraning plazmolemmasi 2 chi hujayra plazmolemmasi ichiga botib kiradi.

3. Zich aloqa 2ta hujayraning membranalari bir-biriga maksimal yaqinlashgan bo'lib, ikkala hujayraning tashqi qavatlari o'zaro qo'shilib ketganday bo'ladi. Aloqaning tsitoplazma tomonida ko'pgina fibrillalar joylashadi. Bunday aloqa faqatgina hujayralarning zich aloqasini tahminlab qolmay, balki shu joylarda hujayraga moddalar kirmaydi, yahni hujayra tashqi muxitdan izolyatsiyalanadi.

4. Bo'shliqli aloqa. Membranalar orasidagi bo'shliq 25-30 nm ni tashkil etadi.

5. Desmosomalar- zich plastinkalar bo'lib, ulardan tsitoplazmaga qarab fibrill tolalari o'tgan bo'ladi.

6. Tirqishli aloqa. Membranalar orasidagi bo'shliq 2-3nm ni tashkil etadi. Membrana bo'ylab har 1-3 mkm da uchraydi.

7. Sinaptik aloqa. Neyronlar orasida xosil bo'ladi, nerv impulg'larini o'tkazish vazifasini bajaradi, nerv hujayralarining o'simalari orasida yuzaga keladi. Membranalar orasidagi bo'shliq sinaptik bo'shliq deyilad va 20-30 nm tashkil etadi. Hujayralarning biri presinaptik, impulg'sni qabul qiluvchisi postsinaptik deyiladi.

8. Plazmodesma- o'simlik hujayralarida uchraydi. Ingichka kanalchalar bo'lib, 2 ta hujayrani biriktirib turadi. Kanalchalar diametri 40-50 nm. Plazmodesmalar orqali bir hujayradan 2 chisiga moddalar harakat qiladi.

Plazmatik membrananing o'sishi. Hujayralar bo'linishidan so'ng yangi hujayralar o'sadi, hajmi ortadi va demak ularning membranasi ham kengayib o'sadi. Plazmolemmaning yuzasida doimiy ravishda lipid va oqsil molekulalarining yangilanib turishi kuzatiladi. Plazmatik membrana yangilanib turishi GA hisobiga amalga oshadi. GA hosil bo'lgan pufakchalar plazmatik membranaga kelib, bu yerda bir-biri bilan qo'shilib yangi membranani xosil qiladilar. Bu jarayon asosan plazmatik membrananing shikastlanishida ro'y beradi. Lekin, plazmatik membrana yangilanib turishi hujayraning xayot faoliyati davomida ham sodir bo'ladi. Hujayrada EPT da sintezlangan maxsulotlar GA o'tib, bu yerda kontsentratsiyalanadi va memembranaga o'raladi. Bu moddalar hujayradan ekzotsitoz yo'l bilan chiqariladi. Bunda vakuolalar plazmatik membranaga yaqinlashib ularning membranasi plazmatik membrana bilan qo'shiladi vakuol ichidagi mahsulot esa tashqariga chiqariladi. SHu hisobiga plazmatik membrana satxi kattalashadi.vhujayradan ekzotsitoz yo'l bilan chiqariladi. Bunda

membranaga yaqinlashib ularning membranasi plazmat ati bilan qo'shiladi vakuol ichidagi mahsulot esa tashqariga chiqariladi. SHu hisobiga plazmatik membrana satxi kattalashadi.

Ichkariga fagotsitoz yo'l bilan kirayotgan molekulalar hujayra yuzasiga kelib bu yerda plazmatik membrana bilan o'ralib ichkariga kiradilar va natijada plazmatik membrana xajmi kichrayadi.

Yuqorida aytib o'tilganlarni umumlashtirib biologik membranalarning quyidagi umumiy xususiyatlarini keltirish mumkin:

Hamma membranalarning umumiy kengligi 5-10 nm ni tashkil etadi.

Membrana lipoproteinli (oqsil+yog') tuzilma bo'lib, bahzi oqsil va lipid molekulalariga tashqi tomondan uglevod komponentlari birikadi. Membrana tarkibidagi uglevodlar 2%-10% tashkil etadi.

Lipidlar ulardagi qutbli boshchalar va qutbsiz oyoqchalari yordamida biqatlamni xosil qilib joylashadi.

Membrana tarkibidagi oqsillar turli tabiatga ega bo'lib, turli vazifani bajaradi.

Membrana yuzasidagi glikokaliks guruhi tanib olish xususiyatiga ega.


Membrananing tashqi va ichki tomonlari tarkibi va xususiyati jixatidan bir-biridan farq qiladi.

Plazmolemma hosilalari: mikrotukchalar, kirikchalar, xivchinlar.

Plazmolemma hosilalari: mikrotukchalar, ki'rikchalar, xivchinlar.

Hujayra tashqi apparatining submembrana tizimi faqat eukariotlarda bo'lib, unda 2 ta asosiy qism ajratiladi: periferik gialoplazma, tayanch-qisqarish sistemasi mikrofibrillar, mikronaychalar va skeletli fibrillyar tuzilmalar. Fibrillyar tuzilmalar deyarli barcha eukariot hujayralarda uchrab tayan vazifasini bajaradi.

**Research Science and  
Innovation House**



Hujayra qobig'ining tuzilishi.

Mikrofibrillyar tuzilmalar tarkibiga aktin, miozin, aktinin, tropomiozin oqsillari kiradi. Bu oqsillar membrana ostida mikrofilamentlardan iborat to'rnini xosil qiladi.

Tayanch-qisqarish tizimining yana bir komponenti mikronaychalar. Tarkibi 80% tubulin oqsilidan iborat. Mikrofibrillalar singari mikronaychalar o'zi yig'ilib va tarqalib turadigan tizim.

Mikrofibrillar va mikronaychalar plazmatik membrana o'simtalarini mikrovorsinkalar, kiprikcha, xivchinlarni xosil qilishda ishtirok etadi.

Hayvon hujayralari yuzasida ko'p uchraydigan o'simtalar mikrovorsinkalardir. TSitoplazmaning xosilalari bo'lib plazmatik membrana bilan o'ralgan bo'ladi. Qalinligi 100 nm. Ichak epiteliysining 1 ta hujayrasiga 3000 ta mikrovor. to'g'ri keladi. Mikrovorsinkalar orasidagi plazmatik membrana uchastkalari zich glikokaliks bilan to'lgan bo'lib shu joyda moddalar ichkariga so'riladi. Vazifasi oxirgacha o'rganilmagan, asosan so'rish maydoni hajmini kattalashtiradi.

Plazmatik membrana o'simtalarning yana bir ko'rinishi kiprikcha va xivchin. Plazmatik membrana bilan o'ralgan bo'lib, asosida bazal tanachasi bo'lgan mikronaychalardan tuzilgan. Diametri 200 nm. uzunligi 200 mkm. Kiprikcha 1 ta bo'lsa

xivchin deyiladi. Hayvon hujayralarida uchraydi, o'simliklarda erkak gametalarda xosil bo'ladi.

Har bir kiprikchanning asosida bazal tanacha joylashib, u hosil qilgan mikronaychalar kiprikchani ichini to'ldirib turadi. Har bir kiprikchani hosil qilishda 2 ta markaziy va 9 ta duplet periferik mikronaychalar ishtirok etadi. Mikronaycha devorlari 13 ta dimer tubulin oqsili globularidan tuzilgan. Dupletlarni markaziy mikronaychalar bilan dinein oqsilidan iborat tuzilma bog'lab turadi Bazal tanachani hosil qilishda 9 ta mikronaychalarning tripletlari ishtirok etadi.

Tashqi apparatning membranausti tuzilmalari. Plazmatik membrana usti yuzasida yuzaga keladigan tuzilmalar kiradi. Bulardan biri glikokaliks bo'lib, hayvon hujayralarida yaxshi taraqqiy etgan bo'lib, o'simlik hujayrasida ham uchraydi. Uning tarkibiga membrananing periferik oqsillari, glikolipidlar va glikoproteinlar kiradi. Glikokaliks tashqi muhit bilan aloqada bo'lgani uchun hujayra tashqi apparatning muhim retseptorlik vazifani bajaradi. Glikokaliksning tuzilishi har bir hujayra uchun muayyan bo'lib, takrorlanmaydi, shunga qarab hujayralar bir-birini tanib oladi. Ichak epiteliysi yuzasidagi mikrovorsinkalar orasida joylashgan glikokaliks hujayrausti hazm qilish jarayonida ishtirok etadi.

O'simlik hujayrasi qobig'ining kimyoviy tarkibi, hosil bo'lishi, tuzilishi, xususiyatlari. Hujayra tashqi apparatining membranausti tuzilmalariga shuningdek prokariot va o'simlik hujayralaridagi hujayra devori kiradi. Bu tuzilmalarning mahsuloti hujayraning o'zida sintezlanib plazmatik membrana yuzasiga chiqiladi. Bularning tuzilish printsiplari jelezobitonga o'xshaydi- elastik asosga karkas tolalar kirib turadi. Tarkibi polisaxaridlardan iborat. Hujayra devori faqat ximoya vazifasini bajarib qolmay, turgor holatni saqlaydi.

Hayvon hujayrasi organizmdan ajratib olinib, suvga solib qo'yilsa, biroz vaqtdan so'ng hujayra shishib yoriladi, chunki plazmatik membrana orqali ichiga suv kiradi. Organizm ichida bu xodisa ro'y bermaydi chunki u yerda hujayralararo suyuqlikdagi tuzlar konsentratsiyasi hujayra ichidagi konsentratsiyasiga yaqin Chuchuk suv havzalarida erkin yashovchi bir hujayrali organizmlar ham lizislanmaydi. Chunki doimiy ravishda hujayra nasosi qisqaruvchi vakuol ishlaydi. Izotonik muhitda yashovchi dengiz sodda hayvonlarida qisqaruvchi vakuol yo'q.

Agarda suvga bakteriya yoki o'simlik hujayrasi joylashtirilsa uning hujayra devori butun bo'lguncha lizislanmaydi. Agar maxsus fermentlar tahsir ettirib hujayra devori eritilsa, shu zahoti hujayra shishib yoriladi. Demak hujayra devori hujayra ichiga

ortiqcha suv kirishidan saqlar ekan. Hujayra ichiga suv kirgan maxalda hujayra devori taranglashib turgor xolat yuzaga keladi va ortiqcha suv kirishiga to'sqinlik qiladi. O'simliklarning hujayra devori 2 komponentdan tuzilgan:

Amorf gelsimon matriksi- polisaxaridlar bo'lmish gemitsellyuloza va pektindan iborat. Tolasimon komponent tsellyuloza tolalari

Hujayra devorining matriksi 60% ni, 30% tsellyulozadan iborat. Paxta tolasida tsellyuloza 90% Undan tashqari boshqa moddalar ham kiradi: lignin yog'ochlanishga olib keladi, kutin, suberin po'kak hosil qiladi, mum moddasi-ortiqcha suv bug'latishdan saqlaydi.

O'simlik hujayra devorining hosil bo'lishi. Matriksning amorf moddasi-pektin va gemitsellyuloza GA sintezlanib plazmatik membrana orqali ekzotsitotlanadi. TSellyuloza tolalari plazmatik membranada joylashgan maxsus fermentlarda sintezlanadi. 1-lamchi, 2-lamchi, 3-lamchi hujayra devori farqlanadi.

Hujayra bo'linishida xromosomalar ekvator tekisligida joylashgandan keyin mayda membranali pufakchalar xosil bo'lib hujayra markazida to'planadi. Ular bir-biri bilan hujayra markazidan boshlab chekalariga tomon qo'shila borib plazmatik membranagacha yetadilar. SHu tariqa hujayra plastinkasi xosil bo'ladi Hujayra plastinkasining markazi pufakchalar tarkibidri amorf modda bilan to'ladi Pufakchalarning kelib chiqishi GA bilan bog'liq. Plastinkaning chekkalarida tsellyuloza tolalari to'planadi. Shunday qilib o'sayotgan hujayra plastinkasi 3 qavatdan: markaziy o'rta plastinkadan(amorf modda), va 2ta periferik | lachmi devor (qobig')(gemitsel va tsell,) Plastinkani hosil qiladi Bo'linayotgan hujayra ishtirok etsa, lamchi devor yangi qiz hujayralar faoliyatidan hosil bo'ladi. hujayradan tashqarida plazmatik membrana ustida fermentlar ishtirokida tsellyuloza fibrillari sintezlanadi, shu tariqa 2 lamchi qobig' shakllanadi. Keyinchalik gemitsellyuloza moddasining o'rnini lignin egallab yog'ochlanish boshlanadi. 3 lamchi qobig' tsitoplazma periferik qismlarining qurib degeneratsiyaga uchrashi natijasida xosil bo'ladi. Zamburug' hujayrasining tashqi yuzasida tolasimon tuzilishga ega bo'lgan xitin moddasi bilan qoplangan. Undan tashqari zamburug' hujayra devor tarkibiga tsitoplazmda sintezlangan va hujayradan tashqariga chiqarilgan glikoproteidlar va turli oqsillar kiradi.

Bakteriya hujayralarining tashqi yuzasi polimer modda mureindan iborat. Bularni hosil qiluvchilar ham hujayra ichida sintezlanib hujayra tashqarisida shakllanadi.

SHunday xulosaga kelish mumkinki, eukariot va prokariot hujayralar tashqi yuzasida hosil bo'ladigan tuzilmalar kimyoviy tuzilishi va vazifasi jihatidan bir-biriga

yaqindir: ularning tarkibi asosan polisaxaridlar, ular hujayraning faoliyati natijasida xosil bo'lib, ularning tashqariga chiqarilishida membraning tuzilmalari ishtirok etadi. Bu belgilar glikokaliks va o'simlik va bakteriya hujayralaridagi hujayra devori kabi tuzilmalarini yaqinlashtiradi, bularning vazifasi ham bir xil: hujayra atrofida maxsus muhitni xosil qilish, yuzasida turli fermentlar joylashadi, retseptorlik vazifasini bajaradi. Lekin xayvon hujayrasidan farq qilib o'simlik va bakteriya hujayra devori qo'shimcha ravishda osmoregulyatorlik vazifasini bajaradi. Hayvon va o'simlik hujayralarning o'xshashligi hamda farqlari.

Tiriklikning tuzilish birligi hujayra ekan, albatta, uning tarkibi va tuzilishlari barcha tirik organizmlarda o'xshash bo'ladi. Shu jumladan, hayvon va o'simlik hujayralari tuzilishida o'xshashliklar ko'p. Bu o'xshashliklar yadro tuzilishida, sitoplazma orgonoidlarida va ko'payish usullarida yaqqol ko'rinadi. Ammo hayvonlar hamda o'simlik hujayralari o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

Hayvon hujayralari o'simlik hujayralariga nisbatan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

- 1) hujayralarning yuqori darajada ixtisoslashishi, ya'ni bir xil hujayralar funksiyasini ikkinchi xil hujayralar bajara olmasligi;
- 2) funksiyasidan kelib chiqib, hujayra shakllarining xilma-xil bo'lishi;
- 3) maxsus orgonoidlarni hosil qilish;
- 4) blastometrlar shakllanishi.

O'simlik hujayrasini asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

- 1) har bir hujayrada tashqi tayanch qavat hujayra qobi-g'ining mavjudligi;
- 2) doimiy vakuolli tizimning bo'lishi;
- 3) protoplastda maxsus organella mavjudligi; plastidalarning
- 4) ergastik (oziq moddalar, zararli mahsulotlar) moddalar to'planishi.
- 5) tirik hujayralarning qaytmas ixtisoslashishi va embrional holatda ikkilamchi o'zgarishga o'tishi;
- 6) kariokinezda sentriolaning bo'lmasligi va sitokinezda fragmoplastlarning hosil bo'lishi.

### **Xulosa:**

Yuqorida o'rganilgan ma'lumotlar asosida biologik membranalar hujayra faoliyatining barcha bosqichlarida hal qiluvchi rol o'ynashi aniqlandi. Ular hujayra va orgonoidlarni tashqi muhitdan ajratib turuvchi, selektiv o'tkazuvchanlikni ta'minlovchi

va turli signal uzatish jarayonlarida ishtirok etuvchi murakkab tuzilmalar hisoblanadi. Membranalarning asosiy komponentlari – lipidlar, oqsillar va uglevodlar bo‘lib, ularning bir-biri bilan o‘zaro ta’siri orqali membraning barqarorligi va funksional xilma-xilligi yuzaga keladi. Membrana modellari va yangilanish jarayonlari haqidagi bilimlar esa ilm-fan va amaliy tibbiyotda muhim yutuqlarga erishish imkonini beradi.

**Foydalangan adabiyotlar:**

- 1.S.To‘ychiyev, N.Toshmanov “Sitologiya, Embrologiya, Gistologiya”. “Yangi asr avlodi”,2005-yil. 197-b.
- 2.O.Mavlonov, T.Tilavov, B.Aminov. ”BIOLOGIYA” ”Odam va uning salomatligi”. ”O‘QITUVCHI” Toshkent 2019 184-b.
- 3.S.M.Mustafayev ”SITOLOGIYA” darslik. Toshkent 2020.168-b.
4. Abdulov I.A., Xalbekova X. “Hujayra biologiyasi”. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 2019.-250b.
5. Badalxo‘jayev I.B., Madumarov T. “Sitologiya”. Andijon, "Hayot" nashriyoti, 2019, -252 bet.
6. Abdulov I.A., Qodirova N.Z. “Sitologiya”. Uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 2014.-132b.
7. Rajamurodov ZT, Rajabov AL, “Odam va hayvonlar fiziologiyasi” Darslik, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Toshkent: “Tib kitob nashriyoti” 2010. 432 bet.
8. U.Z. Qodirov. “Odam fiziologiyasi” Toshkent. Abu ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti. 1996.
9. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.
10. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz).

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 02. Issue 04. April 2025**

<b>№</b>	<b>Maqola nomi va muallif(lar) F.I.SH.</b>	<b>Betlar</b>
1.	<b>BIOSFERA VA UNING CHEGARALARI HAQIDA TUSHUNCHALAR</b> To'raqulova Visola	<b>6-10</b>
2.	<b>Minnatdorchilikning bilvosita ifodalanishi va uning nutq jarayoniga ta'siri</b> Mirjalol Olimovich Ziyayev	<b>11-23</b>
3.	<b>"MUNOJOT" QISSASIDAGI MODERNISTIK TALQINLAR</b> Gulhayo Baxranova	<b>24-28</b>
4.	<b>ИЗМЕНЕНИЯ И РЕФОРМЫ В ОБРАЗОВАНИИ ДЛЯ ЛИЦ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ В УЗБЕКИСТАНЕ В 1941-1991 ГОДЫ</b> Галиев Салават Вильданович	<b>29-33</b>
5.	<b>HA'YKALTOROSHLIKDA KO'Z VA BURUN BO'LAGINI LOY, PLASTILIN YOKI GIPSDA ISHLASH</b> Djabbarov Dilshod Turdikulovich	<b>34-38</b>
6.	<b>MATEMATIKA FANIDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'QITISH USHLARINING TAQQOSLANISHI</b> Gadayev Doniyor Rajabovich	<b>39-43</b>
7.	<b>IKKI OTLIQ HA'YKAL TASNIFI</b> Axatova Zohira Aktam qizi	<b>44-49</b>
8.	<b>Gerontologiyada psixologik xizmatdan foydalanishning nazariy va metodologik asoslari</b> Razakova Rayxan Saylaubekovna. Ro'zmetova Mahbuba Xudoybergan qizi	<b>50-53</b>
9.	<b>Ota-onalik rollarining zamonaviy psixologiya fanidagi mohiyati</b> Razakova Rayxan Saylaubekovna Radjapova Dilnura Anvarbekovna	<b>54-57</b>
10.	<b>Bolalikda olingan ruhiy jaroxatlarning inson kelajak hayotiga ta'siri</b> Razakova Rayxan Saylaubekovna Matyoqubova Muslima Baxrombekovna	<b>58-61</b>
11.	<b>Oilalarda ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarining nazariy tahlili.</b>	<b>62-66</b>

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 02. Issue 04. April 2025**

	<b>Razakova Rayxan Saylaubekovna. Baxtiyorova Gulasalxon Oybek qizi</b>	
<b>12.</b>	<b>BOLA SHAXSIGA YO‘NALTIRILGAN TA‘LIM ASOSIDA ESTETIK TARBIYANING ESTETIK AHAMIYATI Ahunbabayeva Sh. Sh.</b>	<b>67-70</b>
<b>13.</b>	<b>BOSHLANG‘ICH SINFLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AMALIYOTDAGI TADBIQI Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna Tursunova Umida Xolmamatovna</b>	<b>71-76</b>
<b>14.</b>	<b>O‘QUVCHILARDA ETIKA VA AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH Buvrayev Akram Rustam o‘g‘li Aliboyeva Jamila Alim qizi</b>	<b>77-81</b>
<b>15.</b>	<b>KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARINING NUTQINI SHAKLLANTIRISHDA SINFDAN TASHQARI O‘QISH DARSLARNI TUTGAN O‘RNI Erkayeva Yulduz Bekmurodovna</b>	<b>82-86</b>
<b>16.</b>	<b>O‘z-o‘zini boshqarish jarayoni – psixologik muammo sifatida Iskandarov Erkinboy G‘ayrat O‘g‘li</b>	<b>87-91</b>
<b>17.</b>	<b>СИНТАКСИС ГОЛОСОВЫХ СООБЩЕНИЙ: ОСОБЕННОСТИ СПОНТАННОЙ РЕЧИ В МЕССЕНДЖЕРАХ Касимова Камила Махаммаджонова</b>	<b>92-95</b>
<b>18.</b>	<b>Oila mustahkamligini ta‘minlashda ayolning o‘rni Ruzimova Feruza Madrimovna</b>	<b>96-99</b>
<b>19.</b>	<b>GLOBALLASHUV VA GLOBALISTIKA. GLOB JARAYONLARNING SHAKLLANISH TARIXI Jabborova Sayyoraxon Muhammadqobilovna Usmonova Shohsanam Shavkatovna Nazirova Mahliyo Solihjon qizi Tursunboyeva Xonzoda Alisher qizi</b>	<b>100-105</b>
<b>20.</b>	<b>“OMMAVIY MADANIYAT”NING SHAKLLANISH TARIXI Jabborova Sayyoraxon Muhammadqobilovna Usmonova Shoxsanam Shavkatovna</b>	<b>106-111</b>

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 02. Issue 04. April 2025**

	<b>Nabijonova Mohlaroy Shavkat qizi Yo'ldashoxunova Marhabo Nurmuhammad qizi</b>	
<b>21.</b>	<b>GINGO BILOBA O‘SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI, TARQALISHI VA AHAMIYATI ABDUVOHIDOVA MARJONA ABDUSALIM QIZI</b>	<b>112-114</b>
<b>22.</b>	<b>MATERNAL STRESS AND OFFSPRING PANCREATIC PROGRAMMING: MORPHOLOGICAL, METABOLIC, AND IMMUNOLOGICAL DIMENSIONS Umerov A.A, Niyozov N.Q</b>	<b>115-117</b>
<b>23.</b>	<b>Организация деятельности с неуспевающими детьми. Д. У. Атаджанова</b>	<b>118-121</b>
<b>24.</b>	<b>Takomillashmagan zamburug‘larning umumiy tavsifi, asosiy vakillari ERGASHEVA GULCHIROY RO‘ZIMUHAMMAD qizi</b>	<b>122-125</b>
<b>25.</b>	<b>KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH TIZIMINING ELEMENTLARI Jabborova Sayyoraxon Muhammadqobilovna Usmonova Shohsanam Shavkatovna Sodiqova Dilshoda Murodulla qizi Solijonova Shaxzoda Kamoldin qizi</b>	<b>126-133</b>
<b>26.</b>	<b>KORRUPSIYA VA KORRUPSIYAVIY HUQUQBUZARLIKNING MOHIYATI, KELIB CHIQUISHI VA UNING ASOSIY KO‘RINISHLARI Jabborova Sayyoraxon Muhammadqobilovna Usmonova Shohsanam Shavkatovna Maxmudov Farhod Faxriddin o‘g‘li Mirzayeva Marjona Ilhomjon qizi</b>	<b>134-140</b>
<b>27.</b>	<b>МАТЕМАТИК СТАТИСТИКА ELEMENTLARI Rahmatjonova Zarina Elyorbek qizi</b>	<b>141-145</b>
<b>28.</b>	<b>ОПИСАНИЕ, СИСТЕМАТИКА, РАСПРОСТРАНЕНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙСТВА САДОВЫХ Latipova Dilshoda</b>	<b>146-148</b>
<b>29.</b>	<b>BOLALARNING MAKTAB TA‘LIMIGA TAYYORGARLIGIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR Karimova Sarvinoz Xamidilo qizi.</b>	<b>149-153</b>
<b>30.</b>	<b>BOLALARNI MAKTABDA TA‘LIM OLISHGA TAYYORLIGINI TASHXISLASH USULLARI.</b>	<b>154-156</b>

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 02. Issue 04. April 2025**

	<b>Manabjonova Mahliyo Mansurjon qizi</b>	
<b>31.</b>	<b>BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING O'RNI.</b> <b>Rahmonova O'rinoy Lutfiddin qizi</b>	<b>157-160</b>
<b>32.</b>	<b>ADDEKTIV AXLOQ VA UNING PSIXOLOGIK JIHATLARI.</b> <b>Rajabboyev Asror Alisherovich</b>	<b>161-165</b>
<b>33.</b>	<b>BXSR VA XXSR HUKUMATLARINING VAQF SOHASIDA OLIB BORGAN SIYOSATI</b> <b>Hazratov Suhrob</b>	<b>166-168</b>
<b>34.</b>	<b>BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH METO'DIKASI.</b> <b>Odilova Mohlaroy Dilmurod qizi</b>	<b>169-173</b>
<b>35.</b>	<b>BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH METO'DIKASI.</b> <b>Odilova Mohlaroy Dilmurod qizi</b>	<b>174-177</b>
<b>36.</b>	<b>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA JISMONIY TARBIYANING AHAMIYATI.</b> <b>Abduvaliyeva Durdona Muhammad Ali qizi</b>	<b>178-181</b>
<b>37.</b>	<b>BOLANI MAKTABGA TAYORLASH AQLIY, AXLOQIY TAYYORLASH.</b> <b>Muhammadaminova Muslima Abdumumin qizi</b>	<b>182-184</b>
<b>38.</b>	<b>BOLALARNI MAKTABGA TAYORLASH TIZIMLARINI SHAKILANTIRISH.</b> <b>Obidjonova Ozoda Odiljon qizi</b>	<b>185-187</b>
<b>39.</b>	<b>O'RTA OSIYO SHAHARLARIDA XVI–XIX ASRLARDA SAVDO-SOTIQ JARAYONLARI</b> <b>Nortojoyev Jamshidbek</b>	<b>188-190</b>
<b>40.</b>	<b>LIFE OF MAHMUDKHOJA BEHBUDI AND HIS ROLE IN THE UZBEK JADID MOVEMENT</b> <b>Zulfiya Ermatova,</b> <b><i>Dilshodakhon Muminova</i></b>	<b>191-193</b>
<b>41.</b>	<b>Hujayra membranasi tuzilishi va vazifasi.</b> <b>Janibekova Yulduzxon</b> <b>O'ktamboyeva Malohat</b> <b>Marufjonova Mohigul</b>	<b>194-205</b>

	<b>Yo’ldashev A.</b>	
<b>42.</b>	<b>MUNDARIJA</b>	<b>206-209</b>



**Research Science and  
Innovation House**